O‘ZBEKISTON DAVLAT
JAHON TILLARI UNIVERSITETI

"O‘ZBEKISTONDA XORIJIY TILLAR"
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

“MADANIYATLARARO ASPEKTDA SHARQ TILLARINI O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI”

Ilmiy–amaliy onlayn konferensiya

“ВОПРОСЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ВОСТОЧНЫХ ЯЗЫКОВ В МЕЖКУЛЬТУРНОМ АСПЕКТЕ”

Научно-практическая онлайн конференция

“ISSUES OF TEACHING ORIENTAL LANGUAGES IN AN INTERCULTURAL ASPECT”

Scientific and practical online conference

24 MAY, 2022, TOSHKENT, O‘ZBEKISTON

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI
XITOY FILOLOGIYASI KAFEDRASI

“MADANIYATLARARO ASPEKTDA SHARQ TILLARINI O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI” MAVZUSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI **TO‘PLAMI**

Toshkent, 24-may, 2022-y.

Mas’ul muharrir: Xitoy tili nazariyasi va amaliyoti kaferdrasi mudiri, PhD **Sh. E. Xakimova.**

Tahrir hay’ati: Xitoy tili nazariyasi va amaliyoti kaferdrasi o‘qituvchisi **M.A. Nurmuxamedova.**

Ushbu to‘plamda e’lon qilingan ilmiy maqola va tezislar mazmuni uchun O‘zDJTUning Xitoy tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi mas’ul.

Toshkent – 2022

DOI: 10.36078/1653410390

MUNDARIJA

Abdullayeva N.B. Xitoy tili va o‘zbek tillari fonetika tizimida mavjud fonetik birliklar	**6**
Aliyeva D.X. Xitoy tilidagi sonlarning lingvokulturologik mazmunini o‘qitish metodlari	**10**
Aliyeva D.X. Xitoy tilida sonlarning lingvokulturologik klassifikatsiyalanishi	**15**
Алимджанова А.С. Инглиз тили дарсларида миллий адабиётлардан фойдаланиш	**21**
Букреева Т.А. Сравнительный анализ использования медиаконтента на уроках китайского языка на примере онлайн- и видеоуроков	**28**
Dong Lina 对外汉语教学中本土化教材的探索与实践	**32**
Дадаханова Р.Б. Проблема разграничения гуаньюнъюй и сложного слова	**36**
Дана Камилла А. Восприятие человека и природы в миниатюрах Сюй Дишаня	**43**
Ergasheva L.M. Xitoy va o‘zbek tillarida kauzativ konstruksiyalarning ishlatilishi	**49**
Ermatova T.Z. Xitoy tilshunoslarining sinonimiya hodisasi haqidagi ishlari tahlili	**53**
Fayzullayeva M.Q. Xitoy tilida tabu va evfemizmlar	**56**
Ismailova Sh.Sh. Teaching methods of oriental languages for kindergarten age childrent (in the example of chinese-**中文)**	**62**
Ismoilova D.Sh. Qoraxitoy davlatining (西辽 xiliao) jin sulolasi bilan munosabatlari	**66**
Israilova M.I. Xitoy tilida yo‘nalishni ifodalovchi yordamchi to‘ldiruvchilarning gapda qo‘llanilishi va tarjimadagi muammolari	**70**
Irgasheva U.A. Baho kategoriyasining semantik xususiyatlari	**74**
Ikromova K.X. Hozirgi zamonaviy xitoy tilida kino sohasiga oid leksikaning affiksatsiya usulida yasalashi	**81**
Jabborova A.A. O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning 30 yilligi, hozirgi holati va istiqbollarining ayrim jihatlari yuzasidan	**84**
Jumamurodova M.YU. Xitoy va o‘zbek maqollarining semantik tahlili	**88**
Jumanazarova YU. Xitoy tilida sonlarning lingvokulturologik xususiyatlari	**92**

DOI: 10.36078/1653410390

Karimov A.A. Theoretical views of foreign scientists on negation in chinese	**97**
Matyakubov.I Xitoy tarixida an lushang, shi chao – yi qo‘zg‘olonlarining didaktik ahamiyati	**105**
Mamadaliyeva G.A. Xitoy lingvomadaniyatida kommunikativ rahbarning statusi va aloqa xususiyati (xitoy aforizmlari misolida)	**115**
Mamadaliyeva G.A. Xitoy tilida aforizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	**120**
Mamatqulova N.G‘ Xitoy tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi	**126**
Mavlyanova U. 现代汉语语音部分中“数字”概念的本质	**129**
Muslixiddinova R. Yoshlarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishda Alisher Navoiy asarlarining o‘rni	**133**
Назирова Ш.М. Хитой тармок адабиётида ижод килган аёл адибалар	**135**
Назарова С.А., Курбанова Н.Х. Межъязыковая интерференция на материале фразеологических единиц китайского и узбекского языков	**141**
Насирова С.А. Диахронический анализ терминов древнего китайского языка (на примере системы управления чиновниками)	**147**
Нурмухамедова М.А. Влияние просодических доминант анализируемых языков на процесс фоноварьирования	**153**
Рахмонбердиева М. И. Особенности преподавания китайского языка в период пандемии covid-19	**159**
Raxmatullayeva D. Xitoy tilini o‘qitishda fonetik interferensiyani bartaraf etish bo‘yicha metodik tavsiyalar	**166**
Ro‘zumova G.M. Xitoy va o‘zbek tillarida so‘roq olmoshlarining ritorik so‘roq gapda qo‘llanilishi va farqli jihatlari	**173**
Рузибаева А.З. Использование передового зарубежного опыта в преподавании китайского языка в Узбекистане	**177**
Saydalieva N.F. Xitoy tilini o‘qitish jarayonida yozma tarjima kompetensiyasini shakllantirishda modul va interfaol usullardan foydalanish: zamonaviy interfaol usullarni dars o‘tish jarayonida va amalda qo‘llash	**181**
Saydanova K.S. Hozirgi xitoy tilida fonetik o‘zlashmalar	**190**
Собиров Э.Д. Три основных источника силы когурё	**196**
Султанова Л.А. Формирование китайской медицинской терминологии (**中医 –** zhōngyī)	**199**
Тўраева Б.Б. Композиция унсурларида хронотопнинг бадиий талқини	**205**

DOI: 10.36078/1653410390

Тураева Ф.Б. Характерные особенности детской тематики в произведениях Се Бин Синь	**211**
Тю Тхи К.З. Неразрывные связи между языком и культурой	**215**
Xakimova SH.E. Xitoy ismlari va ism berish an'anasi	**225**
Xursanova F.F. Xitoy matbuotida keng tarqalgan ifoda shakllari va ularning sitsiolingvistik tahlili	**231**
Xursanova F.F. Ommaviy axborot vositalari eshittirishlari tarjimasining axborot uzatish funksiyasi haqida	**236**
Хошимова С. Этнокультурные константы концепта «гостеприимство» в узбекской и китайской фразеологии	**241**
Юнусова Н. Синхрон таржимада ўқитишнинг психологик аспектлари	**245**
G'iyosova M.B. Xitoy tilini o'qitishda zamonaviy interfaol usullarining ahamiyati	**250**
Шамсиева Ш. Маданиятлараро тўсиқлар ва уларнинг турлари	**253**
Shamansuorov. Sh. "**多与少**" 动前对称和不对称的现象语义特点	**260**
Шасаидова Л.Ш. Хитой тили таълимида замонавий ёндашувлар	**269**
刘雪梅. 用汉语讲好乌兹别克斯坦国的故事	**274**

DOI: 10.36078/1653410390

XITOY TILI VA O‘ZBEK TILLARI FONETIKA TIZIMIDA MAVJUD FONETIK BIRLIKLAR

Nuriya Baxodir qizi ABDULLAYEVA
Xitoy tili nazariyasi va amaliyoti
kafedrasi o‘qituvchisi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada xitoy tili va o‘zbek tili fonetika tizimining tuzilishini, har bir tildagi o‘ziga xos xususiyatlarini, xitoy tilida ham o‘zbek tilida ham fonetika tizimining segment va supersegment elementlardan tashkil topganini ko‘rib, o‘rganib chiqish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Kalit so‘zlar: Fonetik birliklar, segment elementlar, supersegment elementlar, iyeroglif, tovush, bo‘g‘in, urg‘u, ohang, ton.

Abstract. In this article you will have the opportunity to study the structure of the phonetic system of Chinese and Uzbek, the peculiarities of each language, the fact that the phonetic system in both Chinese and Uzbek consists of segment and supersegment elements.

Keywords: Phonetic units, segment elements, supersegment elements, hieroglyphs, sounds, syllables, accents, intonation, tone.

Inson o‘z ona tilisidan tashqari yana boshqa chet tilini ham o‘rgansa dunyoqarashi keng, fikrlari teran bo‘ladi. Shunday ekan har bir inson o‘z ona tilisidan tashqari, boshqa chet tillarini ham o‘rganishi kerak. Chet tilini o‘rganishni boshlagan inson avvalo o‘zining, ona tilisining grammatikasini yaxshilab o‘rganib, keyingina boshqa chet tilini o‘rganishga kirishsa bo‘ladi.

Mazkur maqolada biz xitoy tilini va o‘zbek tilini fonetika tizimiga batafsil to‘xtalib o‘tamiz. O‘zbek tilidagi fonetika tizimi asosiy ikki – segment va supersegment elementlaridan tashkil topgan. Ularning tarkibidagi fonetik birliklar (tovush, bo‘g‘in, so‘z, gap, takt) va fonetik vositalar (urg‘u, ohang (intonatsiya)) o‘zaro bir-biri bilan ipsiz bog‘langan bo‘lib, doimo birga keladi. Tilimizda talaffuz qilayotgan fikrlarimizning hammasi fonetik birliklardan, ya’ni so‘zlar va gaplardan tashkil topgan. Urg‘u va ohang kabi fonetik vositalar bo‘lmaganida esa, bir xil yoziluvchi va talaffuz qilinuvchi, ammo boshqa-boshqa ma’nolarni anglatuvchi so‘zlarni bir-biridan ajratib bo‘la olmas edi.

DOI: 10.36078/1653410390

Xitoy tili fonetika tizimining asosini ham segment va supersegment elementlari tashkil etib, ular o‘z navbatida fonetik birliklar va vositalardan iborat.

Xitoy tilida fonetik birliklarning o‘zbek tili fonetik birliklaridan biroz farq qiluvchi tomonlaridan biri bu xitoy tilida harflar bo‘lmasligidir. Harflar o‘rniga xitoy tilida iyerogliflar ishlatiladi. Iyerogliflar bu qadimgi yozuv bo‘lib, u o‘zining dastlabki tuzilishini deyarli saqlab qolgan yozuvlardandir. Bitta iyeroglif bitta bo‘g‘inga to‘g‘ri keladi, so‘zda nechta bo‘g‘in bo‘lsa, shuncha iyeroglif bo‘ladi.

Xitoy tili fonetik vositalarining o‘zbek tilidan farq qiluvchi tomoni bu – unda yana bitta vosita, ya’ni ton vositasining mavjudligidir. Ko‘pchilik o‘quvchilar ton bilan ohangni adashtirishadi. Lekin ton va ohang bu umuman bir-biridan farq qiluvchi vositalardir. Ton bu faqat xitoy tiligagina xos bo‘lgan holat hisoblanadi.

Xitoy tilida ham segment va supersegment elementlari eng muhim birlik va vositalar hisoblanib, ularning biri ikkinchisisiz kela olmaydi.

O‘zbek o‘quvchilari xitoy tilini o‘rganishga kirishganlarida avvalo fonetika jabhasidan boshlaydilar, keyin esa bosqichma-bosqich keyingi jabhalarni o‘rganishga kirishadilar.

Endi quyida o‘zbek tili fonetikasining birliklariga to‘xtalsak.

Biron bir obyekt titrashga uchragach, atmosferada to‘lqin hosil qilib, keyin inson yoki hayvonlarning qulog‘iga ovoz tariqasida yetib boradi.

Har bir ovoz o‘zining talaffuziga, ovoz balandligiga, ovoz kuchiga, ovoz o‘lchoviga, tembriga ega.

1) Ovoz balandligi – ovozning baland yoki past talaffuz qilinishi demakdir;

2) Ovoz kuchi – ovozning kuchli yoki kuchsiz talaffuzi bilan farqlansa;

3) Ovoz o‘lchovi – ovozning uzun yoki qisqa talaffuzini bildirib;

4) Ovoz tembri – to‘lqin tebranishi formasining har-xilligi tufayli yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ovoz tembri ovozning chiqishi, talaffuz usuli va formasiga bog‘liqdir.

Turli tillar fonetikasi tuzilishiga ko‘ra til xususiyatlari turli ketma-ketlikda keladi.

Masalan, xitoy tili ohangga ega bo‘lgan tildir. Til sistemasida ovoz balandligi, ovoz tembridan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Lekin ingliz tili urg‘uga ega bo‘lgan til bo‘lgani uchun unda ovoz balandligi ovoz kuchidan keyingi o‘rinda turadi.

Inson talaffuz qilayotgan har bir so‘z ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar oqimidir. Agarda, xitoy tilini fonetik jihatdan olib analiz qiladigan bo‘lsak, bir-biriga o‘xshamas har-xil fonetik birliklarga duch kelishimiz mumkin:

DOI: 10.36078/1653410390

• Bo‘g‘in – til tarkibidagi eng kichik sodda ko‘rinishga ega bo‘lgan bo‘lakdir. Eshitganda uni juda oson ilg‘ab olish mumkin. Masalan, (学习) (Xuexi) ikki bo‘g‘in, ikki ma’noli qismga ega. Xitoy tilida bitta iyeroglif – bu bitta bo‘g‘in demakdir.[1]

Xitoy tilida bo‘g‘in asosan bitta unli, bitta undosh va bitta ohangdan iborat bo‘ladi. Undosh harflari bilan boshlanuvchi bo‘g‘inlar undosh harfli so‘z deyiladi va bunday so‘zlar xitoy tilida 400 dan ortiqni tashkil qiladi. Bo‘g‘inlarning bir-biriga o‘xshamasligi, bo‘g‘inlar sonining ko‘pligi, ohanglarning mavjudligi kabi xususiyatlari bilan xitoy tili boshqa tillardan tubdan farq qiladi.

Mazkur tilda bo‘g‘in va fonema o‘zaro bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ko‘p hollarda fonema va bo‘g‘inlar bir xil bo‘ladi. Ba’zida esa bir bo‘gin bitta so‘zga teng bo‘ladi.

Masalan, “xue” “学” so‘zi bu ham fonema, ham so‘zdir. U “xuexi” “学习” so‘zi tarkibida bir fonema shaklida keladi, ya’ni yasama so‘z bo‘lib kelmoqda. “xue hanyu” “学汉语” birikmasi tarkibida esa mustaqil so‘z bo‘lib kelmoqda. Yonidagi so‘zga qo‘shilib so‘z birikmasi bo‘lib, to‘ldiruvchi vazifasini ham bajarmoqda.

• Fonema – bu bo‘g‘indan keyinggi o‘rinda turuvchi birlik. U – tembrning analiz qilinishi natijasida kelib chiqqan tushunchadir.

Fonemani ovoz turiga ko‘ra ikki katta guruhga, ya’ni unlilar va undoshlar guruhiga bo‘lishimiz mumkin. Unlilarning barchasi ohang ko‘rinishidagi tovushlardir. Bunday tovushlar hosil bo‘lgach, o‘g‘iz bo‘shlig‘ida hech qanday to‘siqqa uchramasdan talaffuz qilinadi. Ularga misol qilib a , e , o , i kabi tovushlarni olishimiz mumkin.

Undosh tovushlar esa hosil bo‘lgach og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchrab talaffuz qilinadi. Bunday tovushlarning ko‘pchiligi ohangdor tovushlar hisoblanmaydi va talaffuz jarayonida tebranishlar yuz bermaydi. Masalan, b , p , f ;kam sonli undoshlar talaffuzida ham tebranish bo‘lishi mumkin, unga misol qilib m , n tovushlarini olsak bo‘ladi. Xitoy tilida bo‘g‘in boshida kelgan undosh tovushi-Shengmu deb ataladi. Unli bilan boshlanganlari esa-Yunmu deyiladi. Demak, xitoy tilida so‘zlar yunmu, shenmu va ohanglardan iborat bo‘lar ekan. Xitoy tilida umumiy hisobda 21 ta shengmu mavjud.

• Tovush holati (o‘rni) – bu til markazida ma’noni farqlashga yordam beradigan eng kichik birlikdir. Masalan “ba” “拔” va “pa” “爬” bu har ikki so‘zda unli harf bir xil, ya’ni – a, ohang ham bir xil. Lekin bir-biridan farq qiladigan tomoni shundaki, ular

[1]黄伯荣,廖序东.《现代汉语》,上海教育出版社，1997 年版，95 页。

DOI: 10.36078/1653410390

ma’noda va undosh harflarining alifbo tartibida joylashish o‘rni bilan farqlanadi. Yana masalan, da (搭), dai(呆), dan (单), dang (当), dian (颠) kabi so‘zlar tarkibida hammasida a unlisi mavjud.[2] Lekin bu beshta so‘zning tarkibidagi a tamoman bir xil emas,ya’ni talaffuz qilish jarayonida har xil organlarda, holatlarda talaffuz qilinadi. Masalan, birinchi so‘zda a tovushi til o‘rtasida talaffuz qilinmoqda; keyingi so‘zlar dai va dan tarkibidagi a tovushi til oldi; dang so‘zida esa til orqa; va nihoyat eng oxirgi dian so‘zida esa til oldi va baland tembrda talaffuz qilinmoqda. Bo‘g‘in bu tilning asosiy strukturaviy tuzilishiga ega bo‘lgan birligidir. Insonlar eshitish va talaffuz qilishda muskullar yordamida bo‘g‘inni juda oson farqlashadi.

Bundan tashqari yana bo‘g‘in til oqimi ichida eng tabiiy ko‘rinishga ega bo‘lgan birlikdir. Bo‘g‘in asosan bir bo‘g‘inli, ikki bo‘g‘inli, uch bo‘g‘inli va eng ko‘pi bilan to‘rt bo‘g‘inli bo‘lishi mumkin. Erhua tilidagi talaffuzdan boshqa barchasida asosan bir fonema – bu bir so‘zga to‘g‘ri keladi. Xitoy tili asosan bitta undosh, bitta unli va ohanglardan tashkil topgan bo‘ladi.

O‘zbek o‘quvchilariga xitoy tilini o‘rgatayotganda o‘z ona tillarining bor imkoniyatlaridan keng foydalanish kerak, ya’ni o‘zbek tili grammatikasi va xitoy tili grammatikasini o‘zaro solishtirgan holatda o‘rgatilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bunda natija yanada tezroq erishishga muvaffaq bo‘linadi.

O‘zbek o‘quvchilariga xitoy tilini o‘rgatayotganda quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

- Xitoy tili va o‘zbek tili grammatikasida o‘xshashliklar bo‘lishi mumkin, ammo undosh tovushlarida o‘zaro bir-biridan birmuncha farq qiladigan tomonlari mavjud;
- Xitoy tili va o‘zbek tili fonetikasi sistemasida ba’zi undosh tovushlari talaffuzining o‘zaro o‘xshashligi.

Chet tilini o‘rganishni boshlagan talabalarning ko‘pchiligi asosiysi segment elementlarini tanib olsam bo‘ldi, shunda bemalol so‘z taniy olaman va so‘zlasha olaman deyishadi. Lekin bu noto‘g‘ri fikr, chunki asosiy elementlarni o‘rganib, lekin ularni qanday bir-biriga bog‘lash, o‘xshash so‘zlarni bir-biridan farqlashni o‘rganishmasa tushunmovchiliklar kelib chiqishi hech gap emas.

[2]邵敬敏.《现代汉语》,上海教育出版社,2001 年版, 90 页。

DOI: 10.36078/1653410390

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 邵敬敏.《现代汉语》,上海教育出版社,2001 年版。
2. 黄伯荣,廖序东.《现代汉语》,上海教育出版社，1997 年版。
3. Китайско-русский словарь./Под ред. Ся Чжунъи.. Москва, 2003.
4. Спешнев Н.А..Фонетика китайского языка. Ленинград, 1980. 143 с.
5. Задоенко Т. П. Основы китайского языка. Вводный курс / Т. П. Задоенко, Шуин Хуан. М.: Наука, 1993. 271 с.
6. Рахматуллаева, Д. М. (2021). 浅谈汉语声调教学问题. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 1), 344-348.
7. Назарова, С. А. (2016). Проблема формирования лексической компетенции студентов в процессе обучения китайскому языку в научно-методической литературе. *Преподаватель XXI век*, *3*(1), 93-99.
8. Yusupova, K. S. (2020). On the modern word formation methods in chinese. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, *9*(12), 36-42.

XITOY TILIDAGI SONLARNING LINGVOKULTUROLOGIK MAZMUNINI O‘QITISH METODLARI

Diyoraxon Xoshimjon Qizi ALIYEVA
Lingvistika (xitoy tili) 2-bosqich magistranti
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ilmiy rahbar: PhD Shamsiyeva Sh. Q.

Annotatsiya. Mazkur maqolada birinchi marta xitoy tilidagi son turkumiga oid so‘zlarning lingvokulturologik mazmuni metodika bilan bog‘lab o‘rganildi va uni o‘zbek o‘quvchilariga o‘qitish bo‘yicha tegishli tavsiyalar berildi. Maqolada xitoy tilidagi sonlarni o‘qitishda to‘rtta samarali metod-usul tanlab olindi va har bir usul misollar yordamida tarkiban boyitildi.

Kalit so‘zlar: son, lingvokulturologik mazmun, metod, tasniflash, qiyosiy tahlil, qo‘shincha qilish va amaliy muloqot metodlari.

 DOI: 10.36078/1653410390

Annotation. For the first time in this article, the linguaculturological content of words in the Chinese numeral series has been studied in connection with the methodology, and relevant recommendations have been given for teaching it to Uzbek students. The article selects four effective methods for teaching numbers in Chinese, and each method is enriched with examples.

Key words: number, linguacultural content, method, classification, comparative analysis, addition and practical communication methods.

Son-soʻzlarni oʻrgatish xitoy tilini chet tili sifatida oʻrgatishning muhim qismidir. Lugʻat tarkibidagi son soʻz turkumiga oid soʻzlar nafaqat raqamlarni ifodalaydi, shuningdek, ular turli darajadagi koʻchma maʼnolarga va lingvokulturologik mazmunga ham ega. Sonlardan tuzilgan soʻzlar boy maʼnoga ega boʻlgani uchun, ayni shu jihat xitoy tilini oʻrganuvchilar uchun qiyinchilik ham tugʻdiradi. Shuning uchun ham xitoy tilini oʻqitishda metodlarning ahamiyati kattadir.

Xitoy tilidagi sonlarning lingvokulturologik mazmunini quyidagi metodlar bilan oʻqitish maqsadga muvofiq:

1. Tasniflash usuli (klassifikatsiyalash usuli)

Xitoy tilidagi elemantar raqam-soʻzlarni oʻrgatish mutlaqo murakkab emas, chunki oʻquvchilar uchun haqiqiy miqdorni ifodalovchi leksik maʼnoli soʻzlarni oʻzlashtirish qiyin kechmaydi. Ammo sonlar koʻchma tushunchani anglatsa, bu oʻquvchilarga muayyan qiyinchilik tugʻdiradi. Shuning uchun ham xitoy tilidagi sonlarning lingvokulturologik mazmunini tasniflash, yaʼni xillarga ajratish usuli orqali oʻquvchilarga tushuntirish ancha samaraliroq boʻladi. Bu usuldan foydalanish oʻquvchilarda tilni sistematik oʻrganish koʻnikmasini ham shakllantiradi. Xitoy tilidagi

Birinchi xil sonlar haqiqiy leksik maʼnoni ifodalovchi son-soʻzlar boʻlib, bu soʻzlarning maʼnosi sodda va tushunarli, oʻquvchilar ham ularni oson tushunadilar. Bu guruhga barcha sonlar kiradi.

Ikkinchi xil sonlarda xitoy tilini oʻrganuvchi oʻquvchilar aslidagi maʼnosi orqali son-soʻzlarning maʼnosini toʻliq chiqara olmaydilar, ular oʻz ona tillaridan shunga mos soʻzlarni topishga, soʻz yoki jumlani chiroyli tarjima qilishga qiynaladilar, bu esa koʻplab tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, soʻzma-soʻz tarjima qilganda “uch bor, besh marta” yoki “uch bor, ikki marta”【三番五次 sānfān wǔcì】yoki【三番两次 sānfān liǎngcì】iborasi, uni oʻzbek tiliga “koʻp marta, qayta-qayta”:

 DOI: 10.36078/1653410390

Misol: 我三番五次告诉他。【Wǒ sānfānwǔcì gàosù tā.】Men unga qayta-qayta aytdim.

Uchinchi xil sonlar – bular maxsus ma'noga ega son-so'zlar, masalan: "uch sulola" 【三代 [sāndài]】deyilganda uch – Sya, Shang va Jou sulolalariga ishora qiladi; "to'rt kitob" 【四书 [sìshū]】deyilganda Konfutsiyning shogirdlari va izdoshlari tomonidan tuzilgan konfutsiylikning asosiy 4 ta kitobi – "Muhokama va bayon", "Buyuk ta'limot", "Mo'tadillik" va "Mengzi" nazarda tutiladi. Bu xil sonli birikmalar o'quvchidan til bilishdan tashqari, o'rganayotgan tili madaniyati va tarixidan ham muayyan bilimlarga ega bo'lishni talab etadi.

2. Qiyosiy tahlil usuli

Qiyosiy tahlil metodi ikkinchi tilni o'rgatishning muhim usuli bo'lib, u odamlarga ona tili va madaniy interferensiyani tushunib olishlariga yordam beradi, madaniy tafovutlarni aniqlash o'quvchilarning psixologik to'siqlarini yengib o'tishlariga yordam beradi. Qiyoslash-solishtirish bo'lsagina farqlash bo'ladi, shunday ekan bu predmetlarni bilish jarayonida keng qo'llaniladigan usuldir. Masalan, G'arb madaniyatida "13" raqamiga xosiyatsiz, baxtsizlik keltiruvchi son sifatida qaraladi, iloji boricha ushbu sonni tanlashdan qochishadi. Xitoyliklarda esa bu raqam hech nimani anglatmaydi, bu son bilan bog'liq hech qanday taqiq yo'q. Ching sulolasining【清朝 [qīngcháo]】so'nggi yillarida yashagan adib Ven Kang【文康 [Wén Kāng]】o'zining mashhur "O'g'il-qizlarning qahramonliklari haqida qissalar" asarida "O'n uch opa-singillar" qahramon qizlar obrazini yaratadi. Xitoyning Shaansi provinsiyasi【陕西省 [shǎnxī sheng]】ma'muriy markazi hisoblangan Sian shahrini "o'n uchta sulolaning qadimiy poytaxti" deb atashadi. Lekin hozirda G'arb madaniyatining ta'siri ostida "13" raqamiga nisbatan xitoyliklarda ham "ehtiyotkorlik" paydo bo'lgan.

Taqqoslash orqali ikki millatning mentaliteti va o'zigagini xos xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin.

3. Qo'shimcha qilish orqali tushuntirish – interpolyatsiya usuli

Xitoy tilini chet tili sifatida o'qitishda o'quvchilarning ayrim sonlarning o'ziga xos ma'nolarini yaxshiroq tushunishlari va o'zlashtirishlari uchun darslikda uchraydigan son turkumiga oid so'zlarni ularning muayyan madaniy va tarixiy asoslaridan kelib chiqib, interpolyatsiya yoki intermediya – qo'shimcha ma'lumot keltirish usulidan foydalanib tushuntirish maqsadga muvofiq. O'qitish jarayonida o'quvchilar ma'lum sonlarni tushunishda qiynalib qolgan paytda, o'qituvchilar o'zlarining yetakchilik rolini namoyon

DOI: 10.36078/1653410390

qilib, ushbu qiyin so‘zlarni ba’zi bir muayyan o‘ziga xos tipik o‘qitish muhitiga kirish yoki mavzuga doir hikoyalarni keltirish bilan sonlarni tushuntirishi kerak. Hikoyalar shaklida o‘quvchilarga tushuntirilsa, bu nafaqat ularning ushbu so‘z haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirishi mumkin, shuningdek, o‘quvchilarga Xitoy madaniyati haqida ham ma’lum bilimlarga ega bo‘lishga yordam beradi.

Misol uchun xitoy tilidagi “uchta sassiq ko‘nchi bir dono Juge Lyangdan o‘tibdi”【三个臭皮匠，胜过诸葛亮 [sān ge chòupíjiang, shèngguò zhūgě liàng]】olaylik, bu yerda nima uchun aynan “uch” raqami ishlatilganini intermediya usulida tushuntirish juda samarali.

Aytishlaricha, qadimgi Shu qirolligining dono qo‘mondoni Ju Gelyang (181—234) bir safar qo‘shinlarini daryodan olib o‘tmoqchi bo‘libdi. Daryo juda tez oqardi, boz ustiga suvosti toshlari shundoqqina do‘ppayib suv yuzasiga chiqib turardi. Bunday holatda oddiy bambukdan yasalgan sol yoki kemalarda daryodan o‘tib olish amri mahol edi. Hirovullar kemalarining barchasini suv oqizib ketib, suv osti toshlariga urilib, g‘arq bo‘ladi. Ju Gelyangdek bir o‘z davrining buyuk strategi chora topolmay boshi qotadi. Kech kirganda uning huzuriga mol terisiga ishlov beradigan uch nafar ko‘nchi keladi va o‘zlarining takliflarini aytadilar. Ju Gelyang ularning aytganlaridek, juda ko‘p sigirlar sotib oladi, keyin sigirlarning qornining terisini shilib, kesilgan joyini tikib, askarlarga terilarni puflab ishirishni buyuradi – teri-sol (mol terisidan daryodan suzib o‘tish uchun yasalgan sol) tayyor bo‘ladi, bunday sollar suvosti toshlariga urilsa ham hech nima qilmasdi, va shu bilan eson-omon daryodan o‘tib oladilar. Shu voqeadan so‘ng “uchta sassiq ko‘nchi bir dono Juge Lyangdan o‘tibdi” degan maqol xalq orasida keng tarqaladi. Bu o‘zbek tilidagi “bitta kalla yaxshi, ikkita kalla undan ham yaxshi” maqoliga to‘g‘ri keladi.

4. Amaliy muloqot (kommunikativ amaliyot) usuli

O‘zimning kundalik o‘qitish, hayotiy tajribam va kuzatishlarimdan kelib chiqib shuni aytishim mumkinki, xitoy tilini o‘rganayotgan talabalar lingvokulturologik mazmunga ega maxsus sonlarni ishlatishda juda osongina pragmatik xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Bunga ularning bu borada yetarlicha bilim va ko‘nikmalarga ega emasliklari sabab bo‘ladi. Shuning uchun xitoy tilini chet tili sifatida o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarga darsda lingvokulturologik xususiyatga ega sonlarning qo‘llanilish o‘rni va ma’nosini tushuntirishi kerak. Tushuntirish jarayonida bu so‘zlarning semantikasini tushuntirish bilan birga, ularning madaniy kelib chiqishi va qo‘llanilish til muhitini haqida ham tushuntirib o‘tib ketish kerak. O‘qitish va mashq qilishni “jonlantirish” bilan o‘quvchilarning og‘zaki nutqi va yozma tasvirlash kabi usullarni kuchaytirish kerak. qo‘llash uchun maxsus vaziyatli dialoglar tashkil etilishi mumkin. O‘quvchilarga xitoy

DOI: 10.36078/1653410390

tilida sonlarni ishlatayotganda xitoyliklarning muloqot muhitiga moslashishni o‘rgatmoq kerak. O‘quvchilarni – agar Xitoyda bo‘lsalar, ko‘chalarga chiqib xitoylik bilan muloqot qilish, agar O‘zbekistonda bo‘lsalar, xitoylik do‘st orttirishga harakat qilib, u bilan xitoy tilida tez-tez muloqot qilib, o‘rgangan so‘zlarini qo‘llab turish – darsdan tashqarida ijtimoiy muhitga chiqib mashq qilishga faol rag‘batlantirish kerak, ular real hayotda mashq qilsalar va amaliyot o‘tasalar, ba’zi bir maxsus so‘zlarning o‘ziga xos ma’nosi va qo‘llanilishini yaxshiroq tushunadilar.

Xitoy tilidagi sonlarning lingvokulturologik mazmunini o‘qitishda faqat yuqoridagi usullar bilan cheklanib qolib bo‘lmaydi, o‘qituvchi o‘qitish jarayoniga yangilik kiritishi – innavatsion usullardan ham foydalanishi, o‘qitishning yanada ko‘proq, yanada ilmiyroq usullarini topishi kerak. Xitoy tilini chet tili sifatida o‘rgatishda ayrim sonlarning lingvokulturologik xususiyatlarining kelib chiqishini o‘rgatish ham o‘qitishning juda muhim qismi hisoblanadi. O‘qituvchilar xitoy tilidagi sonlar madaniy fonining sonlar va tilni o‘rgatishda muhimligini to‘liq anglab, o‘z vaqtida o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan moyilliklarini o‘rganib, ularlarga sonlarning ma’nosi va ishlatilishini yaxshiroq o‘zlashtirishlari va tushunishlariga yordam berish uchun mos keladigan o‘qitish usullarini aniqlashtirish kerak.

Xulosa. O‘qitish jarayonida tadrijiy va muntazamlik, qaysi asosiy va qaysi ikkinchi darajali ekanligini aniq ajratish, batafsil va lo‘ndalik tamoyillariga rioya qilish kerak bo‘ladi. Har qadamda o‘quvchilarning xitoy tilidagi sonlarning lingvokulturologik ma’nolarini bilish va qo‘llash bilan bog‘liq bilimlari bazasi kuchaytirilsa va mustahkamlansa, o‘quvchilarlarning xitoy tilini saviyasi va xitoy tili madaniyatini bilish darajalari oshadi. Kundalik turmushda sonlardan foydalanish darajasining yuqoriligi ularlarning kundalik hayotdagi ahamiyatini belgilaydi, shunday ekan, sonlarning maxsus lingvokulturologik ma’nolari xitoy tilini chet tili sifatida o‘rgatish jarayonida o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham muayyan qiyinchiliklar tug‘diradi. O‘qituvchilar dars o‘tish jarayonida o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari, layoqatlariga, qabul qilish imkoniyatlariga mos ravishda to‘g‘ri metodni tanlay bilishlari kerak, bu esa ustozlardan sezgirlikni, uddaburonlikni talab qiladi. Shuingdek, xitoy tilidagi sonlarning lingvokulturologik mazmunini tushuntirishda metodlarni muttasil umumlashtirib borish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Nabiyeva E. R. O‘zbek va xitoy tillarida sonlarning lingvokulturologik xususiyatlari [Dissertatsiya]. O‘zbekiston davlat jahon tillari univeristeti, Toshkent, 2019.

 DOI: 10.36078/1653410390

2. Mavlyanova U. X. Xitoy tilida sonlarning semantikasi: lingvomadaniy tahlil [PhD dissertatsiyasi]. Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti, Tosheknt, 2020.

3. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya [Darslik]. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent, 2019.

4. Ahmedova O. A. Lingvokulturologiya tilning madaniy fenomeni sifatida.// “Xorijiy filologiya” jurnali.

5. Nursulton Zamon o‘g‘li Shayxislomov. Lingvokulturologiyaning fanlar sistemasidagi maqomi va uning etnolingvistika, sotsiolingvingsita va etnopsixololingvistika bilan bog‘liqligi // Academic Research in Educational Sciences, Vol. 1 No. 2, 2020.

6. Uzoqova Sh. F., Otabek I. Chet tillarini o‘rganishda lingvokulturologiya fanining o‘rni. 2th International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts Hosted from Berlin, Germany, April 30th 2021 / https://conferencepublication.com (https://conferencepublication.com/)

7. Шамсиева, Ш. К. (2020). КЕКСАЛИК БИЛАН БОҒЛИҚ ЭВФЕМИЗМЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ТАДҚИҚИ (ХИТОЙ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, *3*(3).

8. Назарова, С. А. (2019). Современное состояние обучения китайскому языку: анализ действующих учебных программ и учебно-методической литературы. *Modern Oriental Studies*, *1*(1), 21-23.

9. Mavlyanova, U. K. The Degree of Study of Numerals by Scientists in the World.

10. SAMATOVA, B. (2014). Motivational issues in language teaching. *Motif Akademi Halkbilimi Dergisi*, (2), 359-363.

11. Polatovna, B. N., & UGLI, D. I. I. (2021). ANALYSIS OF PHRASES AND IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, *1*(2), 89-93.

XITOY TILIDA SONLARNING LINGVOKULTUROLOGIK KLASSIFIKATSIYALANISHI

Diyoraxon Xoshimjon Qizi ALIYEVA
Lingvistika (xitoy tili) 2-bosqich magistranti
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ilmiy rahbar: PhD Shamsiyeva Sh. Q.

 DOI: 10.36078/1653410390

Annotatsiya. Xitoy tilida sonlar juda boy madaniy qatlamlar va ma’nolarga ega bo‘lib, o‘ziga xos raqamli madaniyatni shakllantirgan. Xitoy tilidagi raqamli madaniyat xitoy tilining o‘ziga xos fonetik xususiyatlari bilan bog‘liq va shu bilan birga, u Xitoy xalqining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hamda, albatta, madaniy hayoti va psixologik omillari bilan ham bog‘liq. Raqamli madaniyat ijtimoiy hayotning rivojlanishi bilan rivojlanib, o‘zgarib boradi. Quyida xitoy tilida sonlarning lingvokulturologik klassifikatsiyasi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: klassifikatsiya, son, lingvokulturologiya, omofonlar, juft son va iboralar.

Annotation: In Chinese, numbers have a very rich cultural layer and meaning, forming a unique digital culture. Numeral culture in Chinese is related to the specific phonetic features of the Chinese language, and at the same time, it is related to the social, political, economic, and, of course, cultural life and psychological factors of the Chinese people. Numeral culture evolves and changes with the development of social life. The following is a linguoculturological classification of numbers in Chinese.

Key words: classification, number, linguoculturology, homophones, even numbers and phrases.

Kundalik hayotimiz sonlar bilan chambarchas bog‘langan: bizni ID raqami, pasport raqami, mobil telefon raqami, davlat raqami, mashina raqamlari, o‘zimiz yoki yaqinlarimizning tug‘ilgan kunlari, turmush qurilgan sana, statistika, raqamli ma’lumotlar va boshqalar o‘rab turadi. Aytish mumkinki, har bir raqam nimanidir anglatadi, ma’lumot tashuvchi birlik hisoblanadi, bu ma’lumot maishiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy, madaniy yoki ma’naviy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Raqamlar qaysidir ma’noda biror individ yoki voqelikning belgisi bo‘lishi mumkin. Ba’zi raqamlar bizning tanlovimizdan tashqarida, ba’zi raqamlar esa kishilarning o‘z qiziqishlariga ko‘ra belgilanishi mumkin. Xitoyliklar mustaqil ravishda raqam tanlayotganlarida, ko‘p hollarda “olti”, “sakkiz”, “to‘qqiz” kabi “omadli” raqamlarni afzal ko‘rishadi, “omadsiz” raqamlardan qochishga harakat qilishadi, masalan “to‘rt” va “o‘n uch”. Sonlar aslida hisob-kitob uchun ishlatiladi, ularning yaxshi yo yomoni, salbiy bo‘yoqdorlik xususiyatiga egalari, xayrli yo shumlari bo‘lmaydi. Ammo til va madaniyatning muttasil rivojlanib borishi bilan odamlar sonlar ma’nosini ham doimiy boyitib, ifodasiga rang-baranglik qo‘shib borishgan. Shu sababli davrlar o‘tishi va, albatta, madaniy aloqalar natijasida sonlar hisoblash funksiyasidan tashqari, ko‘plab madaniy ma’nolarga ham ega bo‘la bordi, bu esa o‘z navbatida xitoy tilida boy va rang-barang raqamli madaniyatni shakllanishiga olib keldi, va bu jarayon hali

 DOI: 10.36078/1653410390

ham davom etmoqda. Bu esa odamlar ongida sonlarga nisbatan lingvomadaniy analiz va sintez koʻnikmalari shakllanganligini anglatadi. Bularni tushunish xitoy tilini oʻqitish va oʻqishni yanada jozibaliroq va samaraliroq qiladi.

Xitoy tilida sonlar lingvokulturologik xususiyatiga koʻra quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

1. Fonetik turkumdagi iyerogliflar – omofon iyeroglif-soʻzlar

Omofon iyeroglif-soʻzlar – bu boshqa iyeroglif-soʻzlar bilan bir xil eshitiladigan, ammo boshqa ma'noga ega boʻlgan iyeroglif-soʻzlardir. Xitoy tilida ham sonlar aslida hisoblash vositasi boʻlib, ayrim iyerogliflar talaffuzi bilan bir xil yoki oʻxshash boʻlgani uchun ular omofonik soʻzlar bilan bir xil ma'noga ega. Misol uchun, xitoyliklar raqam tanlashda koʻp hollarda "toʻrt"【四 [sì]】va "yetti"【七 [qī]】kabi omadsiz, xosiyatsiz deb qaraladigan raqamlar oʻrniga "sakkiz"【八 [bā]】, "toʻqqiz"【九 [jiǔ]】kabi xayrli, xosiyati bor deb qaraladigan raqamlarni tanlaydilar, bu esa ushbu sonlarning fonetik jihatdan boshqa soʻzlar bilan bir xilligi yoki oʻxshashligidan kelib chiqqan. "Sakkiz"ning omofoni "fa"【发 [fā]】"boyimoq" ma'nosini bildiradi, shuning uchun xitoyliklar sakkiz raqamini juda yaxshi koʻradilar; "toʻqqiz"ning omofoni "jiu"【九 [jiǔ]】"uzoq" ma'nosini bildiradi, u abadiylikni, uzoq umr va mukammallikni anglatadi; "toʻrt" omofoni "si"【死 [sǐ]】"oʻlim" ma'nosini bildiradi, "yetti"ning omofoni "qi"【气 [qì]】"jahl, gʻazab, qahr" degani, oxirgi ikki tovush xosiyatsiz, omadsiz eshitiladi. Xitoy tilida, shuningdek, "ikki yuz ellik"【二百五 [èrbǎiwǔ]】degan soʻz ham bor, bu soʻz koʻpincha ahmoq va beparvo odamlarni masxara qilish uchun ishlatiladi, bu soʻzni oʻzbek tiliga "soʻtak" deb tarjima qilsa boʻladi. Qadimgi xitoyliklar kumushdan asosiy pul birligi sifatida foydalanganlar, uni "kumush lyang" deb atashgan, besh yuz lyang "bir feng"【一封 [yī fēng]】, ya'ni "bir oʻram" deyilgan, shunda ikki yuz ellik lyang "yarim oʻram"【半封 [bànfēng]】kumush boʻladi. Bu "yarim oʻram" soʻzi "yarim jinni"【半疯 [bànfēng]】soʻzi bilan bir xil tovushli soʻz boʻlgani uchun ham keyinchalik odamlar esi past, savdoyi odamlarni "ikki yuz ellik" deb atay boshlaganlar.

2. Xitoy tilidagi lingvokulturologik mazmunga ega juft sonlar

DOI: 10.36078/1653410390

Bir【一 [yī]】, uch【三 [sān]】, besh【五 [wǔ]】, yetti【七 [qī]】va to‘qqiz【九 [jiǔ]】 raqamlari toq sonlar bo‘lib, ikki【二 [èr]】, to‘rt【四 [sì]】, olti【六 [liù]】, sakkiz【八 [bā] 】va o‘n【十 [shí]】 juft sonlar deb ataladi.

Xitoy madaniyatida odamlar odatda juft sonlarni xayrli raqamlar deb hisoblashadi. Shu sababli xitoyliklar to‘y sanasini tanlashda odatda juft sonli oy va kunlarni tanlashga intiladilar. Xitoyning ba’zi hududlarda hatto dafn marosimi, imorat qurish, boshqa uyga ko‘chish ham dehqonlar taqvimdagi【农历 [nónglì]】juft sanalarda, ya’ni ikkinchi, to‘rtinchi, oltinchi, sakkizinchi va o‘ninchi sanalarda amalga oshirilgan. “To‘rt”【四 [sì】 soni ham juft raqam, ham “o‘lim”【死 [sǐ]】 bilan o‘xshash talaffuzga ega, garchi toni【声调 [shēngdiào]】 boshqa bo‘lsa-da. Xitoyliklar avtomobil va telefon raqamlarini tanlashda odatda bu raqamdan qochganlar, lekin sanaga kelganda, ba’zan ushbu raqamni tanlaydilar. Buning sababi shundaki, xitoyliklar sana tanlayotgan paytda, xosiyatli bo‘lishi uchun, odatda abadiy kalendarni tekshirib ko‘rib, omadli, xosiyatli kunni tanlaganlar.

3. Xitoy tilidagi sonli iboralar lingvokulturologik ma’no tashuvchi birliklar sifatida

Frazeologizm【成语 [chéngyǔ]】, frazeologik birlik, frazema — ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’noviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror (turg‘un) bog‘lanmalarning umumiy nomi. Frazeologizmlar, shaklan o‘zlariga o‘xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so‘zlarni erkin tanlash, almashtirish yo‘li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma’no va muayyan leksik-grammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo‘llanadi, ya’ni frazeologizm tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas. Masalan, “bir besh, bir o‘n”【一五一十 [yīwǔ yīshí] 】beshlik birliklarida sanashni nazarda tutadi, bu esa biror voqeani boshdan oxirigacha qoldirmasdan, tafsilotlari bilan tasvirlash uchun ishlatiladi, buni o‘zbek tilida “oqizmay-tomizmay” yoki “ipidan ignasigacha” deb tarjima qilamiz; “uchmas, to‘rtmas” 【不三不四 [bùsān bùsì]】iborasini o‘zbek tiliga “betayin, tayini yo‘q” deb tarjima qilamiz; “cho‘tni bir sursa – olti yuz yigirma besh”【一推六二五 [yī tuī liù’èrwǔ]】 iborasi o‘zbek tiliga “barcha javobgarliklardan qochish”, “javobgarlikni o‘zidan butunlay soqit qilish”

 DOI: 10.36078/1653410390

ma’nolarini bildiradi; “ikkiga bo‘lamiz birni – beshdan (0.5) tegadi” iborasi【二一添作五 [èr yī tiān zuò wǔ]】bir narsani ikki kishi teng bo‘lishi, teng baham ko‘rishini anglatadi; “sakkiz-to‘qqiz o‘ndan uzoq emas”【八九不离十 bājiǔ bù lí shí】deyarli bir xil, haqiqatga yaqin degan ma’noni anglatadi.

Garchi bu xitoycha maqol va iboralarda sonlar mavjud bo‘lsa-da, so‘z va iboralar butun, turg‘un ma’noga ega bo‘lganligi sababli, bu sonlar o‘zining son ifodalash vazifasini ham yo‘qotgan.

4. Lingvokulturologik mazmun kasb etuvchi mavhum sonlar va taxminiy sonlar

Sonlarni qo‘llash jarayonida ularda ba’zi o‘zgarishlar sodir bo‘lish hodisasi uchraydi, bunday usulni sonlar qo‘llanilishining kengayishi, deyish mumkin, shu bilan mavhum sonlar va taxminiy sonlar paydo bo‘ldi. Ular hali ham son tushunchasini ifodalaydi, lekin ma’lum bir aniq son emas, balki noaniq son bo‘lib qoladi. Xitoy tilida odatda “bir”【一 [yī]】va “ikki”【二 [èr]】kichik miqdorlarni ifodalash uchun ishlatilsa, ming【千 [qiān]】va o‘n ming【万 [wàn]】(o‘zbek tilida ba’zan “tuman” istilohi qo‘llaniladi) katta miqdorlarni ifodalash uchun ishlatiladi, bu raqamlarning noaniq ko‘rsatkich usulini hosil qiladi. Masalan, “bir kunda ming li”【一日千里 [yī rì qiān lǐ] 】tezlik va katta o‘zgarishlarni tasvirlaydi, “bir kun ko‘rishmasa, xuddi uch kuz ayro tushgandek” iborasida【一日不见，如隔三秋 [yī rì bù jiàn，rú gé sān qiū]】“bir kun” va “uch kuz” do‘stlar yoki sevishganlar o‘rtasidagi sog‘inishni tasvirlash uchun qo‘llanilgan noaniq ko‘rsatkichlardir; “yuz marta eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal”【百闻不如一见 [bǎiwén bùrú yījiàn]】iborasida ham shunday holat: bu yerda ham “yuz” miqdorning ko‘pligini anglatmoqda; bu ibora o‘zimizning o‘zbek tilidagi “Ming marta eshitgandan ko‘ra, bir marta ko‘rgan afzal”ga to‘g‘ri keladi. Bu esa o‘zbek va xitoy madaniyatlari orasidagi lingvomadaniy o‘xshashlikni ko‘rsatadi, o‘z navbatida xitoy tili o‘qitish metodikasining naqadar ahamiyatli ekanligini anglatadi. Biz xitoy tilidagi sonlarni o‘qitayotganda uning shu jihatlariga ham katta ahamiyat berishimiz kerak.

5. Tarixiy voqeliklar sabab paydo bo‘lgan lingvokulturologik mazmunga ega sonlar

Masalan, “etmish uch” va “sakson to‘rt” sonlarini olaylik. Qadimgi Xitoyda Konfutsiy【孔子 [Kǒngzǐ]】va Mengzilarning【孟子 [Mèngzǐ]】biri yetmish uch yoshida,

DOI: 10.36078/1653410390

ikkinchisi sakson to‘rt yoshida vafot etgan. Ular donishmand va konfutsiychilikning asoschilari bo‘lishgan. Konfutsiylik ta’limotining keyingi avlodlarga ta’siri juda chuqur, bu ikki donishmandning keyingi avlodlarga ta’siri ham ulkandir. Shu bois keyinchalik shunday bir naql paydo bo‘ldi: “Yetmish uch, sakson to‘rtda Yan-vang chaqirmasa ham o‘zing ketib qolasan”【七十三，八十四，阎王不请自己去 [Qīshísān, bāshísì, yánwáng bù qǐng zìjǐ qù]】. Bu yerda demoqchiki, yetmish uch va sakson to‘rt yosh – inson hayotidagi xavfli bosqichlar; xitoyliklar qariganlarida, ayniqsa, etmish uch va sakson to‘rt yoshdan cho‘chiganlar, bu esa ushbu ikki sonning alohida ma’nosini hosil qilgan.

Xitoy tilidagi son so‘z turkumiga oid so‘zlarni klassifikatsiyalash usuli orqali tadqiq qilish va tushuntirish xitoy tilini o‘qitish va o‘qishni yanada jozibaliroq va samaraliroq qiladi. Sonlarning linvokulturologik unsun (bir butunni tashkil etgan murakkab narsaning tarkibiy qismi, element)laridan pedagogikada foydalanilsa, o‘quvchilarni xitoy tiliga qiziqtirishdan tashqari, ularning iyerogliflar va so‘zlarning ma’nolarini eslab qolishlarini va erkin qo‘llashlariga ham yordam bergan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Komilova G. T. Til va Lingvokulturologiya. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, Scientific Journal Impact Factor, SJIF 2021: 5,423. -527-528-b.
2. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000.
3. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab…// O‘zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2012. №5. B. 3-16.
4. Rahmonova G. Chet tillarini zamonaviy usulda o‘qitishning 3 ta usuli.
5. 杜氏李. 现代汉语数词文化内涵研究[D]. 吉林大学，汉语国际教育 2014 硕士。
6. 甄香兰. 汉语数字的文化内涵探析[D]. 曲阜师范大学，2010，硕士.
7. Мавлянова, У. Х. (2021). СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ «ЧИСЛИТЕЛЬНОЕ» В КАТЕГОРИИ ЧАСТЕЙ РЕЧИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(Special Issue 1), 104-110.

 DOI: 10.36078/1653410390

8. Шамсиева, Ш. К. (2020). КЕКСАЛИК БИЛАН БОҒЛИҚ ЭВФЕМИЗМЛАРНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ТАДҚИҚИ (ХИТОЙ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА). *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, *3*(3).
9. Назарова, С. А. (2019). Современное состояние обучения китайскому языку: анализ действующих учебных программ и учебно-методической литературы. *Modern Oriental Studies*, *1*(1), 21-23.
10．Рахматуллаева, Д. М. (2021). 浅谈汉语声调教学问题. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 1), 344-348.
11. Karimov, A. A. (2022). The Problem Of The Grammatical Category Of The Chinese Language. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, *5*, 226-229.
12. Yusupova, K. S. (2020). On the modern word formation methods in chinese. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, *9*(12), 36-42.

ИНГЛИЗ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА МИЛЛИЙ АДАБИЁТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Аниса Саидамировна АЛИМДЖАНОВА
инглиз тили ўқитувчиси
НТМ ўқув маркази "Psychological Language Bridge"

Annotation. Teaching English through literature is one of the modern methods in the ELT. This article will clarify new areas of teaching English through literature; topic-based role-playing, singing, the use of national library materials and audiovisual instruments. Attention will be paid to these four methods, which are more effective than other methods. Finding new trends in English Language Teaching can lead to useful and effective results especially in areas where communicative technology is scarce, where the Internet has not reached the remote population, in remote rural areas, schools, colleges and educational centers.

Keywords: Literature, ELT, Songs, Audio-Visual and Role-playing.

Аннотация. Инглиз тилини бадиий адабиётлар орқали ўқитиш ELT йўналишида замонавий усуллардан ҳисобланади. Ушбу мақола инглиз тилини адабиёт орқали ўргатишнинг янги йўналишларига ойдинлик киритади; мавзуга асосланган ролли ўйинлар, қўшиқ куйлаш, миллий кутубхона материаллари ва

 DOI: 10.36078/1653410390

аудиовизуал воситалардан фойдаланиш. Бошқа усулларга қараганда самаралироқ бўлган ушбу тўрт усулга эътибор қаратилади. Инглиз тилини ўқитишнинг янги тенденцияларини топиш, айниқса коммуникатив технологиялар кам учрайдиган, интернет етиб бормаган олисдаги аҳоли яшайдиган жойларда, чекка қишлоқ жойларида, мактаблар, колледжлар ва таълим марказлари учун фойдали ва самарали натижаларга эришишга сабаб бўлиши мумкин.

Калит сўзлар: адабиёт, ELT, қўшиқлар, аудио-визуал воситалар, ролли ўйинлар.

Хозирги кунда баъзи инглиз тили мутаҳасисларини инглиз тилини миллий адабиётлар орқали ўргатишга ёндашишга қарши чиқиши мумкин. Инглиз тилини адабиёт орқали ўргатиш ҳали ҳам мунозарали бироқ, жуда муҳим масаладир. Адабиёт қийин мавзу деган тушунча ўқитувчи ва талабалар ўртасида ишончсизлик келтириб чиқаради[3], лекин ўқитувчилар тилни ўргатишда адабиётнинг хаётий манзараларга бой кўнгилочар омилларидан фойдаланишлари мумкин. Ушбу ёндашув талабаларнинг эҳтиёжларини тушуна оладиган жуда малакали ўқитувчини талаб қилади. Тил ўрганишнинг тўрт кўникмасини жалб қилиш мумкин; ўқиш, ёзиш, тинглаш ва гапириш. Адабиёт талабаларга сўз бирикмаси ёки синтактик элементларнинг кенг доирасини тақдим этади. Талабалар учун ўз юртида инглиз тили сўз бойлигини кенгайтириш учун энг яхши имконият бу турли хил адабиётлардан фойдаланишдир. Албатта бу осон иш эмас, ўқув жараёнини қийинлаштирадиган баъзи муаммолар бўлиши мумкин. Ўқув дастурлари талабаларнинг тил ўрганиш стандартларига жавоб бериши учун эҳтиёткорлик билан танланиши керак, айниқса талабалар қишлоқ жойларида бўлса уларнинг шароитлари, имкониятлари хисобга олиниши керак.

Ўзбек ва инглиз адабиёти:

Мамлакатингизнинг миллий адабиёти орқали инглиз тилини ўргатиш Шекспирнинг эҳтиросларга бой ғарбга хос жанрда ёзилган еки Драйзернинг американча трагедиясига ўхшаш инглиз адабиёти асарларидан фойдаланиб инглиз тилини ўргатишдан яхшироқдир. Ўзбек миллий қадриятлари акс этган, миллий минталитетга хос, урф одатларимиз ёритилган, ўзбекона шарм хаё ифодаланган кўплаб асарларимиз нафақат инглиз тилига балки турли хорижий тилларга ҳам таржима қилинган. Жумладан, Навои, Бобур асарлари, замонавий ўзбек шоирлари

[3] Teaching English through literature: creative trends Ahmed Taher Abdu Dr. M.B. Karajgi Nagi Head of English PH.D. Research Department.

 DOI: 10.36078/1653410390

Ғофур Ғулом, Ойбек, Хамид Олимжон, Зульфия каби кўплаб адабиётимизни дунёга танитган адибларимизнинг рўйхати чексиздир. “Фарход ва Ширин”, “Темур тузуклари”, “Бобурнома”, “Широқ” каби асарлар хам тарбиявий хам маънавий аҳамиятга эга.[4] Бундан ташқари бу асарлар филология, тарих, сиёсат, иқтисод, йўналиши мутахасислари учун мухим билимларини ўзлаштириш учун катта ёрдам беради. Инглиз тилидаги адабиётлардан фойдаланишда учта асосий мезонга ахамият бериш керак: ўқитувчи, бадиий матнлар ва талабалар. Инглиз тилини ўрганиш жараёнида бу уч мезон бирлашиб ягона яхлит гуруҳни ташкил қилади.

Ўқитувчи:

Инглиз тили ўқитувчиси дарсларда ўрганиладиган адабиётни диққат билан танланиши керак. Муваффақиятли натижага эришиш учун ўқитувчи қуйидаги хусусиятларга эга бўлиши керак:

1-ўқитувчи талабаларнинг мутахасисликлари, йўналишлари, эҳтиёжлари, қизиқишлари ва тил билиш даражаларидан келиб чиққан холда матн ёки бадиий асар танлай билиши.

2-ўқитувчи талабалар билан ишлашда, матнларда ва ўқитиш жараёнида турли усуллардан, педагогик технологиялардан фойдаланишда инновацион бўлиши

3-ўқитувчи тўрт маҳорат яъни ўқиш, ёзиш, эшитиш ва гапириш кўникмаларини ривожлантириш билан боғлиқ бўлган вазифаларни синфда дарс жараёнида ёки синфдан ташқарида мустақил вазифа сифатида бериши

4-ўқитувчи ўқувчиларнинг севимли адабий машғулотларидан фойдаланиши мумкин. Баъзи талабалар қисқа ҳикоялар, шеърлар ёки бирон бир бадиий матн ёзишга қизиқишлари мумкин, аммо уларни инглиз тилида хали амалиётта қўлламаганлар, шундай экан ўқитувчи уларга йўналиш кўрсатиб инглиз тилига таржима қилиб гапиртира олиши ва мотивация бериши ва ўқувчиларни рағбатлантириши.

6-ўқитувчи бадиий матнларни ўқитиш усулларини ўзгартириши керак. Лекция усули кўра ролли ўйинлар, асарни сахналаштириш, гуруҳда ишлаш каби усуллар қўлланганда сюжетларни тушуниш, янги сўз ва ибораларни эслаб қолишга ёрдам беради. Усулларнинг ўзгарувчанлиги инглиз тилини ўрганишнинг тегишли кўникмаларига мос келиши керак. Ролли ўйинлар суҳбатлар учун яхшироқдир.

[4] Холбекова Б. Ўзбек тилидан инглиз тилига таржималар тарихидан https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/uzbek-tilidan-ingliz-tiliga-tarzhimal/

DOI: 10.36078/1653410390

Қисқа ҳикоя ёзиш ўқувчиларга ёзиш қобилиятларини ривожлантиришга имкон беради ва ҳоказо.[5]

Бадиий матнларни танлаш:

Ҳар қандай тилда бадиий матнлар шеър, қисса, роман, пъеса ёки матн кўринишида бўлиши мумкин. Ушбу бадиий матнлар яхши танланган бўлса, инглиз тилини ўргатишда муҳим рол ўйнайди ва яхши натижа беради. Ўқитувчилар ёки ўқув дастурларини тузувчилар ушбу матнларни танлашга эътибор беришлари керак. Крис Лима (2010)[6] ўқитувчи ўқувчиларга ўқишни истаган матнни танлашга рухсат бериши кераклигини таъкидлайди. Бироқ, бу синфни шовқинли қилиши мумкин. Ўқитувчи ўқувчиларнинг эҳтиёжларини билиши керак ва шунга мос равишда тегишли матнни танлаши мумкин. Бадиий матнларни танлаш ўқувчиларнинг турига, улар бошланғич мактаб ўқувчилари ёки коллеж ўқувчилари бўлишига боғлиқ. Масалан, шеър матни бошланғич мактаб ўқувчилари учун, спектакл ёки роман эса колледж ўқувчилари учун яхшироқдир. Ҳикоялар қишлоқ ўқувчилари учун, спектакллар эса шаҳар ўқувчилари учун яхшироқдир. Анъанавий ўқув дастурининг муаммоси шундаки, у бир турдаги талабалар учун мўлжалланган. Шу сабабли баъзи ўқитувчилар адабиётдан инглиз тилини ўқитиш воситаси сифатида фойдаланишлари қийин.

Тил дарсларида фойдаланиш учун бадиий матнларни танлашда тил ўқитувчиси талабаларнинг эҳтиёжлари, мотивацияси, қизиқишлари, маданий келиб чиқиши ва тил даражасини ҳисобга олиши керак (Ҳишманоглу 2015, 57)[7]. Ўқув дастури ёки бадиий матнлар талабалар даражасига қараб ўзгартирилиши керак. Қизиқарли материаллар билан ўқитиш талабаларга инглиз тилини осон ўрганишларига ёрдам беради. Инглиз тилидаги қўшиқлар талабаларга кўпроқ сўз бойлиги ва функционал тузилмаларни олишга ёрдам беради. Асар ёки хикоя асосида ишланган фильмлар, сахна кўринишлари театр, спектаклларни тамоша қилиш ўқилган асарни янада тушунишга ёрдам беради ва жараённи қизиқарли

Талабалар:

Талабалар таълим жараёнининг диққат марказида. Ўқитувчи ва бадиий матнлар ўқувчиларга қаратилган. Инглиз тилини ўрганишни такомиллаштириш учун

[5] Teaching English through literature: creative trends Ahmed Taher Abdu Dr. M.B. Karajgi Nagi Head of English PH.D. Research Department.

[6] Lima, Chris. “Selecting Literary Texts for Language Learning.” *Journal of NELTA, 15, 2010 (1- 2), pp.110-113*

[7] Hişmanoğlu, Murat. “Teaching English through Literature”. *Journal of Language and Linguistic Studies, Vol.1, No.1, 2005,p. 57.*

DOI: 10.36078/1653410390

DOI: 10.36078/1653410390

5. Николаев Н. Ци Бай-ши. М., 1964.
6. Дана, К. А. (2021). История появления жанра “цы”. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(Special Issue 1), 376-381.
7. Рахматуллаева, Д. М. (2021). 浅谈汉语声调教学问题. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 1), 344-348.
8. НАЗАРОВА, С. СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЛЕКСИКИ УЗБЕКСКОГО И КИТАЙСКОГО ЯЗЫКОВ В УЧЕБНЫХ ЦЕЛЯХ.
9. қизи Юсупова, Х. С. (2020). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КИТАЙСКОГО ЯЫЗКА. *Science and Education*, *1*(2), 569-573.

XITOY VA O‘ZBEK TILLARIDA KAUZATIV KONSTRUKSIYALARNING ISHLATILISHI

Lohila Mamurjon qizi ERGASHEVA
Xitoy tili nazariyasi va
amaliyoti kafedrasi stajor o‘qituvchisi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada xitoy va o‘zbek tillarida kauzativ konstruksiyalari haqida muhokama qilinadi. Kauzativning uch hil turi ikki tilda leksik, morfologik, analitik kauzativ turlari tahlil qilinadi. O‘zbek tilida 把 , 得, konstruksiyalari yo‘q , leksik kauzativ faqat o‘timli, fe'l bilan tuzilgan, xitoy tilida esa leksik kauzativ noaniq / ergash fe'l bilan ham ifodalanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: leksik kauzativ, morfologik kauzativ, analitik kauzativ, kauzativ konstruksiyalar.

Annotation. This article discusses causative constructions in Chinese and Uzbek. Three types of causative lexical, morphological, analytical causative types in two languages are analyzed. In uzbek no constructions 把 , 得, lexical causative can be expressed only by transitive verbs, and in Chinese lexical causative can be expressed by indefinite verb.

Keywords: lexical causative, morphological causative, analytical causative, causative constructions.

Ma’lumki, kauzativ — bu o‘ziga xos moyillik, ya’ni “bu moyillikda turgan fe'lning sub'yekti bu fe'l bilan ifodalangan harakatning tashuvchisi emas, balki boshqa odamni bu harakatni bajarishga undaydi”. Ta’sir etuvchi narsa universal kontseptual toifalarga tegishli bo‘lib, turli tillarda va til tizimining turli darajalarida o‘z ifodasini topadi.

 DOI: 10.36078/1653410390

Kauzativni ifodalash usullari hatto bitta tilda ham xilma-xil, ular turli tillarda shunchalik farq qiladi. To‘liq shaklda kauzativ nazariyasi hali shakllanmagan. Hozirgi vaqtda kauzativ kategoriyasi bo‘yicha tadqiqotlar mazmuni jihatidan juda xilma-xil bo‘lib ko‘rinadi. Qoida tariqasida, ular alohida tillarda ifodalash shakli va kauzativ kategoriyasining semantikasini batafsil tahlil qiladilar. O‘zbek va xitoy tillari kauzativni taqqoslovchi tadqiqotlar juda kam. Ushbu maqolada o‘zbek va xitoy tillarida kauzativni tuzilish xususiyatlari lingvistik tipologiya bo‘yicha asarlar asosida taqqoslangan.

Kauzativ konstruksiya ikkita vaziyatni belgilaydi, ular orasida sabab-oqibat munosabatlari mavjud bo‘lib, A holati B holatini real yoki mumkin bo‘lgan dunyolarda amalga oshirilishiga olib keladi. Kauzativ konstruktsiyasining [23] asosiy elementlari , sub'yekt- kauzator (the causer) , kauzator-sub`yekt (the causee) va natija (the result) hisoblanadi. Qoida tariqasida, sub'yekt-kauzator va predikat birinchi vaziyatda A “kauzatsiya qiladi” B vaziyatini "keltirib chiqaradi", sub'yektning holati yoki harakati natijasi o‘zini namoyon qiladi .

Kauzativ semantikasini ifodalash vositalariga qarab, kauzativ uch turga bo‘linadi: morfologik kauzativ, leksik kauzativ, analistik kauzativ. Morfologik kauzativlar (boshqacha tarzda sintetik deb ataladi) va sintaktik kauzativlar (boshqacha qilib analitik deb ataladi) birgalikda leksik kauzativlarga qarshi bo‘lgan grammatik kauzativlar sinfini tashkil etadi.

1. Xitoy va o‘zbek tillarida morfologik kauzativ.

Morfologik kauzativ[24] muntazam va mahsuldor shaklda shakllanadi juda ko‘p allomorfga ega bo‘lgan turli xil qo‘shimchalar orqali (masalan, turk, fink, venger va boshqa tillarda). O‘zbek tili tilshunosligida esa orttirma nisbat qo‘shimchalari orqali kauvativlikni hosil bo‘lishiga doir misollar keltirib o‘tamiz[25].

a) fe'l negiziga -t affiksini qo‘shish bilan : qisqar -t , boyi –t.

b) fe'l negiziga -tir (-dir) affikslarini qo‘shish bilan : kel - tir , chaqir - tir , kul - dir , buz – dir.

v) sh , ch , t , undoshlari bilan tugagan fe'l negizlariga -ir affiksini qo‘shish bilan : shosh - ir , ich - ir , bot - ir

g) oxiri undosh bilan tugagan bir bo‘g‘inli fe'l negizlariga -ar affiksini qo‘shish bilan : chiq - ar , qayt - ar .

d) oxiri undosh bilan tugagan fe'l negizlariga -giz , -giz , -qaz , -gaz , -kaz , -

[23] Абдиев Т. К. Конструкции с каузативными глаголами в киргизском языке. Бишкек, 2009; Аматов А. М. Морфологические каузативы в английском языке//Ярославкий педагогический вестник, 2003, №1.

[24] Turniyozov B. N. Morfologik kauzatsiya haqida //Ilmiy axborotnoma, 2019

[25] Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili (morfemika, so‘z yasalishi va morfologiya). T.: TDPU, 2009

DOI: 10.36078/1653410390

qiz , -kiz affikslarini qo‘shish bilan : tur - giz , eg - iz , o‘t - kaz , qut - qaz , yut - qiz , et - kiz

e) oxiri m , q undoshlari bilan tugagan fe'l negizlariga -iz affiksini qo‘shish bilan : tom - iz , oq - iz , boq - iz .

y) fe'l negiziga -sat (-sa + -t qo‘shma affiksi) affiksini qo‘shish bilan : ko‘rsat (faqat ko‘r fe'l negiziga qo‘shiladi) kabi.

2. Xitoy tilida analitik va leksik kauzativ.

I.A.Melchuk[26] ko‘pgina tillardan kelib chiqib so‘z yasovchi kauzativdan sintaktik kauzativ konstruksiyalar (analitik kauzativ) paydo bo‘lganligini ta'kidladi. Xitoy tilida ham analitik kauzativlar mavjud bo‘lib, ular orasida quyidagi kichik tiplarni ajratish mumkin:

Kauzativ konstruksiyalar: 使 ,令, 让 , 要 , 叫 , 给 , va hokazo. Bu xitoy tilida kauzativni ifodalashning keng qo‘llaniladigan usuli. Bu erda 使 (令, 让, 要, 叫, 给 va boshqalar) so‘zlari to‘g‘ri fe'l emas. Ular mustaqil ravishda ishlatib bo‘lmaydiganligi sababli, ulardan keyin yordamchi vaqt belgilari yoki 了, 着, 过 shakllarini qo‘shib bo‘lmaydi, bundan tashqari ular yo‘nalish, harakat va miqdor ma'nosiga ega fe'llar bilan birlashtirilishi mumkin emas. Grammatiklashtirish natijasida 使, 令, 让, 要, 叫, so‘zlari kauztiv ma'nosini anglatuvchi grammatik belgilarga aylandi. Bunday qurilishdagi so‘z tartibi sabab voqealari tartibiga mos keladi, ya'ni. universal kognitiv qoida: kauzativ holat → kauzativ holat; sub`yekt kauzator → kauzativ harakat → kauzativ predmeti → kauzativ harakatning natijasi.

把 so‘zi bilan kauzativ konstruksiya yasash , bunday kauzativ konstruksiyalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, qoida tariqasida sub'yekt-kauzator harakat ob'yektini ongli ravishda va ataylab keltirib chiqaradi. 把 so‘zidan keyin kauzativ ob'yekti ikkinchi vaziyatda to‘ldiruvchini bildiradi. Semantik jihatdan sub'yekt-kauzator faolligi, oldindan rejalashtirish va harakat erkinligi va kauzator ob'yektning passivligini ta'kidlaydi. Bunday konstruksiyani modeli shundan iborat: Sub`yekt kauzator+ 把+ ob`yekt holati+ fe`l :

(5) **我就把他复印了一份儿。**– Men uni bitta nusxadan ko‘chirib oldim.

(6) **她把事儿好了**这办。U uni qila oldi.

得 so‘zi bilan kauzativ konstruksiya yasash.

[26] Дадуева Е. А. Общая характеристика каузативных глаголов//Вестник СибГУТИ, № 2, 2011.

DOI: 10.36078/1653410390

Bunday kauzatsiyada qo‘zg‘alish yoki kauzativ semantikasini o‘z ichiga oladi.得 so‘zi bilan kauzativ konstruksiya harakatning natijasini ta'kidlaydi, natijada analitik birikma bilan ifodalanadi va predikat fe'l bilan bevosita emas, balki 得 yordamida bog‘lanadi. Semantika nuqtai nazaridan birinchi harakat ikkinchi (kauzativ) harakat natijasining sababi yoki manbai hisoblanadi.

Bunday konstruksiyani modeli shundan iborat: Sub`yekt kauzator+ fe`l1 + 得 + kuzator sub`yekti + fe`l2 :

(7) 狂刮风得我站不住脚跟。– Shamol shu qadar qattiq esdiki, men oyoqlarimga turolmayapman.

(8) 他也照打样得他痕累累们伤。– U yana ularni ko‘karishlar va tirnalishlar bilan kaltakladi.

A va B tiplarda kauzativning harakat sub`yekti harakat natijasining sababi yoki manbai hisoblanadi. Ushbu ikkita kauzativ konstruktsiyadagi mavzu sub'yektning vazifasini bajaradi. B turkumida sababning ma'nosi fe'llar bilan emas, balki butun tuzilish bilan ifodalanadi.

Agar analitik kauzativ gapda kauzativ hodisa aniq markeridan alohida keltirilgan bo‘lsa, u holda leksik kauzativ bu sintetik tarzda ifodalanadi.

Bugungi maqolamizda o‘zbek va xitoy tilida kauzativ konstruksiyalar va ular orasidagi farqlar hamda tafavutlarni oz bo‘lsada ochib berishga harakat qildik. Kauzativ fe`llarning uch hil turini ham tushuntirib o‘tdik. O‘ylaymizki, kauzativ haqida hali amalga oshirilmagan ishlar nafaqat o‘zbek tilida balki xitoy tilida ham juda ko‘p.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдиев Т. К. Конструкции с каузативными глаголами в киргизском языке. – Бишкек, 2009; Аматов А. М. Морфологические каузативы в английском языке//Ярославкий педагогический вестник, 2003, №1.
2. Дадуева Е. А. Общая характеристика каузативных глаголов// Вестник СибГУТИ, № 2, 2011.
3. Длугош А. М. Английский аналитический каузатив со служебным глаголом
4. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili (morfemika, so‘z yasalishi va morfologiya). –T.: TDPU, 2009
5. Turniyozov B. N. Morfologik kauzatsiya haqida . – Ilmiy axborotnoma, 2019
6. 樊友新从"被就业"看"被"的语用功能 [期刊论文] -合肥师范学院学报 2010.

 DOI: 10.36078/1653410390

7. Karimov, A. A. (2022). The Problem Of The Grammatical Category Of The Chinese Language. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, *5*, 226-229.
8. Yusupova, K. S. (2020). On the modern word formation methods in chinese. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, *9*(12), 36-42.

XITOY TILSHUNOSLARINING SINONIMIYA HODISASI HAQIDAGI ISHLARI TAHLILI

Tursunoy Zoyir qizi ERMATOVA
2-bosqich magistranti
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ilmiy rahbar: DSc, dots. Nasirova S.A.

Annotatsiya. Mazkur maqolada xitoy tilida sinonimlar, sinonimiya hodisasi borasida xitoy tilshunoslarining tahlili haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: sinonimlar, 同义词 [tóngyìcí] *sinonim*,等义词 [děngyìcí] bir-*biriga aynan o‘xshash so‘zlar*, 近义词 [jìnyìcí] *yaqin ma’noli so‘zlar*, sinonimiya, 同义说 [tóngyìshuō],近义说 [jìnyìshuō].

Xitoy tilshunosligida ma’nosi bir-biriga yaqin, lekin turlicha talaffuz qilinadigan so‘zlar sinonimlar deb ataladi. Bunda juda ko‘p jihatlar e’tiborga olinadi.

“Hozirgi zamon xitoy tili” kitobi mualliflari jamoasi: “Sinonim so‘zlar faqatgina turli xil talaffuz va ohangga ega bo‘lgan so‘zlardir” – deydilar.Lekin, ko‘p hollarda xatoliklarga ham yo‘l qo‘yilishi ta’kidlanadi. Umumiy tilshunoslikda “sinonim” tushunchasiga ta’rif berishda turli nuqtai nazarlar mavjud. Shunday nuqtai nazarlardan bizga yaxshi tanish bo‘lganlari ikki-uchta. Birinchisiga ko‘ra, sinonim so‘zlar – bu bir xil ma’noga ega, lekin shakli turli xil bo‘lgan so‘zlardir. Bu fikrni ko‘pchilik olimlar qo‘llab-quvvatlaydilar.

Ikkinchisiga ko‘ra, sinonim so‘zlar – bu talaffuzi turlicha, ma‘nosi esa bir xil emas, juda yaqin bo‘lgan so‘zlardir. Bunday nuqtai nazarni esa ko‘pchilik mashhur tilshunoslar himoya qiladilar.

Bu ikki xil nuqtai nazardan ikkinchisiga qo‘shilgan holda, uni to‘g‘ri deb hisoblab, sinonimlarga o‘z ta’rifimizni berishga harakat qilamiz: “Bir so‘z turkumiga oid

 DOI: 10.36078/1653410390

bo‘lgan, turli shaklda yozilib, lekin ma’no jihatdan bir-biriga yaqin, ba’zan esa juda yaqin bo‘lgan so ‘zlarga sinonim deyiladi”.

Xitoy tilida 同义词 [tóngyìcí] *sinonim*, 等义词 [děngyìcí] *bir-biriga aynan o‘xshash so‘zlar*, 近义词 [jìnyìcí] *yaqin ma’noli so‘zlar* tushunchalari mavjud bo‘lib, ularning uchalasi ham sinonimlarni ifodalaydi. 同义词 [tóngyìcí] tushunchasi nisbatan umumiyroq tushuncha hisoblanadi, mazkur so‘z tadqiqotchining nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, 等义词[děngyìcí] va 近义词 [jìnyìcí] tushunchalarini o‘z ichiga olishi ham, olmasligi ham mumkin.

Xitoy tilidagi aynan 等义词 [děngyìcí] tushunchasiga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tushunchani o‘zbek tiliga “bir-biriga yaqin ma’noli so‘zlar” deb tarjima qilish mumkin. Bu tushunchaning kelib chiqish bilan bog‘liq savollar, shuningdek, 等义词 [děngyìcí] va 同义词 [tóngyìcí] tushunchalarining sinonim yoki sinonim emasligi va ular o‘rtasida bog‘liqlik bor-yo‘qligi haqidagi savollar tadqiqiotchilar o‘rtasida bir qator bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan. Xitoy tilidagi adabiy yodgorliklardan birida aytilishicha, yaqin ma’noli so‘zlar – bu ma’no jihatdan va ushbu ma’no hajmi jihatdan farqlarga ega bo‘lmagan so‘zlardir. Shu bilan bir vaqtda mazkur so‘zlarni mutlaq sinonim sifatida e’tirof etish uchun ham hech qanday dalillar mavjud emas.

Bundan tashqari, 等义词 [děngyìcí] lar 同义词 [tóngyìcí] tushunchasiga mansub so‘zlardir degan fikr ham mavjud. Mazkur nuqtai nazar sinonimlarni yaqin ma’noli so‘zlar sifatida e’tirof etish natijasida vujudga kelgan. Shu bilan bir vaqtda, xitoy tilidagi sinonimlarning aniqlanishiga bag‘ishlangan ko‘pgina ishlarda so‘zlar semantik xususiyatlarga ko‘ra farqlanishi mumkin.

Xitoyda sinonimlarning o‘rganilishiga zamonaviy yondashuv XX asrning o‘rtalaridan boshlandi.Yuqorida ta’kidlanganidek, sinonimlarga yaqin (bir xil) ma’noli so‘zlarni kiritish mumkin. Mazkur fikrni ko‘pchilik taqdqiqotchilar ma’qullashar ekan, ular sinonimik munosabatlarining asosi deb so‘zlar o‘rtasidagi ma’noviy o‘xshashlikni e’tirof etadilar. Li shu xin o‘zining “Sinonimlar va yaqin ma’noli so‘zlar tavsifi” deb nomlangan ishida quyidagi sinonimlarni tahlil qilar ekan: 拉 [lā] *“tashimoq, tashib yurmoq*”; 背[bēi] “*olib bormoq, eltmoq*”; 牵 [qiān] “*eltmoq, olib bormoq*”; 抻 [chēn] *“sudramoq*”; 扯 [chě] “*sudramoq*”; 抽 [chōu] “*sudramoq, tashimoq*”; 拔 [bá] *“tortib*

DOI: 10.36078/1653410390

ketmoq”; mazkur sinonimik qatordagi so‘zlardagi so‘zlardan umumiy ma’noni ajratib ko‘rsatish mumkinligini aytib o‘tadi[27].

Bu fikrga qarama-qarshi nuqtai nazar ham vujudga keldiki, unga asos qilib sinonimlarning ikki mutlaq bir xil ma’noga ega bo‘lgan ikki yoki undan ortiq so‘zlar ekanligi haqidagi nazariya olingandi. Mazkur nuqtai nazar “ma’no jihatdan yaqin so‘zlar tushunchasi” - 同义说 [tóngyìshuō] nomini olgan. Mazkur nazariya katta rivojlanishga ega bo‘lmadi, chunki ko‘pchilik tilshunoslarning fikricha bu nazariyada nazarda tutilgan sinonimlar soni chegaralangandir. O‘zbek tilshunosligida mazkur tushuncha “mutlaq sinonimlar” deb nom olgan.Mutlaq sinonimlarning asosiy xususiyati ularning chegaralangan ma’noviy bir xillikka egaligidir, bu esa so‘zlar ma’nolarining aynan o‘xshash ekanligini anglatadi.

Ma’no jihatdan mutlaq mos tushuvchi so‘zlar nazariyasini yaqin ma’noli so‘zlar nazariyasi bilan bir qatorga qo‘yish mumkin, mazkur nazariya muayyan xususiyatlar bilan farqlanuvchi “yaqin ma’noli so‘zlar tushunchasi” – 近义说 [jìnyìshuō] nazariyasi deb ataladi.

Xitoy tadqiqotchilari o‘rtasida yana shunday fikr mavjudki, ung ko‘ra ma’no jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlar 近义词 [jìnyìcí] deb ataluvchi alohida guruhga mansubdir. Mazkur nuqtai nazarga ko‘ra yaqin ma’noli so‘zlarni sinonim deb hisoblab bo‘lmaydi, chunki bu so‘zlar ma’no chegarasi, ta’sirchanlik darajasi, tushuncha yoki hodisaning baholashi, turli uslublarda qo‘llanilishi jihatidan turlicha bo‘lishi mumkin.

Zou Yu-hua “现代汉语词汇**学**”[Xiàndài hànyǔ cíhuì xué] “Hozirgi zamon xitoy tili leksikologiyasi” o‘quv dasturi semantika bo‘limida 同义词 [tóngyìcí] tushunchasiga atroflicha izoh berib o‘tgan[28].

Xitoy tilshunosi 贺国伟 [Hèguówěi] o‘zining 现代汉语同义词词典[Xiàndài hànyǔ tóngyìcí cídiǎn] “Zamonaviy xitoy tili sinonimlar lug‘ati” kitobda sinonim so‘zlarni keltirish bilan bir qatorda, ularga oid ayrim sharhlar ham keltirilgan[29].

---

[27]Li Shu Xin. Xitoy tili tasviriyl eksikologiyasi(qaytanashr).Pekin.”Shangu” nashriyoti, 2005. 255 b.

[28]Zou Yu-hua “现代汉语词汇**学**”[Xiàndàihànyǔcíhuìxué] “Hozirgizamonxitoytili leksikologiyasi”,2001,b,800.

[29]贺国伟 [Hèguówěi] o’zining 现代汉语同义词词典[Xiàndài hànyǔ tóngyìcí cídiǎn] “Zamonaviy xitoy tili sinonimlar lug‘ati” ,2005,b,380

 DOI: 10.36078/1653410390

Xitoy tilidagi sinonim so‘zlar 同义词[tóngyìcí] — bu bir tushunchani anglatuvchi so‘zlardir. Aynan shu umumiy tushuncha sinonimlarni yaqinlashtiradi, umumlashtiradi. Sinonimlar semantik jihatdan yaqin, o‘xshash, parallel holda mavjud bo‘lgan so‘zlardir. Ma’noviy yaqinlikka ega bo‘lish bilan birga, ular o‘rtasida nozik ma’noviy farqlar ham mavjuddir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Li shu xin .Xitoy tili tasviriy leksikologiyasi(qayta nashr).Pekin.”Shangu” nashriyoti,2005.
2. Zou Yu-hua “现代汉语词汇学”[Xiàndàihànyǔcíhuìxué] “Hozirgizamonxitoytili leksikologiyasi”,2001.
3. 贺国伟 [Hèguówěi] o‘zining 现代汉语同义词词典[Xiàndài hànyǔ tóngyìcí cídiǎn] “Zamonaviy xitoy tili sinonimlar lug‘ati” ,2005.
4. Nasirova, S. A. (2020). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. – Opcion: Revista de CienciasHumanas y Sociales, 260-273.
5. Дана, К. А. (2020). ВЛИЯНИЕ ФИЛОСОФИИ УСИН НА ЭТИМОЛОГИЮ И СЕМАНТИКУ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ ОТДЕЛЬНЫХ ГРУПП СЛОВ). In *Россия-Китай: история и культура* (pp. 35-40).

XITOY TILIDA TABU VA EVFEMIZMLAR

Madina Qahramon qizi FAYZULLAYEVA
Xitoy tili nazariyasi va
amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Jamiyatimizda yuz berayotgan o‘zgarishlar, ularning tilga ta’siri turli shakllarda namoyon bo‘layotgan hozirgi kunda tilshunoslik fani oldiga ham yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Anglashiladiki, til taraqqiyoti global muammolarining yechimi uslubshunoslikni notiqlik san’ati ilmi maqomiga ko‘tarishni, jumladan, funksional uslublarda qo‘llaniladigan evfemik vositalarni tadqiq qilish, evfemiyalogiyani ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan mustaqil soha- tilshunoslikdan o‘sib chiqqan fan sifatida asoslash, dastur va darsliklar, lug‘atlar tuzish kabilarni taqozo qiladi.

Kalit so‘zlar: tabu so‘zlar kategoriyasi,, evfemizm, o‘lim, to‘y marosimlari, kamtarlik, urf-odatlar, irim-sirimlarga xos bo‘lgan evfemizmlar.

DOI: 10.36078/1653410390

Abstract. The changes taking place in our society, and their impact on language in various forms, pose new challenges to the science of linguistics today. It is understood that the solution to the global problems of language development is to raise the status of methodology to the status of the science of oratory, including the study of euphemistic tools used in functional methods, to establish euphemism as a scientifically and theoretically independent branch of linguistics. and textbooks, dictionaries, and so on.

Keywords. category of taboo words, euphemisms, death, wedding ceremonies, humility, customs, superstitious euphemisms.

Evfemizm leksik birlik deb qaralganligidan bo‘lsa kerak, u leksikologiya bo‘limidan o‘rin olgan. Tilda tabu va evfemizmlarni o‘rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki til tarixi va etnografiyasi uchun ham ahamiyatlidir.

Tildagi tabu va evfemizm nutqda biror bir hurmatni bildiruvchi yoki aksincha salbiy tushuncha, hodisani bildiruvchi so‘zlarni ta’qiqlash asosida vujudga keladi. Madaniyat rivojlanishining ilk davrlariga xos bo‘lgan predmet va uning nomi o‘rtasidagi tabiiy bog‘liqlik haqidagi tasavvur, so‘z sehr-u jodusi va tabu ya’ni, ma’lum predmet va hodisalarning nomlari (Hudo nomlari, ruh, shayton, o‘lim, kasallik, ba’zi hayvonlar, odam tana a’zolari nomlari)ni ta’qiqlashni keltirib chiqaradi. Tabu va evfemizmlarning nafaqat ularning keng miqdoriy tarkibga ega ekanligida, balki uning semantikasining kengligi va uslubiy sifatining xilma-xil ekanligidadir, tabuning maqsadi jamiyatda zarur bo‘lgan tushunchani emas, balki so‘z-nomni iste’moldan chiqarishdir. Shu tariqa tabu mexanizmi, ya’ni bir so‘zni boshqa bir so‘z bilan almashtirish yoki nomlashini o‘zgartirish bilan aniqlanadi. Tabulashgan so‘zni almashtiruvchi so‘z yoki ibora esa evfemizm hisoblanadi.

“Tabuni buzish o‘z-o‘zidan jazoni keltirib chiqaradi. Har xil ilohiy kuchlar, jin va ruhlarga ishonish, tabu buzilgan holatlarda ular tomonidan jazoni taqoza etadi. Boshqa holatlarda jazo jamiyat tomonidan ham berilishi mumkin. Shunday qilib ilk jazo shakllari tabu bilan bog‘liq bo‘lgan. Tabuni buzgan inson o‘zi ham tabuga aylanadi.”[30]

Tabu so‘zlar va evfemizmlar aka-uka egizaklardir, tabu so‘z bormi, evfemizm bo‘lishi tabiiy hol sanaladi. Xitoy “tabu” so‘zlari ancha oldin qadimgi adabiy yodgorliklarda ya’ni Xan millati kitobi – Yi Ven Jida aytilishicha: ”tabu yoki tabu so‘zlardan qochish so‘zlari barcha-barchasi hosil qilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytib bo‘lmaydigan ammo boshqa tilni o‘rnini bosadigan tillar sifatida qo‘llash fenomenidir”

[30] Фрейд З. Табу и тотем. Москва, 1960. С. 36-38.

 DOI: 10.36078/1653410390

Tabu so‘zlar ikki xil kategoriyaga bo‘linadi, “禁”-jin, man qilish, uni tilga olinishiga ruxsat berilmaydi, unga mos bo‘lgan o‘rinbosar bo‘lmaydi; ”忌”-ji ,urf-odat va an’analar yoki o‘zidan kelib chiqib biror nutq yoki ish-harakat, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalab bo‘lmaydi, noaniq-mujmal yoki bilvosita shaklda o‘rnini bosadi, bu o‘rinbosar evfemizmdir. Masalan: Xitoy tilining o‘ziga xos spesifik odam ismlaridagi tabular “禁” dir, muloqot davomida tilga olishi mumkin bo‘lmagan (Hozirgi zamonaviy xitoy tilida o‘ziga xos ajdodlar nomi), unga mos bo‘lgan o‘rinbosar bo‘lmaydi. Ammo “死”-si, o‘lish “忌”-ji kategoriyasiga tegishlidir.

Shuning uchun tabu so‘zlar bu oldingi shakl, odamlar aytishdan qochadigan hodisadir. Evfemizmlar tabu so‘zning anglatadigan tushunchasini ifodalaydi. Masalan: “死”-si, o‘lish, o‘lim; “大小便”-daxiaobian, hojatga chiqish; “怀孕”-huaiyun, homilador bo‘lish so‘zlari tabu so‘zlar hisoblanadi. “安眠”-anmian, “方便”-fangbian, “有喜”-youxi so‘zlari esa ana shu tabu so‘zlarni o‘rnini bosuvchi evfemizmlardir, ularning anglatadigan ma’nolari bir xildir. “安眠” evfemizm so‘zi “死” tushunchasini, “方便” evfemizm so‘zi “大小便” tushunchasini, “有喜” evfemizm so‘zi “怀孕” tushunchasini ifodalab kelmoqda. Tabu so‘z bu sabab bo‘lsa, evfemizm bu natijadir.

Umuman olib qaraganda evfemizm so‘zining hosil bo‘lishi tabudan boshlangan. Evfemizmlar tabu so‘zni o‘rab olishi natijasida hosil bo‘lgan. Ular jamiyat ehtiyoji, psixologik ehtiyoj, ahloqiy ehtiyojlar sababli paydo bo‘lgan.

Xitoy tili evfemizmlari ko‘lami juda ulkan va murakkabdir. Hozirgi kunda evfemizmlarga tizimli ta’rif bergan Jang Gong Gui tahriri ostidagi “Xitoy tili evfemizmlari lug‘ati”, xitoy tilidagi barcha evfemizmlarning 3000taga yaqin evfemizmlarni o‘zida jamlagan, xitoy tili evfemizmlari ularning tarkibi, farqli jihatlariga qarab ilmiy klassifikatsiya qilingan, unga ko‘ra evfemizmlar 13 turga bo‘lingan.

Qadimgi adabiy hurmat-kamtarlik uslubi nomiga qaraydigan bo‘lsak, muloqot davomida ikkinchi tomonni ulug‘lash uchun hurmat uslubini o‘ziga maqsad qilib qo‘ygan, shu bilan birga o‘zini yerga urish uchun kamtarlik usuli qo‘llaniladi. Agarda bir paytning o‘zida evfemizmni ifodalashi davomida yana hurmat-kamtarlik munosabatini ifodalasa, bu hurmat-kamtarlik uslubi sanaladi. Masalan, “死”-si ga nisbatan turli xil ifoda ko‘rinishlari hurmat va xotirlashni ifodalash uchun qo‘llaniladi. Hurmatli kishining “死”-dunyodan

 DOI: 10.36078/1653410390

o‘tganini, o‘lganini ifodalash uchun nazokat bilan “仙逝”-xianshi, farishta dunyodan o‘tdi, “归末”-guimo, samoga qaytdi, “与世长辞”-yushi changci, abadiylikka ketdi, “仙游 ”-xianyou, ruhi orom topdi kabi so‘zlardan foydalanamiz. Bu nazokatli so‘zlar hammasi yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan, chuqur hurmat qilinuvchi, odamlar hurmatiga sazavor bo‘lgan kishilarga nisbatan qo‘llanadi, aksincha o‘zini nazarda tutib yoki dushmanlik ko‘zi bilan qaraydigan kishiga nisbatan qo‘llanilmaydi. Sababi, ular jiddiy hurmat ma’nosini o‘zida mujassamlashtirgandir. Shu sababdan, bunday turdagi evfemizmlarni hurmat ifodalovchi so‘zlar sifatida qaraymiz. O‘zini-o‘zi “o‘lishi” haqida aytganda yumshoqlik bilan “完蛋”-wandan, “上四天”-shangsitian, “见阎王”-jian Yanwang, “命呜呼”-mingwuhu kabi so‘zlarni qo‘llashimiz mumkin. Bunday evfemizmlar o‘zida salbiy ma’noni saqlagan bo‘ladi, kishi o‘zini kamtar tutayotganini ifodalab keladi, bularni kamtarlik so‘zlari deb atasak ham bo‘ladi. Yana bir xil evfemizmlar bo‘lib, ular hurmat so‘zlariga ham, kamtarlik so‘zlariga ham tegishli emas, “死” ya’ni o‘limning evfemizmlariga misol: “老了”-laole, “不在了”-buzaile, “过去了”-guoqule, “过世”-guoshi, dunyodan o‘tdi, o‘tib qoldi “谢世”-xieshi, yaxshi dunyodan ketdi “作古”-boshqa dunyoga ko‘chib ketdi kabilar tilda odatiy qo‘llaniluvchi so‘zlar, hurmat so‘zlariga tegishli emas. Qadim xitoy odamlari jozibador so‘zlashuvni sevganlari bois ular “归天”-guitian, osmonga qaytmoq evfemizmi “驾鹤西游”- jiahe xiyou, turnaga o‘tirib g‘arbga sayohat qildi kabi iboralardan ham foydalanishgan. Bu kabi evfemizm iboralar insonlarga qo‘rquv hissini yengillashtirishga yordam beradi.

Ko‘pgina so‘zlar xitoy tilida to‘y marosimlari bilan bog‘liq bo‘lgan evfemizmlardan iborat. “出嫁”- chujia, turmushga chiqmoq o‘rniga “出门”-chumen, “结婚”-jiehun, turmush qurmoq o‘rniga, “终身大事”-zhongshendashi, hayot davomidagi buyuk ish so‘z birikmalari ishlatiladi. Bu kabi evfemizmlar, albatta, xitoy xalqining mentaliteti va psixologiyasidan kelib chiqqan holda sipolik, sirlilik, ichki ishonuvchanlikni anglatadi.

Qadimdan xitoy tilida muloqot olib boorish jarayonida o‘zi bilan bog‘liq odam yoki narsa-hodisani nomini aytishda kamtarlik usulidagi so‘zlardan foydalanilgan, masalan o‘zini “仆”-pu, cho‘ri “鄙人”-biren, sodiq qulingiz; xotiniga nisbatan “内子”- neizi, “内人”-neiren, “拙荆”-zhuojing; o‘g‘liga nisbatan ”犬子”-quanzi, it, kuchuk; ammo boshqa

 DOI: 10.36078/1653410390

kishi bilan bog‘liq bo‘lgan odam yoki narsa-hodisalarning hammasida hurmat so‘zlari qo‘llaniladi. Boshqa bir kishining xotini chaqirilganda “”-furen, qadimda bir knyazning ayolining nomi, keyinchalik hurmatni ifodalash ma’nosida biror bir kishining ayoliga nisbatan qo‘llanilgan. “太太”-taitai, qadimda katta mansabdagi kishining ayolini cho‘rilar tomonidan atalishi; boshqa kishining o‘g‘il-qizini “令郎”-linglang, “令嫒”-lingyuan; boshqa kishini uyini “府上”-fushang, qasr deb atashgan.

“为人”weiren so‘zi “ikki xil aloqa bog‘lanishli” evfemistik versiyadir, tabu qo‘pol-beadab, madaniyatsiz hodisalardan qochish uchun; “山陵崩” shanlingbeng so‘zi bu “死”si so‘zining evfemistik versiyasi bo‘lib, bu tabu baxtsizlik olib keluvchi so‘zini aytishdan qochish uchundir. Boshqa odamni “执事-zhishi, 足下-zuxia, 左右-zuoyou”, o‘zini bo‘lsa “牛马走-niumazou, 仆-pu, 竖子-shuzi” deb atashning sababi boshqalar uni haqorat qilib qo‘yishdan saqlanishdir. Shu bilan birga qadimda qisqartirish, 缺笔 (quebi- ma’nosi iyeroglifdagi yozuvning, chizgilarning kam-ko‘sti borligi), iyeroglif xatosini to‘g‘irlash va boshqa iyeroglif bilan ishlab tabu iyerogliflarni o‘rniga boshqasini qo‘yilib, evfemistik natijaga erishilgan. Bir namunali misol keltiradigan bo‘lsak, feudal jamiyatda imperator cheksiz hokimiyatga ega bo‘lgan. Uning ism-sharifi oddiy xalq tilga ololmaydigan tabu so‘zga aylangan. Ochig‘ini aytganda bu jinoyat qatl qilinish kabi halokatga sabab bo‘lardi. Masalan, Chin sulolasidagi imperator Kanxining ismi Xuanhua bo‘lgan. Odamlar imperatorning tabusini buzmaslik uchun barcha “Xuan” deb yozilgan joylarni “Yuan” deb o‘zgartirib qo‘yishgan. “Xuansun” ham “Yuansun” deb o‘zgartirildi.

Xitoyliklar biror shaxsga rad javobi aytishda ham evfemizmlardan foydalanishadi. Ularning ko‘nglida rad javobi bo‘lsa ham tilda aytmaydilar. Chunki suhbatdoshni kutilmagan rad javobi bilan noqulay vaziyatga tushirmaslik hamda ko‘nglini og‘ritmaslik uchundir. Masalan: “行，行，行，以后再说、” (xo‘p, xo‘p, xo‘p yana bir gapalashamiz), “好，好，先把材料放在这儿吧” (yaxshi, yaxshi, ma’lumotlarni bu yerga qo‘yib ketaqoling), “来日方长” (hali vaqt bo‘ladi, oldinda kunlar ko‘p), “改天吧” (boshqa safar). Bu kabi so‘zlar chiroyli ko‘rinishdagi rad javoblari hisoblanadi.

“Xitoy madaniyatidan qadimgi davrdan katta hajmdagi tabular saqlanib qolgan. Zhou sulolasining urf-odatlar kitobida yozilishicha, boshqa mamlakat yoki podsholikka tashrif

 DOI: 10.36078/1653410390

buyurishdan oldidan, ko‘ngilsizliklarning oldini olish maqsadida shu mamlakatning urf-odatlari va tabulari haqida tanishib chiqilgan.”[31]

Ko‘p sonli tabular e’tiqod va din bilan o‘zaro aloqadordir. Qachonlardir suv ilohiy sanalgan paytda, pichoqni suv va quduqlar oldida charxlash man etilgan edi. Insonlar bu kabi harakatlarni buyuk suv ruhini jahlini chiqarishi mumkin deb o‘ylashgan. G‘azablangan Suv bir qancha kulfatlarga sabab bo‘lishi mumkin deb ishonishgan.

Uzoq o‘tmishdagi insonlar jin-ajinlarga va ruhlarga qattiq ishonishgan. Agarda qo‘shnilardan kimningdir uyida ta’ziya bo‘lib qolsa, uning uyi oldida yashovchi insonlar o‘sha kuni guruchdan taom tayyorlamaslikka harakat qilishgan. Sababi, ular yoyilgan guruchlarni o‘ziga yomon kuchlarni chaqirib oladi degan yomon farazga ishonishgan.

Qadimgilar tabiatning barcha ne’matlariga sig‘inishgan, jumladan, quyosh, oy, yulduz, daraxt, o‘simlik, uy-joy, mulk. Darxtlarni kesish ham ularni yoqish ham gunoh sanalgan bo‘lib, bunday yomon ishlar insonlarga albatta zahmat yetkazadi deb o‘ylashgan. Xitoyliklarda har oyning va har yilning oxirida quyosh tutilishi ham tabu sanalgan. Azaldan oy taqvimining oxirgi kuni eng baxtsiz kun deb hisoblangan. Agarda shu kunda qandaydir tadbir o‘tkazilsa, ichib, ko‘ngilxushlik qilinsa, ularning nazdida bu urush bo‘lishi mumkin deb hisoblangan. Xalq orasida g‘oyat hurmatga sazavor insonlar Buyuk Faylasuf Konfutsiy va Xitoy Imperatorlari nomini hurmat bilan tilga olishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent. “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi”, 2002. 164-b.
2. Кацев А.М. Языковое Табу и эвфемия. Л.ЛГПИ, 1989. — С.79.
3. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М.:РАН,2005.
4. Будагов Р.А. Введение в науку о языке. – М.:Индрик, 2003
5. Чжан Чан. Эвфемизация и русском и китайском языках. Автореферат на соискание научной степени. 2013. 26 с.
6. Фрейд З. Табу и тотем. Москва. 1960. С.36-38.
7. Дана, К. А. (2020). ВЛИЯНИЕ ФИЛОСОФИИ УСИН НА ЭТИМОЛОГИЮ И СЕМАНТИКУ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ ОТДЕЛЬНЫХ ГРУПП СЛОВ). In *Россия-Китай: история и культура* (pp. 35-40).
8. http://www.google.com
9. http://referat.ru

[31] Чжан Чан. Эвфемизация и русском и китайском языках 2013. Автореферат на соискание научной степени. 26 с.

DOI: 10.36078/1653410390

10.http://wikipediya.com
11. http://ziyo.uz

TEACHING METHODS OF ORIENTAL LANGUAGES FOR KINDERGARTEN AGE CHILDRENT (IN THE EXAMPLE OF CHINESE-中文)

Shodiya Sherzod qizi ISMAILOVA
a graduate student at the Oriental philology
Uzbekistan State University of World Languages

Abstract. It is known that today the issues of language teaching to young children remain relevant, especially Oriental languages ...Along the way, it is time to understand what aspects need serious attention in order to develop kindergarten children's talents and abilities in Oriental languages. If teachers and parents want to teach children languages by self-study, they must be always on a lookout for new ways to make their language teaching ways more interesting.

Keywords: characters, visual memory, picture notebooks for painting, mosaics, possibility of comparison, alphabet, the basis of the Chinese characters, cartoons in Chinese.

Аннотация. Известно, что на сегодняшний день остаются актуальными вопросы обучения детей языкам раннего возраста, особенно восточным языкам. Попутно пора понять, какие аспекты требуют серьезного внимания, чтобы развивать у детей дошкольного возраста таланты и способности к восточным языкам. Если учителя и родители хотят обучать детей языкам путем самостоятельного изучения, они должны всегда искать новые способы сделать это интересным.

Ключевые слова: иероглифы, зрительная память, тетради для рисования, мозаика, возможность сравнения, алфавит, основа китайских иероглифов, мультики на китайском.

Annotatsiya. Ma'lumki, bugungi kunda yosh bolalarga, ayniqsa, sharq tillariga til o'rgatish masalalari dolzarbligicha qolmoqda...Bu yo'lda bog'cha bolalarining sharq tillarida iste'dod va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qaysi jihatlarga jiddiy e'tibor berish kerakligini anglash vaqti keldi. Agar o'qituvchilar va ota-onalar bolalarga yangi til

 DOI: 10.36078/1653410390

o‘rgatmoqchi bo‘lsalar, ular har doim til o‘rganish usullarini yanada qiziqarli qilishning yangi usullarini izlashlari kerak.

Kalit so‘zlar: ierogliflar, vizual xotira, rasm chizish va bo‘yash uchun rasm daftarlari, mozaikalar, taqqoslash imkoniyati, alifbo, xitoy belgilarining asosi, Xitoy tilida multfilmlar.

As we all know, children and adults have different learning systems and methods.Research on teaching Chinese, Korean, and Japanese to kindergarten-age children shows that nearly 90% of children of this age have a strong development of visual memory by drawing and painting shapes. Learning a new language can be a difficult mission sometimes, and Chinese might be quite a challenge. It is young children’s interest in antique shapes that helps them quickly remember Korean, Japanese and Chinese. They read simplified Chinese characters fluently and also recognize an unknown number of traditional Chinese characters without the aid of Pinyin or Zhuyin.

Chinese characters are the art of drawing. The classification of characters in it at a glance gives the observer an interest in how to write and a desire to try to write. In short, children of kindergarten age have a much stronger chance of remembering characters than adults. To do this, before teaching children the Chinese, it is necessary to start with:

– picture notebooks, which are made up of keys (刀, 口, 山, 子, 女) that are the basis of the Chinese characters and are designed to be painted;
– mosaics of characters and a variety of fun and attention-grabbing scatter cubes radically change the learning and speed up the learning process;
– to show a variety of interesting but not difficult cartoons in Chinese My advice for teaching with Chinese cartoons is: Turn on subtitles and let the children have fun learning;

Example: “The Monkey King” – 孙悟空 (sūn wùkōng)

-to tell stories in Chinese;

Example: 1)海上和床上 – On the sea and in bed (a Chinese story)

2)“The S “Big Ear TuTu” – 大耳朵图图 (dà ěrduǒ tútú)

3)“Big Ear TuTu” – 大耳朵图图 (dà ěrduǒ tútú)

4) “Pororo the Little Penguin” – 小企鹅宝露露 (xiǎo qì'é bǎo lùlù)

5) “Nine Songs of the Moving Heavens” – 天行九歌 (tiān xíng jiǔ gē)

 DOI: 10.36078/1653410390

-to make learn Chinese songs and poems (not difficult ones) by heart. Similarly in China, there are few famous poems that every child is expected to memorize. Parents will usually beckon over their child and ask them to recite the poems, and teachers at school will test children on these poems as part of class. Unlike Chinese tongue twisters, which are just for fun, these poems have great cultural significance, passed down from generation to generation;

Example: 1) A famous poem that every Chinese kid knows; "咏鹅 (YǑNG É)" – An ode to the goose 鹅、鹅、鹅，(é é é) 曲项向天歌。(qū xiàng xiàng tiān gē) 白毛浮绿水,(bai máo fú lǜ shuǐ) 红掌拨清波(hóng zhǎng bō qīng bō)

English Translation:

Goose, goose, goose, You bend your neck towards the sky and sing. Your white feathers float on the emerald water, Your red feet push the clear waves.

2) "春晓 (CHŪNXIǍO)" – Spring morning 春眠不觉晓，(Chūn mián bù jué xiǎo,) 处处闻啼鸟。(chù chù wén tí niǎo.) 夜来风雨声，(Yè lái fēng yǔ shēng,) 花落知多少(huā luò zhī duō shǎo)

English Translation:

I wake up with the sun up high. Birds chirp everywhere in the sky. Last night a rainstorm passed by. Flowers must have fallen down. -to download resources for kids learning Chinese. Children always want to play something on the mobile phone. Parents can download for them interesting Chinese games;

Example: 1) Chinese Apps for Kids – For Chinese natives & learners
2)Traditional Chinese Games & Toys
3)Bilingual Chinese Games

Chinese Product Reviews

1)Luka Reading Robot – Reads Chinese & English Books
2)Youdao Chinese Dictionary Pen – Reads & Translates Chinese

It should be noted that it is not recommended to start equal teaching of Korean, Japanese, Chinese and similar languages that are partially similar to each other in kindergarten age children. This is because children of this age have a weak ability to differentiate and compare, and excessive difficulty leads to a loss of interest in children.

To come to conclusion, Many parents around the world are realising the benefits of learning Chinese including celebrity and high profile parents such as Mark Zuckerberg. Teaching Chinese is so useful for memory of children and adults too. In Uzbekistan, it is

 DOI: 10.36078/1653410390

advisable to teach English and Russian together with Oriental languages, because English and Uzbek are close in alphabetical order. And this is not a problem for Uzbek-speaking children. Chinese classes for children do need some time for managing the kids, but this is not limited to language learning, as is the case with any youth curriculum. Today, the need and demand for learning Oriental languages among young children in Uzbekistan is growing rapidly. First of all, there is an important difference: children obviously need more interesting class activities. The role of teachers and of course parents in teaching and engaging young children in their languages is invaluable. Parents who want to develop their child's ability to speak multiple languages can, first and foremost, choose a specific Eastern language and work together to gradually improve Western languages (that the alphabet is available).

References

1. Queenie Law. Chinese For Kids First 50 Characters Ages 5+ (Simplified)-2018.
2. 崔水华，杨寄州。汉语课堂教学技巧。北京。2002.
3. Xakimova, S. H. E. (2021). 课堂游戏运用与技巧. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(Special Issue 1), 263-267.
4. Назарова, С. А. (2016). Проблема формирования лексической компетенции студентов в процессе обучения китайскому языку в научно-методической литературе. *Преподаватель XXI век*, *3*(1), 93-99.
5. Kh, B. G., & Sh, M. K. (2019, November). Enhancing ICT Technologies in Teaching, Learning and Assessment of foreign languages in Uzbekistan. In *2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT)* (pp. 1-3). IEEE.
6. SAMATOVA, B. (2014). Motivational issues in language teaching. *Motif Akademi Halkbilimi Dergisi*, (2), 359-363.
7. Yusupova, K. S. (2020). On the modern word formation methods in chinese. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, *9*(12), 36-42.
8. https://goeastmandarin.com/best-ways-for-children-to-learn-chinese/
9. https://blog.tutorabcchinese.com/mandarin-kids/5-famous-poems-that-every-chinese-kid-knows

QORAXITOY DAVLATINING (西辽 XILIAO) JIN SULOLASI BILAN MUNOSABATLARI

DOI: 10.36078/1653410390

Dilnoza Shuhrat qizi ISMOILOVA
Sharq filologiyasi fakulteti FXIT-2109 guruh talabasi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ilmiy rahbar:Matyoqubov Ikrom

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixiy faktlardan foydalangan holda yoshlarni ma’naviy quvvatga, kelajak avlodni mardlik, matonat va mardlikka yetaklovchi ibratli voqealar bilan yoritilgan. Shu bilan birga, davlatda millatni siyosiy jihatdan yuksaltiruvchi omillar, diplomatik munosabatlar siyosatning to‘g‘ri yo‘nalishi ekanligi hamda kishilik jamiyatining rivojlanishi va tarixiy assimilatsiyani vujudga kelishi va buyuk ipak yo‘lining ushbu assimilatsiyaga ta’sir kuchlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: assimilyatsiya, tanazzul, kamolot, Buyuk ipak yo‘li, Uzoq sharq, ittifoq.

1125-yilga kelib, Liao (辽 líao) mamlakati to‘liq parchalanib ketganidan so‘ng, Liao qo‘mondoni Elui (俄旅 é lǚ) o‘zining kichik bo‘linmasi bilan qochishga muvaffaq bo‘ldi. U tang‘utlar bilan ittifoq tuzishga harakat qiladi. O‘sha paytda jinlar (金 jin) o‘zlarining harbiy ekspeditsiyasini Elyuy ortidan jo‘natdilar. 1128-yilgacha Lyao qo‘mondoni Elyuy (俄旅 é lǚ) o‘zining kichik bo‘limi bilan tatar qabilalari orasida yashiringan. Jinlarning ta’qibi tugamagach, Liao qo‘mondoni Elyuy (俄旅 é lǚ) o‘zining kichik bo‘linmasi bilan Sharqiy Turkiston tomon yo‘l oldi. 1130-yilda ular o‘zlarining g‘arbiy mamlakati Liao (西 辽 xīliáo) ni tashkil qildilar. Turkiy manbalarda u Qoraxitoy mamlakatini anglatadi.1143-yilda Elyuy (俄旅 é lǚ) vafot etdi.Uyg‘ur elchisi uning o‘limi haqida jurjenlarga xabar berganidan keyin Jurjen elchisi Nange Hannu (囡戈汉奴 nān gē hàn nú) Uyg‘ur elchisiga vataniga qaytganida unga hamrohlik qilib, Qoraxitoy o‘lkasiga boradi. O‘sha paytda u yo‘qoladi. Oradan uch yil o‘tib, 1146-yilda bu odam qoraxitoydan otdan tushmasdan navbat talab qilganida qoraxitoylar tomonidan o‘ldirilgani ma’lum bo‘ldi.Jurjenlarning umumiy ahvolini tavsiflab, Shi-tsun (史遵 Shi-zun) shunday dedi: "Men Dashi[32]ning yarashganidan juda xursandman, ayniqsa Jurjen davlati bilan urush juda

[32] Dashi (大使 dashi) o'sha paytda Liao imperiyasining generali Elyuga berilgan unvon edi.

[2] Shanuyu "Qadim zamonlardan to afyun urushigacha Xitoy tarixining essesi" "Moskva" 1959-yil 305-337.

[3] Vorobyov M.V. "Jurchcheni va Jing mamlakati" "Fan" 1975-yil 295-35

DOI: 10.36078/1653410390

quvonchli." [2] Bunday to‘qnashuvlar ostida Jurjonlar yerida qolgan kidanlar qo‘zg‘oloni yotadi. Kidaniylar guruhi 1161-yilda Saba (仨拔 sā bá) ismli odamga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardilar.Bu qo‘zg‘olonni bostirish vaqtida Jurgen qo‘mondonlari qo‘zg‘olonchilarning orqasidan quvdilar. Buning sababi chegaradan qochishdir. Ammo tarafdorlari o‘rtasida ixtiloflar paydo bo‘lgach, Sabaga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarilib, u vafot etdi[3]. U birinchi bo‘lib Lyntszyuy (囵咀 lún jǔ hozirgi Kerulen) daryosiga qochib ketdi. Daryodan o‘tib, Qoraxitoy mamlakatiga ketayotganda vafot etadi.

1177-yilda Yurgen amaldorlari chegarada 4 muhojirni hibsga oldilar va ular qoraxitoylar mamlakati fuqarolari edi.[4]

1178-1188-yil Vangyan Tcian (王燕现 Wangyan Xian) qoraxitoylarni imperatorga bo‘ysundirish rejasini taqdim etadi. Biroq, bu reja 1190-yilda, ikki yildan so‘ng amalga oshirildi. Qoraxitoylarning Jurjenlarning bojxona to‘lovchilariga aylanishida boshqaruv kengashi a’zosi Vanyan Ango katta xizmat qildi.[5]

1179- Bu ma’lumotlarga qo‘shimcha ravishda Jin Shi (金史 Jingshi), Beyishitszi (北史记 Beishiji) va Xi Yutsi (西域及 Xiyuji) kabi ko‘plab misollar mavjud. Yuqorida tilga olingan asarlarning mualliflari Og‘uzun Junduani va Chang Chun (长春 Changchun) 1420-yillargacha Shimoliy Xitoy bo‘ylab sayohat qilgan barcha tajribalarini o‘z asarlarida yozib qoldirganlar. Bu ikki sayohatchi qalamiga mansub quyidagi asarlar o‘sha davrning bugungi yangiligi bo‘lib, hozirgacha tarixiy dalil bo‘lib kelgan.

1180- Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, 1208-yilda, 1211-yildan so‘ng, ya’ni mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng Og‘uzun: “Mo‘g‘ullar istilosidan keyin asta-sekin O‘rta Osiyo xalqlari bilan assimilyatsiya bo‘lib, huihe (回河 hui hé) ga aylanganlar. Ya’ni ular mahalliy xalqqa qo‘shiladilar.O‘rta Osiyo xalqlari va Qoraxitoylar o‘rtasida assimilyatsiya jarayoni bor. O‘sha davrda Sharqiy Turkistonda asta-sekin assimilyatsiya jarayonida islom ularning ruhiyatiga singib ketgan va biz bilamizki buning asosi pedagogika bo‘lganligi haqiqatdir.

Oltonlar imperiyasining Turkistonning sharqiy qismidagi xalq va elatlar bilan munosabatlari boshqa mamlakatlarnikidan keskin farq qilar edi.

Jurjen xalqlari imperiya tashkil topgandan keyin diplomatiyaga kirishadi. Bu shuningdek, Jurjenning Shimoliy va Markaziy Xitoyni bosib olishi bilan bog‘liq. Aynan shu bosqin janubiy quyoshning Turkistonning sharqiy qismi bilan aloqasini yo‘qotdi.

[4] "Yigirma tòrt sulola tarixi" Pekin 1910-yil,142-180-betlar.

[5] http://v.baidu.com/

DOI: 10.36078/1653410390

1126-yilda Xotandan janubiy quyosh imperiyasiga elchixona tashrifi bo‘lib o‘tadi, shundan so‘ng janubiy quyosh imperiyasiga elchixona tashrifi mumkin bo‘lmaydi. 1172-yilda Yurgen uyg‘urlarga ta’sir o‘tkaza boshladi. Xan (汉 Han) va Tan(唐 táng) sulolalaridan keyin Turkistonning sharqiy qismi jurjenlar ta’sirida katta bo‘lgan. Xitoydagi imperiyalar ichida Oltan imperiyasi Turkistonning sharqiy qismida uchinchi o‘rinda turadi. Bu imperiyalarning G‘arb bilan aloqalarini izchil mustahkamlab borishining sababi: birinchidan, mavjud yangi yerlarni bosib olish uchun ittifoqchilar izlash, keyin esa bu mamlakatlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirish edi. Bu aloqalar Buyuk ipak yo‘lining rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Yurgenlar, yuqorida ta’kidlanganidek, xitoyliklarga qaraganda savdoga unchalik qiziqmagan. Lekin uyg‘urlar yordamida ular harbiy yurish qildilar. O‘sha paytda Altoniylar bosqinining uchqunlari bo‘lmagan, ammo mo‘g‘ullarning vaqti-vaqti bilan hujumlari bo‘lgan. O‘sha davrdagi bosqinchi xalqlarning ko‘pchiligi jurjenlardan uzoqda yashagan desak, xato bo‘lmaydi. Shunday bo‘lsa ham, mo‘g‘ullar kuchayib borayotgan kuch edi va bu borada Yurgen katta xatoga yo‘l qo‘ydi. Mo‘g‘ullar istilosi esa jurjenlarning butunlay yo‘q qilinishiga olib keldi. Altan uchun bunday kuchli tajovuz imperiyani inqirozga olib keladi. Keyinchalik bu bosqin natijasida Jurjen elchilari Chingizxonga tovon to‘lash uchun Yaqin Sharqqa ergashdilar.

Shunday qilib, Jurjenlarning tashqi dunyoga intilishlari Xitoyning Xan va Tang sulolalariga qaraganda ancha zaif edi.Ammo tarixda u Xitoydagi boshqa sulolalarga, jumladan, Quyoshlarga qaraganda ancha faol edi. Jurjenlarga yetti suv, Turkiston va umuman O‘rta Osiyo sirli G‘arbdek tuyulardi. Shuning uchun ularni g‘arb mamlakatlari bilan aloqa qilishga undagan bir sir bor edi. Aytish joizki, jurjenlar mo‘g‘ullar va ularning Sharqdagi qo‘shnilari haqida sunniylarga qaraganda ko‘proq bilishgan. Og‘un Junduani va Chang chunning tipik tarixchisi Chang Chun o‘zining tarixiy yilnomalarida shunday deydi: Bu so‘zlardan ma’lum bo‘ladiki, liaoslar o‘z yurtlaridan quvg‘inga uchragan bo‘lsalar ham, ular haligacha otliqlikda tengdosh ko‘rsatmagan. Ular bu yerlar bo‘ylab sayohat qilib, g‘arb geografiyasi, etnografiyasi va tarixiga oid ko‘plab manbalarni keltirib o‘tadilar. U o‘sha yurtdagi xalqlarni sanab o‘tar ekan, qabilalarga to‘xtalmaydi. Chunki, yuqorida aytib o‘tilganidek, merkit, nayman, uyg‘ur, qarluq qabilalari ular bilan yaxshi tanish edi.

Jurjen G‘arbni qo‘lyozmalar va yozma xaritalar orqali o‘rganadi va keyin sayohat uyushtiradi. Jurjonlarning ko‘p qabila va elatlar bilan imzolagan shartnomasi va boshqa ba’zi rasmiy hujjatlar bizgacha yetib kelmagan. Bunday rasmiy hujjatlarga qaramay, Turkistonning sharqiy qismini geografik va etnografik jihatdan o‘zgartirishga Olton imperiyasi katta hissa qo‘shganini aytishimiz mumkin.

DOI: 10.36078/1653410390

1131-yilda alttlarning harbiy qo‘mondoni Uchju (吴主 Wuzhu) Tubot podsholigiga bostirib kirdi. Tubot podsholigi (hozirgi Tibet) tufanlar (xalqning nomi) tomonidan tuzilgan, jurjenlar esa ular bilan chegaradosh edi.

Biroq, manbalar bizga yetib kelmagani bois, To‘fonning diplomatik aloqalari yo‘nalishi va xarakteri haqida aniq bir narsa deyish qiyin. Jurjenlarning yorqin tarixi "Jinshi" (金史 Jinshi) kitobida tasvirlanganida, muallif bu kichik saltanat haqida bir og‘iz so‘z aytmaydi. Uning keyingi taqdiri haqida ham bizda hech qanday ma’lumot yo‘q, faqat shuni aytishimiz mumkinki, ChiChjanghui (其张灰 qi zhāng huī) 12-asrning 30-yillarida Chjao Qingxia (赵庆夏 zhàoqing xia) qo‘mondonligi ostida Tibet chegara qo‘shinlarini bosib olgan. Shu bilan birga, o‘n besh mingga yaqin tinch aholi zarar ko‘radi. Chjao Qingxia ((赵庆夏 zhàoqing xia) — Tufan qabilasining boshlig‘i Liubo (留搏 liú bó) avlodi. Hatto Xay Lingvanning yozma manbalarida ham bu shaxs tilga olingan. Bu xalqning Yurgen madaniyatiga qo‘shgan hissasi haqida bizda hech qanday ma’lumot yo‘q. Bizningcha, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarga tang‘utlar ham katta hissa qo‘shgan. Yurgenlar toshqinlardan ko‘ra tang‘utlarga ko‘proq qiziqardi. Ulardan keyin mo‘g‘ul aloqasi keladi. 13-asrga kelib mo‘g‘ullarning tashqi siyosatdagi roli yaxshilandi.

Xulosa qilib aytganda, bu ikki mamlakat xalqlari shu paytgacha assimilyatsiya qilingan va yo‘q bo‘lib ketgan. Bu ikki xalqning mentaliteti zaiflik va diniy e'tiqodning yetishmasligidan kelib chiqadi. Xalqlarning assimilyatsiyasi pedagogik va didaktik usullarga qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunda kelajak avlodni ma’naviy qo‘llab-quvvatlashning asosiy omili ma’naviyatimiz qirralarini ochib berishdir. Bu jihatlarni ochib berishda qurolimiz pedagogika va didaktika, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Vorobyov M.V. "Jurchcheni va Jing mamlakati" "Fan" 1975-yil 295-353
2. Shanuyu "Qadim zamonlardan afyun urushigacha Xitoy tarixining ocherki" "Moskva" 1959-yil 305-337.
3. Vyatkin R.V. Tixvinskiy S.L. "P.R.Ch." Tarix fanining ba'zi masalalari bo‘yicha "Fan" Moskva 1963 yil.
4. “Yigirma to‘rt sulola tarixi” “Pekin 1910 yil, 142-180-betlar.0 (“二十四史’’ 北京 1910 年 142-180 页)
5. http://v.baidu.com/

DOI: 10.36078/1653410390

XITOY TILIDA YO‘NALISHNI IFODALOVCHI YORDAMCHI TO‘LDIRUVCHILARNING GAPDA QO‘LLANILISHI VA TARJIMADAGI MUAMMOLARI

Ma’mura Israilovna ISRAILOVA
Xitoy tili nazariyasi va amaliyoti o‘qituvchisi
Sharq filologiyasi fakulteti

Annotation. In Chinese, the parts of speech expressing the object are the main object (宾语) and auxiliary object (补语), as well as the adverb of state (状语). The parts expressing the object in Chinese are somewhat similar to the parts expressing the object in Uzbek. The only difference is that Chinese auxiliary object (补语) in Uzbek is expressed by adverbs, adjectives, and by adverbs of time and auxiliary verbs where the meaning of some 补语 are expressed by adverbs of time and auxiliary verbs expressed by the locative case. This article will talk about the use of auxiliary objects expressing the direction in Chinese, in a sentence, as well as about problems and solutions in translation.

Key words: Chinese language, Uzbek language, main object, auxiliary object

Annotatsiya. Xitoy tilida obyektni ifodalovchi bo‘laklar asosiy to‘ldiruvchi (宾语 bin yu) va yordamchi to‘ldiruvchi (补语 bu yu) hamda hol (状语 zhuang yu) bo‘laklari hisoblanadi. Xitoy tilidagi obyektni ifodalovchi bo‘laklar o‘zbek tilidagi obyektni ifodalovchi bo‘laklar bilan bir muncha o‘xshash. Farqli tomoni xitoy tilidagi yordamchi to‘ldiruvchi (补语 bu yu) o‘zbek tilida ular ravishdosh, sifatdosh va ba’zi 补语 larning ma’nosi esa o‘rin payt kelishigi bilan ifodalanuvchi payt ravishlari va ko‘makchi fe’llarga to‘g‘ri keladi. Ushbu maqolada xitoy tilida yo‘nalishni ifodalovchi yordamchi to‘ldiruvchilarning gapda qo‘llanilishi va tarjimadagi muammolari va yechimlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: xitoy tili, o‘zbek tili, asosiy to‘ldiruvchi, yordamchi to‘ldiruvchi.

Xitoy tilida to‘ldiruvchilar ikkiga bo‘linadi:

1. Asosiy to‘ldiruvchi

 DOI: 10.36078/1653410390

2. Yordamchi to‘ldiruvchi

Gapdagi biror bo‘lakni to‘ldirib, unga boshqaruv yo‘li bilan tobe holatda bog‘langan bo‘lak to‘ldiruvchi asosiy to‘ldiruvchi (宾语) deyiladi. Asosiy to‘ldiruvchi ot, olmosh, son, sifat, fe’l va hisob so‘z kompleksi orqali ifodalanadi[33]. Masalan :

我去过长城 — *Men Xitoy devoriga borganman*.

Xitoy tili grammatikasiga ko‘ra bu misoldagi asosiy to‘ldiruvchi “长城” (Xitoy devori) so‘zi o‘rin – joy oti bilan ifodalangan.

Xitoy tilida obyektni ifodalovchi bo‘laklar asosiy to‘ldiruvchi (宾语 bin yu) va yordamchi to‘ldiruvchi (补语 bu yu) hamda hol (状语 zhuang yu) bo‘laklari hisoblanadi. Xitoy tilidagi obyektni ifodalovchi bo‘laklar o‘zbek tilidagi obyektni ifodalovchi bo‘laklar bilan bir muncha o‘xshash. Bitta farqli tomoni xitoy tilidagi yordamchi to‘ldiruvchi (补语 bu yu) o‘zbek tilida ular ravishdosh, sifatdosh va ba’zi 补语 larning ma’nosi esa o‘rin payt kelishigi bilan ifodalanuvchi payt ravishlari va ko‘makchi fe’llarga to‘g‘ri keladi.

Xitoy tilida yordamchi to‘ldiruvchilar 补语 gap bo‘lagi hisoblanadi. Ular gapda fe’l - kesimdan keyin turadi. Yordamchi to‘ldiruvchili gaplarning vazifasi shuki, ular ikkita gap orqali beriladigan fikrni bitta sodda gap yordamida ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, yordamchi to‘ldiruvchi ortiqcha takrorlarga yo‘l qo‘yilishini oldini oladi. Ba’zan ular o‘zbek tilida ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasiga ham to‘g‘ri keladi. Tarjima jarayonida yordamchi to‘ldiruvchilarni ravishdosh bilan ifodalangan vaziyat holi, sifatdosh bilan ifodalanadgan sifatlovchi aniqlovchilar bilan ifodalanishi mumkin.

Masalan: 会议室打扫干净了。（**会**议室被打扫了；**会**议室干净了。）

Majlis xonasi tozalab yig‘ishtirildi. (majlis xonasi yig‘ishtirildi; majlis xonasi toza.)

Xitoy tilida yo‘nalish fe’llari mavjud bo‘lib, ular ish – harakatni qay tomonga yo‘nalishini ko‘rsatadi. Undan so‘lovchini turgan nuqtasi orqali ish - harakatni qay tomonga yo‘nalishini bilish mumkin. Masalan,

她走进了妈妈的房间。 U onasining xonasiga kirib ketdi.

Yo‘nalishni ifodalovchi fe’llar ikki xil bo‘ladi: sodda va qo‘shma fe’llar.

[33] Hoshimova S., Nosirova S. Xitoy tili grammatikasi. T., 2012,

DOI: 10.36078/1653410390

Sodda fe’llar 9 ta “ **来** lai - *kelmoq*, **去** qu – *ketmoq*, **进** jin – *kirmoq*, 出 chu - *chiqmoq(tashqariga),* **上** shang – *tepaga*, **下** xia – *pastga,* **回** hui- *qaytish*, **过** guo – *o‘tish (yo‘lni kesib o‘tish),* **起** qi – *ko‘tarish*, **开** kai - *boshlash*”.

Qo‘shma fe’llar **进来** jin lai – *kirib kelmoq*, **进去** jin qu – *kirib ketmoq*, **出来** chu lai – *chiqib kelmoq*, **出去** chu qu – *chiqib ketmoq*, **上来** shang lai – *yuqoriga chiqib kelmoq*, **上去** shang qu – *yuqoriga chiqib ketmoq*, **下来** xia lai – *pastga tushib kelmoq*, **下去** xia qu – *pastga tushib ketmoq*, **回来** hui lai – *qaytib kelmoq*, **回去** hui qu – *qaytib ketmoq*, **过来** guo lai – *yoniga kelmoq*, **过去** guo qu – *o‘tib ketmoq*, **起来** qi lai – *ko‘tarmoq*, **开来** kai lai – *boshlamoq.*

Yo‘nalish fe’llari (趋向动词) yo‘nalishni ifodalovchi yordamchi to‘ldiruvchilar （趋向补语）vazifasida ham keladi. Gapda ular asosiy fe’ldan keyin qo‘llanilib, ish - harakatni qay tomonga yo‘nalishini ko‘rsatadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bu asosan so‘zlovchi turgan nuqtaga bog‘liq. Obyekt so‘zlovchi turgan nuqtaga qarab harkatlansa “**来** lai - kelmoq” fe’li ishlatiladi. Agar obyekt so‘zlovchi tomonga emas, balki, boshqa nuqtaga qarab harakatlansa unda “ 去 qu - ketmoq” fe’li qo‘llaniladi. Masalan,

把那些东西拿**来**吧。 (Ba na xie dong xi na lai ba)

Ana u narsalarni olib kela qol.

Bu gapda obyekt (nasalar) gapiruvchi turgan nuqtaga qarab harakatlangan, shuning uchun “**来**” fe’li ishlatilgan.

把这些东西拿**去**吧。 (ba zhe xie dong xi na qu ba)

Mana bu narsalarni olib keta qol.

Bu gapda esa obyekt (narsalar) gapiruvchi turgan nuqtadan boshqa tomonga qarab yo‘nalganligi uchun “去” fe’li qo‘llanilgan.

Qo‘shma fe’llarning asosiy ma’nolari ushbu “**来**” hamda “去” fe’llarining ma’nolari bilan bog‘liq. Masalan,

她走**上来**。 *Ta zou shang lai.* *U (tepaga) chiqib keldi.*

 DOI: 10.36078/1653410390

Bu gapda “ u ” chiqib kelayotgan odamning harakati pastdan tepaga qarab yo‘nalganligi uchun “上”(*tepa),* gapiruvchi turgan nuqtaga qarab harakatanayotganligi uchun “**来**” *(kelmoq)* yo‘nalish fe’llari qo‘llangan. Demak, qo‘shma fe’l orqali biz so‘zlovchi turgan joyni aniqlashimiz mumkin bo‘ladi. Buni quyidagi misollar orqali ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

她走**下楼去** *Ta zou xia lou qu* *U zinadan pastga tushib ketdi*

她回**学校去**了 *Ta hui xue xiao qu le* *U maktabiga qaytib ketdi*

Ushbu gaplarda obyekt pastga harakatlanganini “下– pastga” va gapiruvchidan uzoqlashganini “去 – ketmoq” fe’llari orqali bilishimiz mumkin.

Gapda asosiy fe’ldan keyin kelgan har qanday yo‘nalish fe’llari bu yo‘nalishni ifodalovchi yordamchi to‘ldiruvchilardir. Shu bois misollardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, qo‘shma fe’llar tarkibidagi sodda fe’llarni ma’nolariga qarab ularni qay tomonga yo‘nalayotganligini aniqlashimiz mumkin bo‘ladi.

Yozma va og‘zaki nutqda ko‘pincha qo‘shma fe’llarda, ayniqsa, “ 出**来** chu lai chiqib kelmoq/ 进去 jin qu – kirib ketmoq/ 过来 guo lai – (yoniga) kelmoq/ 过去 guo qu – o‘tib ketmoq /起**来** qi lai – boshlamoq” fe’llarining tarjimalarida ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yishiga guvoh bo‘lamiz. Sababi ular yo‘nalish fe’llarini tarjimalarini bilishsada, biroq so‘zlovchining turgan nuqtasini anglay olmay qolishadi. Masalan: *U sumkasidan qog‘oz chiqardi(**她从**包里拿**出来**一张纸)* gapini tarjima qilishda ko‘pchilik ***她从**包里拿一张纸* ya’ni *U sumkadan bitta qog‘oz oldi* deb tarjima qilishadi. Ob’ekt (qog‘oz) so‘zlovchi turgan nuqtaga qarab harakatlanyapti, shuning uchun nutqda, albatta, “出**来**” yordamchi to‘ldiruvchisini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Yo‘nalishni ifodalovchi yordamchi to‘ldiruvchili gapning asosiy to‘ldiruvchisi narsa – buyumni ifodalasa unda gap tuzilishi **“ega + kesim +来/去 (asosiy)to‘ldiruvchi ”** ko‘rinishida bo‘ladi.

Agar gapda yo‘nalishni ifodalovchi yordamchi to‘ldiruvchi va o‘rin- joy bildiruvchi so‘z bo‘lsa unda gap konstruksiyasi **“ega + kesim + o‘rin- joy bildiruvchi so‘z+ 来/去”** ko‘rinishiga o‘zgaradi. Masalan:

她进教室**去**。*U xonaga kirib ketdi.*

DOI: 10.36078/1653410390

Ushbu konstruksiya nutqda qiyinchilik tug‘diradi. Sababi ko‘pchilik asosiy to‘ldiruvchiga ahamiyat bermasdan, barcha gaplarda birinchi konstruksiya, ya’ni “ega + kesim +来/去 (asosiy)to‘ldiruvchi ” ni qo‘llaydi. Bu holat tarjimada jiddiy xatoni keltirib chiqaradi. Masalan:

× **她进去**教室。　　√ **她进**教室**去**。*U xonaga kirib ketdi*.

Agar gapda 离合动词(o‘rtasida to‘ldiruvchi qabul qiluvchi qo‘shma fe’llar) kelsa, unda asosiy fe’ldan keyin to‘ldiruvchi, undan keyin esa yordamchi to‘ldiruvchi keladi. Masalan:

说**起**话**来**　*gapira boshladi*　　回 **过**头**来**　*boshiga qaytdi*

Yo‘nalish to‘ldiruvchili gaplarni qo‘llashda eng avvalo uning asosiy to‘ldiruvchisiga ahamiyat berish lozim. Asosiy to‘ldiruvchiga qarab biz qaysi konstruksiyani qo‘llashimiz mumkinligini bilishimiz mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. S.Hoshimova, S. Nosirova “Xitoy tili grammatikasi” T-2012
2. 卢福波，“ 对外汉语教学实用语法” 北京-2011
3. 张丽娜，“汉语阅读教程” 北京- 2010
4. 汉俄词典 ，上海汉学院，北京-2008
5. Khakimova, S. (2021). STANDARDS AND METHODS OF NEWS TRANSLATION OF THE CHINESE LANGUAGE. *Academic research in educational sciences*, *2*(6), 1044-1049.

BAHO KATEGORIYASINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Umida Asqarjon qizi IRGASHEVA
Xitoy tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda ko‘p ishlatiladigan aksiologiyaning ajralmas qismi bo‘lgan baho kategoriyasining semantik xususiyatlari, ushbu kategoriyaga olimlarning munosabati hamda xitoy tilidagi ayrim frezeologizmlarni baho kategoriyasiga ajratish masalalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: aksiologiya, baho kategoriyasi, semantika, bahoning turlarga ajratilishi, keskin baho, taqqosiy baho, tabaqalash bahosi, ko‘rinmas baho.

DOI: 10.36078/1653410390

Annotation. This article examines the semantic features of the evaluation category, which is an integral part of Axiology, commonly used in linguistics, the attitude of scientists to this category, as well as the issues of separation of some Chinese-language phraseologies into the evaluation category.

Keywords: Axiology, price category, semantics, price separation, sharp price, comparative price, stratification price, invisible price.

Tilshunoslikda baholash modallikning bir turi sifatida qaraladi, bu lingvistik ifodalarning identifikatoriga kiritilgan. Baholash modallikning alohida elementlari emas, balki butun nutq bilan belgilanadi va nutqning tarkibiy qismini tashkil etadi. Misol uchun, yaxshi qiz, dangasa bola. Bu yerda baholash so‘zning semantikasida, u dangasa odam edi, lekin hozir mehnatsevar, bu yerda baholash butun nutqning mazmunida mavjud.

Kontekstga kiritilgan holda, baholash bir qator o‘z ichiga olgan maxsus tuzilish bilan tavsiflanadi majburiy va bir qator ixtiyoriy elementlardan iborat bo‘ladi. Baholash aksiologiyaning ajralmas qismi bo‘lib, bu borada ko‘pgina olimlar ilmiy ishlarida to‘xtalib o‘tganlar.

Baholash haqiqatning asosiy toifalaridan biridir. Inson atrofdagi haqiqatni, dunyodagi mavjud narsalarni, hodisalarni, xususiyatlarni, harakatlarni tahlil qiladi. Uning fikrlari, harakatlari, his-tuyg‘ulari bo‘lgan odam ham tahlil qilinadi. Shunday qilib, deyarli barcha narsalar baholash obyektlari bo‘lishi mumkin. Barcha baholash insoniy qadriyatlar tizimiga, ya’ni yaxshilik va yomonlik, foyda va zararning nisbatlariga asoslanadi.

Baholash toifasini o‘rganish aksiologiyaga murojaat qilish bilan bog‘liq. Aksiologiya (grek. axios qimmatli + logos ilm-fan, ta’lim) – qadriyatlar haqidagi falsafiy ta’limot bo‘lib, obyektiv va tarixiy jihatdan tan olingan axloqiy, estetik va boshqa qadriyatlar.[34]

Aksiologiya – qadriyatlar nazariyasi, uning istaklari, intilishlari, qiziqishlari mavzusi bo‘lgan shaxs uchun muhim bo‘lgan, afzal qilingan imtiyozlar, obyektlar haqida umumlashtirilgan barqaror g‘oyalardir.

Baholash dunyodagi qiymat rasmini shakllantiradigan omil sifatida qaraladi, chunki qiymat tushunchalari har bir madaniyatga xosdir. Jamiyatning qadr-qimmati, baholashda ifodalangan qadriyatlar majmui va ierarxiyasini o‘z ichiga oladi. Baholash jarayoni – obyektning qiymatini amalga oshirishning bir usuli bo‘lib, obyektning qiymat obyektivligini bilish, baholash mavzusiga aylangan qiymat obyektivligi to‘g‘risida hukm shaklida amalga oshiriladi.

[34] Т. В. Егорова. Словарь иностранных слов современного русского языка, с. 26. М.2014 г.

 DOI: 10.36078/1653410390

Baholash til ifodalari bilan birga keladigan modallik turlaridan biri hisoblanadi. Faqat aloqa jarayonida subyektiv munosabat va baholashning og‘zaki ifodasi bo‘lishi mumkin, shuning uchun subyektiv usul kommunikativ toifadir. So‘zlovchining so‘zning mazmuniga nisbatan subyektiv munosabatini ifodalaydi.

Yevropa olimi Teliyaning ta’rifiga ko‘ra, baholash uslubi so‘zlovchi/tinglovchining qiymat yo‘nalishi o‘rtasida tuzilgan va haqiqat bilan belgilanadigan munosabatlar, ba’zi bir narsalar yoki vaziyatlarning «standarti» ga muvofiq har qanday asosda ijobiy yoki salbiy jihatdan baholanib, dunyodagi ma’lum biro lam manzarasida baholash normalariga asoslanadi. Shuning uchun baholash usuli — bu xususiyatlar majmuasini o‘z ichiga olgan tartibli tuzilishdir.

Baholash tarkibi. Rus tilshunosi Y. Volfning fikriga ko‘ra til nuqtai nazaridan baholashni hisobga olgan holda, uning barcha tarkibiy qismlari **majburiy** va **ixtiyoriy** ravishda bo‘linishi mumkin. Baholashning umumiy tuzilishi “bayonotga kiritilgan va uning mantiqiy-semantik tuzilishiga yoki sintaktikga mos kelmaydigan” modal ramka sifatida ifodalanishi mumkin.

Barcha baholash usullari A r B formulasiga qisqartirilishi mumkin, bu yerda A baholash subyekti, B uning obyektiga va r «yaxshi/yomon» qiymatiga ega bo‘lgan baholash nisbati. Ya’ni, baholashning asosiy elementlari uning mavzusi, obyekti, baholash elementi (baholashning tabiati), shuningdek, baholashning asosi, ya’ni qanday nuqtai nazardan baholash hisoblanadi.

Modal qolip tarkibiga shuningdek, baholash shkalasi va stereotiplar kiradi, ularning ta’sirchanligi jamiyatning qiymat yo‘nalishlarining majburiyligi bilan izohlanadi.

Shu tariqa, baholashning asosiy tarkibiy qismlarini tahlil qilamiz: subyekt, obyekt, baholash elementi yoki xarakter, shuningdek, baholash asoslari. Ushbu komponentlar baholashning lingvistik semantikasi tarkibiy qismlari bilan bog‘liq bo‘lib, bu baholash hukmining tuzilishini aks ettiradi.

Baholashning ayrim subyekti ushbu bahoni ifodalash orqali ma’lum bir mavzuga qiymat beradigan shaxs sifatida tushuniladi. Bu empirik tajriba yoki ma’lum bir ong holatidan, shuningdek, umuminsoniy standartlarga asoslangan holda keladi.

Har bir bahoni subyektga moslashtirish, baholashni nisbiylashtirish, baholashning nisbiyligi g‘oyasini qo‘llab-quvvatlash uchun dalil sifatida qaralmasligi kerak. Relativizmning odatiy formulasi, bir kishi uchun yaxshi bo‘lishi boshqa bir kishi uchun yaxshi bo‘lmasligi mumkinligini aytadi va shuning uchun kimga yaxshi narsa borligini ko‘rsatish, ya’ni uni ifoda etgan shaxsni ko‘rsatib, baholashni nisbiylashtirish lozim.

 DOI: 10.36078/1653410390

Baholash predmeti qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan yoki ularning qadriyatlari bilan taqqoslanadigan obyektlar hisoblanadi.

Muayyan qiymatga ega bo‘lgan obyektning o‘ziga xos xususiyati denotativ va kontseptual ahamiyatga ega. Birinchisi, baholashni rag‘batlantiradigan obyektlarning xilma-xilligi bilan bog‘liq, ikkinchisi-baholashni rag‘batlantiradigan obyektlarning xususiyatlarini tavsiflovchi tushunchalar bilan bog‘liq.

Baholashning tabiati haqida gapirganda, u ikki bosqichli tarkibga ega ekanligini ta’kidlash kerak. Birinchi bosqichda barcha baholarni ikki guruhga bo‘lish mumkin. Ulardan birinchisi «yaxshi», «yomon», «yaxshilik», «yomonlik», «befarq» kabi so‘zlarni ishlatadigan mutlaq baholarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchidan, «yaxshiroq», «yomonroq», «teng» kabi atamalar yordamida ifodalangan qiyosiy baholar.

Mutlaq va qiyosiy baholashning birlamchi/ikkilamchi muammosi aksiologiyaning asosiy muammolaridan biridir.

Har ikki turni baholashning ikkinchi bosqichida ham obyektning baholash shkalasida (ijobiy / salbiy / befarq zona) obyektga ijobiy yoki salbiy munosabati, shuningdek, mavzuning his-tuyg‘ulari, hissiyotlari va kontseptual dunyosi bilan bog‘liq ravishda o‘rganiladi.

Mutlaq va qiyosiy baholash tushunchalari uchlikdan iborat:

Yaxshi – befarq – yomon.

Yaxshiroq-teng-yomonroq.

«Baholash» so‘zi odatda subyekt va ob’yekt o‘rtasidagi qiymat munosabatlarini o‘rnatish uchun ishlatiladi.

Baholashning to‘rtinchi komponenti uning asosi bo‘lib, bunda mantiqiy va psixologik kategoriya birlamchi hisoblanadi, birinchi navbatda subyektga nisbatan normaga va standartga, foydaga, axloqqa nisbatan o‘zini namoyon qiladi. Baholashning asosi bo‘lib, odatda, uning ko‘p sonli va noaniq klassifikatsiyasi uchun asos bo‘la oladigan tushunchalar hisoblanadi. Xususan, ulardan biri ***ichki baholash*** bo‘lib, uning asosi ma’lum bir tuyg‘u yoki hissiyot hisoblanadi *(bu musiqa yaxshi, u mening quloqlarim uchun yoqimli bo‘lgani kabi.)* va ikkinchisi ***tashqi baholash bo‘lib,*** uning tarkibiga «ideal», standart, norma namuna sifatida kiritiladi.

Bundan tashqari baholashning utilitar turini ham aytib o‘tish mumkin. Bunda ko‘rib chiqilayotgan pregdmetga ijobiy, salbiy yoki nol qiymatiga ega boholash tartibiga ko‘ra emas, balki, ijobiy yoki salbiy baholanadigan boshqa narsalarga erishish yoki yo‘q qilish vositasi sifatida boho beriladi.

Ushbu individual va ijtimoiy baholarning xilma xilligi juda kengdir, u turli xil bog‘liqliklarni bartaraf etishga bog‘liq: subyekt talablariga mos kelish- kelmasligi; yaxshi

DOI: 10.36078/1653410390

- yomon; amaliy foydalanish imkoniyatlari yuzasidan yaroqsiz ; ijobiy yoki salbiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqarish qobiliyatiga ko‘ra: ulug‘vor-yoqimsiz; hohish-istakning muvofiqlik-nomuvofiqligi yuzasidan: qiziqarli-zerikarli.

Lingvistik nuqtai nazardan baholashni tahlil qilish baholash so‘zlari va ularning munosabatlaridagi so‘zlarning ma’nosini subyektiv va obyektiv jihatdan tushunishga asoslangan. N. D. Arutyunovning ta’kidlashicha, «baholash obyektlar va hodisalarning tabiiy, taksonomiyasidan farqli o‘laroq, mutlaqo maxsus yaratadi». Xususiy baholash qiymatlari orasida uchta asosiy guruh mavjud bo‘lib, ular o‘z navbatida yana yettita kichik guruhlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchi guruh - hissiy baholash bo‘lib, ular quyidagilarga bo‘linadi: 1) hissiy ta’m yoki **gedonistik** baholash – bunda insonga nima yoqishi xususiyatiga ko‘ra ajratiladi: *attractive, pleasant* va 2) psixologik, ular orasida turlarga quyidagicha ajratiladi, a) intellektual baholash: *interesting, banal* va b) hissiy: *glad, desirable*.

Ikkinchi guruh sublimatsiya qilingan yoki mutlaq, baholashlar: 1) hissiy va psixologik sintezga asoslangan estetik baholashlar: beautiful, perfect – chiroyli, mukammal; 2) normalarni nazarda tutadigan estetik baholashlar: kind, moral, vicious.

Uchinchi guruhni tashkil etuvchi so‘nggi uchta toifalar insonning amaliy faoliyati bilan bog‘liq ratsionalistik baholashlardir. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1) Utilitar: useful, harmful; 2) normativ: right, normal; 3) teleologik: effective, unsuccessful.

Mantiqiy nuqtai nazardan baholash elementlar majmuasi quyidagilarga mos keladi-subyekt, obyekt, xarakter va baholash asoslari, baholashning modal ramkasini shakllantiruvchi semantikasi-so‘zlovchining qiymati; bu bayonotga «qo‘llaniladigan» modal ramka va uning pragmatik jihatini ifodalaydi-inson o‘zi mavjud bo‘lgan dunyoda o‘zining ahamiyatini bilish va undagi obyektlarning tizimiyligini aniqlash orqali ta’sir qilish istagini namoyon qiladi. Tilda baholash bu semantik kategoriya va uning pragmatik ma’nosini ifodalashda lingvistik vositalarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tahlil qilinadi va bu hodisa yanada murakkab xarakterga ega hisoblanadi.

Ingliz tilshunoslari S. Henston va Dj. Tompson to‘rtta asosiy baholash parametrlarini til toifasi sifatida ajratgan. **Birinchi parametr** «yaxshi-yomon» parametri bilan belgilanadi, ya’ni keng ma’noda baholash ijobiy yoki salbiy his-tuyg‘ularni / hukmlarni / qiymatni ifodalaydi.

Ikkinchi parametr muayyan darajadagi ishonchni o‘z ichiga oladi, ya’ni so‘zlovchi yaxshi yoki yomon narsa ekanligiga ishonch hosil qilishi kerak va bu ishonchni juda aniq ifodalashi kerak.

Uchinchi parametr faktni yoki harakatni ijobiy/salbiy baholashni ko‘rsatadi va **to‘rtinchi parametr** taxmin qilingan haqiqat yoki harakatning muhimligi va ahamiyatini

DOI: 10.36078/1653410390

ko‘rsatadi. Ushbu to‘rtta parametr baholashning qiyosiy, subyektiv va qiymat xususiyatlarini aniqlaydi.

Baholash predmetining semantikasi va pragmatikasini o‘rganishdagi qiyinchiliklar shuningdek, baholash tushunchalarining o‘xshashligi va emotsionalligi (hissiy)da ham namoyon bo‘ladi.

Baholash tushunchalari asosan ijobiy yoki salbiy xususiyatlar to‘plami sifatida predmet, shaxs, hodisaga nisbatan qo‘llanadi.

O‘z navbatida emotsionallik muayyan bir so‘z bilan atalgan so‘zlar guruhi semantikasini hosil qiladi, bunda so‘zlovchining obyektga nisbatan his-tuyg‘usi ifoda etiladi.

Rus tilshunosi A. V. Kunin baholash va emotsionallik bilan bir qatorda yana ikkita toifani ajratib ko‘rsatadi –ta’sirchanlik va intensivlik. «Emotsionallik – bu odamlarning kayfiyatlari va his-tuyg‘ularini lingvistik vositalar yordamida ifodalanishi bo‘lib, bunda ta’sirchanlik so‘z yoki frazeologiya sifatida tavsiflanadi va tasvir, intensivlik va emotsionallikni ko‘rsatadi. Intensivlik esa - obyektning xususiyatlarini kuchaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi». “Baholash, o‘z navbatida, insonning obyektga bo‘lgan munosabati (insonga, hayvonga, harakatga, holatga, vaziyatga va hokazo), bir tomondan obyektiv yoki subyektiv bo‘lishi mumkin, boshqa tomondan, ijobiy yoki salbiy”. A.V. Kuninning ta’kidlashicha, emotsionallik har doim o‘z ifodasiga va bahosiga ega, aksincha emas. Bu shuni anglatadiki, baholash emotsionallik bilan birga bo‘lmasligi mumkin. Natijada, hissiy rangsiz baho berish mumkin, bu esa baholashni obyektiv qiladi.

Emotsional va baholash so‘zlarining mutlaq yoki qisman nisbati haqida aniq aytish mumkin emas. Baholash va emotsionallik nisbatlarini o‘rganish jarayonida uchta asosiy nuqtai nazar paydo bo‘lgan. Birinchi nuqtai nazar tarafdorlari his-tuyg‘ular va baholash tushunchalarini ajratib ko‘rsatadilar, bular I.A. Sternin, V.N. Teliya va boshqalarni o‘z ichiga oladi. “Ma’noning tarkibiy qismini tashkil etuvchi his-tuyg‘ular va baholash orasida birgalikdagi umumiy ma’no va munosabatlar mutlaqo mavjud emas” deb hisoblaydi .

N.A. Lukyanova, L. I. Shabalin, I. N. Xudyakov, aksincha, “Baholash va emotsionallik ikki xil tarkibiy qism emas, ular bir butun, chunki ular tildan tashqari darajadagi baholash va his-tuyg‘ulardir”, deb hisoblashadi. Undan tashqari, baholash so‘zlari har doim so‘zlovchining so‘zlashuv obyektiga olib keladigan his-tuyg‘ular bilan birga keladi. Demak, his-tuyg‘ularning paydo bo‘lishi baholashni talab qiladi degan xulosaga kelish mumkin.

Uchinchi nuqtai nazarga ko‘ra, baholash va emotsionallik qisman mos keladi. “Shubhasiz, baho o‘zining asoslariga ko‘ra ba’zi his-tuyg‘ularga ega bo‘lishi mumkin.

DOI: 10.36078/1653410390

Lekin baholash aql-idrok pozitsiyasidan berilganda, uning asoslari ba’zi namunalar, ideal, standart bo‘lishi mumkin” degan qarashlarni ilgari suradi.

Yuqoridagi baho kategoriyalarni o‘rganib chiqqan holda xitoy va o‘zbek tilidagi frezeologizmlar misolida ikki tilning madaniy qarashlarini hisobga olib quyidagi misollarni keltiramiz:

Taqqoslash baho kategoriyasiga misollar:

1. 见贤思齐(jiànxiánsī qí) - Adabni beadabdan o‘rgan;
2. 聪明的人责备自己，愚笨的人埋怨朋友(cōngmíng de rén zébèi zìjǐ，yúbèn de rén máiyuàn péngyǒu) - Aqlli o‘zini ayblar, aqlsiz o‘zgani.

Tabaqalash baho kategoriyasiga misollar:

1. 量力而行(liànglì ér xín) - Ko‘rpangga qarab oyoq uzat;
2. 人穷被狗欺(rén qióng bèi gǒu qī) - Kambag‘alni tuyaning ustida ham it qopadi.

Keskin ya’ni aniq baholash kategoriyasiga misollar:

1. 七次量衣一次裁 (qī cì liàngyī yī cì cái) - Yetti o‘lchab, bir kes;
2. 养人无恩，养狗有恩- Yetim qo‘zi asrasang og‘zi-burning moy bo‘lar, yetim bola asrasang og‘zi-burning moy bo‘lar.

Yopiq (ko‘rinmas) baho kategoriyasiga misollar:

1. 谎话张不了 (huǎnghuà zhāngbùliǎo) - Yolg‘onning umri qisqa;
2. 金匠识真金 (jīnjiàng shí zhēn jīn) - Zar qadrini zargar bilar.

Ushbu misollar baho kategoriyasining o‘zimiz taxmin qilgan yangi turkumlariga mos ravishda tanlab olindi. Bunda baho kategoriyasining semantik xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Арутюнова Н. Д. Аксиология в механизмах жизни и языка // Проблемы структурной лингвистики. - М.: Наука, 1984.

2. Вольф Е. М. Функциональная семантика оценки. - М.: Наука, 1985.

 DOI: 10.36078/1653410390

3. Кубрякова Е. С. Языковая картина мира как особый способ репрезентации образа мира в сознании человека // Вестник чувашского государственного педагогического университета имени И. Я. Яковлева, 2003. — №4 (38).

4. Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. М.: Наука, 1986.

HOZIRGI ZAMONAVIY XITOY TILIDA KINO SOHASIGA OID LEKSIKANING AFFIKSATSIYA USULIDA YASALASHI

Komilaxon Xayrulla qizi IKROMOVA
2-bosqich magistranti
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Ma’lumki,so’z yasalish usuli mustaqil so’z turkumlariga mansub bo’lib,o’zlashtirma,affiksatsiya,abbreviatsiya,kompozitsiya kabi usullarni o’z ichiga oladi.Mazkur ilmiy maqolada so’z yasashning affiksatsiya usuli haqida qisqacha ma’lumot berilib,hozirgi zamon xitoy tilida kino sohasiga oid leksikasi misolida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: so‘z yasash,affiksatsiya, yarimaffiksatsiya,affiks, prefikslar, suffikslar, yarimsuffikslarni,morfema,abstract ma’no,leksik ma’no, suffiksatsiya usuli.

Annotation. It is known that the method of word formation belongs to independent word groups and includes such methods as assimilation, affixation, abbreviation, composition. is analyzed on the example of the lexicon of the field of cinema in modern Chinese.

Keywords: word formation, affixation, semi-affixation, affix, prefixes, suffixes, semi-suffixes, morpheme, abstract meaning, lexical meaning, suffix method.

Xitoy tilida so‘z yasashning affiksatsiya usuli so‘z qo‘shish usulidan so‘ng ikkinchi o‘rinda turadi. Lekin kino sohasiga oid atamalarning yasalishidagi samaradorligiga ko‘ra so‘z qo‘shish va o‘zlashtirish usullaridan keyingi o‘rinni egalaydi. Tilshunoslikda affiksatsiya va yarimaffiksatsiya usullari ikki xil mustaqil usullar sifatida o‘rganiladi. Ushbu ikki usulning bir -biridan farqi shundaki, birinchi usul yordamida tilda mavjud bo‘lgan so‘zlar va so‘z negizlari asosida yangi so‘zlar hosil bo‘ladi, ikkinchi usulda esa yarimaffikslar yordamida yangi so‘zlar hosil bo‘lishi kuzatiladi. Affiksatsiya usuli so‘z yasalishning morfologik usuliga, yarimaffiksatsiya usuli esa so‘z yasalishning leksik morfologik usuliga kiradi.

Affikslar – grammatik ma’noga ega bo‘lgan morfemalardir. Affikslar o‘z ichiga

 DOI: 10.36078/1653410390

prefikslar, suffikslar va yarimsuffikslarni oladi. [35]Affikslar va yarimaffikslar o‘rtasidagi farqlanish masalasi rus tilshunos olimlaridan V.A.Sikin[36], I.V.Jdankin[37], O.P.Frolova [38]tomonlaridan va xitoy tilshunosi Jen Syuelyan tomonidan o‘rganilgan.

Mazkur ilmiy maqoladan ko’zlangan asosiy maqsad affiksatsiya usulining hozirgi zamon xitoy tilidagi kino sohasiga oid leksikasi misolida tahlil etishdan iborat.Tadqiqot ishida Nosirova S.A “Hozirgi zamon xitoy tili diplomatic atamalarining leksik-semantik va structural tahlili”dissertatsiyasi,Fu Zhong xitoy-rus lug’ati, 电影专业英语——电影英语 术语 词典 keng foydalanildi.

Xitoy tilshunoslari orasida qaysi morfemalarni prefikslar(前缀 qianzhui) deb qabul qilish mumkin yoki mumkin emasligi hususida turlicha fikrlar mavjud. Lu Chjivey fikricha xitoy tilida faqat uchta haqiqiy prefikslar mavjud bo‘lib, ular quyidagilar: 第 di，老 lao va 小 xiao prefikslari[39]. Hozirgi zamon hozirgi zamon xitoy tilidagi kino sohasiga oid leksikasi hosil bo‘lishida 小 xiǎo prefiksining ishlatilishi kuzatiladi. Masalan, 小道具 xiǎodàojù *teatr [kichik] rekvizitlar,* 小型片 xiǎoxíng piàn *qisqa metrajli film* kabi misollarda 小 xiǎo prefiksining ishlatilishi kuzatiladi. Chjao Yuanjen “yangi affikslar” tushunchasini o‘rtaga tashlab,ular qatoriga 不 bu -*emas*,非 fei -*emas,,* 无 wu -*emas*, 反 fan -*anti*,单 dan *mono*-,多 duo -*poli* kabi affikslarni kiritgan. Ularni quyidagi misollar orqali tahlil qilib chiqamiz:无 wu -*emas,* - *no* prefiksi yordamida yasalgan kino sohasiga oid so’zlar soni ham kam emas. Ushbu prefiks yordamida hosil bo‘lgan atamalarda *biror narsaga ega bo‘lmaslik* ma’nosi majassamlashgan.Masalan, 无声电影 wúshēng diànyǐng *so’zsiz kino* 非 fei *no*- prefiksi ham 无 wu -*emas* prefiksi ma’nosiga yaqin bo‘lgan prefiks hisoblanadi. Uning yordamida quyidagi kino sohasiga oid so’zlar hosil bo‘lgan: 非同期声

[35] Семенас А.Л. Лексика китайского языка.- М.: «Муравей», 2000.- 89 б.;
[36] Цыкин В.А. Полуаффиксация в системе китайского словообразования. - Вопросы языкознания, 1979, № 5.- 45 б.;
[37] Жданкин И.В. Слова единицы речи в китайском языке. - М., 1986.-78 б.;
[38] Фролова О.П. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка. - Новосибирск, 1981.- 56 б.
[39] Лу Чживей. Словообразование китайского языка. - Пекин, 1964. – 164 б.

DOI: 10.36078/1653410390

fēitóngqí sheng *sinxronlashtirilmagan ovoz* 多 duo avvalombor ko‘pfunksiyali ravish (sifat) bo‘lib, hozirgi kun xitoy tilida 多 duo so‘z yasovchi prefiks vazifasida ko‘p qo‘llanilib, abstrakt, umumiy leksik ma’noda qo‘llanilishi kuzatiladi. Hususan diplomatik atamalarda 多 duo *poli* - prefiksi yordamida hosil bo‘lgan atamalar soni anchagina va ushbu affiks *ikki va undan ortiq* ma’nosida qo‘llanilib, so‘zlar negizi bilan birikib keladi. Masalan, 多次曝光 duō cì bào guāng *ko’p marotaba ekspozitsiyalangan* 多样 duōyàng *xilma-xil* 绚丽多彩 xuànlì duōcǎi *yorqin*, *ko’p tusli* va b.Keltirilgan kino sohasi leksikasida 多 duo prefiksining leksik ma’nosi susayib, umumiy ma’nodagi *ko‘p, katta miqdor* ma’nolarida ishlatilishi ko‘p kuzatilishini ko‘rishimiz mumkin.

单 dan *mono* - prefiksi 多 duo *poli* - prefiksi antonimi sifatida faqat bir kino sohasiga oid leksika tarkibida uchradi: 单反镜头 dānfǎn jìngtóu *SLR kameralari uchun obyektiv*.Xitoy tilida suffikslar va yarimsuffikslar soni prefikslar va yarimprefikslar sonidan ancha ko‘p va ularning soni ko‘payib bormoqda. Suffiks va yarimsuffikslarning aksariyat qismi yordamchi so‘zlardan hosil bo‘lgan.

Hozirgi zamon xitoy tili kino sohasiga oid leksikaning hosil bo‘lishida 员 yuan; 者 zhe; 家 jia; 官 guan va 化 hua; 性 xing yarimsuffikslari keng qo‘llaniladi. Ularning ichida 员 yuan; 者 zhe; 家 jia; 官 guan ko‘pchilik tilshunos olimlar tomonidan suffikslar yoki yarimsuffikslar, deb qabul qilingan bo‘lsa [40], ayrim tilshunos olimlar ularni so‘z yasovchi morfemalar qatorida tahlil qilishadi . 员 yuan yarimsuffiksi etimologik kelib chiqishiga ko‘ra 员 yuan *ishlaydigan yoki ta’lim olayotgan odam* ma’nosidagi negiz morfemasi bilan bog‘liq. Kino sohasiga oid leksikada 员 yuan; 人 rén; 师 shī ; 者 zhě yarimsuffikslari u yoki bu kasb egasi ma’nosini bildirib, shaxslarga nisbatan ishlatiladi. Masalan: 特技演员 tèjì yǎnyuán *kaskodor,* 喜剧演员 xǐjù yǎnyuán *komik*, 制片人 zhì piàn rén *kino prodyusser* 电影工作者 diànyǐng gōngzuò zhě *rejissor,* 音响师 yīnxiǎng shī *Ovoz rejissor* Keltirilgan

[40] Чжао Юаньжэнь. 北京口语语法（Грамматика пекинского разговорного языка）.- Гонгконг, 1974.- 98 б.;

Лу Чживей. Словообразование китайского языка. - Пекин, 1964. – 179 б.;

DOI: 10.36078/1653410390

misollardan ko‘rinib turibdiki to’rtta tarjimada ham 员 yuan; 人 rén; 师 shī ; 者 zhě bir hil ma’noni aks ettirmoqda va gapda bir – birini o‘rnida qo‘llanilish hususiyatiga egaligi ko‘rinib turibdi, bu esa o‘z navbatida ularning grammatikalashganligidan dalolatdir.

Tahlil natijalari asosida shuni aytish mumkinki, hozirgi zamon xitoy tili kino sohasiga oid so’zlarning yasalishida suffikslar va yarimsuffiks soni preffikslar miqdoridan ko‘p bo‘lsada, qo‘llanilish samaradorligi ko‘rsatgichi suffiksatsiya usulida ancha yuqori ekanligini aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Фролова О.П. Словообразование в терминологической лексике современного китайского языка. - Новосибирск, 1981.- 56 б.

2. Чжао Юаньжэнь. 北京口语语法 （Грамматика пекинского разговорного языка）.- Гонгконг, 1974.- 98 б.;

4. Семенас А.Л. Лексика китайского языка.- М.: «Муравей», 2000.- 89 б.;

5. Цыкин В.А. Полуаффиксация в системе китайского словообразования. - Вопросы языкознания, 1979, № 5.- 45 б.;

6. Nasirova, S. A. (2020). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. – Opcion: Revista de Ciencias Humanas y Sociales, 260-273.

7. Дана, К. А. (2020). ВЛИЯНИЕ ФИЛОСОФИИ УСИН НА ЭТИМОЛОГИЮ И СЕМАНТИКУ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ ОТДЕЛЬНЫХ ГРУПП СЛОВ). In *Россия-Китай: история и культура* (pp. 35-40).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XITOY XALQ RESPUBLIKASI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLARNING 30 YILLIGI, HOZIRGI HOLATI VA ISTIQBOLLARINING AYRIM JIHATLARI YUZASIDAN

Azizaxon Azimjon qizi JABBOROVA
214-guruh magistranti
Sharq filologiyasi fakulteti
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ilmiy rahbar: Ro‘zumova Gulbahor Matyakubbaevna

DOI: 10.36078/1653410390

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlarning faol va jadal rivojlanishi, xalqlarimiz o‘rtasida savdo, ilmiy va madaniy almashinuv faol rivojlanayotgani, Xitoy-O‘zbekiston munosabatlarining rivojiga katta ahamiyat qaratilayotgani hamda O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning 30 yilligi munosabati bilan, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz farovonligi yo‘lida har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarimiz tarixida yangi sahifa ochish maqsadida bor kuch va imkoniyatlar ishga solinayotgani yoritilgan.
Kalit so‘zlar: Diplomatik munosabatlar, BMT, ShHT, Konfutsiy instituti, hamkorlik.

Annotation. This article focuses on the active and dynamic development of relations between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China, the active development of trade, scientific and cultural exchanges between our peoples, the development of Chinese-Uzbek relations and the development of the Republic. Uzbekistan and the People's Republic of China. On the occasion of the 30th anniversary of the establishment of diplomatic relations between the two countries, every effort is being made to open a new page in the history of our comprehensive strategic partnership for the benefit of our countries and peoples.
Keywords: Diplomatic relations, UN, SCO, Confucius Institute, cooperation.

Bundan 30 yil avval 1991-yil 27-dekabrda Xitoy O‘zbekiston mustaqilligini tan olgan bo‘lsa, 1992-yil 2-yanvar kuni ular o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan. Ushbu qadam diplomatik aloqalar poydevorining birinchi g‘ishti bo‘lib hizmat qilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shunday bo‘lsada, O‘zbek va xitoy xalqlari o‘rtasidagi munosabatlar kamida ikki ming yil avval - Buyuk Ipak yo‘lining gullab-yashnagan davridan, xalqlarimiz o‘rtasida savdo, ilmiy va madaniy almashinuv faol rivojlanayotgan davrga borib taqaladi41.

Bugungi kunda O‘zbekiston-Xitoy munosabatlari faol va jadal rivojlanishining sifat jihatidan yangi bosqichini namoyon etib, ikki davlatning o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirishga intilishlari mushtarakligini ko‘rsatmoqda. Mamlakatlar an’anaviy do‘stlikni qadrlaydi, uni kengaytirish bo‘yicha samarali choralar ko‘rmoqda. Tahlilchilar va ekspertlarning fikricha, O‘zbekiston mintaqadagi vaziyatga katta ta’sir ko‘rsatadi va Xitoyning muhim hamkori hisoblanadi. Har ikki tomon boshqa tomonning asosiy manfaatlariga daxldor dolzarb masalalarda bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi. Siyosiy,

[41] http://russian.people.com.cn/31519/7354719.html - Китай и Узбекистан: взаимодействие, основанное на общности позиций

 DOI: 10.36078/1653410390

iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarda, jumladan, xavfsizlikni ta’minlash, mintaqaviy va xalqaro masalalarda ko‘maklashish borasidagi hamkorlik sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi.

Bunga zamonamizning tahdid va tahdidlariga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha pozitsiyalarning o‘xshashligi ko‘p jihatdan yordam berdi. O‘zbekiston Xitoy rahbariyatining mamlakat birligini himoya qilish, “uch yovuzlik” – terrorizm, ekstremizm va separatizm kuchlariga qarshi kurashish bo‘yicha o‘ylangan va mutanosib tashqi siyosati hamda prinsipial siyosatini qat’iy qo‘llab-quvvatlaydi. Bu yerda ham ikki tomonlama asosda, ham xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida, jumladan, BMT va ShHT tuzilmalarida faol hamkorlik belgilandi.

Jumladan, “Sin'xua” axborot agentligi tomonidan e'lon qilingan materialda Prezident Shavkat Mirziyoev o‘z tabrigida so‘nggi 30 yil O‘zbekiston va Xitoy xalqlari o‘rtasida yuz va ming yillarga borib taqaladigan do‘stlik rishtalari tarixida yorqin sahifaga aylanganini ta'kidlagani qayd etilgan42.

Qolaversa, Rais Si Szin'pin Prezident Shavkat Mirziyoev bilan birgalikda diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 30 yilligidan foydalanib, ikki mamlakat va xalq farovonligi yo‘lida har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari tarixida yangi sahifa ochish maqsadida bor kuch va imkoniyatlarni ishga solishga tayyorligini bildirganini ta'kidlagan.

Ushbu aloqalarni asosi sifatida, XXR raisi Si Szinpinning 2016 yil O‘zbekistonga qilgan rasmiy tashrifida uning rafiqasi Peng Liyuan Toshkentdagi Konfutsiy institutiga tashrif buyurganini e’tirof etish zarur. Ushbu qadam ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarning eng yuqori darajadaligi hamda aloqalarda ta’lim sohasining o‘rni katta ekanligi ko‘rsatdi. Mehmon xitoyning qimmatli kitoblaridan markaz kutubxonasi uchun taqdim etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan XXR Ta’lim vazirligi o‘rtasida oliy ta’lim sohasidagi munosabatlar “Oliy ta’lim sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida”gi Bitimga asoslanadi (1999 yil 8 noyabr imzolangan).

Shuningdek, har yili XXR davlatlararo hamkorlik va ShHTga a’zo davlatlarning hamkorlik dasturi doirasida Xitoy universitetlarida bir yillik amaliyot o‘tash uchun 60 ta grant o‘rinlarini ajratadi. Mazkur grantlar doirasida talabalar va stajyorlar Xitoyga nafaqat xitoy tilini o‘rganish, balki amaliyot o‘tash, ta’limning turli yo‘nalishlari va iqtisodiyot tarmoqlarida malaka oshirish maqsadida ham boradi. Shu bilan birga, fuqarolarimiz XXR universitetlari va Konfutsiy institutlari orqali grant asosida amaliyot o‘tash imkoniyatiga ega.

---

[42]https://dunyo.info/cyrl/site/inner/hitoy_ommaviy_ahborot_vositalari_ozbekiston_va_hitoy_ra%D2%B3barlarining_ozaro_tabrik_almashinuvi__%D2%B3aqida-DWA – Хитой оммавий ахборот воситалари Ўзбекистон ва Хитой раҳбарларининг ўзаро табрик алмашинуви ҳақида

DOI: 10.36078/1653410390

O‘zbekistonda Konfutsiy institutlari tashkil etilganidan buyon minglab o‘zbekistonliklar xitoy tili bo‘yicha o‘qitildi, HSK xitoy tilini bilish darajasi uchun sertifikatlarga ega bo‘ldi, Xitoyning an’ana va urf-odatlari, madaniyati, Xitoy, Xitoy va Xitoyning madaniyati bilan yaqindan tanishdi.

O‘zbekistonda ham xitoy tili birinchi yoki ikkinchi chet tili sifatida o‘rganiladigan oliy o‘quv yurtlari soni ortib bormoqda[43].

Xitoy bilan aloqalarning yangi davri ushbu davlat Tashqi ishlar vaziri Van Ining davlatimiz Rahbari tashabbusi bilan yurtimizda bo‘lib o‘tgan "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi yuqori darajadagi xalqaro konferensiyada ishtirok etganidir. Vazir o‘z ishtiroki davomida to‘rt banddan iborat eng muhim takliflarni ilgari surdi[44].

Shuningdek ikki davlat arboblarining barcha bosqichlardagi tadbirlarda paritet asosida aktiv bo‘lishi bir-biriga bo‘lgan xurmat va e’tirofni ifodalaydi.

Xulosa qilib Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev so‘zlari bilan aytganda, Xitoy-O‘zbekiston munosabatlarining rivojiga katta ahamiyat qaratilmoqda hamda diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 30 yilligi munosabati bilan, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz farovonligi yo‘lida har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarimiz tarixida yangi sahifa ochish maqsadida bor kuch va imkoniyatlar ishga solinmoqda. Bu esa biz ilm vakillarining izlanishdan to‘xtamay ilmiy faoliyatda yurtimiz rivoji uchun va yosh kadrlarning yetishishi uchun xizmat qilishimiz zarurligini ko‘rsatib o‘tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. http://russian.people.com.cn/31519/7354719.html – Китай и Узбекистан: взаимодействие, основанное на общности позиций
2. https://dunyo.info/cyrl/site/inner/hitoy_ommaviy_ahborot_vositalari_ozbekiston_va_hitoy_ra%D2%B3barlarining_ozaro_tabrik_almashinuvi__%D2%B3aqida-DWA - Хитой оммавий ахборот воситалари Ўзбекистон ва Хитой раҳбарларининг ўзаро табрик алмашинуви ҳақида
3. https://www.uzdaily.uz/ru/post/66920 – Развивает сотрудничество Узбекистана и КНР в сфере образования
4. http://russian.news.cn/2021-07/17/c_1310066900.htm
5. https://yuz.uz/uz/news/xitoy-raisi-ozbekiston-prezidentini-diplomatik-munosabatlar-ornatilganining-30-yilligi-bilan-tabrikladi

[43] https://www.uzdaily.uz/ru/post/66920 - Развивает сотрудничество Узбекистана и КНР в сфере образования
[44] http://russian.news.cn/2021-07/17/c_1310066900.htm

DOI: 10.36078/1653410390

6. Sh.M.Mirziyoyev-Erkin Va Farovon Demokratik O‘zbekiston Davlatini Birgalikda Barpo Etamiz. Toshkent, 2016. 54 b.
7. Sh.Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi. Toshkent, 2022. 416 b.
8. Каримов, А. (2010). Actual questions of China studying: Philology, philosophy, politics, economy and history.

XITOY VA O‘ZBEK MAQOLLARINING SEMANTIK TAHLILI

Mavluda Yusufboy qizi JUMAMURODOVA
talaba
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ilmiy rahbar: Xakimova Shaxnoza

Annotatsiya. Mazkur maqolada xitoy va o‘zbek tilidagi maqollarning o‘xshash va farqli jihatlari, bular haqida olimlarning qarashlari va qiyoslari, bundan tashqari semantikasi ham keng tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: maqol, leksikologiya, lingivistika, semantika, semiotika, xalq og‘zaki ijodi.

Abstract. This article analyzes the similarities and differences between Chinese and Uzbek proverbs, their views and comparisons, as well as their semantics.
Keywords: proverbs, lexicology, linguistics, semantics, semiotics, folklore.

Maqollar har bir xalq og‘zaki ijodining bebaho boyligi sanaladi. Ular o‘zining qisqa shakli va chuqur ma’nosi bilan har birimiz nutqimizda qo‘llaydigan bebaho vositaga aylangan. Maqol janri o‘z xususiyatiga ko‘ra xalqaro janr sanaladi. Ya’ni u dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida uchraydi. Ana shu holatdan kelib chiqib, ushbu ishda o‘zbek va xitoy xalq og‘zaki ijodida uchraydigan maqollar o‘zaro qiyoslanadi. Ularni o‘zaro qiyosiy o‘rganish, birinchidan, xitoy va o‘zbek xalqlarining urf-odatlaridagi, an’ana va qadriyatlaridagi mushtarak hamda o‘ziga xos jihatlarni kashf etishga, shu orqali o‘zaro aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Ikkinchidan, xitoy maqollari orasidan o‘zbek maqollari orasida uchramaydigan maqollarni topish hamda ularda ifoda etilgan ibratli fikrlardan nuqtda qo‘llash imkonini beradi. Uchinchidan, ularni asl matnidan tarjima qilish orqali xitoy va o‘zbek tillarining sintaktik sturukturasi o‘zaro qiyoslanadi. Bu esa hozirgi kunda dolzarb muammolardan bo‘lgan til o‘rganishda katta yordam berishi, chet tilida ushbu maqollardan qo‘llash esa nutqning ta’sirchan va jozibali bo‘lishini ta’minlashi,

 DOI: 10.36078/1653410390

shubhasizdir. Shuningdek, hozirgi kunda – Kompyuter lingvistikasi fani doirasida qilinayotgan tarjima va boshqa maqsadlar uchun kompyuterda o‘zbek tili bazasini yaratish ishida boshqa tildagi frazeologizmlar, barqaror birikmalarning o‘zbek tilidagi eng muqobil variantlarini topish va ulardan foydalanishda yordamga keladi.

Maqollar - xalqning ming yillik turmush tajribalarida sinalgan hayotiy xulosalari, donoligi, ma’naviy boyligi, madaniy merosi durdonalaridir. XIX asrda yashagan V.I.Dal mashhur yozuvchi, tilshunos olim, yirik rus maqol va iboralari majmuasining muallifi “Maqol ... to‘qib chiqarilmaydi, u o‘z-o‘zidan dunyoga keladi” [45] degan.

Maqollarni o‘rganmay turib, “xalqlarning kelib chiqishi va etnik tarixi, dunyo sivilizatsiyasining tarkibiy qismi bo‘lgan xalq, uning madaniyati va turmushining o‘ziga xosliklarining shakllanishi haqidagi tarixiy fan” etnografiyani chetlab o‘tish mumkin emas”[46].

O‘zbek folklorshunoslari, jumladan, Sobirjon Sodiqov maqollarning paydo bo‘lish jarayonini: “Xalqning qalbida ibratli fikr, hayot haqidagi xulosalar “pishib” yetilib turgan bo‘ladi. Ko‘pni ko‘rgan, zukko va gapga chechan bir odam uni bir necha so‘z vositasida yuzaga chiqaradi. Shu tariqa maqol paydo bo‘ladi”,- deb izohlaydi. Haqiqatan ham, aslida dastlab og‘zaki nutqda paydo bo‘luvchi maqollar og‘zaki nutqimizda keng qo‘llaniladi. Ular nutqimizni ixcham va ravon, teran va mazmunli bayon qilishga yordam beradi. Zero, “So‘z ko‘rki – maqol” degan gap ham bejiz emas. “Maqollar nutqqa chehradagi qora xoldek, uzukka qo‘yilgan ko‘zdek yarashadi”[47].

Maqollar xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlaridan quyidagi o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi:

1) ifoda tarzidagi o‘ziga xoslik. Maqol o‘zining shakliy ixchamligi hamda mazmuniy teranligi bilan ajralib turadi;

2) ma‘nolarini ifodalashdagi xususiyat. Maqolda ham o‘z, ham ko‘chma ma‘no saqlangan bo‘ladi;

3) qo‘llanish doirasidagi belgisi. Maqollarning qo‘llanilish doirasi juda keng. Uni ishlab chiqarish sohasida ham, axloqiy-ma‘naviy sohada ham muayyan harakatni bajarishga da‘vat yoki harakat mavridini belgilashda ham qo‘llash mumkin[48].

A. A. Potebnya maqol va masal orasida ko‘p umumiylik borligini topdi va ko‘p hollarda, yuzlab misollarga qaraganda masallar maqollarning kelib chiqish manbaidir deb

[45] Даль В.И. Пословицы русского народа. М.: 2000, С.32.

[46] Даль В.И. Пословицы русского народа. М.: 2000, С.34.

[47] Қўшоқов М. Сўз кўрки мақол// Ёш ленинчи, 1963 йил 7май № 55 (5872). Б. 4

[48] Абдуллаев Х. D. Халқ мақолларининг ― Қутадғу билиг‖ поетикасидаги ўрни ва бадиий-эстетик функциялари – филол.фан. ном. илмий даражасини олиш учун èзилган дисс. Т., 2005

DOI: 10.36078/1653410390

hisobladi. Hayot taqdim etgan o‘ta mushkul vaziyatlar, ya’ni bir yoki bir necha ishtirokchi, bir yoki bir necha harakatga javob bor. Masaldan maqolga o‘tayotib, u shuni ta’kidlaydiki, maqollar masallar kabi bir xil emas. Uning fikricha, “Masallarning kichik bir qismi miyada saqlanadi, ko‘pchilik masallar esa fikrni izohlash uchun birinchi talabimizga ko‘ra namoyon bo‘lishga tayyor bo‘lgani uchun maqolga aylanadi. Lekin masalning birinchi qismi hech qanday o‘zgarishsiz qoladi”[49].

Ba’zi hollarda masalning butun mazmuni maqolga aylanishi mumkin**.** Masalan, **耗子**给猫拜年 - **送死** *hao zi gei mao bai nian song si.* Tarjimasi:Sichqon mushukni yangi yil bilan tabriklagani boribdi- o‘lgisi kelibdi(sichqonni o‘lgisi kelsa mushuk bilan o‘ynashar).

Qolaversa, maqollarning boshqa she’riy shakllardan paydo bo‘lishining asosiy yo‘li – fikriy va nutqiy kompressiyadir. “... nisbatan uzun hikoya maqolga aylanib, zarur bo‘lgan qismi ifodani anglatish uchun qisqarib, ixchamlashib, fikrimizda mujassam bo‘ladi va oson tiklanadi”.

To‘g‘ri ma’noga ega bo‘lgan jumla maqolga aylanayotganda u majoziy obrazga aylanadi. Masalan, ifodasi ham to‘g‘ri, ham ko‘chma ma’noga ega bo‘lishi mumkin. *Og‘zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi*. (xitoycha muqobili **一朝被蛇咬,十年怕井**绳 *yi zhao bei she yao shi nian pa jing sheng*) Tarjimasi: Bir martta ilon chaqsa, o‘n yil arqondan ham qo‘rqib yuradi. Majoziy: Ya’ni bir martta adashgan keyingi safar o‘ylab ish qiladi,yana kuyib qolmaslik uchun. Ushbu Xitoy xalq maqolida aynan “ilon” ifoda vositasi sifatida qo‘llangan bo‘lsa,o‘zbek maqolida esa “qatiq” so‘zi mazmunni ifodalab kelgan.

G.L.Permyakov “maqollarni mantiqiy planda ko‘rib chiqish”ning o‘ta muhimligini ta’kidlaydi. Yagona mantiqiy mazmunga ega bo‘lgan maqollar bir-biridan tamoman farqli leksik-grammatik tarkibga ega bo‘lishi mumkin. Masalan:

黑狗洗不白 *hei gou xi bu bai* Qora kuchukni yuvib oqartirib bo‘lmaydi.

Yuqorida keltirilgan maqollar bir xil narsa haqida so‘z boradi: “yomon narsa, qancha harakat qilinmasin, hech qachon yaxshi bo‘lib qolmaydi”.

狗嘴里吐不出象牙 *gou zui li tu bu chu xiang ya*

Tarjimasi: Kuchuk og‘zidan fil tishi chiqishini kutma.

O‘zbekcha muqobili: “Yomondan yahshilik kutma”.

Aniq obrazli unsurlar emas, aynan bunga o‘xshash tuzilmalar har bir maqolning asosiy mazmunini belgilaydi. Maqollarning bunday xususiyati Rossiya Akademiyasining birinchi Lug‘atida ta’kidlangan. Bu lug‘atda berilgan izohga ko‘ra, maqol “mardlarcha

[49] Потебня А.А. Поговорки, пословицы, сказки. М.:1976, С.476.

 DOI: 10.36078/1653410390

qilingan ish buyuk bir narsaga erishish yoki barcha shaxsiy narsalardan mahrum bo‘linishidagi omadsizlik”ni anglatadi. Masalan:

或成或败， **在此一**举 *huo cheng huo bai,zai ci yi ju – Yo yutaman, yo yo‘q bo‘laman.* Tarjimasi: (yo omad,yoki yutkazish,yana bir urinish)

“O‘z navbatida, mantiqiy aloqalarning xarakteri maqollarda so‘z boradigan narsalar orasidagi munosabatlarning xususiyatlari bilan belgilanadi...
Maqol va matallarning mantiqiy planini mantiqiy-semiotik plan sifatida ko‘rib chiqilishi kerak”[50].

Demak, maqollar – xalqning xalq bo‘lib shakllanish va rivojlanish davridan bugunga qadar bosib o‘tgan yo‘li, hayot tajribalari, quvonch-shodliklari, mehnat-mashaqqatlari, shuningdek, xalqning donoligi, aql-zakovatini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos bir madaniyat ko‘zgusidir. Ular har bir xalqning qon-qoniga singib ketgan, hayot tarziga aylangan boy ma’naviy merosi, o‘lmas qadriyatlari hisoblanadi.

Xalq og‘zaki ijodining asrlar osha, avloddan-avlodga, tillardan tillarga o‘tib, kamol topib kelayotgan o‘ziga xos janrlaridan biri bu – xalq maqollaridir. Ular ko‘p asrlar davomida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari, hayotiy kuzatishlari asosida yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуллаев Х. D. Халқ мақолларининг ―Қутадғу билиг‖ поетикасидаги ўрни ва бадиий-эстетик функциялари – филол.фан. ном. Илмий даражасини олиш учун èзилган дисс. Т., 2005
2. Қўшоқов М. Сўз кўрки мақол// Ёш ленинчи, 1963 йил 7май № 55 (5872). Б. 4
3. Даль В.И. Пословицы русского народа. М.: 2000, С.32.
4. Даль В.И. Пословицы русского народа. М.: 2000, С.34
5. Потебня А.А. Поговорки,пословицы,сказки. М.:1976, С.476.
6. Пермяков Г.Л, От поговорки до сказки (Заметки по общей теории клише). М: 1970, С.19-20.
7. Xakimova, S. H. E. (2021). 课堂游戏运用与技巧. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(Special Issue 1), 263-267.
8. Дана, К. А. (2020). ВЛИЯНИЕ ФИЛОСОФИИ УСИН НА ЭТИМОЛОГИЮ И СЕМАНТИКУ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА (НА ПРИМЕРЕ ОТДЕЛЬНЫХ ГРУПП СЛОВ). In *Россия-Китай: история и культура* (pp. 35-40).
9. library.ziyonet.uz>book.

[50] Пермяков Г.Л, От поговорки до сказки (Заметки по общей теории клише). М.: 1970, С.19-20.

DOI: 10.36078/1653410390

10.https://baike.baidu.com

XITOY TILIDA SONLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Yulduz JUMANAZAROVA
Xitoy tili nazariyasi va
amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. So‘nggi yillarda lingvokulturaviy tadqiqotlar tilshunoslik sohasida faollashdi. Til va madaniyat, til va mifologiya o‘rtasidagi munosabatlar, dunyoning til tasviri, dunyoning milliy qiyofasi o‘rganilmoqda. Sonlarni bilish odamlarning amaliy faoliyatida katta rol o‘ynadi. Sonlar yordamida odamlar hodisalarning sifat jihatidan miqdoriy tomonini tasvirlashadi. Xitoy tili sonlarining kelib chiqishi va ma’nolari turlicha va sonlar xitoy xalqi madaniyatini aks ettiruvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, lingvokulturologiya, xitoy tilidagi sonlar tahlili.

Annotation. In recent years, linguocultural research has become more active in the field of linguistics. The relationship between language and culture, language and mythology, the image of the world language, the national image of the world are being studied. Knowing numbers has played a big role in people's practical activities. Using numbers, people describe the quantitative side of events in terms of quality. The origins and meanings of Chinese language numbers vary, and numbers are one of the means of reflecting Chinese culture.

Keywords: Linguistics, Linguoculturology, Numerical Analysis in Chinese

“Lingvokulturologiya” lotincha so‘zdan olingan bo‘lib lingua “til”; cultus “hurmat qilish, ta’zim qilish” ma’nosiga ega, yunonchada esa “ilm, fan” ma’nosiga egadir. So‘nngi yillarda til va madaniyat masalalarini lingvokulturologiya fani atroflicha o‘rganishga kirishdi. V.V. Vorobevning yozishicha, “bugungi kunda lingvokulturologiyani muayyan yo‘l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuyini o‘rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta’limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta’minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin.

DOI: 10.36078/1653410390

So‘nggi yillarda lingvokulturaviy tadqiqotlar tilshunoslik sohasida faollashdi. Til va madaniyat, til va mifologiya o‘rtasidagi munosabatlar, dunyoning til tasviri, dunyoning milliy qiyofasi o‘rganilmoqda. Sonlarni bilish odamlarning amaliy faoliyatida katta rol o‘ynadi. Sonlar yordamida odamlar hodisalarning sifat jihatidan miqdoriy tomonini tasvirlashadi. Ma’lumki, atrofimizdagi ob’ektiv haqiqatning barcha ob’ektlari nafaqat yuqori sifatli tomonga, balki miqdoriy aniqlikka ham ega.
Xitoy tili sonlarining kelib chiqishi va ma’nolari turlicha va sonlar xitoy xalqi madaniyatini aks ettiruvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Xitoy tilida 0 dan 9 gacha bo‘lgan sonlarning yozilishi farqlanadi, bular: “零，壹，贰，叁，肆，伍，陆，柒，捌，玖” ko‘rinishida yoziladi. O‘zbek tilida esa 0 dan 9 gacha bo‘lgan sonlar quyidagicha yoziladi bular: “ nol, bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to‘qqiz ” . Xitoy tilida sonlarning leksik ma’nosi mavjud bular sanoq son va hisob so‘z, agar biz “五条毛毯” deb aytadigan bo‘lsak, bu yerda “ 五” sanoq son bo‘lib keladi, “条” bu esa hisob so‘z bo‘lib kelmoqda, “五条” ikkita ieroglifning birga kelishi faqat bir darajaning ma’nosida ifodalanilmoqda.

Bunday ko‘rinishida qo‘llanilishi o‘zbek tili sonlarida o‘ta kam ko‘rishimiz mumkin, o‘zbek tilini umumiy qilib aytganda sanoq son va hisob so‘zlar ma’nosi birgalikda keladi, agar biz “五条毛毯” o‘zbek tilida ifodalab bermoqchi bo‘lsak ,bunda beshta choyshablar deb ifodalaymiz, “三个孩子” bunda uchta bola deb ifodalaniladi, bunday ifodalanilgan besh va uch sonlarining farqi 五条， 三个 ma’nosida ifodalaniladi, bunda sanoq son va hisob so‘zlarning ma’nolari uyg‘unlashib kelmoqda.

Albatta, xitoy tilida ayrim leksik boyliklar bor, sanoq son va hisob so‘zlarning jamlanmasi holati ham ko‘p, sonlarning hammasi sanoq son va hisob so‘zlarining birlashmasining belgisidir, ammo xitoy tilida sanoq sonlarining o‘z belgilari mavjud, bu ikki tilning asosiy farqlaridan biridir.

Dunyoda ko‘pgina mamlakatlarning sonlari odatda boshqa ma’noda ifodalanib kelinmoqda, O‘zbekistonda dinga nisbatan e’tiqod bo‘lganligi sababli, umumiy qilib aytganda, islom dinida sonlarning salbiy ma’nosi yo‘q.

Yuqoridagi so‘zlardan o‘zbek va xitoy tillaridagi sonlarda mavhum bo‘lgan bir xil ma’noga ega yoki bir xil ma’noga ega bo‘lmagan sonlar ifodalanib kelinadi.

Omad

DOI: 10.36078/1653410390

“六” ya’ni olti soni xitoyliklarning sevimli sonlaridan biridir, “olti” soni omad ma’nosida keladi, agar 六六大顺 ma’nosida kelsa, ba’zi holatlarda ishning ijobiy yakunlanganini va to‘liq bajarilganini bildiradi. O‘zbek tilida omadli son bu “besh” soni hisoblanadi, masalan: “ ishing besh bo‘lsin” bunda “besh” so‘zi ma’nosi bor, bu holatda sening ishinga muvaffaqiyat tilayman, martabang ulug‘ bo‘lsin ma’nosida keladi.

Ammo xitoy tilda rang-barang ma’nosini ifodalaydi, agar biz “五行” ya’ni “besh element” lar ma’nosida keladigan bo‘lsa bular: metall, yog‘och, suv, olov va yerga ishora qilinib dunyodagi hodisalarning mazmunini ifodalaydi; “九五之尊” bunda to‘qqiz soni eng katta ma’nosida kelmoqda, besh soni esa imperatorning mavqeini ifodalaydi.

Boylik

Xitoy tili sonlarida yana bir o‘ziga xos mavjud, bu esa bir turdagi talaffuz hodisasi, bunday holat boshqa mamlakatlarda ko‘p uchramaydi, agar biz “八” (ba) sakkiz sonini oladigan bo‘lsak , bu sonning talaffuzi boy “发” (ba) ，“八”so‘zi xitoyliklarning e’tiborini eng ko‘p tortgan sondir, o‘zbek tilida “7” soni boylik ma’nosini bildiradi, “ 7 ” sonining eng muhim jihatlaridan biri uni 2 va 3 soniga bo‘lib bo‘lmaydi, buning ma’nosi esa sening boyligingni bo‘lib bo‘lmaydi ma’nosida ifodalaniladi.

Falokat

Xitoy tilida “四” (si) ya’ni to‘rt soni o‘lim so‘zi bilan omografik bir xil talaffuz qilinishi , ya’ni bunday ieroglifda “死” (si) , xitoyliklar baxtsiz son deb hisoblaydilar, bir qarashda yomon alomatli belgi bo‘lib ko‘rinadi, shuning uchun ham oddiy kunlarda bu sondan aksariyat holatlarida qo‘llashni lozim topmaydilar, xattoki telefon raqami yoki avtomobil raqamida to‘rt soni bor raqamni tanlashmaydi, juda ko‘p mehmonxonalarda xonalarning raqam tartibi bo‘yicha deyarli “to‘rt” raqami mavjud emas.[51] Ammo o‘zbek tilida shunga o‘xshash ma’noda son bor bu “13”dir, ayrim insonlar 13 sonini shaytonning soni deb ham hisoblashadi, ayniqsa 13 raqamli kunda ayrim halokatlar bilan bog‘liq deb ifodalashadi, shuning uchun ko‘pchilik insonlar bu 13 sonini salbiy ma’noga ega deb hisoblashadi.

[51]杨苗苗. 乌兹别克斯坦的语言政策. 文学语言学研究, 2014(61).

DOI: 10.36078/1653410390

Bu yerda biz ko‘ra olamizki, O‘zbekiston madaniyati bilan g‘arb madaniyati sayqalanadi, chunki 13 raqami haftaning beshinchi kunida kelsa, g‘arblarda ham bu yomonlik alomati belgisidir.

Bu ikki tilda sonlar har bir madaniyat ta’sirida o‘z ma’nosini bildiradi, lekin nafaqat bir sanoq son, tadqiqotlar orqali bu ikki tilning son so‘z boyligini bilish va ikki madaniyat o‘rtasidagi tafovutidir.

Son ishtirok etgan iboralarning madaniy talqini. Nafaqat sonlarning aniq madaniy talqini mavjud, shuningdek, son asosida tuzilgan leksikasi ham turli millatning turfa madaniyati va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbek tilidagi son ishtirok etgan so‘z birikmalari asosan son va boshqa so‘z turkumdagi so‘zlar qo‘shilishi orqali yasaladi. Xitoy tilida bunday so‘z birikmalar, bir so‘z bilan aytganda, maqol deyiladi.

Leksikaning madaniy talqini sonlarning madaniy talqini demakdir. U xitoy tilidan keskin farq qiladi.

Xitoy tilida son so‘z turkumining ma’nolari ko‘p. Odatda, quyidagi bir necha turga bo‘linadi:

1- tur eng ko‘p uchraydigan tur hisoblanib, noaniqlik, taxminni bildiradi. Masalan, “九死一生” iborasi to‘qqiz marta o‘lim bir marotaba yashab qolishni emas, katta qiyinchiliklardan omon qolishni bildiradi. “三姑六婆” iborasining dastlabki ma’nosi qadimgi ayollarning turli kasbi borligini bildirgan, masalan, bu iboradagi “三姑” - “尼姑”(rohiba)，“道姑”(Dao rohibasi)，“卦姑”(folbin)ni bildirgan bo‘lsa, “六婆”ni esa “媒婆”（sovchi ayol），“师婆”（sehrgar ayol）,“稳婆”（doya）ma’nolari bo‘lgan. Vaqtlar o‘tishi bilan “三姑六婆” aniq ma’nosi qolmadi, odatda jamiyatdagi bozorchi ayollarni, umuman, turli sohadagi ayollarni nazarda tutiladi, lekin ko‘pincha salbiy ma’noda ishlatiladi.

2- tur esa ko‘p yoki kam ma’noni berishda qo‘llaniladi, ko‘p manosini berishda, asosan, “三”（uch），“五”（besh），“百”（yuz），“千”（ming），“万”（o‘n ming） kabi raqamlar ko‘proq ishlatiladi. Masalan, “百孔千疮”- “ilma-teshik bo‘lib ketmoq” iborasi yomon zararlanganini bildiradi; “三令五申” iborasi qo‘l ostidagilarga bir buyruqni qayt-qayt bermoq ma’nosini beradi. Ish-harakat yoki narsaning soni kam miqdorda ekanligini bildirilganda “一”（bir）

 DOI: 10.36078/1653410390

raqamidan foydalaniladi. Masalan, “一知半解” iborasi to‘liq bilmaslik, to‘liq tushunmaslikni bildiradi.

3- tur esa murakkablini, tartibsizlikni ifodalaydigan sonlar bo‘lib, odatda, “yetti”(七) , “sakkiz” （八）raqamlari ko‘proq ishlatiladi. Masalan, 杂七杂八，五花八门 kabi iboralar tartibsizlikni yoki murakkablikni bildiradi.

4- tur urg‘u berishni bildirganda qo‘llaniladigan sonlar, masalan, 千真万确 iborasidagi ming (千)，o‘n ming (万) sonlari gapning ma’nosini kuchaytirishga xizmat qilgan, ya’ni juda aniq degan ma’noni bergan. Shuningdek, ayrim sonlar salbiy ma’noni berishda ham qo‘llaniladi, ular, asosan, “uch” (三)， “to‘rt”(四) kabi sonlardan tuzilgan bo‘ladi. Masalan, 不三不四，朝三暮四 kabi iboralar salbiy ma’noda qo‘llanib, xitoy tilining o‘ziga xos bo‘lgan madaniyatini namunasi sifatida qarash mumkin.

Demak, yuqoridagi so‘zlardan ko‘rishimiz mumkinki o‘zbek va xitoy tillaridagi sonlarda mavhum bo‘lgan bir xil ma’noga ega yoki bir xil ma’noga ega bo‘lmagan sonlar ifodalanib kelinadi.

Xulosa tarzida shuni aytish lozimki,sonlar nafaqat raqam bo‘lib kelmasdan balki til va madaniyatga bog‘liq holda ma’nolarga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Nafaqat sonlarning aniq madaniy talqini mavjud, shuningdek, son asosida tuzilgan leksikasi ham turli millatning turfa madaniyati va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi.Xitoy tilidagi sonlar ham xitoy madaniyati va xitoy xalqining an’analari va urf odatlarini namoyon etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Семенас А.Л. Лексика китайского языка. Москва, 2000. 698 с.
2. Хаматова А.А. Словообразование современного китайского языка, Москва, 2003г. с 172.
3. Курдюмов В.А. Курс китайского языка, Теоретическая грамматика. Москва. 2006 г. с. 576
4. Исламджанова Х. Лингвокультурологические аспекты переводческой деятельности. Учебное пособие. –Т.: 2011.
5. Мавлянова, У. Х. (2021). СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ «ЧИСЛИТЕЛЬНОЕ» В КАТЕГОРИИ ЧАСТЕЙ РЕЧИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ

 DOI: 10.36078/1653410390

ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(Special Issue 1), 104-110.

6. Каримов, А. (2010). Actual questions of China studying: Philology, philosophy, politics, economy and history.

7. Khakimova, S. (2021). STANDARDS AND METHODS OF NEWS TRANSLATION OF THE CHINESE LANGUAGE. *Academic research in educational sciences*, *2*(6), 1044-1049.

ХИТОЙ ТИЛИДАГИ ИНКОР ҲАҚИДА ХОРИЖИЙ ОЛИМЛАРНИНГ НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАРИ

(Рус олимлари мисолида)

Акрамджан Абилевич КАРИМОВ
Профессор
ТДШУ
a.a.karimov56@mail.ru

Аннотация. Ўзбек тилида чоп этилаетган хитой тилига оид ҳар бир ўқув қўлланма ва дасликларда инкорлар ҳақида гапирилсада, бироқ батафсил қўлланиш хусусиятлари четлаб ўтилган. Биз ушбу камчиликни бартараф этиш ниятида хитой тили инкорлари ҳақида хорижий олимлар қандай маълумот бергани ва уларга нисбатан билдирган назарий қарашларини келтиришга ҳаракат қиламиз. Хорижий олимлар деганимизда хитой тилшунослигига бошқа олимларга нисбатан рус олимлари катта хисса қўшгани хеч кимга сир эмас. Шу сабабли мазкур мақолада асосан рус олимларининг фикрини келтирамиз.

Калит сўзлар. хитой тили, инкор, 不，没，ҳозирги-келаси замон, ҳозирги-ўтган замон, 别，莫，非，无，否, адабий тил, оғзаки тил.

Annotation. Although all the textbooks and study guides of the Chinese language published in Uzbek have an information about negations, but there is not still any exact explanation for some ways of using them. In order to fill this space, we will try to quote what kind of explanation foreign scholars have given about negations in Chinese and their theoretical views on them. It is no secret that Russian scientists have made a significant contribution to Chinese linguistics compared to other scientists. For this reason, in this article we mainly present the opinion of Russian scientists.

 DOI: 10.36078/1653410390

Keywords: Chinese, negotiation, 不，没， present – future tense, present – past tense, 别， 非，无，否， literary language, oral speech.

Мамлакатимиз хитойшунослари ва тилшунослари томонидан Хитойга оид ва хитой тилига бағишланган катта илмий ишлар амалга оширилган бўлсада, хитой тилидаги инкорларга доир хитойшуносликда А. Каримовнинг илмий монографиясидан ташқари, алоҳида илмий тадқиқот иши йўқ. Хитой тилига оид ўқув қўлланма ва дасликларда инкорлар ҳақида гапирилсада, бироқ батафсил қўлланиш хусусиятлари четлаб ўтилган. Мазкур мақолада рус олимларини хитой тилидаги инкор тўғрисида маълумотларни ва назарий фикрларини беришга ҳаракат қиламиз.

Рус олимларидан хитой тилидаги инкор ҳақида биринчи бўлиб Е.Д.Поливанов “Ҳозирги хитой тили грамматикаси” китобида маълумот бериб, инкор маъносини англатадиган сўзларни инкор юкламаси (ёки префикси) деб атайди ва қуйидагиларни келтиради: 不，没，别，莫，非，无，否.[52] Бир қанча мисоллар келтириб, қуйидагича изоҳ беради:

不 инкори феъл, сифат ва феъл боғловчиси 是 дан олдин келиб, ҳозирги ва келаси замонда ишлатилади. 不 алоҳида қўлланилиши ҳам мумкин.

没 инкори эса одатда ўтган замонда ишлатилади ва сифат, феъллардан ташқари яна 有 феъли билан бирикади. Алоҳида ишлатилиши мумкин, айрим холларда 了 суффикси билан қўшилиб келади.

别 инкори қатъиятлик билан ман қилиш маъносини бериб, буйруқ майлида ишлатилади.

莫 инкори асосан маълум бўлган 莫不是 *эмасми*, 莫非*(аниқ, қатъи) эмасми* бирикмаларида қўлланилади. 莫 айрим диалектларда 别 ўрнида ва китобий тилда ишлатилади. 莫不 ва 莫非 иккита кетма кет келган инкорлик,无不 ва 无非 га ўхшаб қатъи тасдиқни билдиради.

[52]Иванов А.И., Поливанов Е.Д.. Грамматика современного китайского языка. М., ИВ. 1930. С. 77.

 DOI: 10.36078/1653410390

非 инкори *эмас*, шу иероглифнинг ўзи яна *нотўғри, рост эмас* маъноларини англатади. 非 инкорлик сифатида ҳам китобий, ҳам оғзаки тилда ишлатилади. 不 га нисбатан кучлироқ инкорлиги деб ҳисобланади.

无 китобий инкор деб билинади. 否 ҳам китобий инкордир, *ҳа ёки йўқ*. Масалан: 可否 *мумкинмикан, мумкинми ёки йўқ*.

不 ва 没 инкорлари олдида кучайтириш мақсадида **并** *биргаликда, ...билан биргаликда* сўзи келиши мумкин. **并**不去 *умуман бормайман*, **并没来** *умуман келмаган*.

Иш юритишда ва китобий тилда қуйидаги инкорлар мавжуд: 不，无，非，未，莫，毋，勿，弗，罔，靡，否.[53] Е.Д.Поливанов кўрсатган инкорларни айримлари ҳозирги замон хитой тилида, хусусан оғзаки тилда кам қўлланилади. Шу сабабдан у келтирган маълумотлар қимматли бўлсада, бироз эскириб қолганини инобатга олиш керак.

В.И.Гореловнинг “Хитой тили грамматикаси”да инкор юклама сифатида тақдим этилади[54]. Олимнинг фикрига кўра – инкорни бўлишсизлик юкламалари ифодалайди. Дарак ва сўроқ гапларда 不，不是，没，没有，非，无，未 – эмас, мас. бўлишсизлик юкламалари қўлланилади

Буйруқ гапларда эса 不要，别，不用，甭，休 – *эмас*.[55] бўлишсизлик юкламалари ишлатилади.

В.М.Солнцевнинг “Хитой тили грамматикаси ҳақидаги очерклари”да инкор феъллар бўлимида берилиб, уни феъллар формасини ифодаланишининг бир шакли сифатида қараган. Жумладан у шундай ёзади, 不 инкори бевосита (отлардан фарқли равишда) феълдан олдин қўйилади. 没 мэй инкорига келсак, у бевосита феълни ҳам, отни ҳам олдида туриши мумкин (агар отни олдида турса, унда у 没有 *мавжуд эмас* феълини эквиваленти сифатида кўрилади).[56]

[53]ИвановА.И, Поливанов Е.Д. Грамматика современного китайского языка. М., ИВ. 1930. С. 79.
[54] Горелов В.И. Грамматика китайского языка. М., Просвещение. 1974. С.42.
[55] Горелов В.И. Грамматика китайского языка. М., Просвещение. 1974. С.42.
[56] Солнцев В.М. Очерки по современному китайскому языку. М., ИМО, 1957. С. 181.

DOI: 10.36078/1653410390

Бу икки инкор қўлланилишда катта фарқга эга. 不 бу ва 没 мэй инкорларни қўлланилиши ҳақида бўлишсиз гаплар тўғрисида гапирганимизда батафсилроқ сўз юритамиз. Ҳозирча шуни айтиб ўтамизки 没 мэй алоҳида конкрет бир ходисани ёки ҳаракатни ўтмишда бўлиб ўтганини ифодалаш учун ишлатилади,不 бу эса ҳозир ва келаси замонда бўлиб ўтадиган ҳаракатларга нисбатан ҳамда мунтазам равишда ўтмишда бўлиб ўтган ҳарактларга нисбатан ҳам қўлланилади. Бундан ташқари 不 бу ҳаракатни содир қилишни хохламасликни ёки бундай ҳаракатни содир қилишга кўникмаси йўқлигини ҳам кўрсатади.

Драгунов А.А. хитой тили грамматикасига бағишланган китобида инкорларни замон ифодалайдиган формалар тизимига жойлаштирган.[57] Инкорларни грамматик роли феълли кесимларни префикси сифатида юзага келади, яъни инкор префиксларни бўлишли конструкциялардаги суффиксларни грамматик ролига ўхшашдир.

Инкор-префикслари А.А.Драгунов фикри бўйича, формасиз феъл-морфемани ҳаракат номидан морфологик шаклланган яхлит бирликка, финит кесимга ўзгартиради. Шу сабабдан Ганьсу шевасида шаклланган яхлитлик сифатида *бу цзу – бормайди*, *цзуни – боради, мо лэй – келмади, лэйли – келди* ишлатилади, бироқ оддийгина *цзу* ёки *лэй* дейилмайди.

不 *бу-эмас* инкорлиги ҳозирги келаси замонда ёки келаси замонда ишлатилади. Биринчисида оддий ҳаракатни инкор қилиш тўғрисида гап кетса, иккинчисида эса келаси замон маъносига, кўпинча иш ҳаракатини қилиш нияти йўқлик модаллик оттенкасини қўшиб билдиради. 我不抽烟 *во бу чоу янь* гапини контексдан келиб чиққан холда *мен чекмайман (бундай одатим йўқ*), ёки *мен чекмайман, чекким келмаяпти*; ёки 他不走 *та бу цзоу у юрмаяпти (ёш гўдак ҳақида*), ва *у бормайди, боргиси келмаяпти*.

Аксинча 没 *мэй* инкорлиги ёки оддий ўтган замонда қўлланилади, ёки ҳозирги айни пайтдаги нутқга тегишли замон билан. Иккинчи холатда кесим 着 *джэ* холатни

[57] Драгунов А.А. Исследования по грамматике современного китайского языка. М-Л. Академия наук. 1952 . С.133.

 DOI: 10.36078/1653410390

кўрсатувчи суффикси билан шаклланган бўлиши керак, ёки 呢 *на* модал юкламаси билан.[58] Масалан:

他没来. Ta meilai.*У келмади*.

我没看见. Wo mei kanjian. *Мен кўрмадим.*

我没念书. Wo mei nianshu. *Мен ўқимаяпман*.

他现在看上躺着没躺着？ta xianzai kanshang tangzhe meitangzhe? *У ҳозир тепага қараб ётибтими ёки ётмаяптими?*

我到他家里去，他没念书呢。 Wo dao ta jiali qu, ta mei nianshu ne. *Мен уни ўйига бордим, у ўқимаяпти*.

不 ва 没 ўртасидаги бунақа муносабатларни А.Драгунов қуйидаги жадвалга туширган.

Ўтган замон	Ҳозирги замон		Келаси замон
	нутқ пайтти	оддий	
没...	没... 着 没... 呢	不...	不...

Бўлишли конструкцияларда 没 *мэй* инкорлигига 了 *лэ* суффикси тўғри келади, 没... 着 инкорлик конструкциясига эса холат суффикси 着 *джэ* ва у билан бирга модал юклама 呢 *ни*. Ва ниҳоят 不 *бу* инкорлигига морфологик жиҳатдан шаклсиз феъл тўғри келади. Масалан:

他来了没来？- 来了。Ta laile meilai ? – laile . *У келган (ёки) келмаганми? - Келган*.

[58]Драгунов А.А. исследования по грамматике современного китайского языка.М-Л. Академия наук. 1952 г. 133 бет

DOI: 10.36078/1653410390

门锁着**没**锁着？- 门锁着呢。Men suozhe mei suozhe? – men suozhe ne. *Эшик қулфланиб турибдими (ёки) қулуфланмасдан турибдими? - Эшик қулфланиб турибди.*

你抽烟吗？- 我不抽。Ni chouyan ma? – wo bu chou. *Сен чекасанми? - Мен чекмайман.*

你去不去？- 我去呢。Ni qu buqu ? – wo qu ne. *Сен кетасанми кетмайсанми?- Мен кетаман.*

Шу жиҳатдан бу икки инкорлик ўртасида қатор фарқлар мавжуд. **没** мэй инкорлиги ҳаракатни келаси замонда бўлишига йўл қўймайди, 不 бу инкорлиги билан эса ҳаракат келаси замонда келиши одатий холдир, масалан:

他不说“是”，也**没**说“不是”。Ta bu shuo “shi”, ye mei shuo “bushi”. *У “ҳа” демоқчи эмас эди, лекин “йўқ” ҳам демади.*

你可不抽烟吗？- 谢谢，我不抽。- **你从**前不抽烟的吗？- **从**前也不抽。Ni ke bu chouyan ma? – xiexie, wo buchou, wo bu chou.

Сиз чекмайсизми? - Раҳмат, мен чекмайман. Сиз аввал ҳам чекмаганмисиз? - Аввал ҳам чекмаганман.

不 бу инкорлиги маъносидан келиб чиққан холда натижавий феъллар олдида ҳар доим модалликни билдиради. У ёки феълга қўшилиб иш ҳаракатни қила олмаслигини ёки натижага етказа олмаслигини ифодалайди (**看不见** *кўра олмаслик*), ёки (кам учрайдиган бўлсада) натижавий феъллар олдига қўйилиб модаллик маъносига эга бўлиб ҳаракатни қилишни хохламаслигини ифодалайди. [59] Солиштирайлик, 说不下去 *бирон нарса гапиришга қодир бўлмаслик*, ва 不说下去 *бошқа гапиришни хохламаслик*.

Аксинча, **没** *мэй* инкорлиги, ўзида давомли ҳаракат инкорлиги маъноси йўқлик сабабли, одатда натижавий феъллар олдида келади: **没拿来** *олиб келмаган*，**没写**上 *ёзиб бўлмаган* ва шу каби.

[59]Драгунов А.А. исследования по грамматике современного китайского языка.М-Л. Академия наук. 1952 г. 134 бет

DOI: 10.36078/1653410390

没 *мэй* инкорлиги, ўз ўринда, (ҳаракат билдирмайдиган) ҳаракат давомийлигини акс эттиролмайдиган феъллар, яъни 着 *джэ* суффиксини ололмайдиган феъллар билан қовуша олмайди.

不 *бу* ва 没 *мэй* орасидаги фарқ фақат шулар билан чекланмайди. 没 *мэй* инкорлигидан фарқли равишда 不 *бу* инкорлиги икки тизим қарама-қаршиликлар иштирокчисидир, деб фикр юритади А.Драгунов. Биринчиси бу 没 *мэй* билан замон билидириш тизими бўлса, иккинчиси бу 就，才，还，也 ва бошқа бир қатор модалликни билдирадиган ярим мустақил равишларидир. 不 га ўхшаб гапда бундай сўзлар икки хил вазифани бажаради ҳам маъно англатувчи, ҳам грамматик. Улар грамматик форма қўшилмаган феълларни морфологик жиҳатдан тўлиқ шаклланган феълга айлантиради, А.Драгунов фикрига кўра финит кесимга айлантиради.

Формал жиҳатдан 不 *бу* ва 没 *мэй* яна бир жиҳат билан фарқ қилишади. 没 *мэй* инкорлиги икки вариантда қўлланилади: қисқа 没 *мэй* ва тўлиқ 没有 *мэйю*, икки варианти ҳам маъно жиҳатдан бир-бирига жуда яқиндир. 不 *бу* инкорлигида эса бундай вариант йўқ, сабаби ҳозирги замон хитой тилида 不 *бу* инкорлиги 有 *ю* феъли билан қўлланилмайди. Шундай қилиб 没来，没有来 вариантлари учрайди, 不来 фақат шу вариантда ишлатилади. Тўлиқ вариант 没有 *мэйю* альтернатив сўроқ гапларнинг охирида қўйилиши шартдир. Масалан: 你知道不知道？Ni zhidao bu zhidao? *Сен биласанми ёки билмайсанми?*，他来了没有？门锁着没有？Ta laile meiyou? men suozhe meiyou? *Эшик қудфланганми ёки йўқ?*

Юқоридагилардан ташқари, А.Драгунов 不 бу инкорлигини равишлар орасида ўрганиб, уни равишларни иккинчи гурухига мансуб деб билади. Бу гуруҳ сўзларни эса у ярим мустақил деб, ёки ярим ҳизмат қилувчи сўзлар деб атайди. [60] бундай сўзлар на 的 дэ，на 个 гэ суффикслари билан қовушади. Гапда улар икки хил вазифани бажаради ҳам лексик, ҳам грамматик.

[60]Драгунов А.А. Исследования по грамматике современного китайского языка. М-Л. Академия наук. 1952. С. 206.

DOI: 10.36078/1653410390

А.Драгуновнинг шогирди С.Е.Яхонтов ўзининг хитой тили феълларига бағишланган машхур рисоласида, инкорликларни фақат ҳаракатларни бажара олиш ёки бажара олмаслик фаслига тегишли жойида ҳамда модал феъллар бўлимида[61] эслайди. Хусусан, инкорликлар айрим сифатлари билан модал феълларга ўхшаб кетади. Масалан, инкорликлар модал феълларга ўхшаб аниқловчи олмайдилар, фақат даража кўрсатувчи равишлардан ташқари: 很不好 *жуда ёмон*. Бироқ инкорликдан кейин турадиган сўз даража равиши билан бирикмаса, унда инкорлик олдида ҳам тура олмайди, масалан 很去 деб бўлмайди, шу сабабли 很不去 деб ҳам бўлмайди. Демак инкорликларни даража равишлари билан бирикиши улардан кейин келадиган сўзларни грамматик хусусиятларидан келиб чиқади.

Модал феъллар инкорлик билан такрорланиб альтернатив сўроқ гапларни тузилишига сабаб бўладилар: 能不能 *қила оласанми ёки қила олмайсанми*, 会不会 *биласанми ёки билмайсанми*.

Ҳаракатни бажара олиниши ва бажара олинмаслиги феълларни алоҳида формаси билан ифодаланади. Ҳаракатни қила олиниши феълдан кейин 得 суффиксини қўшилиши билан билдирилади, бажара олинмаслиги эса 不 инкорлигини инфиксацияси билан ифодаланади. Масалан: 吃得 *еб бўлади*, 吃不得 *еб бўлмайди*.[62]

Хулоса қилиб шуни айтиш керакки хитой тилшунослигида инкорга нисбатан ва уларни қўлланиш хусусиятларига нисбатан турли қарашлар мавжуд. Биз фақат рус олимларининг айрим фикрларини келтирдик холос, хатто шу айрим мулоҳазаларнинг ўзи ҳам бу масала бўйича якдиллик йўқлигини кўрсатади. Шу сабабли бу масалани алоҳида ва синчковлик билан ўрганиш лозимлиги аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Иванов А.И., Поливанов Е.Д.. Грамматика современного китайского языка. М., ИВ. 1930.
2. Горелов В.И. Грамматика китайского языка. М., Просвещение. 1974.
3. Солнцев В.М. Очерки по современному китайскому языку. М., ИМО, 1957.
4. Драгунов А.А. Исследования по грамматике современного китайского языка. М-Л. Академия наук. 1952 г.

[61]Яхонтов С.Е. Категория глагола в китайском языке. Л. Ленинградский университет. 1957. С. 65.

[62]Яхонтов С.Е. Категория глагола в китайском языке. Л. Ленинградский университет. 1957. С.154.

DOI: 10.36078/1653410390

5. Яхонтов С.Е. Категория глагола в китайском языке. Л. Ленинградский университет. 1957.
6. Karimov, A. A. (2022). The Problem of the Grammatical Category of the Chinese Language. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 5, 226-229.
7. Каримов, А. А. (2021). Соотношение понятийного и ассоциативного начала в иероглифическом письме (на примере иероглифа 日 «солнце»). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 1), 76-81.
8. Каримов, А. (2010). Actual questions of China studying: Philology, philosophy, politics, economy and history.
9. Назарова, С. А. (2016). Проблема формирования лексической компетенции студентов в процессе обучения китайскому языку в научно-методической литературе. *Преподаватель XXI век*, *3*(1), 93-99.
10. Anvarovna, P. N. S. (2022). PHILOLOGY STUDENTS FOREIGN LANGUAGE INTERCULTURAL COMPETENCE DEVELOPMENT IN TEACHING CHINESE LANGUAGE: RESULTS OF EXPERIMENTAL TEACHING. *湖南大学学报 (自然科学版)*, *49*(03).
11. Каримов, А. А.(2022). Иероглиф 就 и его наречийные значения. // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 22), 70-75. doi: 10.24412/2181-1784-2022-22-70-75

XITOY TARIXIDA AN LUSHANG, SHI CHAO – YI QO‘ZG‘OLONLARINING DIDAKTIK AHAMIYATI

Ikrom MATYAKUBOV
mustaqil tadqiqotchi
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilk o‘rta asrlarda xitoy dagi boshqaruvchi sulolalardan biri Tan sullolasini ichki yemirilishi haqida so‘z boradi. Qo‘zg‘alonchilarining qilgan ishlarining didaktik ahamyati haqida ko‘plab misollar keltirib o‘tilgan. Shu bilan bir qatorda ushbu saltanatning ma’muriy tuzilmasi hamda buyuk ipak savdo yo‘lining boshi bo‘lmish xitoyning ichki nizolari, o‘sha davirdagi ixtirolar vs turkey qabilalar qay tarzda ishg‘ol qilishni boshlaganliklarini haqida qisqacha

 DOI: 10.36078/1653410390

aytib o‘tilgan. O‘sha davr geografik joy nomlar va joylashgan joylari haqida to‘liq ma’lumot berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: sulola, xotirjam, osoishtalik, didaktika, metod, itaraktiv, innovatsiya, talon-taroj, androgogika va pedogogika.

Аннотация. В статье рассматривается внутренний крах династии Тан, одной из правящих династий в Китае в раннем Средневековье. Также кратко описывается административное устройство этой империи и внутренние конфликты Китая, начало Великого шелкового пути, изобретения того периода и то, как тюркские племена начали нашествие. Даны подробные сведения о географических названиях того периода.

Ключевые слова: династия, мир, спокойствие, дидактика, метод, интерактивность, новаторство, грабеж, андрогогика и педагогика.

Abstract. This article examines the internal collapse of the Tang Dynasty, one of the ruling dynasties in China in the early Middle Ages. There are many examples of the didactic significance of the actions of the rebels. It also briefly describes the administrative structure of this empire and the internal conflicts of China, the beginning of the Great Silk Road, the inventions of that period, and how the Turkic tribes began the invasion. Detailed information about geographical names and locations of that period is given.

Keywords: dynasty, peace, tranquility, didactics, method, activity, innovation, robbery, andragogy and pedagogy.

Tan (Tang 唐) imperiyasi davrida o‘sha vaqtning innovastion dunyoga mashxur ixtrolaridan biri qig‘oz bo‘lsa, gazeta nashr qilish va bosmahonalarni vujudga kelishi pedogogik hamda androgogik sohadagi katta yutuqlar edi. Xalqni savodli qilish ularni o‘qitish. Shu bilan bir qatorda xalq orasidagi savodli insonlarni imtihon tizimi orqali mansabdor shahslarga va saroy ayonlariga aylantirish imperiya siyosati darajasiga ko‘tarildi. Biroq, o‘sha davrda ochlik va yo‘qchilikdan qiynalayotga dehqonlar ham talaygina edi. Imperiyaning kattaligi markazlashgan nazoratni sustligi norozilik kayfyatini brogan sari kuchayishiga olib keldi.

Bir qarashda “xotirjam o‘yin-kulgi va osoyishtalik” davri bo‘lib ko‘ringan Tay Syuantszun (Tai Xuan zun 泰选总) hukmronligining Tyanbao (tianbao 天宝) yillari sinfiy va milliy qarama-qarshiliklarning kuchayishi, hukmron sinflarning o‘zida kurashning kuchayishi bilan ajralib turardi. Inqiroz tobora kuchayib borardi. Shimoliy Xitoyda Tang

 DOI: 10.36078/1653410390

Taytszong (Tang Taizun 唐泰总) va Syuantszun (Xuan zun 选总) hukmronligi davrida chjuxu xalqlari ko‘plab ko‘chmanchi qabilalar bosqiniga qarshilik ko‘rsatish uchun har qanday imkoniyatdan foydalanishga tayyor edilar. Bundan tashqari, ularning o‘zlari Xitoyga bostirib kirib, aholisini talon-taroj qilishdi.

Tan (Tang 唐) sulolasi hukmdorlari mamlakat hududini himoya qilish va g‘arbiy viloyatlarga olib boruvchi savdo yo‘llari xavfsizligini ta’minlash maqsadida chegara hududlarida chegarachilarning ko‘plab tanlangan askarlariga bo‘ysunuvchi harbiy gubernatorlik lavozimlarini joriy etdilar. Gaozong (Gaozong 高总) hukmronligining Yungxuy yillaridan keyin harbiy gubernator allaqachon "elchilarni boshqargan va elchilarni boshqargan", imperatorning hokimiyatini bevosita ifodalagan va general-gubernator (Jiedushi 借都市) unvonini olgan. Juitszun（Ruizong 瑞总）hukmronligining 2-yilida (711) Tszinyun（jinyun 金运） Xesi（Hexi 河西）da general gubenator (Jiedushi 借都市) mavqei rasman o‘rnatildi. Keyinchalik, bu martabalar tobora ko‘payib bordi va Syuantszun(Xuan zong 选总) davriga kelib, chegara hududlarida allaqachon o‘nta jiedushi taynlangan edi: Pinlu(Ping lu 平路)[63] da, Fangyan (Fang yan 放眼)da[64], Xedun(Hedun 河顿)[65] shahrida, Shaofang (Shaofang 少放)[66], Xesi(Hexi 河西)[67], Longyu (Longyu 龙鱼)[68], Beyting(Beiting 北停)[69], Chjensi(Zhen xi 真西)[70], Jiangnan(Jiang nan

[63]Ichjou （Yizhou 伊周）shahri qarorgohida, zamonaviy Chaoyang（Chao yang 朝阳）, Jehe（Jehe 集合）viloyatida.

[64]General gubernatorning yashash joyi Youchjou(You zhou 幽周), zamonaviy Pekin(Beijing 北京)

[65] Qarorgohi Shansi(Shanxi 山西) provinsiyasi, Tayyuan(Taiyuan 太远) shahri

[66]Qarorgohi Lingchjou（Lingzhou 另州）, hozirgi Linvu（Linyu 淋雨）, Gansu（Gansu 甘肃） provinsiyasi

[67] Qarorgohi Lyanchjou（Lianzhou 连州）, hozirgi Vuvey（Wuvey 无谓）, Gansu（Gansu 甘肃)

[68] Qarorgohi Shanchjou(Shanzhou 山周), zamonaviy Liadong(Liaodong 辽东), Chingxay(Qinghai 青海) provintsiyasi

[69]Qarorgohi Tingchjou(Tingzhou 汀州), hozirgi Urumchi（Wulamaqi 乌勒蚂其）, Shinjon（Xinjiang 新疆）

[70] Qarorgohi Tsyuzi（Quizi 取自）, hozirgi Kucha（Kucha 苦茶）, Shinjon（Xinjiang 新疆） avtonom okrugi

DOI: 10.36078/1653410390

江南)[71] va Lingnan (Lingnan 岭南)shahrida[72] Jami 486,4 ming askar barcha General gubernatorlarga bo‘ysungan.

Dastlab jiedushi faqat harbiy kuchga ega edi. Aksariyat hollarda unga bo‘ysunuvchi okrug va tumanlardagi ma’muriy ishlar va moliya ishlari imperator saroyi tomonidan maxsus tayinlangan mansabdor shaxslar zimmasida bo‘lgan. Tan sulolasi davrida xorijiy xalqlar bilan munosabatlarga, savdo aloqalariga alohida e’tibor berilgan. Odatda, jiedushi lavozimiga eng yuqori martabali amaldorlar tayinlangan. Jiedushi chegara masalalaridan yaxshi xabardor bo‘lganligi sababli ular ko‘pincha vazir darajasida bo‘lar edilar.[73]

Tan(Tang 唐) imperiyasi tashkil topganidan beri uning tomoniga o‘tgan turli millat rahbarlaridan Tan(Tang 唐) sulolasi harbiy boshliq sifatida foydalanilgan[74].

Ammo ularga Imperiyadagi qo‘shinlarni boshqarish ishonilmagan. Tyanbao(tianbao 天宝) Syuantszun (Xuan zong 选总) hukmronligining dastlabki yillarida xitoy bo‘lmagan qabilalar Xusi (huxi 湖西) vakillaridan biri An Lu-shan（An Lu-shan 按录山）Pinglu(Ping lu 平路) va Fangyanda(Fang yan 放眼) general-gubernator (Jiedushi 借都市) etib tayinlangan. Yer egaligi tizimining buzilishi va harbiy xizmat (Fubin 服斌) tizimining yemirilishi natijasida Tan(Tang 唐) imperiyasining harbiy va iqtisodiy mavqei izdan chiqdi. Kidan(Qidan 契丹)lar va uyg‘ur（Weerzu 薇尔组）larga qarshi kurashda “vassal generallar” ning qurolli otryadlaridan foydalanishga intilib, Tan(Tang 唐) sulolasi bu sarkardalarni ko‘tarishga majbur bo‘ldi. Tyanbao(tianbao 天宝) hukmronligining 11-yilida (752) birinchi vazir Li Lin-fu（Lilinfu 李林甫）, "vassal generallar" xitoy tilini bilmagani uchun, ularning hech biri birinchi vazir lavozimini egallamaydi, deb hisobladi, shuning uchun u o‘z harbiylarini tayinlashni taklif qildi. Rahbar va fuqarolik amaldorlari o‘rniga

---

[71] Qarorgohi Yichjou（Yizhou 伊州）, hozirgi Chengdu（Cengdu 成都）, Sichuan（Xichuan 西川）provinsiyasi

[72]Guanchjou（Guangzhou 广州）, Guangdong（Guangdong 广东） qarorgohi

[73]‘’ 二十四史’’ 北京 1910 年 142-180 页（ “Er shi si shi” Beijing 1910 nian 142-180ye）

[74]Ularni “vassal generallar” — fantszyan（Fanjiang 翻浆） deb atashgan. Шанюе// Очерки истории Китая. С древности до «опиумных войн». Москва,1959. С.234. 230–270.

DOI: 10.36078/1653410390

bu generallar navbatda turish osonroq bo‘ladi. Shundan so‘ng Ansishun（anxishun 按吸吮） va Geshuxan (Geshuxan 格数汉)[75], Gao Sian Chji (Gaoxianji 高仙级)[76] va Shi Si-ming(Shiximing 世袭明)[77] (Xusi) shimoli-g‘arbiy chegara hududlariga jiedushi(Jiedushi 借都市) etib tayinlandilar.

General-gubernatorida(Jiedushi 借都市) chegara hududlarini qo‘riqlaydigan yirik harbiy kuchlar mavjud bo‘lgan. Shu bilan bir qatorda mahalliy aholini g‘alayonini bostirish uchun foydalanilar edi. O‘sha davrda General-gubernatorlarning kuchi tez o‘sdi. Bir necha tumanlar komendaturalarga birlashtirildi, tumanlardagi amaldorlar General-gubernatorga bo‘ysundi. Asta-sekin General-gubernatorlar fuqarolik boshqaruvi va moliyani o‘z qo‘llarida to‘pladilar, chunki "ularning yerlari, odamlari, qo‘shinlari va boyliklari bor edi". An Lu-shan （An Lu-shan 按录山） Pinglu(Ping lu 平路), Fanyang (Fang yan 放眼) va Xedun(Hedun 河顿)ga General-gubernator jiedushi(Jiedushi 借都市) bo‘lib, o‘z xohishiga ko‘ra jazo yoki mukofot tayinlar edi. Uning jilovsizligi va o‘z irodasi kundan-kunga ortardi. Tan (Tang 唐) imperiyasida harbiy tayyorgarlikka unchalik e’tibor berilmaganligini ko‘rgan An Lu-shan（An Lu-shan 按录山）“Xitoyni e’tiborsiz qoldira boshladi”, Kidan(Qidan 契丹), Si(Xi 西) va Dunlaodan（Dunlao 蹲捞） sakkiz ming saralangan jangchilarni to‘plab, Abbos boshchiligidagi turkiy otryadlarni o‘z tomoniga og‘dirdi. U xitoylik generallar o‘rniga o‘ttiz ikkita “vassal general” qo‘ydi. Bir necha o‘n minglab jangovor otlari va ko‘plab qurol-yarog‘larni tayyorlab, An Lu-shan（An Lu-shan 按录山） kuchli otryad tuzdi va shundan so‘ng mablag‘ to‘plash va vaziyatni o‘rganish uchun Xu(Hu 湖) savdogarlarini "barcha yo‘llarda savdo qilishga" yubordi. Savdogarlarni

[75] Ushbu Ikki generallar kelib chiqishi turklardan edi. Шанюе// Очерки истории Китая. С древности до «опиумных войн». Москва.1959. С. 234. 230-270.

[76] Ushbu general kelib chiqishi Koreys（Gaoli 高丽） edi. Шанюе// Очерки истории Китая. С древности до «опиумных войн». Москва.1959. С. 234. 230-270.

[77] Ushbu general kelib chiqishi Xusi(huxi 湖西) qabilasidan edi. Шанюе// Очерки истории Китая. С древности до «опиумных войн». Москва.1959. С. 234. 230-270.

DOI: 10.36078/1653410390

yuborishdan maqsad, josuslik orqali ma’lumot olish.[78] An Lu-shan（An Lu-shan 按录山） Xitoylik bo‘lgan zodagonlar Gao Shan, Yan Chuang va boshqalar bilan briktirib, fitna boshlig‘i bo‘ldi. Tyanbao (tianbao 天宝) hukmronligining 14-yilida (755) An Lu-shan(An Lu-shan 按录山) qo‘zg‘olon ko‘tardi. Unga bo‘ysungan qo‘shinlar, shuningdek, Kidan(Qidan 契丹), Si(Xi 西), Dunlaodan(Dunlao 蹲捞), Shivey(Shiwei 市委) va turklar(Tujue 突厥) jami 150 ming kishidan iborat bo‘lib, janubga tomon harakatlana boshlaydilar.

Bu vaqtga kelib, Tan (Tang 唐) sulolasining hukmron tabaqalari kuchsizlanib borardi. Tan sulolasining asosiy tayanchi bo‘lgan qo‘shin qisman “vassal generallar” qo‘lida edi. “Hududlarda harbiy amaliyotlar o‘tkazish uchun askarlar yo‘q edi”, “Kotsi tizimi tanazzulga yuz tutdi”, “askarlar va ofitserlar faqat qog‘ozda, qurol-yarog‘, yuk otlar, ovqat pishirish uchun qozonxonalar, chodirlar va oziq-ovqat tayyorlanmagan." Tuman arsenallaridan chiqarilgan paykonlar, zirh va qurollar "teshiklarda, to‘mtoq va singan" bo‘lib chiqdi. Imperator gvardiyasi deb atalmish, asosan, intizomsiz va harbiy ishlarga yomon tayyorgarlik ko‘rgan boylarning bolalaridan iborat edi. Bunday qo‘riqchi, albatta, tanlangan "vassal qo‘shinlari" ga qarshi tura olmaydi. Shu sababli, An Lu-shan(An Lu-shan 按录山) "Luoyang(Luoyang 洛阳), Tongguanni(Dongguan 东关) egallashga muvaffaq bo‘ldi va Chang‘an(Changan 长安)ga yaqinlashib, uning yo‘lidagi hamma narsani shafqatsizlarcha yo‘q qildi". Syuantszun amaldor Lining rejasiga binoan taxt vorisi Li Xen Shu(Li Henshu 李嘅属) Fu-guo(Fuguo 腐国), Shaofang (Shaofang 少放)dagi general-gubernator himoyasi ostida Sichuan(Sichuan 四川)ga qochib ketdi va Suzong(Xuizong 修总) nomi bilan Lingvuda imperator taxtiga o‘tirdi.

756-yilda An Lu-shan(An Lu-shan 按录山) qo‘shinlari Chang‘an(Changan 长安)ga bostirib kirib, u yerda talonchilik va zo‘ravonliklarni amalga oshirdi. Qo‘zg‘olonchilar "har bir zabt etilgan shaharda kiyim-kechak, qimmatbaho buyumlar va ayollarni qo‘lga oldilar, kuchli erkaklar hammol sifatida foydalandilar, zaif, qari va kichikni bolta bilan chopdilar". An Lu-shan(An Lu-shan 按录山) tomonidan barcha viloyat va okruglarga tayinlangan

[78] Воробьёв М В. ЧжурЧжени и государства Цзин. М.: Наука 1975. С. 322. С. 295-353.

 DOI: 10.36078/1653410390

amaldorlar aholini shafqatsizlarcha talon-taroj qildilar va zulm o‘tkazdilar. Poytaxt chekkasi aholisi jangga ko‘tarildi, ular isyonkor amaldorlarni yo‘q qildilar, hukumat qo‘shinlariga yordam berdilar, "agar ular bostirilgan bo‘lsa, ularning o‘rnini boshqalar egalladi". Keyingi yili (757) An Lu-shan(An Lu-shan 按录山) uning o‘g‘li An Tsin Suy(Qingxui 情修) tomonidan o‘ldirildi. Qo‘zg‘olonchilar o‘rtasida nizo kelib chiqdi. Tan(Tang 唐) qo‘mondoni Guo Tsi-yi(Guoqiyi 国其意)ning shofan qo‘shinlari va ularga yordamga kelgan uyg‘urlardan iborat 150 ming kishilik qo‘shini xitoylar tomonidan mamlakatning turli hududlarida yaratilgan o‘zini-o‘zi mudofaa bo‘linmalari ko‘magida Chang shahrini egalladi. an, keyin esa Luoyang(Luoyang 洛阳). Chin-su (Qingxui 情绪)Yejun(Yejun 叶俊)ga[79] qochib ketadi. Suzong(Xuzong 修总) hukmronligining Qyanyuan(Qianyuan 乾元) hukmronligining 2-yilida (759) An Lu-shan(An Lu-shan 按录山)ning sobiq sarkardalardan biri Shi Si-ming(Shiximing 世袭明) An Ching-su(Anqingxui 按情绪)ni o‘ldirdi. O‘z qo‘shinlarini sonini ko‘paytirib, u yana Luoyangni egallab oldi. Shanyuan(Shanyuan 山元) hukmronligining 2-yilida (761) Shi Siming(Shiximing 世袭明)ning o‘g‘li Shi Chao-i(Shichaoyi 世超伊) otasini o‘ldirdi, ammo harbiy boshliqlar unga bo‘ysunishdan bosh tortdilar. Bundan foydalangan Tan(Tang 唐) sulolasi uyg‘ur qo‘shinlari yordamida Luoyanni egalladi. Uyg‘urlar Luoyangni talon-taroj qilishdi, o‘n mingdan ortiq aholi halok bo‘ldi. Shofan qo‘shinlari, o‘z navbatida, Chjenchjou(Zhenzhou 镇州) va Linchju(Lingzhu 领主) viloyatlarini butunlay talon-taroj qildilar.

Keyinchalik Tyan Cheng-si(Tianchengxi 天秤西) va Li Xuay-syan(Lihuaixian 李怀仙).[80] Tang(Tang 唐) sulolasi tomoniga o‘tdilar. Guang-te(Guangte 光特)ning 1-yilida (763) Shi Chao-yi(Shichaoyi 世超伊) o‘z joniga qasd qilishga majbur bo‘ldi. Bu bilan An Lu-shan(An Lu-shan 按录山) va Shi Chao-yi(Shichaoyi 世超伊) qo‘zg‘olonlari tugadi. O‘tgan to‘qqiz yil ichida (755-763) Xuanxe(Huanghe 黄河) daryosining janubi va

[79]Hozirgi Anyang(Anyang 安阳), Xenan(Henan 河南) viloyati

[80]Shi Chao-yi(Shiximing 世袭明)ga bo'ysunuvchilar

DOI: 10.36078/1653410390

shimolida joylashgan viloyatlar aholisi qattiq zulmga duchor bo‘ldi, “Luoyang(Luoyang 洛阳) atrofidagi bir necha yuz li hududda odamlar bir-birini yeb, tumanlar va okruglar o‘zgardi. vayron bo‘ldi."

An Lu-shan(An Lu-shan 按录山) va Shi Chao-yi(Shichaoyi 世超伊) qo‘zg‘olonlari dehqonlarni cheksiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekspluatatsiya qilish huquqi uchun General-gubernator va imperator saroyi o‘rtasidagi kurashning boshlanishi edi. Bu qo‘zg‘olon Tan(Tang 唐) sulolasi hukmronligini sezilarli darajada zaiflashtirdi va siyosiy, iqtisodiy va harbiy mustaqillikka erishishni orzu qilgan mahalliy general gubernatorlarning rejalarini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratdi.[81]

Qo‘zg‘olon bostirilgach, Tan(Tang 唐) sulolasi tomoniga o‘tgan An Lu-shan(An Lu-shan 按录山) va Shi Chao-yi(Shichaoyi 世超伊)ning sobiq qo‘mondonlari qo‘zgalondan keyin ham ancha vaqtga qadaar kata harbiy kuchlari bo‘lib, keng hududlarga egalik qilishgan. Zaiflashgan Tan(Tang 唐) sulolasi faqat vaziyatdan kelib chiqib, ularni general-gubernator sifatida tasdiqlashi kerak edi. Shunday qilib, Li Bao-chen(Libaocheng 李宝成)[82]Chengde(Chengde 城的)[83]Tyan Chen-si (Tianchengxi 天秤西) da General-gubernator etib tayinlandi. Veybo (Weibao 卫报) da,[84] Li Xuay-sien(Lixuanxian 李选先)[85]- Lulun(Lulun 陆仑)[86] shahrida. O‘sha paytda bu hududlar Xebey(Hebei 河北) ning Uch Chje(Zhen 镇)ni deb nomlangan. Ko‘plab faxriy harbiy rahbarlar ham General-gubernator bo‘lishgan. Shunday qilib, bu lavozimlar Huang Xe(Huanghe 黄河) va Xuay(坏) daryosi havzalarining barcha hududlarida o‘rnatildi. General-gubernatorlar o‘zlarining qo‘l ostidagi yerlarni mustaqil boshqargan. Ularning ixtiyorida katta harbiy kuchlar mavjud bo‘lib, ular imperator saroyining buyrug‘iga rioya qilmaganlar, butun viloyatlarni egallab olganlar (eng katta viloyatlar bir necha o‘nlab tumanlarni, kichiklari esa har birida 3-4

[81]Шанюе// Очерки истории Китая. С древности до «опиумных войн». Москва.1959. С. 234. 230-270. С.184.182-186.

[82]Si(Xi 西) xalqidan

[83]Xebey(Hebei 河北) provinsiyasining markaziy va janubiy qismlari

[84] Xebey(Hebei 河北) –Shandun(Shandong 山洞)-Xenan(Henan 河南) mintaqasi

[85] Xusi(Huxi 湖西) halqidan chiqqan

[86]Xebey(Hebei 河北) provinsiyasining sharqiy va shimoliy qismlari

DOI: 10.36078/1653410390

tumanni o‘z ichiga olgan), harbiy va fuqarolik amaldorlarini soliqlar undirishni o‘zlari tayinlaganlar. Yer egalari General-gubernatorlarga tayanib, mulklarda o‘z hukmronligini mustahkamlash uchun o‘z kuchlaridan foydalanganlar. Ba'zan ular o‘zaro urushlarda qatnashish uchun o‘z dehqonlarini askar etib tayinlashar edi. O‘z navbatida, mulkdorlarning siyosiy va iqtisodiy yordami jiedushilarga o‘zlari bosib olgan hududlarda o‘z hokimiyatini mustahkamlash imkoniyatini berdi. Ba'zi jiedushi va ularning sheriklari ham mulk egalari edi. Shunday qilib, Tan Syanszong(Tangxianzong 唐冼总) hukmronligi davrida (806-820) Yan Li(Yangli 杨丽) — Jiangnan(Jiangnan 江南) va Dongchuan(Dongchuan 东川) ning General-gubernatori mahalliy aholining 122 ta mulkini egallab oldi. Lu Pei(Lupei 陆陪) oilasidan bo‘lgan uy egalari "Tyanbao(tianbao 天宝) davridan boshlab uch avlod davomida Yan(Yan 烟), Chjaoda (Chaoda 超大)xizmat qilgan va hamma joyda ko‘p miqdorda chorva mollari va yaxshi yerlarga egalik qilgan". "Ular faqat harbiy hujumlar va mudofaada o‘z ilg‘orliklarini ko‘rsatganlar."[87]

Bu davrda eng katta o‘z-o‘zini iroda va takabburlik uch Cheng(成) Shebei(舍背) general-gubernatori tomonidan ajralib turardi. Ularning har birida bir necha o‘n minglab askarlar bor edi. Ziqing(ziqing 紫晴) General-gubernator Li Chjen-chi(lizhen 李振)[88]bilan shartnoma tuzib, ular imperator saroyiga qarshi chiqdilar. Ulardan keyin Kanjin(kanjin 看尽)[89], Syuan(xuan 选)[90], Chjanyi(zhanyi 战意)[91], Tszelu(zelu 泽路)[92].

General-gubernator kuchi aksariyat hollarda meros bo‘lib qolgan. Otasining o‘limidan so‘ng o‘g‘li qurolli kuchlarga qo‘mondonlikni o‘z zimmasiga olar edi. Ba'zida qo‘shinlarning o‘zlari qo‘mondonni saylardilar. Ushbu holda u liuhou (liuhou 留后) deb nomlangan. Lyuxou(liuhou 留后)lar ham o‘z mustaqilligini saqlab qolishga intildilar va Tan(Tang 唐) sulolasi bilan hokimiyat uchun kurashdilar. Ba’zan General-gubernatorlar

[87]“二十四史’’ 北京 1910 年 142-180 页（ “Er shi si shi” Beijing 1910 nian 142-180ye）

[88] Shandong(Shandong 山洞)hududi general-gubernatori

[89] Boxay（bohai 渤海） hududi General-gubernatori

[90] Xenan (Henan 河南)provinsiyasining sharqida-Anxuy(Anhui 安徽) provinsiyasining shimolida

[91] Xenan(henan 河南) provinsiyasining janubida

[92] Shansi(shanxi 山西)- Xebey(hebei 河北) – Xenan(henan 河南)

DOI: 10.36078/1653410390

o‘rtasida qonli urushlar bo‘lib turardi. Bunga misol Tangzong(Tangzong 唐总)ning Xebey(Hebei 河北)dagi general gubernator tomonidan bosib olingan yerlarni qaytarib olishga urinishi muvaffaqiyatsiz tugadi. Armiya ta’minotidagi uzilishlar natijasida Jingyuan(Jingyuan 景园)da qo‘zg‘olon boshlandi (782). Qo‘zg‘olonchilar qo‘mondoni Chju tsi(Zhuci 逐次) (u bir vaqtlar Lulong va Jingyuanning general-gubernator bo‘lgan) ni imperator deb e'lon qilganlar. Zong(Zong 总) vahima ichida Chang‘an(Changan 长安)dan qochib ketdi. Poraxo‘rlik, provokatsiyalar va qurol kuchi bilan Syanzong(Xianzong 冼总) qisqa vaqt ichida 36 general-gubernatorni almashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Aftidan, bo‘linish va parchalanish tugadi. Biroq, qurolli kuchlar hali ham harbiy rahbarlar qo‘lida edi. Shu sababli, Syanzong(Xianzong 冼总) o‘limidan so‘ng, Xebey(Hebei 河北)ning uchta chjeni(Zhen 镇)ning rahbarlari yangi hududlarni egallab olish va avvalgidan ham ko‘proq o‘zboshimchalik qilishni boshladilar. General-gubernator va imperator saroyi o‘rtasidagi urush va General-gubernatorlarning o‘zlari o‘rtasidagi o‘zaro kurash mamlakat shimolidagi ijtimoiy ishlab chiqarishga jiddiy putur etkazdi va xalqqa behisob azob-uqubatlar keltirdi.

Syanzong(Xianzong 冼总) hukmronligi davrida imperator saroyi asosan soliqlarni faqat Xuayxe(huaihe 淮河) va Yantszi(Yanci 言辞) janubida joylashgan hududlardan olgan. Soliq to‘lovchilar soni to‘rtdan uch qismga qisqardi, xalq zimmasidagi soliq yuki bir necha barobar ortdi. General-gubernatorlar o‘zlariga tegishli hududlardan harbiy harakatlar va nafsi uchun soliq miqdorini oshirganlar. Masalan, Syanzong(Xianzong 冼总) hukmronligi davrida ikki poytaxtda yashovchi Weibo(weibo 微博) va Chengde(changde 昌德) general-gubernator (Jiedushi 借都市) Tyan Xong-Chjen(Tianhongzhen 天鸿真)ning ukasi va jiyani "kiyim-kechak boyligida bir-biri bilan raqobatlashgan, har kuni 200 mingga yaqin pul sarflagan. ." Soliq zulmi va ocharchilikdan qochish uchun xalq va ayniqsa, dehqonlar o‘z qishloqlarini tashlab, qarshilik ko‘rsatish uchun birlashishdan o‘zga chorasi qolmagan edi. Izong (yizong 易总) (860-873) davrida rasmiy Syue Jiao(xuejiao 学教) xabar berdi: chora-tadbirlar. Qochqinlarning yarmi "Qaroqchilar" orasida edi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mazkur qo‘zg‘olonlar imperiyani tanazzulga olib kelishi bilan birga o‘zidan so‘ng ko‘pgina ibratli voqealarni meros qilib qoldirgan.

DOI: 10.36078/1653410390

Shulardan biri tarqoqlik va uyushmaslik iqtisodni va siyosatni izdan chiqarishi. Shu bilan bir qatorda o‘sha davrada dehqonchilikdan hunarmandchilikning ajralib chiqishiva shu kabilardir.

Tan sulolasi davri o‘zining 400 yillik umri davomida ko‘plab ixtro va innovatsion yangiliklari bilan dunyo tamadduniga o‘z tamal toshini qo‘ydi. Rim va Arab madaniyati bilan bir qatorda xitoy madaniyati ham o‘sha davrning markaziga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бичурин Н.Я. Записки о Монголии. Санкт-Петербург, 1828.
2. Воробьёв М. В. ЧжурЧжени и государства Цзин. М.: Наука 1975.
3. Розова М. Г.История дома Цзинь, царствовшего в северной части Китая с 1114-год по 1234 год. Москва-Новосибирск, 1956.
4. Шанюе// Очерки истории Китая. С древности до «опиумных войн». Москва.1959.
5. Кычанов Е.И. Манголы в VI – первой половине XII в.// Дальний Восток и соседние территории в средние века. История и культура Востока и Азии. Новосибирск, 1980.
6. Кычанов Е. И. //Тангуты о Китае (по тангутским первоисточникам)-Сибирь, Центральная и Восточная Азия в средние века. История и культура востока Азии. // Новосибирск 1975.
7. 李洲住， 柏平 ‘’辽，金，西夏史 ‘’北京 2000 年 114-154 页（li Zhouzhu Baiping “Liao, Jin, Xixia shi”, Beijing 2000nian 114-154ye）
8. “二十四史’’ 北京 1910 年 142-180 页（ “Er shi si shi” Beijing 1910 nian 142-180ye)
9. 竹片 “辞海”北京 1976 年（Zhu pian “Ce hai” Beijing 1976 nian）

XITOY LINGVOMADANIYATIDA KOMMUNIKATIV RAHBARNING STATUSI VA ALOQA XUSUSIYATI (XITOY AFORIZMLARI MISOLIDA)

Gulmira Aybek qizi MAMADALIYEVA
Sharq filologiyasi fakulteti 2-bosqich magistranti
Xitoy tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Kommunikativ me’yorlar gumanitar siklning turli fanlarida: sotsiologiya, psixologiya, etnografiya, tilshunoslik fanlarida o‘rganiladi. Kommunikativ me'yorlar kommunikatorlar maqomi bilan belgilanadi. Aytib o‘tishimiz kerakki, ijtimoiy

DOI: 10.36078/1653410390

maqom muayyan huquq va mas'uliyatga ega bo‘lgan jamiyatda shaxsning pozitsiyasini ifodalaydi. Shaxsning maqomi sifatida ko‘plab parametrlar mavjud: kasb-hunar, lavozim, jins, yosh, oila, vaziyat, millat, dindorlik, moddiy ahvol, siyosiy ta'sir va boshqalar[93]. Mazkur maqola doirasida "kasb" va "lavozim" belgilari bilan chegaralangan Xitoy aforizmlari materialida ijtimoiy maqomning lingvistik ifodasi o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan. “Yetakchi” leksemasi bizda til shaxsi, ijtimoiy rol nominatsiyasi sifatida qabul qilingan qaysiki qo‘l ostidagilarning rahbarligi kabi omil bilan belgilanadi, biroq korxona xodimlari ham, butun xalq ham bo‘ysunuvchi sifatida harakat qiladi, bu holda biz Xitoy Xalq Respublikasi imperatori yoki raisi haqida gapiramiz.

Kalit so‘zlar: aforizmlar, lingvokulturologiya, status, kommunikativ, rahbar, xodim.

Abstract. Communicative norms are studied in various disciplines of the humanities: sociology, psychology, ethnography, linguistics. Communicative norms are determined by the status of communicators. It should be noted that social status reflects the position of the individual in a society with certain rights and responsibilities. There are many parameters as an individual’s status: occupation, position, gender, age, family, situation, nationality, religion, financial status, political influence, and so on. In the context of this article, the material of Chinese aphorisms, limited to the symbols "profession" and "position", highlights the peculiarities of the linguistic expression of social status. The lexeme “leader” is defined by a factor such as the leadership of subordinates, which we accept as a language personality, a social role nomination, but both employees and the whole nation act as subordinates, in which case we refer to the emperor or chairman of the People's Republic of China.

Keywords: aphorisms, linguoculturology, status, communicative, leader, employee.

Xitoy aforizmlarining aksariyati rahbar subordinatlarga nisbatan xatti-harakatlarning kommunikativ me'yorlarini ifodalaydi, boshqaruvda uzatish qobiliyatlari, shuningdek, rahbar tomonidan qarzni tushunish haqidagi aforizmlar juda kam. Biz quyida ba’zi aforizm guruhlarini tahlil qilamiz.

Boshqarish qobiliyati yetakchining muhim xususiyati hisoblanadi.

管理就是让别人完成事情。Guǎnlǐ jiùshì ràng biérén wánchéng shìqíng.

[93] Социальные статусы и роли. URL : www.grandars.ru (дата обращения: 22.09.2015).

 DOI: 10.36078/1653410390

Yaxshi rahbar,qo‘l ostidagilari o‘z majburiyatlarini bajarishlari uchun qanday boshqarishni yo‘lini biladi.

好的管理者就是要组织离了你照样转！Hǎo de guǎnlǐ zhě jiùshì yào zǔzhī líle nǐ zhàoyàng zhuǎn!

Yaxshi rahbar bilan ishchilar uning yo‘qligida ham ishlashni yo‘llarini biladilar. Ishchilarning ish sifati yetakching qobiliyatiga bog‘liq.

管理阶层的领导能力是刺激员工努力工作的原动力。

Guǎnlǐ jiēcéng de lǐngdǎo nénglì shì cìjī yuángōng nǔlì gōngzuò de yuándònglì.

Rahbarning malakasi ishchilari ishining sifati garovidir[94].

Yetakchi bo‘ysunuvchilarning san'ati quyidagi standartlar bilan belgilanadi: to‘g‘ri yo‘lni tanlash orqali, qo‘l ostidagilarni manipulyatsiya qilish, malakali ishni taqsimlash, yuqori sifat ko‘rsatish, qo‘llanmaga munosib malakasini oshirish. Bo‘ysunuvchilarning ishi rahbarning malakasiga bog‘liq. Bo‘ysunuvchilar va rahbar o‘rtasida salomlashish bilan boshlanadigan ishonch bo‘lishi kerak, shunga qaramay, aforizmlar yetakchiga bo‘ysunuvchilarda ehtiyotkorlik zarurligi haqida gapiriladi. Lavozimni tanlashda barcha xodimlarga nisbatan bir xil yondashuv bo‘lishi kerak. Boshliqlar tomonidan bo‘ysunuvchilarning manfaatlariga hurmat ko‘rsatish, ularga g‘amxo‘rlik qilish, yuqori sifatli ish uchun axloqiy jihatdan qarash kerak, shuningdek, saxovatlilik va bag‘rikenglik qilib minnatdorchilik bildirish kerak. Yaxshi xo‘jayin xodimlaridan o‘rganadi, tanqidni qabul qiladi, rahbariyatdagi xatolarni tuzatadi.

Rahbarning xarakterli xususiyatlarini yetkazib beradigan aforizmlarni ko‘rib chiqamiz, qaysi bu aforizmlar unga rahbarlikni to‘g‘ri bajarishga imkon beradi.

1. Rahbar bo‘ysunuvchilarga nisbatan saxovatli va xushmuomala bo‘lishi kerak. 大度能容天下难容事, 慈颜常笑笑世间可笑人。*Dà dù néng róng tiānxià nán róng shì, cíyán cháng xiào xiào shìjiān kěxiào rén.* – Imperator bo‘ysunuvchilarning xatolari va kamchiliklariga saxovatli va xushmuomala bo‘lishi kerak, shuningdek, mehribon va optimistik bo‘lishi kerak! (Ming sulolasi, imperator Zhu Yuanzhang)[95].

[94]吕国荣，《影响世界的 100 条管理名言》，北京，人民邮电出版社， 2010 (Люй гожун. 100 известных афоризмов про менеджмент. Пекин: Изд-во народного министерства почты и телеграфа,2010).

[95]秦楚，《名言警句大全》，北京，外文出版社， 2012 (цинь чу. законченная совокупность афоризмов. Пекин: Изд-во иностр. яз., 2012).

DOI: 10.36078/1653410390

2. Rahbar birinchi navbatda o‘zini boshqarishni bilishi kerak. 管理就是先管好自己。– *Guǎnlǐ jiùshì xiān guǎn hǎo zìjǐ.* – Avval o‘zingizni boshqarishingiz kerak, keyin boshqalarni boshqaring.

3. Rahbar xodimlari bilan samimiy bo‘lishi kerak. 只有当好群众的贴心人，才能当好群众的带头人。– *Zhǐyǒu dāng hǎo qúnzhòng de tiēxīn rén, cáinéng dāng hǎo qúnzhòng de dàitóu rén.* – faqat samimiy, sahiy va ochiqko‘ngil xo‘jayingina bo‘ysunuvchilarni yaxshi boshqarishi mumkin.

4. Rahbar xodimlarga rahbarlik qilishda kamtar bo‘lishi kerak. 力戒骄傲，这对领导者是一个原则问题，也是保持团结的重要条件。– *Lìjiè jiāo‘ào, zhè duì lǐngdǎo zhě shì yīgè yuánzé wèntí, yěshì bǎochí tuánjié de zhòngyào tiáojiàn.* – Boshliq uchun eng muhim tamoyillardan biri-xalq ommasi oldida takabburlik qilishdan yiroq bo‘lishikerak (Mao Sze Dong, XXRning birinchi raisi)[96].

5. Rahbar xodimlariga nisbatan adolatli bo‘lishi kerak. 源清则流清，源浊则流浊。– *Yuán qīng zé liú qīng, yuán zhuó zé liú zhuó.* – Manba tiniq bo‘lsa, oqim tiniq bo‘ladi, manba loyqa bo‘lsa, oqim loyqa bo‘ladi (Zhango davri, Sun Zi)[97].

Xitoy aforistikasida aks ettirilgan rahbarning shaxsiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: ehtiyotkorlik kamtarlik, mas'uliyat, bo‘ysunuvchilarni boshqarishda o‘z-o‘zini nazorat qilish.

Xitoy lingvokulturasida bir guruh aforizmlar mavjud bo‘lib, unda rahbarning xalqqa bo‘lgan burchiga bo‘lgan munosabati aks ettirilgan.

领导者的责任，归纳起来，主要地是出主意，用干部两件事 – *Lǐngdǎo zhě de zérèn, guīnà qǐlái, zhǔyào dì shì chū zhǔyì, yòng gànbù liǎng jiàn shì* – Rahbarning faqat ikkita rasmiy vazifasi bor: qiyin vaziyatdan chiqish yo‘lini topish va qobiliyatli xodimlarni tanlash (Mao Sze Dong, XXRning birinchi raisi)[98].

人的生命是有限的,可是,为人民服务是无限的,我要把有限的生命投入到无限的为人民服务中去。*Rén de shēngmìng shì yǒuxiàn de, kěshì, wéi rénmín fúwù shì wúxiàn de, wǒ yào bǎ yǒuxiàn de shēngmìng tóurù dào wúxiàn de wéi rénmín fúwù zhōng*

---

[96]毛泽东，《毛泽东语录》，北京，中央文献出版社， 1980 (Мао цзэдун. цитаты Мао цзэдуна. Пекин: центр. изд-во документов, 1980).

[97]荀况，《荀子》，战国 (Сюнь куань. Сюнь-цзы, древнее литературное собр., период чжаньго).

[98]毛泽东，《毛泽东语录》，北京，中央文献出版社 1980 (Мао цзэдун. цитаты Мао цзэдуна. Пекин: центр. изд-во документов, 1980).

DOI: 10.36078/1653410390

qù. – Insonning umri cheklangan, lekin xalqqa xizmat qilish cheksiz ish. siz butun cheklangan umringizni xalqqa xizmat qilish uchun sarflashingiz kerak[99].

Ko‘rib turganimizdek, bu ozchilik aforizmlar guruhi rahbarning uslubi, tushunish qobiliyati sifatida odamlarda ana shunday xususiyatni aks ettiradi. Rahbarning vazifasi, kelajakda xalqqa xizmat qilishda unga yordam beradigan munosib nomzodni tan olish va tanlashdir.

Shunday qilib, kommunikativ me'yorlar tomonidan cheklangan rahbarning xatti-harakati kasb va lavozim belgilari, xitoy tilida aforizmlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi: yetakchilik usullari, muvaffaqiyatli rahbarning fazilatlari, rahbarning munosabati xalq va davlat oldidagi burch. Yuqorida ko‘rsatilgan har bir aforizm guruhi Xitoy madaniyatining me'yorlarini namoyish etadi. Tahlil qilingan aforizmlar turli xil tarixiy davrlarga tegishli bo‘lsa-da, ulardagi normalar hozirgi vaqtda dolzarb bo‘lib, ular zamonaviy Xitoy lingvokulturasida tez-tez tilga olinishi bilan tasdiqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 吕国荣，《影响世界的 100 条管理名言》，北京，人民邮电出版社， 2010 (Люй гожун. 100 известных афоризмов про менеджмент. Пекин: Изд-во народного министерства почты и телеграфа,2010).

2. 秦楚，《名言警句大全》，北京，外文出版社， 2012 (цинь чу. законченная совокупность афоризмов. Пекин: Изд-во иностр. яз., 2012).

3. 毛泽东，《毛泽东语录》，北京，中央文献出版社， 1980 (Мао цзэдун. цитаты Мао цзэдуна. Пекин: центр. изд-во документов, 1980).

4. 荀况，《荀子》，战国 (Сюнь куань. Сюнь-цзы, древнее литературное собр., период чжаньго).

5.毛泽东，《毛泽东语录》，北京，中央文献出版社， 1980 (Мао цзэдун. цитаты Мао цзэдуна. Пекин: центр. изд-во документов, 1980).

6.杨茜彦，《名言警句大全集(超值白金版)》，北京，中国华侨出版社， 2011 (ян Сиянь.Полное собрание сочинений афоризмов (супер-издание). Пекин: Изд-во китайских эмигрантов,2011).

[99] 杨茜彦，《名言警句大全集(超值白金版)》，北京，中国华侨出版社， 2011 (ян Сиянь.Полное собрание сочинений афоризмов (супериздание). Пекин: Изд-во китайских эмигрантов,2011).

DOI: 10.36078/1653410390

7. Социальные статусы и роли. URL : www.grandars.ru (дата обращения: 22.09.2015).

XITOY TILIDA AFORIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Gulmira Aybek qizi MAMADALIYEVA
Sharq filologiyasi fakulteti 2-bosqich magistranti
Xitoy tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Har bir tilning o‘ziga xos xususiyati undagi muhim qatlam hisoblanmish turg‘un iboralar – aforizmlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Zero, aforizmlar kishilar orasida yuzaga keladigan turli munosabatlarni qisqa, lo‘nda va ta’sirchan qilib ifodalaydi. Tilda aforizmlarning qanchalik ko‘p bo‘lishi o‘sha til imkoniyatlarining shunchalik kengligidan dalolatdir. Aforizmlar xalqning uzoq asrli an’analari, urf-odati, madaniyati va tarixini aks ettirgani uchun ham ahamiyatlidir. Xitoy tili dunyoning 谚语 *yanyu* (maqol), matal va iboralarga o‘ta boy tillaridan biri bo‘lib, uning butun go‘zalligi, tarovati ana shu birliklarda o‘z ifodasini topgan. Mazkur maqola doirasida xitoy tilida aforizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlillarining ayrim xususiyatlarining muhim jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: aforizm, lingvokulturologiya, aforistik birlik, xususiyat, lingvistik shaxs, semantika.

Abstract. The peculiarity of each language is reflected in the fixed phrases - aphorisms, which are an important layer in it. After all, aphorisms briefly, succinctly and effectively describe the various relationships that occur between people. The more aphorisms in a language, the greater the potential of that language. Aphorisms are also important because they reflect the centuries-old traditions, customs, culture and history of the people. Chinese is the world's 谚语 *yanyu* (proverb), proverb and is one of the richest languages in terms of expressions, and that is all its beauty and splendor expressed in units. This article discusses important aspects of some features of the analysis of linguocultural features of aphorisms in Chinese.

 DOI: 10.36078/1653410390

Keywords: aphorism, linguoculturology, aphoristic unity, feature, linguistic personality, semantics.

Chet tillarni yaxshiroq o‘rganishda aforizmlarning o‘rni ham beqiyos hisoblanadi. Aforizmlarni bilish orqali biz xalq og‘zaki ijodini va xalqning ichiga kirib borishga zamin yaratamiz. Aforizmlar nafaqat chet tillarini balki tili o‘rganilayotgan mamlakatning madaniyatini yanada mukammalroq o‘rganib, ushbu xalqning madaniy urf odatlarini bilib olishimizga yordam beradi.

Tilning aforizmik sohasi odamlarning voqelikni bilish tajribasini avlodlar orqali saqlash va yetkazish vositasi bo‘lib, Yu.N. Karaulovning so‘zlariga ko‘ra, “dunyo suratida o‘zining (lingvistik shaxs sifatida) ma'no va qadriyatlar ierarxiyasini ochishga imkon beradi”[100]. Aforistik birliklar tilning milliy-madaniy o‘ziga xosliklarining eng yorqin namoyonlaridan biri hisoblanadi. Aforistik birliklar madaniy matnlar bo‘lganligi sababli ular doimo ma'lum bir xalqning madaniy ma'lumotlarini va bilimlarini saqlab qoladi. Milliy tilni tushunish va o‘rganish uchun, o‘sha xalqining mentalitetining o‘ziga xos xususiyatlari va aforistik birliklariga murojaat qilish kerak.

Aforizmlar milliy tillarda ma’lum bir til hamjamiyatining tarixiy, empirik va ma'naviy tajribasini aks ettiruvchi, uning milliy tili bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan madaniy an'analar,voqelikning majoziy tasviri asosida paydo bo‘ladi, chunki aforizmik birliklar nominatsiyasi mavzusi doimo milliy madaniyatning predmeti hisoblanadi. Majoziy komponent bo‘lgan aforizmlar asrlar davomida vujudga kelagan, ma’lum bir xalq madaniyati bilan alohida bog‘liqlikni aks ettiradi, chunki aforistik birliklarning tashqi shakli milliy madaniyat ko‘zgusi bo‘lib, aforistik birlik obrazi “bir xalqning ona tilida so‘zlashuvchilari tomonidan amalga oshiriladi va talqin etiladi”. V.G. Gak aforistik birliklarning “madaniy-shartli” va “milliylikka xos” indikativ bo‘linishini taklif qiladi. Darhaqiqat, turli tillarda semantikasi yoki tuzilishi o‘xshash bo‘lgan, umumiy manbaga qaytadigan aforistik birliklar mavjud. Boshqa tomondan, xarakterli xususiyatlar tufayli faqat ma'lum bir tilda tarqalgan aforistik birliklar mavjud, qaysiki ular usha til madaniyatining tasviri hisoblanadi. Har qanday tilning aforistik sohasi xalq dunyoqarashini, xalq madaniyati, e’tiqod va urf-odatlari, etnik fantaziya va tarixini, milliyligini aks ettiruvchi muhim til merosidir. Shunday qilib, har qanday tilda, shu jumladan, aforistika sohasi darajasida, til birliklarining faoliyatining universal va milliy o‘ziga xos jihatlarini ajratish tabiiydir. Birinchisi insonning ko‘plab aqliy va jismoniy

[100] Караулов Ю.Н. Филиппович Ю.Н. Лингвокультурное сознание языковой личности. Моделирование состояния и функционирования. М., 2009. 336 с.

 DOI: 10.36078/1653410390

fazilatlarining universalligiga, uning hayotining tomonlarini namoyon qilishdagi o‘xshashlikka, insoniy fikrlash xususiyatlarning o‘xshashligiga asoslanadi. Ikkinchidan, "geografik, iqlim, tarixiy, iqtisodiy, diniy, madaniy va turli xalqlar mavjudligining boshqa jihatlari" qamrab oladi. Kompleksda bu til darajasida, jumladan, ma'lum bir tilning leksik va frazeologik tizimida o‘z aksini topadi. Ushbu jarayonning natijasi aforizmlarni til belgilarining eng muhim semantik funksiyasi birliklari universal va o‘ziga xos milliy-madaniy jihatlarning ko‘rsatkichlari sifatida bajarishdir.

Xitoy filologi Mo Penlin aforizmlarni "tirik fotoalbom" deb ataydi [101] . Bir tomondan tadqiqotchilar, aforizmik birliklarni zamonaviy tillarda keng qo‘llanilayotgan tirik manbaa deb hisoblashsa, boshqa tomondan aforizmlar qadimgi izlarni saqlaydi, qaysiki ular til madaniyati- "toshqinligi" ning sababidir hisoblashadi. Xususan, aforizmlarda Xitoy milliy-madaniy jihati, Xitoy xalqining o‘ziga xos psixologik tarkibiy qismi, uning fikrlash tarzi, milliy an'ananing estetik mezoni va qadriyat yo‘nalishi madaniy axborot tashuvchisi sifatida aniq va yorqin aks ettirilgan .

Tilning milliy madaniyat bilan qanday bog‘liqligi borligi haqidagi savolga: E.M.Vereshagin va V.G.Kostomarovlarning takidiga ko‘ra, aforistik birliklar milliy madaniyatni uch jihatdan aks ettirishi mumkin: ajratilmagan, ajratilgan va prototib[102]. Xitoylik tilshunos Yao Pansi o‘z ishida aforistik birliklar va milliy madaniyat o‘rtasidagi aloqani ikki tomondan o‘zini namoyon qilishini aniqlaydi: madaniyatning aforistik birliklarda va o‘z ichki shaklida bir yoki bir nechta madaniy ma'lumotni olib boruvchi frazeologik birliklarda aks etishini aytadi[103].

Mashhur Xitoy tilshunos Luy Shusyan, tilning turli sohalarida, shu jumladan, aforistika sohasida ham ilmiy tadqiqotlar qilgan holda "lingvokulturologiya - bu millatning muayyan madaniy hodisaning tilida aks ettirilgan ilmiy intizom, yoki aksincha, ba'zi til birliklari orqali madaniy hodisaning ifodasidir" degan[104]. Hech shubha yo‘qki, dunyoning obrazi til tasvirining umuminsoniy yadrosini tashkil etuvchi lingvistik universallar yordamida uzatiladi qaysiki har qanday xalqning tinchligi va muayyan etnik – madaniy jamiyatning dunyoqarashining milliy o‘ziga xosligi tilning semantik tuzilishi (bizning holimizda-aforistik tasvirlar tizimi) tilida aks ettirilgan odamlarning turmush tarzi va psixologiyasiga asoslangan. Yer, tabiat va boshqa narsalar barcha mamlakatlar uchun

[101] Mo Pengling. 2000. New Discussion on the Chinese Idiom. Nanjing: Journal of Jiangshu Social Science. № 6. 181 -184. (in Chinese).

[102] Верещагин В.М., Костомаров В.Г. 1990. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. М., Русский язык, 246.

[103] Yao Pengci. 1990. Notes on the Idiom and Culture. –Hangzhou: Zhejiang Education Press.398. (in Chinese).

[104] Lu Shuxiang. 1988. The Name in the Northern and Southern Dynasties and Buddhism. – Beijing： Chinese Language. № 4. 84-93. (in Chinese).

 DOI: 10.36078/1653410390

bir xil va tabiatni rivojlantirish jarayonida shubhasiz millatlararo o‘xshashliklar mavjud. Shunday qilib, har bir millat dunyosining til rasmida bunday hodisalar haqida universal va umume'tirof etilgan butun insoniyat bilimlari mavjud (quyosh tushadi, yomg‘ir yog‘adi va hokazo). Bunday dunyoqarash o‘zbek tili tabiatida ham xitoy tili tabiatida ham bor. Umumjahon, global bilim, birinchi navbatda, uning leksik va aforistik tili tarkibida yozilgan. Fikrlash jarayonlarining o‘xshashligi, assotsiativ aloqalarning paydo bo‘lishining umumiy naqshlari o‘zbek va boshqa tillarda, shu jumladan Xitoy tilida to‘liq ekvivalent aforistik birliklarning shakllanishiga olib keladi. Masalan, o‘zbek tilidagi (bir umr yasha, bir umr o‘qi) va xitoytilidagi (活到老学到老) aforizmlari semantik jihatdan ham, holat yuzasidan ishlatilishi ham bir xil bo‘ladi. Ikkala holatda ham, inson hayot davomida ilm olishi kerakligi haqida aytilgan. Keling, boshqa ekvivalentli o‘zbek va xitoy frazeologik birliklarini taqqoslaylik: besh qo‘lidek bilmoq -了如指掌(liao ru zhi zhang), suvdagi baliq kabi -如鱼得水 (ru yu de shui), yurakka pichoq kabi -心如刀割(xin ru dao ge), olovga moy sepmoq -火上浇油(huo shang jiao you), ochiq osmondagi yomg‘irli bulut kabi -晴空霹雳(qing kong pili), yerdan to osmongacha -天壤之别(tian shang zhi bie).

Ushbu aforistik birliklarda turli xil tasvirlar taqdim etilsa-da, ular shunga o‘xshash ma'nolarga ega, bir xil uslubiy aksessuarlar va shunga o‘xshash hissiy va ifodali ranglar, shu bilan bir xil dunyoqarash va baholashni ifodalaydi. Shu bilan birga, aforizm birligi tomonidan qayta ko‘rib chiqilgan tasvirlar milliy fikrlashni aks ettiradi, chunki shunga o‘xshash mavzuni, hodisani yoki jarayonni belgilashda turli xalqlar yaxshi tashkil etilgan milliy obrazni tanlaydi va shu bilan milliy bilim psixologiyasining aspektini aks ettiradi.

Til rasmidagi noyob komponent etnik guruhlar dunyosi ularning madaniyati, an'analari, kundalik turmush tarzi, yashash muhitidagi farqlar bilan belgilanadi. Bunday farqlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, shuncha ko‘p milliy tillarda milliy o‘ziga xos haqiqatlarning belgilari sifatida tasniflanishi mumkin bo‘lgan so‘z birikmalarining qatlamlaridan iborat. Madaniy ma'lumotni shu jumladan, aforistikaning ichki shaklidan olish mumkin, chunki madaniyatning "izlari" mavjud – afsonalar, arketiplar, urf-odatlar va urf-odatlar, tarixiy voqealar va moddiy madaniyat elementlari aks ettirilgan. Taniqli xitoylik tilshunos Wu Liqinning so‘zlariga ko‘ra, tilni o‘rganish milliy mentalitet bilan birgalikda zarur bo‘libgina qolmay, til xalqning mentalitetiga yuqori darajada mos kelishi ham kerak[105].

[105] Wu Liqin. 2009. On the Language and the Ethnic Identity and Mentality. – Fuyang: Journal of Fuyang Normal College. № 3. 63-64. (in Chinese).

 DOI: 10.36078/1653410390

Natijada, aforistik birliklarni o‘rganishda milliy mentalitet bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ichki tasvirga tayanish kerak.

Aforistik birliklarning milliy-madaniy omil bilan nisbati parametrlarini batafsil o‘rganish uchun biz o‘zbek va xitoy aforistik birliklarini formulalar bo‘yicha ko‘rib chiqishga harakat qilamiz: “aforistik birliklarda biror narsa (ya’ni X)” va “aforistik birliklar va biror narsa (ya’ni X)”.

Aforistik birliklarda X turli xil til omillarini ifodalaydi: fonetik, leksik, grammatik va uslubiy. Bu omillarning barchasi milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiradi. Masalan, xitoy aforistik birliklarida misraning o‘zbek aforistik birliklariga xos bo‘lmagan ritmik-melodik tashkiloti saqlanib qolgan, “juft” va “singan” ohanglarning muntazam ergashishi uchun maxsus qoidalar bilan tartibga solingan, qaysiki xitoyliklarning juftlik va marosimga bo‘lgan istagini bildirib keladi. O‘zbek iboralari kitob nutqida ham, so‘zlashuv nutqida ham unumli qo‘llaniladi, qanotli so‘zlar ko‘proq kitobiy, maqol va matallar esa so‘zlashuv nutqida ko‘proq qo‘llaniladi.

Ikkinchi ya’ni aforistik birliklar va X formulasiga quyidagi misollarni keltirish mumkin: maslan hayvonot dunyosini oladigan bo‘lsak, *bir o‘q bilan ikki quyonni urish, bo‘ri kabi uvullaydi, ayiqning burchagi va h.k.* Xitoy aforistikasida esa: 龙凤呈祥- long feng cheng xiang (ajdaho va feniks baxt olib keladi), 虎穴龙潭 – hu xue long tang (yo‘lbars g‘ori ajdaho hovuzi, ya`ni judayam xavfli joy), 虎父无犬子 – hu fu wu quanzi (ota yo‘lbars bo‘lsa, o‘g‘li it bo‘lmaydi ya’ni qahramonning bolalari ham qahramonlarga aylanadi) va h.k.

Bunday aforizmlar millatning yashash joyining xarakterli faunasini aks ettiradi, shuningdek, turli xalqlar hayvonlarni qanday baholashlarini ham ifodalab keladi. Bunaqa misollarni yana ko‘plab sohalarda, tabiat, falsafa, udumlar, tarix ko‘plab sohalar bilan lingvomadaniy jihatdan solishtirish mumkin.

Odamlar tabiatni, tinchlikni o‘zlashtirdilar va bu jarayonda avloddan-avlodga o‘tadigan tajriba to‘plandi. Qadimgi avlodning donoligi doimo hayot uchun qimmatli boylikdir. Va aforistik birliklar, dunyodagi milliy til rasmining vakili bo‘lib, muayyan xalq, millatning falsafasini aks ettiradi O‘zbek aforizmlarida: *qo‘ynida ilon saqlamoq, olovsiz tutun bo‘lmaydi, shamol bo‘lmasa daraxtni uchi qimirlamaydi, pashshadan fil yasadi, jim yursang, uzoqqa borasan, buyuklikdan masxaralikkacha bir qadam, bilim- bu kuchdir va boshqalar.*

Xitoy aforizmlari:

 DOI: 10.36078/1653410390

一年之计在于春 – Yī nián zhī jì zàiyú chūn (bitta bahor kuni, yil bo‘yi oziqlantiradi).

以卵击石 – Yǐluǎnjīshí (toshni tuxum bilan yorib bo‘lmaydi).

真金不怕火炼 – Zhēn jīn bùpà huǒ liàn (Haqiqiy oltin olovdan qo‘rqmaydi).

与虎谋皮 – Yǔhǔmóupí (yo‘lbarsdan terisini so‘rash ya’ni juda xavfli odam bilan ish qilish).

知己知彼百战不殆 – Zhījǐzhībǐ bǎizhànbùdài (O‘zingni va dushmaningni bilgin va sen albatta yutasan).

失败是成功之母 – Shībài shì chénggōng zhī mǔ (Muvaffaqiyatsizlik – muvaffaqiyatning onasi).

少壮不努力老大徒伤悲 – Shàozhuàng bù nǔlì lǎodà tú shāng bēi (yoshligingda o‘qimasang, keksalikda qiynalasan).

流水不腐户枢不蠹 – Liúshuǐ bù fǔ hù shū bù dù (suv oqimi chirimaydi, eshik devorida qurt topilmaydi).

强将手下无弱兵 – Qiáng jiàng shǒuxià wú ruò bīng (Kuchli generallarning kuchsiz askarlari bo‘lmaydi).

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, inson ongida ob'ektiv olamning lingvistik vositalar yordamida in'ikosi sifatida aks ettirilgan dunyoning lingvistik manzarasi ham xalqaro, ham aslida milliy xususiyatga ega, aforistik birliklar esa qaysiki dunyoning, muayyan xalq tilining lingvistik tasvirini ham umuminsoniy, ham milliy omillarni ifodalaydi. Shunday qilib, aforistik birlik, go‘yo kvadrat so‘zdir: o‘ziga xos tarkibiy va semantik xususiyatlarga ega bo‘lib, u bitta leksema kabi, muloqot jarayonida ma'lum ma'lumotlarni nomlaydi, tavsiflaydi, o‘zgartiradi, lekin so‘zdan ko‘ra ko‘proq og‘zaki tasvirlarni, har bir tilda takrorlanmaydigan dunyo tasvirini yaratadi. aforistik birliklar bevosita yoki bilvosita madaniy ma'lumotni olib, uni majoziy shaklda taqdim etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Караулов Ю.Н. Филиппович Ю.Н. Лингвокультурное сознание языковой личности. Моделирование состояния и функционирования. М., 2009. 336 с.

2. Mo Pengling. 2000. New Discussion on the Chinese Idiom. Nanjing: Journal of Jiangshu Social Science. № 6. P. 181 -184 (in Chinese).

DOI: 10.36078/1653410390

3. Верещагин В.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. М., Русский язык, 1990. 246 с.
4. Yao Pengci. 1990. Notes on the Idiom and Culture. Hangzhou: Zhejiang Education Press.398.(in Chinese).
5. Lu Shuxiang. 1988. The Name in the Northern and Southern Dynasties and Buddhism. – Beijing: Chinese Language. № 4. 84-93 (in Chinese).
6. Wu Liqin. 2009. On the Language and the Ethnic Identity and Mentality. Fuyang: Journal of Fuyang Normal College. № 3. 63-64 (in Chinese).

XITOY TILINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH VA UNING SAMARADORLIGI

Nigina G‘ulom qizi MAMATQULOVA
talaba
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ilmiy rahbar: Ro‘zumova Gulbahor Matyakubbaevna

Annotatsiya. Ushbu maqola xitoy tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi**,** muammolari va ularning yechimiga bag’ishlangan. Shuningdek, xitoy tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi ga oid bir qancha misollar bilan fikrlar to‘ldirilgan.

Kalit so‘zlar: metodist, grammatika, leksika, iyeroglif, tarjima, ton, frazeologizm.

Annotation. This article focuses on the use of modern innovative technologies in Chinese language teaching and its effectiveness, problems and solutions. There are also a number of examples of the use of modern innovative technologies in Chinese language teaching and its effectiveness.

Keywords: methodist, grammar, vocabulary, hieroglyphs, translation, tone, phraseology.

Аннотация. Данная статья посвящена использованию современных инновационных технологий в обучении китайскому языку и их эффективности, проблемам и решениям. Также имеется ряд примеров использования современных инновационных технологий в обучении китайскому языку и их эффективности.

Ключевые слова: методист, грамматика, лексика, иероглифы, перевод, тональность, фразеология.

 DOI: 10.36078/1653410390

Hozirgi kundagi rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan rivojlanmoqda. Barcha sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan ulardan, ta'lim jarayonida ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qubchilarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012 yil 13 dekabrdagi PQ 1875 –sonli qarori qabul qilingandan so'ng mamlakatimizda chet tillarni o'qitishga, o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada avj oldi.[106]

Mamlakatimizda xitoy tilini o'qitilishida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Xitoy tili darslarining o'qitilishi jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish so'ralmoqda.[107] Respublikamizda xitoy tilining o'qitilishi, xitoy tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumyevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Xitoy tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda.

Xitoy tili fani to'rt aspektga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda.[108]

Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, xitoy tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir.

Texnologik vositalardan foydalanish xitoy tili o'rganishning har bir aspekt (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player,CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas.[109] Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi.

[106] https://hozir.org/bugungi-tezkor-rivojlanayotgan-zamonda-ilm-fan-texnika-ham-shi.html

[107] https://moluch.ru/archive/138/39058/

[108] https://fayllar.org/malaka-ishi-mavzu-ingliz-tilini-rgatishda-tinglab-tushunish-me.html

[109] https://journals.uz/wp-content/uploads/2020/09/conf_20_2020/10.Pedagogika_yonalishi_2_qism.pdf

DOI: 10.36078/1653410390

Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o‘quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Xitoy tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o‘rgatish va o‘rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: — kompyuterlardan foydalanganda o‘quvchi xitoy tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko‘rishi ham eshitishi mumkin; — xitoy tilidagi radio eshittirishlar va televideniyadagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; — ancha an’anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kassetalardan foydalanish; — CD pleyerlardan foydalanish mumkin.

Bu texnik vositalardan foydalanish o‘quvchilarning xitoy tilini o‘rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo‘lishini ta’minlaydi. Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Xitoy tilini o‘rganish va o‘qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi.[110] Internet orqali xitoy tilida so‘zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. E-mail orqali xat yozishish bilan yozish mashqini takomillashtirish mumkin. Ta’lim jarayoniga zamonaviy — kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to‘g’ri, unumli foydalanish, ular orqali o‘quvchida xitoy tiliga bo‘lgan qiziqishni orttirish, o‘qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi.[111] Bu orqali ta’limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug’iladi va talab ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. T.Sattarov.Bo‘lajak xitoy tili o‘qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish tehnologiyasi. Toshkent, 2003:135-bet.
2. 对外汉语教学语法探索/ 国家汉办教学处编。- 北京：中国社会科学出版社，2003. 145-页
3. Назарова, С. А. (2016). Проблема формирования лексической компетенции студентов в процессе обучения китайскому языку в научно-методической литературе. *Преподаватель XXI век*, *3*(1), 93-99.
4. Kh, B. G., & Sh, M. K. (2019, November). Enhancing ICT Technologies in Teaching, Learning and Assessment of foreign languages in Uzbekistan. In *2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT)* (pp. 1-3). IEEE.

[110] https://adu.uz/fayl/konf02.pdf

[111] http://hozir.org/-3-son-2019-indd.html?page=61

DOI: 10.36078/1653410390

5. Polatovna, B. N., & Qizi, S. Z. J. (2020). Improving Lexical Competence of B2 Level English Learners in the Karakalpak Auditorium. *Universal Journal of Educational Research*, *8*(11B), 6082-6090.
6. Polatovna, B. N., & Qizi, S. Z. J. (2020). Improving Lexical Competence of B2 Level English Learners in the Karakalpak Auditorium. Universal Journal of Educational Research, 8(11B), 6082-6090
7. https://hozir.org/bugungi-tezkor-rivojlanayotgan-zamonda-ilm-fan-texnika-ham-shi.html
8. https://moluch.ru/archive/138/39058/
9. https://fayllar.org/malaka-ishi-mavzu-ingliz-tilini-rgatishda-tinglab-tushunish-me.html
10. https://journals.uz/wpcontent/uploads/2020/09/conf_20_2020/10.Pedagogika_yonalishi_2_qism.pdf
11. https://adu.uz/fayl/konf02.pdf

现代汉语语音部分中“数字”概念的本质

Mavlyanova U.
塔什干国立东方大学，汉语系博士

摘要。数字名称是语音的复杂部分之一。这是由于以下事实：仍然不清楚哪个单词属于它，哪些单词与她所考虑的单词没有相当明确的正式语法统一性和言语其他部分的局限性。但是通常，这些数字具有仅适合它们的特征，并以某种相似的词将其与其他人区分开。

关键字：中文，数字，类别，数量，词汇，语义。

Annotation. Number name is one of the complex parts of speech. This is due to the fact that it is not entirely clear which words are related to it, and which do not belong, and the words they are considered do not have enough clear formal-grammatical unity and limitedness from the words of other parts of speech. But in general, numerals have features characteristic only for them and distinguish them from others in something like that of them words.

Key words: Chinese, numeral, discharge, quantity, vocabulary, semantics.

如您所知，古代语法并未将数字名称标识为演讲的特殊部分。但是，在 M.V. Lomonosov 启动的俄罗斯语言的科学研究中，单词的独创性表明数字导致了这样一

 DOI: 10.36078/1653410390

个事实，即它们开始以一种或另一种方式将其作为特殊的单词类别 [112]。M.V. Lomonosov 致力于第三个指令的数字第 7 章（“命名”）。他将它们与名词和形容词一起分配，并区分原型的数字（在现代术语 - 定量）和“衍生物”（序列化，序列化，集体和一半，一半，一半的单词）三个等）。俄罗斯科学家认为这些词的变化。此外，在专门针对“名称的组成”的一章中，他指出了数字的一些句法特征 - 它们与名词和形容词的组合的特征。

A. A. Potebnya 在他的作品中指出，数字的数字是“不是正式的词”。它既有“逻辑和形式元素，也就是说，它对名词，形容词，副词，属，案例，数字等的语法类别具有自己的特殊内容和态度 [113]。科学家将数字归因于重要单词类别，同时指出了与其词汇，语义特征相关的形式特征的这一部分的存在。

另一种方式是，俄罗斯语法科学的形态学（正式”学校的代表进行了言语的分类。自然，这些数字在该系统中也占据了不同的位置。单词分类中的主要关注被吸引到形成。关于俄罗斯语言，这些想法是在他的活动早期由 M. N. Peterson 教授发展的。当将单词分为具有索引形式和没有这种索引的形式时，定量数字在一组案例单词和串行中发现自己在一组独立的通用词中。

正式方向代表之间的一个积极要点是对单词的形式密切关注，这使得有可能注意到语音各个部分的许多重要特定特征，包括数字。但是，这所学校的数字不被视为言语的特殊部分，这阻止了其某些共同特性，因为唯一的言语分配标准被证明是现象的形式。

数字包含某些定量思想的名称，以及在说话者或句子主题中引起的数值关系的名称。因此，语法性质中的数字接近代词，但与之不同，因为它仅包含某些定量关系的名称，而代词包含各种关系的名称。

A. Peshkovsky 在“计数单词”的句法函数的基础上得出了不少于一个结论：“两个，三个，四个变成语音的完全混合部分：这是形容词和名词之间的想交叉。所有其他计数单词仍然是名词，但其本质的苍白（数字和类型形式的丢失）都具有巨大的苍白。这些目前是有缺陷的名词。”

因此，M.Lomonosov，A.Barsov，1802 年的学术语法，V.Polovtsov（1843），A.Diliash 在更一般的“名称”类别中区分了数字名称。 F. Buslaev 谈到逻辑独立性，

[112] Lomonosov M.V.俄罗斯语法。 -M。，1952 年。 473s。

[113] Potebnya A.A.摘自关于俄罗斯语法的笔记。 -M。1958,192-194S。

DOI: 10.36078/1653410390

谈到了与名词和形容词的正式相似之处，认为演讲的官方部分的数字。 B. Larin 将数字视为“具有相同含义的单词”，但实际上，他具有“狭窄意义上的数字”（在“宽”中 - 计数名词等）[114]。

逻辑思维的现代发展水平，数学文化有助于以下事实：数字被标识为数字标志的名称，因此，这种类别的词语被证明是词典学“迷失”的）。表示数字，数量形成的单词比数字的形式逻辑概念早得多，甚至比出现的数字标志更早。在人类经验发展的影响下形成的数量的概念并不是同质的。这个数字不仅是哲学，而且是神话学家，心理学家等。在数量概念的结构中，其框架内的组成部分（例如结构性，归纳性经验性）是孤立的：文化和类型学。

在考虑实体方面的数字时，应该记住，这个词不仅是现代语言的词汇 - 语义系统的元素，它是文化，神话（A. Potebnya）的元素（A. Potebnya），有机体，仪式（ M. Makovsky），根据“冰山”（I. Sternin）原理组织的结构。遵循“语言遗传学”（M. Makovsky）的一些规定，我们将这个词视为一组元素，其中许多是在某个符号学环境中形成的最初基因，这些基因决定了单词的重要潜力，其系统关系或它的“死亡”。关于数字，这是对这种逻辑和文化现象作为数字的词汇指定，最清楚地实现了这一理论方面。

在数字的句法关系层面上，一个重要因素是现实中定量关系的逻辑条件。基于现实中某些定量关系的表达，与某些类型的真实集合相对应，我们在单个方案名词+名词的框架内确定了这种语义 - 单词使用模型，为线性预肽，线性，层次，等级，等级结构优惠。

在数字范式关系的层面上，按照原则的数字进行语义和语法分类：“一个”（一个人同意，以实物，案例，数字，数字，为了清晰：一个 +名词单位）；计划中的“两个，三，四”。 +名词。以单元 ”（以的命名）可能具有“小” /“很多”（取决于范式和范例的数量），“ little” /“ little” /“很多”），“五到十”（属中的数字 +名词）。背景是“许多”，“许多”一词的无限质量含义，“四十，一百，一百，一千，十亿”，控制该属中其他名词。表达无限期的宗教意义“很多”。在每个组的框架内，

[114] Kalamova N.A.数字名称//俄罗斯演讲。M. 1989 年。第 3 号。第 146-150 页。

DOI: 10.36078/1653410390

指示的比例“一个” - “小/很多” - “很多” - “很多”可以有条件地谈论可变替代数字的可能性，即它们的同义词，在各个小组 - 关于反义词关系 [115]。

数字的衍生物不仅可以使这些单词的隐藏种子（数值模型的隐藏元素）客观化。这种类型的关系清楚地说明了数字的各种语义潜力，并用于其语义分析。

编号可以根据语音主题的沟通态度表达文本中的各种务实信息。在科学风格的文本中，数字在商业文本中执行了主要内容的功能 - 具体化。在新闻业中，数字在上述功能和属性中都作用，这是口语语音和小说语言的独特特征。

参考文献:

1. Kobzev A.I.中国古典哲学中的符号和数字学说。 M。：科学。 ed。该公司“东.点燃”，1993 年。 432 p。

2. Meshchaninov，I.I。句子的成员和语音的部分 / I.I. Meshchaninov -L。：Nauka，1978 年。 -387 页。

3.形态。数字。 -url：http：//russkiy-na-5.ru/articles/212。

4.现代汉语词典（汉英双语）/ 中国社会科学院语言研究所词典编辑室编. 北京：外语教学与研究出版，2002. 1790 页.

5. 蒋仁萍. 基数词和序数词的类型学研究. 硕士学位论文. 南昌大学, 2007. 17 页.

6. 王霞， 储泽祥. 中国语言序数语法表达式的类别和共性特征. 民族语文.

7. Мавлянова, У. Х. (2021). СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ «ЧИСЛИТЕЛЬНОЕ» В КАТЕГОРИИ ЧАСТЕЙ РЕЧИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(Special Issue 1), 104-110.

8. Рахматуллаева, Д. М. (2021). 浅谈汉语声调教学问题. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 1), 344-348.

9. Anvarovna, P. N. S. (2022). PHILOLOGY STUDENTS FOREIGN LANGUAGE INTERCULTURAL COMPETENCE DEVELOPMENT IN TEACHING

[115] Peshkovsky A. M.俄罗斯语法科学照明。 M。，1956，62-68。

 DOI: 10.36078/1653410390

CHINESE LANGUAGE: RESULTS OF EXPERIMENTAL TEACHING. *湖南大学学报(自然科学版)*, *49*(03).

YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING O'RNI

Raxshona MUSLIXIDDINOVA
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi
NavDPI
Ilmiy rahbar: f.f.d. (PhD) N.J.Yarashova

Annotation. Navoi's works cover a wide range of topics. In particular, the epic "Hayrat ul-abror" contains important ideas that are necessary for the moral education of man. This article addresses this issue.

Keywords: oriental culture, ethics, education, words of wisdom, aspect.

Annotatsiya. Navoiy asarlarida barcha mavzular qamovini ko'rish mumkin. Xususan, "Hayrat ul-abror" dostonida kishining axloqi-tarbiyasi uchun lozim bo'ladigan muhim fikrlar jamlangan. Maqolada mana shu masala o'rganilgan.

Kalit so'zlar: sharq madaniyati, odob-axloq, ta'lim-tarbiya, hikmatli so'zlar, aspekt.

Yosh avlod tarbiyasi g'oyatda muhim va mas'uliyatli vazifa bo'lib, u tarbiyachidan bir qancha sifatlarni chuqur egallashni talab etadi. Bola tarbiyasida tarbiyachi hech qanday xato qilishga haqqi yo'q. Tarbiyachi tomonidan aytilgan har bir fikr, bajarilayotgan hatti-harakat bolaga saboq bo'ladi ya'ni qanday eshitsa yoki ko'rsa o'shanday o'zlashtiradi. Shuning uchun bola tarbiyasi borasida o'ta mas'uliyat bilan yondashish lozim deb hisoblaymiz. Bolaning rivojlanishiga olayotgan ma'lumotini to'g'ri o'zlashtirishiga, oilaviy muhit, juda katta ahamiyat kasb etadi. Bolani biz niholga qiyoslaymiz. Negaki, niholni shamol hali bu yoqqa, hali u yoqqqa egaveradi bog'bon unga bir tirgak qo'yib uning to'g'ri o'sishini nazorat qiladi. Bolani ham xudddi shunday eshitayotgan va ko'rgan voqeylikdagi aniq ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilib berish va olayotgan ma'lumotlarini to'g'ri o'zlashtirilishiga e'tibor qaratish bolaning to'g'ri shakllanayotganlingini ko'rsatadi.

Shuning uchun mutafakkirlarimiz o'z asarlarida turlicha qarashlarni fikr-mulohazalarni aytib o'tgan. Bu borada Alisher Navoiyning qarashlari g'oyatda muhim

 DOI: 10.36078/1653410390

ahamiyat kasb etadi. Shoir o‘zining juda ko‘p asarlarida bolalar tarbiyasiga oid fikrlarni ilgari surdi. Ana shunday fikr va g‘oyalar Ayniqsa, «Xamsa» asari tarkibiga kirgan «Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi dostonlarining ba’zi boblarini bola tarbiyasiga oid fikr-mulohazalar va qarashlar egallaganini ko‘ramiz. Bular orasida «Hayrat ul-abror» (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) dostonida bolalarni o‘qimishli, odobli, rostgo‘y, halol, pok, saxiy bo‘lishga ota-onani, o‘zidan kattalarni hurmat qilishga, insofli va adolatli kishilar bo‘lib kamol topishga undaydi.

“Hayrat ul-abror” asarining bir necha boblari odob-axloq va ta’lim-tarbiya masalasiga bag‘ishlangan. Navoiy bu dostonini oltinchi maqolatida odob va kamtarlikni ulug‘lab, ta'lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr va mulohazalarni bayon qilish bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi:

Elga sharaf bo‘lmadi johu nasab,
Lek sharaf keldi hayovu adab.

Demak, Navoiy aytmoqdaki, amaldan o‘z nasabidan kishilar sharaf topmagan. Lekin haqiqiy sharaf hayo va adabdan keldi. Shoir o‘z fikrini davom ettirib:

Chunki yog‘in manbai o‘ldi hayo,
Qatrasi tuprog‘ni qilur kimyo. *(Hayrat ul-abror 73 -bet)*

Endi esa, shoir yomg‘irning ham manbai hayodir; uning bir qatrasi tuprog‘ni kimyo qiladi deya ta’kidlaydi.

Bo‘lmas adabsiz kishilar arjmand,
Past etar ul xaylni charxi baland. *(Hayrat ul-abror 73 -bet)*

Adabsiz kishilar hech qachon e’tibor qozonmaydilar. Doim baland osmon (taqdir) bunday odamlarni pastlatib yuradi. Ya’ni odobsiz axloqsiz kishilar hayotda jamiyatda odamlar orasida hech qachon o‘z o‘rniga ega bo‘lolmaydi hurmat qozonolmasligini ta’kidlamoqda.

Shoir dostonini bu maqolatida bola tarbiyasi, uni o‘stirish, o‘qitish va uni balog‘atga yetkazish to‘g‘risida hamda bu borada ota-onalarning vazifalari haqida batafsil fikr yuritadi. Shoir yoshlarni ota-onani xizmatini bajarishga, ularni hurmat qilishga, ularga nisbatan hamisha mehr-muhabbatli bo‘lishga chaqiradi, ota-onani oy va quyosh deb ta'riflaydi:

Boshni fido ayla, ato qoshig‘a
Jismni qil sadqa ano boshig‘a (Hayrat ul-abror 76 -bet)

Ya’ni, Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadqa qilsang arziydi.

Ikki jahoningga tilarsen fazo-
Hosil et ushbu ikisidin rizo. (Hayrat ul-abror 76 -bet)

 DOI: 10.36078/1653410390

Ikki dunyoying obod bo‘lishini istasang, shu ikki odamning, ota-onangning roziligini ol.

Tun kuningga aylagali nur fosh,

Birini oy angla, birisin quyosh (Hayratul-abror 76 -bet)

Tun-u kuningga nur berib turganning birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh. Navoiy qalamga olgan ushbu mavzu va fikrlar orqali bolalar dunyosini ezgu g‘oyalar bilan boyitish kattalarga hurmatda bo‘lish ota-onaning qadriga yetish ularning gaplarini pand-nasihatlarini quloqqa olib aytganini qilish lozimligi chiroyli dalillar asosida tushintirilgan.

Xullas, Navoiy ijodining axloqiy jihatlarini bola ongiga singdirishda ijtimoiy hayot bilan bog‘liqlikda olib borish, odob-axloq qoidalarini yanada chuqur o‘rganishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.1989-yil.
2. Ma’naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshlent. 1999-yil.
3. Ibrohim haqqul. Navoiyga qaytish. Fan nashriyoti. Toshkent. 2007.
4. Abduqodir Hayitmetov. Navoiy lirikasi. Toshkent. O‘zbekiston. 2015.

ХИТОЙ ТАРМОҚ АДАБИЁТИДА ИЖОД КИЛГАН АЁЛ АДИБАЛАР

Шукрия Миадовна НАЗИРОВА

Хитой филологияси кафедраси доц.в.б., PhD

Хитойшунослик факультети

ТошДШУ

Аннотация. Мазкур мақола янги ҳодиса ҳисобланган тармоқ адабиётида ижод қилган аёл адибалари ҳақидадир. Бошқа соҳаларда бўлгани сингари замонавий хитой адабиётида интернет меҳнат муҳожирлари учун ҳам, турли даражада ногиронликка учраб мустақил ҳаракатлана олмайдиганлар, шунингдек, бой-бадавлат миллионерлар учун ҳам бирдек имконият берувчи воситага айланди. Феминистик фикрлаш тенденцияси аёлларнинг ижтимоий турмуш мавқеини яхшилашга ёрдам берди. Аёллар ҳар томонлама ўз овози учун курашишга ва «гендер

DOI: 10.36078/1653410390

тенглиги»нинг янги мазмунини ўрганишга ҳаракат қилмоқдалар. Бу изланиш адабий ижодда ҳам ўз аксини топмоқда. Компьютер ва тармоқ технологияларининг жадал ривожланиши билан адабий асарларни яратиш ва тарқатиш қоғозли оммавий ахборот воситаларидан онлайн оммавий ахборот воситаларига ўтишни жараённинг тез суратларда амалга ошишига катта туртки бўлди. Анъанавий адабиётда эркаклар устунлигидан фарқли ўлароқ, хитой тармоқ адабиётда аёлларнинг мавқеи нисбатан кўтарилганлигини, ҳаттоки айрим жиҳатлари билан устунлик қилишга интилаётганлигини кўриш мумкин. Сўнгги икки йил ичида катта қизиқишларга сабаб бўлган телесериалва кино асарлар айнан тармоқ адабиётида ижод қилаётган аёл ижодкорларнинг қаламига мансубдир.

Калит сўзлар: Хитой, аёл адибалар, тармоқ адабиёти, гендер тенглик, ижтимоий қадриятлар

Annotation. This article is about women writers who have created in the network literature, which is a new phenomenon. In modern Chinese poetry, as in other fields, the Internet has become a tool that provides equal opportunities for labor migrants, those who are unable to move independently due to various degrees of disability, as well as wealthy millionaires.The trend of feminist thinking has helped to improve the social living status of women. Women are struggling to make their voices heard on all fronts and to explore the new meaning of 'gender equality'. This research is also reflected in literary creation. With the rapid development of computer and network technologies, the creation and distribution of literary works, the transition from paper media to online media has greatly accelerated the process. In contrast to the dominance of men in the traditional literature, it can be seen that the position of women in the Chinese network literature is relatively elevated, and even tends to dominate in some respects. The TV series and films that have caused a great deal of interest over the past two years are the works of female artists who have been working in the field of literature.

Key words: China, women writers, network literature, gender equality, social values.

Янги аср ўн йиллигида энг кенг ривожланган адабий ҳодисалардан бири шубҳасиз бу тармоқ адабиётидир. Интернетнинг ривож топиши билан **grassroots poetry** – ижтимоий жиҳатдан қуйи поғонада турувчилар, жумладан, муҳожир ишчилар (масалан, шоира 郑小琼) дан то миллионерлар (骆英)гача бўлган ижодкорларнинг шеърий иқтидорларини кўрсатиш имконияти пайдо бўлди.

Бошқа соҳаларда бўлгани сингари замонавий хитой шеъриятида интернет меҳнат муҳожирлари учун ҳам, турли даражада ногиронликка учраб мустақил

 DOI: 10.36078/1653410390

ҳаракатлана олмайдиганлар, шунингдек, бой-бадавлат миллионерлар учун ҳам бирдек имконият берувчи воситага айланди. Бунинг ёрқин мисоли шоира Юй Сюхуа (余秀华) ижоди. Илк бор бу шоира ижодиҳақида 2015 йил январь ойида WeChat ижтимоий тармоғида хабар берилди. Чекка Хубэй қишлоғида яшаётган туғма фалаж Юй Сюхуа «қолоқ ҳаёт»ни тасвирлаш услубида ижод қилса-да, унинг иккита китоби бир ҳафтада эълон қилинди ва бир кечанинг ўзида 15000 нусхаси сотилади. Танқидчилар унга
«хитой Эмили Диконсони» дея баҳо бердилар. Айнан блогерлик фаолияти туфайли шоиранинг ижоди оммага маълум ва машҳур бўлди. Қуйида унинг
«Сен-ла дийдорлашмоқ учун ярим Хитой оша» номли шеърини келтирамиз:

«穿过大半个中国去睡你»

«大半个中国，什么都在发生：火山在喷，河流在枯一些不被关心的政治犯和流民

一路在枪口的麋鹿和丹顶鹤我是穿过枪林弹雨去睡你

我是把无数的黑夜摁进一个黎明去睡你我是无数个我奔跑成一个我去睡你.

当然我也会被一些蝴蝶带入歧途把一些赞美当成春天

把一个和横店类似的村庄当成故乡而它们

都是我去睡你必不可少的理由»

Сен билан ухлагали кездим ярим юртимни,

Ҳар не содир бўлмоқда: тоғлари вулқон отар, қуримоқда дарёлар

Айрим бепарво сиёсат қийнамоқда халқимни

Йўлларида нишондаги қизил турна, оҳулар

Сен билан ухлагали ўқларнинг ёмғирин кесиб келдим мен

Сен билан ухлагали саноқсиз тунларни тонгга босиб келдим мен

Сен билан ухлагали қанча елдим, югурдим

Капалаклар йўлимдан оздириш мумкин албат

Мақтовларни баҳорга айлантириб қўйдим мен

Қишлоғимни ватанга айлантириб қўйдим мен

Сен билан ухлагали етарли сабабдир бу.

Шоира Дай Вэйнадан замонавий хитой шоиралардан кимнинг ижоди сиз учун қизиқарли, деб сўрашганда шоира Юй Сюхуа, деган жавобни берган. Дай Вэйнанинг фикрича, Юй Сюхуа ижодини баҳолаш қийин: «Менга гўё у шеърият билан яшаётгандек ва шеърлар унинг ҳаётига мазмун бағишлаётгандек туюлади. Замонавий хитой шоиралари орасида айнан шу хислат унда кўпроқ ва ундаги бу ғайритабиийликда балки бизнинг замонамиз топишмоқлари беркингандек.

DOI: 10.36078/1653410390

Шеъриятнинг унинг ҳаётидаги ўрнига келсак, ундай буюкларга соф жўшқинлик шунчаки берилмайди. Юй Сюхуа шеърларида қудратли энергия, агрессия, маданиятимизнингг барча кучсиз томонларига ҳужум руҳи сезилади».

Тармоқ адабиёти услубида фаол ижодкорлардан шоира Дай Вэйнадир. Ўз интервьюларидан бирида, сиз интернет шеъриятга қандай муносабатдасиз, деган саволга: «Интернет шеърият мисли кўрилмаган даражадаги тараққиётни бошидан кечирмоқда, статистика маълумотларига кўра, замонавий Хитойда ҳар куни юз мингта шеър интернетда чоп этилади. Мисли кўрилмаган рақамларга қарамай, бунда олдинга силжиш борми, деган савол очиқ қолмоқда. Янги авлод шоирлари тарихда кам учраган имкониятга тўқнаш келдилар. Ахборот узатишнинг замонавий технологиялари ва услублари ҳар бир инсонга ўзининг шахсий жарчиси бўлиш имконини беради», деб жавоб берган.

Дай Вэйна – Хитой ёш китобхонлари орасида ўз шеърияти, қарашлари билан эътиборга тушган умидли ижодкорлардан биридир. Дай Вэйна – шоира,драматург ва олима. Оксфорд университети битирувчиси. Пекин Халқуниверситетида PhD даражасига эга бўлган. Шоиранинг асарлари бир неча маротаба нуфузли мукофотлар билан тақдирланган. Жумладан, «Юлдузлар» (星星) журналининг “Талабалик кампуслари шеърияти” номинацияси бўйича (2014) ва «Тинч океани қирғоқлари шеърияти» (2017) Халқаро мукофоти совриндори. Дай Вэйнанинг «Менинг парашютим синган» (《我的降落伞坏了》), «Қалб гимнастикаси» (《灵魂体操》), «Юз қалқони» (《面盾》) номлишеърий тўпламлари нашр этилган. Дай Вэйна Хитойда истиқомат қилади. Хитой ижтимоий фанлар Академиясида ишлайди. У замонавий Хитойда жуда камсонли ижодкорларгина қўл урадиган сиёсий мазмундаги шеърият йўналишида ижод қилади.

Дай Вэйнанинг шеърият ҳақидаги фикрлари давр шеъриятини тушунишда муҳим аҳамият касб этади: Баъзи шеърлар кўз учун, баъзилари эшитиш, баъзилари мия учун ёзилади. Янги шеърият ҳамон шаклланмоқда, байхуа тилидаги адабиёт ривожланмоқда, давр ритми ўзгармоқда, ҳис қилиш ва қабул қилиш ўзгармоқда. Замонавий шеърият кўпайди ва турли хилларга бўлинди. Шеърият – интеллект учун бу ҳам тасвирий санъат, ҳам мусиқа, ҳамэкстремал спорт. Ҳақиқатда яхши шеър, гарчи қофиясиз бўлса ҳам ўзида сокин мусиқани мужассам этади. Кўпчилик янги шеъриятга қофия керак эмас деб ҳисоблайди, лекин бу аслида нотўғри қараш. Шунчаки, замонавий шеъриятда вазн ичкарига кетмоқда. Агар яхши шеър ёзиш вазифаси қўйилса, унинг ички мусиқийлиги қадимий шеъриятдан асло қолишмайди, фақат бор куч ташқи томонига йўналтирилмаган.

DOI: 10.36078/1653410390

Замонавий шеърият вакилаларидан яна бири Янг Цзясян (楊佳娴)шеърлар, эссе ва танқидий мақолалар муаллифи. Янг Цзясяннинг фаолияти кўп қиррали бўлиб, у нафақат ижодкор, балки филолог олима, Цинхуа университети доценти сифатида ҳам фаолият олиб боради. Шу кунга қадар шоиранинг тўртта «Тин олиш маданияти» (《屏息的文明》), «Овозингзамонни тўлдирар» (《你的声音充满时间》), «Ўспирин қиз Вертер» (《少女维特》) ва «Олтин қуш» (《金鸟》) номли шеърий тўпламлари нашрқилинди.

Мунаққид ва шоир Цзин Сянхай Янг Цзясянга ўз ижодида классик ва ўткир замонавий руҳни мужассамлаштирган интернет шеърият авлодининг энг ёрқин вакиласи деб юқори баҳо беради.

Янг Цзясяннинг адабиёт, ижод ҳақидаги мулоҳазалари замонавий хитой шеърияти ҳақидаги тасаввурларимизга ойдинлик киритади: «Мен шеърлар ҳам, эсселар ҳам, танқид ҳам ёзаман. Бу худди компьютерда бир неча саҳифа очганимиз кабидир...Мен учун шеърият – ўта шахсий, лирик туйғуларни ифодалаш воситаси, шунинг учун уларнинг аксарияти севги ҳақида; эссе менга ҳаётни, реалликни қандай қабул қилишимни ифодалаш учун керак, танқид эса фақат адабиётшунослик, бошқа адабий асарлар ҳақидаги фикрларимни баён қилишимга ёрдам беради, дейди. Шеърият тили хусусида менинг қатъий талабларим йўқ. У қандай бўлиши кераклигини билмайман...Мен ўзимнинг матнларимда қатъийман, лекин бошқаларнинг матнларига нисбатан баодоб муносабатда бўлишга ҳаракат қиламан ва янгиликларни қабул қилишга мойилман».

Замонавий адабиёт вакиласи бўлишига қарамай Янг Цзясян хитой классик шеърияти анъаналарига ҳурмат билан ёндашадиган, уларни чуқур ўрганган шоиралар сирасига киради. Унинг фикрича, қадимийлик ва замонавийлик бир-бирини тўлдиради.

Для выражения уважения к собеседнику стараются быть скромным и почтительным. Это самое простое правило общения в китайской культуре. Когда обращаются к старшему или не очень знакомому человеку своего поколения, даже к человеку младше себя, обычно применяют вежливую форму обращения. Например, называют собеседника на Вы, употребляют слова дорогой, знатный, почетный – 贵姓 как Ваша знатная фамилия? – 贵国 – Ваша страна?

Скромность в китайской культуре считается атрибутом правильного поведения. Китайцы очень редко хвалят себя, а когда их хвалят другие, обычно тоже вежливо возражают и часто свои достижения относят к коллективу или начальству. В ответ на похвалу часто отвечают так, чтобы показать, что похвалы недостойны, или подчеркивают свои недостатки. Например, «Ваш английский очень хороший» – «Да что Вы, до хорошего уровня еще далеко»; «Ваша сорочка очень красивая!» – «Где там красивая, она уже старая». Когда человек выражает кому – то благодарность, он должен сказать: «Не стоит», а в официальной обстановке скажет: «Это моя обязанность». Все эти ответы выражают скромность, но не отрицание или отказ от похвалы.

Прием гостей и подарки

Когда китайцы получают приглашение на обед или ужин (в гости), кроме хорошо знакомых, обычно говорят: «Не беспокойтесь» и в мягкой форме отказывают. Это способ выражения уважения и вежливости к пригласителю. В гостях поведение и манеры должны быть культурными и соответствовать общепринятым нормам, по принципу меньше беспокойте хозяина. Когда китайцы принимают гостей, они очень радушны и активны. Без конца предлагают: «Пейте!», «Ешьте!» и без согласия гостей добавляют еще еды в тарелку и наливают в бокалы напитки. То же относится к случаям, когда китайцы дарят подарки и говорят: «Этим скромным подарком выражаю внимание к Вам». Когда им преподносят подарок, обычно отказываются, затем говорят «спасибо». При дарящем человеке китайцы обычно не смотрят на подарок, чтобы не показать нетерпение, также не хвалят подарок, как европейцы, а наоборот, показывают, что ему неудобно от того, что они заставили человека сделать лишние расходы. В некоторых деревнях даже существует обычай возвращать половину подарка, чтобы выразить уважение. Это для европейцев неприемлемо.

DOI: 10.36078/1653410390

Вышесказанное о культуре речи является большой сложностью в процессе общения иностранцев, изучающих китайский язык. Правила общения выражают наилучшие традиции китайской культуры, и нам следует всесторонне изучать их.

Список использованной литературы

1. Чанг Дзин Уи. Семантика, грамматика и использование языка. Университет Ханджоу 1996.

2. У Би Сун. Исследование метода преподавания китайского языка для иностранцев. Издательство преподавания китайского языка, 1987.

3. Джанг Я Дин. Методика преподавания китайского языка для иностранцев. Издательство современности, 1990.

4. Обзорная теория преподавания китайского языка для иностранцев. Издательство Пекинского Университета Культуры и Языка, 1997.

5. Ху Минь Ян. Исследование вопросных видов слов. Издательство Пекинского Университета Языков, 1996.

6. Anvarovna, P. N. S. (2022). PHILOLOGY STUDENTS FOREIGN LANGUAGE INTERCULTURAL COMPETENCE DEVELOPMENT IN TEACHING CHINESE LANGUAGE: RESULTS OF EXPERIMENTAL TEACHING. *湖南大学学报 (自然科学版)*, *49*(03).Л

7. Muradkasimova Sh.K. (2018). Assessment for, as, and of learning; integrating learning, teaching and assessment. Международный журнал гуманитарных и естественных наук, (8), 38-41

8. Dana, K. A. (2020). The Influence of the Persian Civilization on the Vocabulary of the Chinese Language during the Great Silk Road. In *Языки и миграция в условиях глобализации* (pp. 103-108).

XITOY ISMLARI VA ISM BERISH AN’ANASI

Shaxnoza Erkinovna XAKIMOVA
Xitoy tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi mudiri, PhD
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqola Xitoyda ism berish qoidalarining tahliliga bag‘ishlanadi. Inson tug‘ilishi bilan albatta ism-sharifi bo‘lishi zarur, chunki ism-sharif

 DOI: 10.36078/1653410390

bo‘lmasa inson bu dunyoda shaxs sifatida mavjud deb hisoblanmaydi. Ism-sharif bo‘lmasa inson jamiyatda faoliyat yurita olmaydi. 1 miliard 300 million xitoylik 1 miliard 300 million ism-sharifga ega. Ism-shariflar juda ham turli tumandir. Xitoy tilida ism-shariflar o‘zining uzoq shakllanish tarixiga egadir, uning rivojlanishi xitoy madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. Biz endigina biror kishi bilan tanishganimizda biz u kishi haqida oladigan birinchi ma’lumotimiz bu uning ismi-sharifidir. Qadim-qadimdan Xitoy ism shariflari kishining qanday oilada tug‘ilganligi, e’tiqodi, jamiyatning qaysi qatlami vakili ekanligi, tavallud topgan joyini va boshqa turl xil ma’lumotlarni ifodalagan. Biz xitoy ism shariflarning ifodalagan ma’nosini va ism qo‘yish odobini o‘rganish jarayonida, biz xitoyliklarning an’anaviy fikrlash uslubini, kelajakka bo‘lgan orzu-umidlari, madaniy o‘ziga xosliklarini, ramzlar tilini, millat tilining o‘ziga xosliklarini yanada yaxshiroq o‘rganishimiz mumkin bo‘ladi.

Kalit so’zlar: ism-sharif, ism berish qoidalari, madaniy qadriyatlar, urf odatlar.

摘要：本文探讨中乌起名异同研究，人民的姓名特点和取名文化。人一出生一定要有姓名，因为没有姓名人不算存在于世上。没有姓名，人不能在社会上活动。13 亿中国人便有 13 亿姓名，姓名是多么的丰富。在汉语中，姓名的形成有其悠久的历史，它的发展与中国文化紧密联系在一起。我们刚认识一个人的时候，我们获得的第一信息，就是他的姓名。自古以来，汉语姓名表示人的身份、信仰、社会地位、出生地区等各种各样的信息。我们研究汉语姓名表示的意思和取名文化时，可以更好地了解中国人的传统思维方式，传统文化特点，对未来的期望，象征主义，语言特点。研究这些内容帮助我们更好地了解中国传统文化。总的来说，研究中乌姓名差异具有重要的意义。因为本文从语言学角度上研究姓名包含的汉字，汉字的意思；从文化角度上研究姓名所蕴含的文化习俗。

关键词： 姓名，起名特点，文化习俗，传统文化

Insonga ism berish hamma xalqlarda ham juda muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Chunki ism inson hayotida o’ziga xos ahamiyatga ega. Oddiy misol qilib o’zimizning o’zbek xalqini oladigan bo’lsak, farzand dunyoga kelar ekan, ota-ona bo’yniga o’ziga xos burch va mas’uliyatlar tushadi, bular ichida eng muhimlari uchta bo’lib, eng avvalo farzandiga yaxshi ism qo’yish, keyin uni uylik-joylik qilish va uylantirishdir. Mazkur munosabatdan shuni bilishimiz mumkinki, xalqimiz bolaga chiroyli va o’ziga mos ism qo’yishga alohida e’tibor qaratadi va ism qo’yishda albatta yaxshi niyat bilan ism tanlaydi. Xitoy xalqida ham ism qo’yish qadimdan mavjud bo’lgan ma’lum tartiblar asosida, milliy bo’yoqlarda rivojlanib borgan. Xitoyda matriarxat davrida odamlar onaboshi atrofida birlashib,bir qabila bo’lib yashagan. Qabilalar o’rtasida tafovut bo’lishi uchun har bir qabila o’zining sharifiga ega bo’ldi. Mazkur shariflar ya’ni, xalq tilida familiyalar

DOI: 10.36078/1653410390

egasining ma’lum bir qabilaga tegishliligini bildirgan. Odatda shariflarning to’rt xil kelib chiqishi mavjud bo’lgan. Birinchisi, onaboshining ismi qabila azolarining sharifiga aylangan. Ikkinchisi, totem, biror bir hayvonning nomi qabila azolarining sharifiga aylangan. Uchinchisi, shariflar regional qarashlilikni bildirgan va bundan shaxsning ma’lum bir kichik hokimlikka tegishliligini bilish mumkin edi. Masalan: U, Sun, Tay, Chjao.To’rtinchisi, shariflar sohibining ajdodlari qaysi mansabda ishlaganligini bildirib turgan. [180]Misol uchun: Sima(司马) sharifli shaxsning ajdodlaridan birining mansabi miroxur ya’ni ot-ulov mahkamasining boshlig‘i bo’lganligini anglatadi. O′zbeklarda esa bu ismlarda takror keluvchi suffikslar va prefikslar shaklida uchraydi. Masalan, -xo′ja suffiksini misol qilib olsak bu qo′shimcha qo′shilgan ism egasi ajdodida imom mansabidagi kishi o′tganini, din sohasi bo′yicha ma’lum darajaga yetganini anlatadi. Beshinchisi, malum bir insonning sharifi malum bir unvonni anglatgan. O′zbek tilida bular ismlarga qo′shiluvchi quyidagi suffikslar shaklida uchraydi: -bek, xon,-shayx -hoji Oltinchisi, malum bir mahalliy aholining nomi sharif bo’lib shakllangan. Yettinchisi, sharif kasbga mos bo’lgan. Masalan, kulollar o’zlarini “Tao” sharifi bilan atashgan. O′zbek tilida esa agar ajdodida biror bir mashhur kasb egasi o′tgan bo′lsa yo′qolib ketmasligi uchun, keyingi avlodlari bilishi uchun bolaga Hakimjon, Hakimbek, Hakimzoda kabi ismlar qo′yilgan, ya’ni tabiblar avlodidan degan ma’noni anglatgan. Sakkizinchisi, ajdodining laqabi avlodlarining sharifiga aylangan. Birinchi xitoy imperatori Xuandini misol qilib oladigan bo’lsak, unga Syuanyuan deb laqab qo’yishgan, va bu butun boshli sulolaning sharifiga(familiyasiga) aylandi. Xitoyda sharif bir yoki ikki iyeroglifdan tashkil topishi mumkin. Xitoy shariflarining soni o’zi nechta? Haligacha aniq hisob mavjud emas. Hozirgi kunda taxminan 3500 xitoy shariflari mavjud bo’lib, ularning orasida eng ko’p uchraydigani bor yo‘g‘i 3 ta Li, Van, Zhan. Xitoy ismlari malum bir ma’noni anglatadi. Eng qizig‘i shundaki qadimgi xitoyda bolaga chaqaloqligida kichik ism beriladi va bu g‘alati eshtiluvchi ismlar bo’lib ba’zida juda kulgili eshtiladigan darajada bo’lgan. Bu bilan

[180] 现代汉语词典，上海：汉语大词典出版社，1997 年。Hozirgi xitoy tili lug’ati. Sh.: Xitoy tili katta lug’atlar nashriyoti, 1997. B.1767.

DOI: 10.36078/1653410390

ular yovuz ruhlarni chalg‘itishni maqsad qilganlar. Qadimgi xitoyliklar yovuz ruhlar uning ismini eshitib, uni oila a’zolari qadirlamaydi, yaxshi ko’rmaydi, shuning uchun unga zarar yetqazishning foydasi yo’q deb unga ziyon yetqazishmaydi deb o’ylashgan. Bunday ismlarga misol: Tiedan “ 铁蛋 ” “Temir tuxum”, Gousheng “ 狗剩 ” “ It ovqati qoldig‘i ”, Goudan “狗蛋” “ It tuxumi ” va boshqalar. Shunga o′xshash holat o′zbek xalqi madaniyati tarixida ham uchratishimiz mumkin, ba’zan bolaga ataylab xunuk ma’noli nomlarni qo′yishgan Itolmas, Yomonbola, Kasofat, Itemas kabi . Kishilar bola shunday nomlansa e’tiborsiz bo′ladi, unga ko′z tegmaydi deb hisoblashgan. Qizlar ismlari odatda go’zallik va mehribonlik ma’nolarini bildirgan. Masalan: 爱民- Aymim “Xalq mehri”, “光辉-Guanxui “Ko’zni eltuvchi jilo”, 明珠-Mingju “Toza marvarid”, 长春-Changchun “Mangu yoshlik” va shunga o’xshash ismlar. O′zbeklarda ham qizlar ismlar ko′p hollarda go′zallik-nafosat va mehribonlik ma’nolarini anglatgan. Masalan, Gulshan, Mehribon, Nafosat va boshqalar. Erkaklar ismlari esa kuch-qudrat, mardlik, ulug‘vorlik, jasurlik manolarini bildirgan. Misol uchun: 卫东-Veydong-Sharq himoyachisi，文明-Venming-Madaniyatli ，劲松 – Jingsong - Kuchli qayin， 永生 – Yongsheng - Mangu barhayot, va boshqalar. O′zbek xalqida ham bu holatni kuzatamiz, bularga misol: Botir, Jasur, Ulug′bek, O′lmas, Bahodir. Eng avvalo etiboringizni shunga qaratmoqchimanki, Xitoyda yozilishda va aytilishda dastavval shaxsning sharifi, va undan keyin ismi zikr qilinadi. Sharif aksariyat hollarda murakkab bo’lmagan bitta iyeroglifdan, ism bo’lsa ikki va undan ortiq iyeroglifdan iborat bo’ladi(masalan, 杜冬冬 Du Dundun, Du-sharif, Dundun-ism). Agar ism yoki sharif ikki va undan ortiq iyeroglifli murakkab shaklga ega bo’lsa, bunday holatda u qo’shib yoziladi. Ismning bosh harflari hech qanday ma’no anglatmaydi, masalan, Du D.,deb yozilmaydi, Du Dundun deb to’liq yozilishi zarur.

Xan millati ko‘proq chiroyli eshtiladigan ismlarga o‘ch bo‘ladi. Bahor va Kuz davridan beri odalar sodda tabiiy ismlarni qo‘llashgan bo‘lsa, Xan davridan keyin chiroyli ismlarni qo‘llash keng miqyosni tashkil etdi. Chiroyli ismga intilish va estetik ong o‘zaro chambarchas bog‘liq. Garchi, chiroyli ismning tub-tubida madaniy ramzlar va kalit so‘zlarda odamlarning orzu-umidlari, omad tilaklari qo‘shilgan, chiroyli ism kishi taqdirini yaxshi tomonga o‘zgartirsada, ammo, bu yerda ham jamiyatning estetik ongi-tasavvurlari

 DOI: 10.36078/1653410390

yashirin, ayollarning va erkaklarning chiroyli ismlari o‘zida odamlarning erkaklarga xos bo‘lgan ko‘rkamligi va ayollarga xos bo‘lgan g‘o‘zallikka intilishni aks ettiradi.

Erkaklar ismida foydalaniladigan “伟 wei-buyuk, ulug‘, katta”、“景 jing-manzara”、“刚 gang-qattiq, mustahkam”、“壮 zhuang-kuchli, baquvvat, sog‘lom” iyerogliflari odamlarning Yan-erkaklik boshlanishidagi mustahkam irodali erkaklar ulug‘vorligi, solobatli estetik xarakterini namoyon qilgan. Masalan:

“伟 wei”iyeroglifidan foydalanib ism berish: 陶伟 taowei、[181]方志伟 fangzhiwei、陈伟志 chenweizhi、钱伟长 qianweizhang、徐伟荣 xuweirong、胡伟则 huweize、王伟平 wangweiping、吴大伟 wudawei.

“景 jing”iyeroglifidan foydalanib ism berish: 赵景云 zhaojingyun、赵景环 zhaojinghuan、吴景亮 wujingliang、王景兴 wangjingxing、刘景升 liujingsheng、徐景山 xujingshan、郭景纯 guojingchun、韩景然 hangjingran.

“刚 gang”dan foydalanib ism berish: 陈刚 chengang、郭晓刚 guoxiaogang、林志刚 linzhigang、方铁刚 fangtiegang、韩刚平 hanggangping、王立刚 wangligang、孙国刚 sunguogang.

“壮 zhuang”dan foydalanib ism berish: 吴大壮 wudazhuang、李壮 lizhuang、陈壮伟 chenzhuangwei、王壮君 wangzhuangjun、吴壮秀 wuzhuangxiu、刘可壮 liukezhuang、陈天壮 chentianzhuang、赵壮元 zhaozhuangyuan、扬壮彦 yangzhuangzhen

Ayollar ismlarida foydalanilgan 花鸟 huaniao-gullar va qushlar, 珠宝 zhubao-qimmatbaho toshlar va buyumlar, 柔辞 rouci- nafis buyumlar, odamlari In-ayollar boshlanishidagi nafis go‘zallikning estetik xarakterini namoyon qiladi.

花鸟 huaniao-gullar qushlardan foydalanib ism berish: 许彭梅 xupengmei、吴玉花 wuyuhua、郭小兰 guoxiaolan、林惠 linhui、郭美英 guomeiying、吴兰英 wulanying、李志兰 lizhilan、程晓荷 chengxiaohe、吴凤桃 wufengtao、李荃君 liquanjun、李莉

[181] «汉语与中国文化» 商务印书馆出版社 作者：郭锦桴 2010 年

DOI: 10.36078/1653410390

莉 Li lili、陈香梅 chenxiangmei、王素菊 wangsuju、郑美凤 zhengmeifeng、王鸣凤 wangmengfeng、李玉鸾 liyuluan、黄金鸾 huangjinluan、郑彩凤 zhengcaifeng、赵飞燕 zhaofeiyan、黄秋雁 huangqiuyan、颜莺莺 yanyingying、林小鹃 linxiaojuan、郑紫鹃 zhengzijuan。[182]

珠宝 zhubao-qimmatbaho tosh va buyumlardan foydalanib ism berish ：李玉珍 liyuzhen 、林珊珊 linshanshan、赵琼琼 zhaoqiongqiong、赵秀宝 zhaoxiubao、郑玉贞 zhengyuzhen、李盘珠 lipanzhu，王佩金 wangfengjin、苏玉环 suyuhuan、林金钗 linjinchai.

柔辞 rouci-nafis buyumlardan foydalanib ism berish: 李淑芳 lishufang、王娇娇 wangjiaojiao、顾媚 gumei、程静婉 chengjingwan、郑嫣然 zhengyanran、柳媚娜 liumeina、谢彩云 xiecaiyun、吴秋云 wuqiuyun、时晓雪 shixiaoxue、王晨露 wangchenlu、许微霞 xuweixia、赵燕妮 zhaoyanni.

Yuqoridagi ayollar ismlariga nisbatan ko‘p qo‘llaniluvchi so‘zlar, odamlarning ayollik go‘zalligiga nisbatan bo‘lgan estetik xarakterni aks ettiradi. Xan millati vakillari an’anaviy dunyoqarashlarida ayollarning nafis va go‘zal bo‘lgani ma’qul, xuddi maydondagi mitti guldek, xuddi osmondagi jajji qushdek, xuddi momiq bulutdek, ipakdek nafis va nozik, yana xuddi ko‘zni o‘ynatadigan, o‘zidan ko‘zni oladigan nur taratadigan qimmatbaho toshdek bo‘lishi lozim deb hisoblashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. «汉语与中国文化» 商务印书馆出版社 作者：郭锦桴 2010 年

2. 汉俄词典，北京：商务印书馆，2008 年。Xitoycha-ruscha lug‘at. P.: “Shangwu” kitob nashriyoti, 2008.

3. 现代汉语词典，上海：汉语大词典出版社，1997 年。Hozirgi xitoy tili lug‘ati. Sh.: Xitoy tili katta lug‘atlar nashriyoti, 1997. B.1767.

[182] 汉俄词典，北京：商务印书馆，2008 年。Xitoycha-ruscha lug’at. P.: “Shangwu” kitob nashriyoti, 2008.

 DOI: 10.36078/1653410390

4. Begmatov. E. A. O‘zbek ismlarining ma'nosi. T.: “O‘zbekiston davlat ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2007.
5. Rahimov Z. Ism qo‘yish odobi. T.: “Toshkent islom universiteti”nashriyot matbaa birlashmasi, 2009.
6. Xakimova, S. H. E. (2021). 课堂游戏运用与技巧. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(Special Issue 1), 263-267.
7. Назарова, С. А. (2019). Современное состояние обучения китайскому языку: анализ действующих учебных программ и учебно-методической литературы. *Modern Oriental Studies*, *1*(1), 21-23.

XITOY MATBUOTIDA KENG TARQALGAN IFODA SHAKLLARI VA ULARNING SITSIOLINGVISTIK TAHLILI

Farida Farhod qizi XURSANOVA
Lingvistika (xitoy tili) 2-bosqich magistranti
O‘zDJTU
Ilmiy rahbar: f.f.d. DSc., dots. S. A. Hashimova

Annotation. This article includes the followings: People representing the culture and language of national identity, the attempt to understand the concepts which don’t exist in a second language, the development of methods and means of translating, comprehend their main point, learning deedly intercultural communication and the origin of sotsiolinguistics. In addition it is mentioned the essence of mass media which takes the main part of intercultural and international life.

Keywords: Bao kan, sociolinguistics, social language, social linguistics, philosophical linguistics, socialization of language, special schools.

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada o‘zga xalqlar madaniyati va tilidagi milliy o‘ziga xoslikni ifodalovchi, ikkinchi bir tilda mavjud bo‘lmagan tushunchalarni anglashga urinish, ularni tarjima tiliga o‘girish usul va vositalarini ishlab chiqish, ularning mohiyatini anglash bugungi kundagi madaniyatlararo muloqotni sotsiolingvistik ildizlarini chuqurroq o‘rganish kabi masalalarni qamrab oladi. Shu o‘rinda xalqaro va madaniyatlararo muloqotning asosiy vositasi xisoblanagan ommaviy axborot vositalari (OAV) tarjimasi bu yo‘nalishdagi tarjimaning sosiolingvistik omillarini o‘zida aks ettiradi. Til doimo jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib qolaveradi.

 DOI: 10.36078/1653410390

Kalit so‘zlar: Bao kan, sotsiolingvistika, ijtimoiy til, ijtimoiy tilshunoslik, falsafiy tilshunoslik, tilning ijtimoiyligi, mahsus maktablar.

Umuman matbuot ham o‘z xarakteri va xususiyatlariga ko‘ra, murakkab soha hisoblanadi, grammatik tuzilishi va so‘zlarning ifodalanishi bilan o‘zgacha ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, bugungi Xitoy matbuotida amal qilib kelinayotgan so‘zlarning grammatik ifoda shakllarini keltirish amaliy ahamiyatga ega.

1. **经.....而 jing ……. ar** bu konstruksiyaning o‘zbek tilida aynan ekvivalenti yo‘qligi sabab, uning matndagi tarjimasi taxminan **“ yana bir marta”** iborasiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, bu konstruksiya xitoy tilidan tarjima jarayonida hisob so‘zlar vazifasini ham bajarib kelishi mumkin. Shu ma’noda, “Bao kan”dan misol sifatida olingan quyidagi iboraning tarjimasiga e’tiboringizni jalb qilamiz.

学校规定，学生经补考而仍不及格者不能取得该课程的学分。 (Xuexiao guiding, xuesheng jingbukao ar reng buji gezhe buneneg qude gai kechengde xuefen).

V. Maktab ma’muriyati joriy etgan qonunga ko‘rao‘quvchilar yana bir marta mazkur fandan qo‘shimcha imtihon topshirgandan keyin ham qoniqarli baho ololmasa, bu fanni topshira olmadi, deb hisoblanadi.

2. **与.....相比.....略见..... yi…….xiangbi ……. Luejian**

A. **近年来，中国的离婚率基本保持在** 3% **至** 5% **之间，与新婚姻法公布以前相比略见上升。**(Jinnianlai,zhongguo de lihun lu jiden baochi zai 3% zhi 5% zhijian, yu xin hunyin fa gongbu yiqian xiangbi luejian shang sheng.) Keyingi yillarda Xitoyda oilaviy ajralishlar miqdori 3 foizdan 5 foizgacha bo‘lgan miqdorda turibdi, bu esa nikoh to‘g‘risidagi yangi qonun e’lon qilingungacha bo‘lgan vaqt bilan taqqoslaganda nisbatan yuqori ko‘rsatkichdir. [2]

B. **经过医护人员的奋力抢救，与昨天相比，小张的病情已略见好转** (Jinggou yihu renyuande fenli qiangjiu, yuzuotian xiangbi, xiaozhangde bingqing yi luejian haozhuan).

V. Shifokorlarning o‘z vaqtida ko‘rsatgan yordamida tufayli bemor Syao Jangning ahvoli kechagiga nisbatan **sezilarli** darajada yaxshilandi.

3. **对..... 是.....，对.....也是..... ....，同时也是.....**

Dui….she…., dui……yeshe……., tongshiyeshe……

A. **感情已经完全破裂的不幸婚姻，离婚对双方都是一种解脱，对社会也是一种幸事，同时也是提高婚姻质量的重要途径**

 DOI: 10.36078/1653410390

A. Ehtiros - bu to‘liq buzilgan baxtsiz nikoh bo‘lib, ajralish bu har ikkala tomonni majburiyatlardan xalos etib, jamiyat uchun ham ma’qul ishdir. Shuningdek nikoh sifatini ko‘tarilishining asosiy yo‘lidir.

B.**参加**这**次**语言实践，**对以前的**课堂学习来说**是一种**检验，对**将来参加**实际工作来说**也是一种**锻炼，**同时也是我**们了解中国的一次机会

B. Bu galdagi til amaliyotidagi ishtirokimiz, avvalgi sinfxonalardao‘tilgan darslarga nisbatan bir tajribadir. Shuningdek, kelgusi amaliy ishlar uchun bir mashq bo‘lib, Xitoyni bilishga berilgan imkoniyatdir.

4. **由于.....而……**

A. **我**们**不**应过**多地**责难**由于**这**种**变**化而**产**生的离异。**

A. Vaziyatningo‘zgarishi tufayli sodir bo‘lgan ajralishlar haqida ko‘p mish-mish gaplar qilmasligimiz kerak.

B.**他由于身体素**质好，技术高超，在多次比赛中表现出色而被选入国家代表队。

B. Uo‘zining yaxshi xulqi, texnik mahorati yuqoriligi va ko‘p musobaqalarda yaxshi natijalarga erishgani tufayli davlat terma jamoasiga kiritildi.

1.**以**.....为例，.....

A. **以西藏自治区**为例，.....

A. Tibet avtonom rayoni misolida ko‘riladigan bo‘lsa, ...

B.**近年来**，**旅游事**业不断发展，旅游者逐年增加，以 1987 **年**为例，北京就突破了一百万人的大关。

B. Keyingi yillarda sayyohlik to‘xtovsiz rivojlanib, sayyohlar soni yildan yilga ko‘payib bormoqda. 1987 yilningo‘zida Pekinga tashrif buyurgan sayohatchilarning soni bir million kishidan oshib ketdi.

2. **由**.....**上升到**.....**例**

A. **藏族和其它少数民族干部占全区干部的比例，由** 1962 **年的** 33。3%**上升到**现在的 80%。

A. Butun mintaqadagi Tibet va boshqa mayda millatlar mutaxassis kadrlarni foizlar bo‘yicha qiyosan oladigan bo‘lsak, 1962 yilda 33.3% ni, bugunga kelib esa 80% ni tashkil qiladi.

B. **天气**渐渐暖和了，气温由前天的-6C **上升到今天的**-1C，**两天就上升了** 5C。

B. Ob-havo asta-sekin iliy boshladi,o‘tgan kuni -6 daraja bo‘lgan bo‘lsa, bugun -1 darajaga ko‘tarildi, ikki kun ichida 5 darajagacha ko‘tarildi.

C.这孩子学习进步很快，期末考试成绩由开学初的第十五名上升到第二名。

DOI: 10.36078/1653410390

S. Bu bolaningo‘qishdagi yutuqlari juda yaxshi bo‘lib, semeyestr oxiridagi imtihon natijalariga ko‘ra, u dastlabki paytlardagi 15-pog‘onadan 2-pog‘onaga ko‘tarildi.

根据.....**精神**, 结合.....**特点**，**采取**.....**措施**，坚侍.....**方**针，从而.....

各民族自治地方根据自治法精神，结合地区特点和民族特点，采取了适合本地发展的战略和灵活的改革措施，坚持改革，开放的总方针，从而加快了经济发展的步伐。

A. Har bir millato‘z mahalliy avtonomiyasi doirasida qabul qilingan tartib qoidalardan, milliy rayonlar va joy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularni uyg‘unlashtirib joylarning taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqdi va ma’qul bo‘lgan islohotlarni amalga oshirish, ularga qat’iy rioya qilib ochiq eshiklar yo‘lidan borish iqtisodiyotni yanada jadal rivojlantirdi.

B.远志职业中学**根据社会**办学的**精神,**结合学生的专业**特点**，**采取**“**走出去**，请进来”**的措施**，**即**让学生结合专业到工厂实习，请工程技术人员来学校授课，始终**坚持**“**教育 与 生**产劳动相结合”**的方针**，**既提高了学生的**实践能力，又为社会创造了财富，**从而收到了学生和社会的普遍**欢迎。

B. Maxsus maktablar jamiyat talabi vao‘quvchilarning mutaxasislik xususiyatlaridan kelib chiqib “zouchu qu, qing jin lai” (yurib chiqib ketmoq va marhamat qilib kirmoq) kabi tadbirlarnio‘tkazishdi. Bunda bo‘lajak mutaxassisliklar zavodlarga borib amaliyot o‘tash, mutaxassislarni auditoriyaga taklif etib, darslarda ulardan foydalanish, boshidan oxirigacha “ta’lim va ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish” yo‘lidan borish,o‘quvchilarning amaliy qobiliyatini yuksaltirish bilan birga jamiyatga katta foyda keltirdi hamda o‘quvchilar va jamiyatning qizg‘in qutlovlariga sazovor bo‘ldi.

Xitoy matbuoti ham bugungi globallashuv davrida yanada takomillashishda davom etmoqda. Bugun dunyo axborot bozorini Xitoy matbuotisiz tasavvur qilish qiyin. Binobarin, xitoy matbuoti uzoq – yaqin chet ellarda ham o‘z o‘quvchisini topib tarqalish geografiyasini kengaytirib bormoqda. Shu ma’noda, xitoy matbuoti tilini o‘rganish, xitoy matbuoti sahifalarida chop etilayotgan mavzulardan o‘z vaqtida va xolis boxabar bo‘lib borish yurtimizdagi soha mutaxassislar, xususan, xitoyshunoslar uchun muhim ahamiyatga ega.

Xitoy davriy matbuoti o‘zining stilistik jihatlari bilan farq qilib, o‘zbek va xitoy davriy matbuotini qiyoslagan holda davriy matbuot uslubiga xalqning dunyoqarashi, madaniyati, o‘ziga xos urf odatlari ta’sirini o‘rganib chiqildi. Davriy matbuot tilida ishlatiladigan ifoda vositalari, xitoy shevalari, gramatik qurilmalari davriy matbuot tilini tushunishda va uni tarjima qilish jarayoniga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi va kelgusida chuqur ilmiy izlanishlar talab qiladi.

DOI: 10.36078/1653410390

Xulosa o‘rnida aytishimiz joizki, til jamiyat hayotida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etuvchi omil hisoblanadi. Jamiyat asosi bo‘lgan insonlarning hamkorlikdagi mehnat faoliyatini tilsiz tashkil etish mumkin emas. Tajriba va bilimlarni avlodlardan avlodlarga etkazmasdan na bilimlarning to‘planishi, na texnika taraqqiyoti va na fan hamda san’atning rivoji, umuman, jamiyatning taraqqiyoti va rivojiga erishish imkoni yo‘q.

Biz sotsiolingvistikani «tilning jamiyatga, jamiyatning tilga tasirini» o‘rganuvchi fan sifatida qaramog‘imiz lozim. Sotsiolingvistikani bir necha nomlar bilan nomlanadi. Bular «ijtimoiy til», «ijtimoiy tilshunoslik», «tilshunoslikning ijtimoiyligi», «falsafiy tilshunoslik», «tilning ijtimoiyligi», «sotsiolingvistika» kabi nomlar bilan nomlanishi bu fanning o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Sotsiolingvistika fani nuqtai nazaridan, tillar bir-biriga leksik jihatdangina ta`sir etib qolmay, bir-birining ichki tuzilishiga ham ta`sir ko‘rsatadi. Shunga muvofiq hozirgi zamon tilshunosligida «tillar ichki tuzilishining o‘zaro hamkorlik jarayoni» degan tushuncha shakllangan. Mamlakatlararo aloqalarning rivojlanishi o‘sha mamlakatlarda yashovchi xalq va elatlar madaniyatining yaqinlashuviga zamin hozirlaydi, natijada tillar ham bir-biriga ta`sir ko‘rsatadi, bunday hamkorlik o‘z navbatida tillarning ichki rivojlanishini ta`minlaydi. Demak, jamiyatga til qanchalik zarur bo‘lsa, til uchun jamiyatning bo‘lishi ham shunchalik ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Беликов В.И. Крысин Л.П. Социолингвистика. М: М. РосГос.гуманит. 2000. 385с.

2. 高级汉语报刊阅读教程”北京语言大学出版社 1999 年 49 页

3. Ronald Wardraugh An Introduction to Sociolinguistics Blackwell, 2006.

4. Stewart William (1968). A Sociolinguistic Typology for describing national multilingualism. The Hague, Paris. Mouton. p 534.

5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (O‘zME), 1- jild, Toshkent: Fan. 2000.

6. Solovova Ye. N. Metodika obucheniya inostrannim yazikam (bazoviy kurs leksiy) M. Prosvesheniye. 2002. st 238.

7. 现代汉语。2003 年。北京出版。1205 页。

8. Khakimova, S. (2021). STANDARDS AND METHODS OF NEWS TRANSLATION OF THE CHINESE LANGUAGE. *Academic research in educational sciences*, *2*(6), 1044-1049.

DOI: 10.36078/1653410390

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI ESHITTIRISHLARI TARJIMASINING AXBOROT UZATISH FUNKSIYASI HAQIDA

Farida Farhod qizi XURSANOVA
Lingvistika (xitoy tili) 2-bosqich magistranti
O‘zDJTU
Ilmiy rahbar: f.f.d. DSc., dots. S. A. Hashimova

Abstract. The information transmission function of media translation is not only at the level of "communication", but also has influence and discourse power. Media translation is a way to break national boundaries and expand this influence and discourse power. category, to achieve a deep cultural exchange. Media translation should not only achieve the speed and accuracy of the media, but also pay attention to the faithfulness and expressiveness of translation art, so as to achieve a balance between the two.

Keywords: Media translation, information transmission, mass communication, cultural differences.

Annotatsiya. Media tarjimasining axborot uzatish funksiyasi nafaqat “muloqot” darajasida, balki ta’sir va nutq kuchiga ham ega.Ommaviy axborot vositalari tarjimasi milliy chegaralarni buzish va bu ta’sir va nutq kuchini kengaytirish yo‘lidir. Chuqur madaniy almashinuvdir. Media tarjimasi nafaqat ommaviy axborot vositalarining tezligi va aniqligiga erishibgina qolmay, balki ikkalasi o‘rtasidagi muvozanatga erishish uchun tarjima san'atining ishonchliligi va ifodaliligiga ham e'tibor berishi kerak.

Kalit so‘zlar: media tarjimasi, axborot uzatish, ommaviy kommunikatsiya, madaniy farqlar.

Chjan Jian bir paytlar shunday degan edi: “Bizning fan va texnikaning jadal rivojlanishi, bilim va axborotning portlashi, bozor iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan, Sharq va G‘arb madaniyatlarining integratsiyalashuvi va kirib borishi davrida ifoda etib bo‘lmaydigan, e’tirof etib bo‘lmaydigan, gazetalar va boshqa axborot vositalari orqali ommalashtirilib tarqatib bo‘lmaydigan narsa bormi? "Axborot portlashi davrida Internet juda mashhur bo‘lgan bo‘lsa-da, axborotni qabul qilish, saralash, ifodalash va uzatish hali ham OAV qo‘lida. Axborot, media tarjimasi ko‘prigi bolib turli mamlakatlar o‘rtasida ma'lumot tarqatishni o‘rnatishda xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalari tarjimasining

 DOI: 10.36078/1653410390

xususiyatlari va talablaridan kelib chiqib, ushbu maqola ommaviy axborot vositalari tarjimasining axborot uzatish funktsiyasiga qaratilgan.

OAV tarjimasining xususiyatlari va talablari haqida. Ommaviy axborot vositalari tarjimasi tarjima ob'ekti sifatida Internetda ishlab chiqarilgan gazetalar, jurnallar, televidenie, radio, filmlar, kitoblar, audio va video mahsulotlar va madaniy mahsulotlarni o‘z ichiga olgan ma'lumotlarni oladigan tarjima faoliyatidir. Noxush xabarlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri etkazish bo‘yicha qat'iy talablar bilan taqqoslaganda, xushxabarlar o‘z vaqtida nisbatan past talablarga ega va qiziqishga ko‘proq e'tibor beradi, o‘quvchilarni ko‘ngilochar va madaniy almashinuv bilan ta'minlaydi va nisbatan moslashuvchan hisobot usullariga ega. Media tarjimasi ham ikki xil xususiyatga ega. Birinchidan, ommaviy axborot vositalari tarjimasida parchalar va to‘liq tarjimalar mavjud bo‘lsa, ikkinchidan, yangilik faktlarini aniqroq bayon qilish va milliy madaniyat, urf-odatlar, qadriyatga yo‘naltirilganlik, ifodadagi farqlardan kelib chiqadigan e’tirozlarni kamaytirish va hokazo. Shuning uchun ommaviy axborot vositalari tarjimasi nafaqat umumiy tarjima tamoyillari va standartlariga mos kelishi, balki ommaviy axborot vositalari tilining ifoda xususiyatlariga ham ega bo‘lishi kerak.

Tarjimon Nida shunday degan edi: “Haqiqatan ham muvaffaqiyatli tarjima qilish uchun ikki madaniyatni bilish ikki tilni o‘zlashtirishdan ham muhimroqdir, chunki so‘zlar faqat ular faoliyat ko‘rsatayotgan madaniy kontekstdagina mazmunli bo‘ladi”. Har kuni katta hajmdagi yangiliklar ma'lumotlari media tarjimonlari tarjimalaridan keyingi tuzatishlar uchun kamroq imkoniyatlarga ega va nozik yangiliklar ma'lumotlari ham katta ta'sirga ega. Tarjima ikki tilning oddiy o‘zgarishi emas, u turli mamlakatlarning milliy psixologik xususiyatlari, urf-odatlari va madaniy an’analari, geografiyasi va insoniy tuyg‘ulari kabi madaniy omillarni o‘z ichiga oladi. Ba'zi yangiliklar hatto ommaviy axborot vositalarining tasviri va yorqinligini oshirish uchun adabiy tasvirlarni oladi. “Tarjimonlar so‘zlar bilan birma-bir shug‘ullanadilar va ular ikki xil madaniyatga duch keladilar”.

Media tarjimasining axborot uzatish funksiyasi. Bugungi globallashuv va axborotlashtirish sharoitida gazetalar, televidenie, internet va boshqa ommaviy axborot vositalarida biz murojaat qilayotgan tashqi aloqalar haqidagi xabarlarning katta qismini media tarjimasi orqali axborot uzatish tashkil etadi. Ommaviy axborot vositalarini tarjima qilishning axborot uzatish funktsiyasi nafaqat "muloqot" darajasida to‘xtab qolmaydi, deydi Shiller: "Filmlar, radio va televidenie dasturlari, kitoblar va yangiliklar hisobotlarida hamma joyda ko‘rish mumkin bo‘lgan madaniy mahsulotlar yoki xizmatlar, ular nafaqat Axborot va ko‘ngilochar bir vaqtning o‘zida ijtimoiy qadriyatlar yoki siyosiy qarashlarni tarqatish vositalaridir va pirovardida ular butun jamiyatning ma'naviy tuzilishiga chuqur ta'sir ko‘rsatadi." Ommaviy axborot vositalarida ko‘proq ta'sir va gapirish huquqi bor, va

 DOI: 10.36078/1653410390

media tarjimasi milliy chegaralarni buzish va bu turdagi ta'sir va gapirish huquqi doirasini kengaytirishdir.

Media tarjimasining mohiyati ommaviy axborot vositalaridan iborat bo‘lib, u axborotni retranslyatsiya kanallari orqali axborotni qabul qiluvchilarga etkazish sifatida namoyon bo‘ladi.Farqi shundaki, bu axborot uzatish madaniyatlar va tillar bo‘ylab amalga oshiriladi. Ulardan klassikroq misol: Amerikaning “Time” jurnali Niksonning Xitoyga tashrifini quyidagicha ta’riflagan: “Niksonning Xitoyga Odisseyi” Bu: Niksonning Xitoyga uzoq safari degan ma’noni anglatadi. Odisseya bu yerda Xitoy-AQSh munosabatlarini normallashtirishning uzoq davom etgan jarayonini ifodalash uchun ishlatiladi.U dastlab qadimgi yunon qahramonlik dostoni Odisseyda tasvirlangan. Ulardan klassikroq misol: Amerikaning “Time” jurnali Niksonning Xitoyga tashrifini quyidagicha ta’riflagan: “Niksonning Xitoyga Odisseyi” Bu: Niksonning Xitoyga uzoq safari degan ma’noni anglatadi. Bu yerda “Odisseya” so‘zi Xitoy-AQSh munosabatlarini normallashtirishning uzoq davom etgan jarayonini ifodalash uchun ishlatiladi.Dastavval qadimgi yunon qahramonlik dostonida Odissey qadimgi Troya shahrida halok bo‘lib, uzoq va mashaqqatli jarayonni boshidan kechirganligi tasvirlangan. G‘arb sivilizatsiyasida ushbu hikoyani tushunmasdan, bu sarlavhani tushunish qiyin.

Lefevere shunday deydi: "Tarjima nafaqat lingvistik darajadagi transformatsiya, balki tarjimon tomonidan asl asarni madaniy qayta yozishdir". Ommaviy axborot vositalari tarjimasining axborot uzatilishi tarjima ob'ektlarini, ya'ni qaysi ma'lumotni tarqatishni tanlashni ham o‘z ichiga oladi. Umuman olganda, ma'lumot uchun to‘rtta variant mavjud: birinchidan, ko‘p sonli xorijiy gazeta va davriy nashrlardan to‘planadigan maqolalarni tanlang, ikkinchidan, tuziladigan maqolalarda to‘plash uchun mos materiallarni tanlang, uchinchidan, tegishli so‘zlarni tanlang, so‘ngra ularga mos tegishli so‘zlarni tanlang. Xitoylik kitobxonlar uchun til odatlari, ifodalarni tog‘ri tanlash kerak. Ommaviy axborot vositalari tarjimasi ob'ektiv hisobot berishi, "targ‘ibot" emas, balki "muloqot" ni yaxshi bajarishi va o‘quvchilarning qiziqishlari, tushunish va qabul qilish darajasiga moslashishi kerak.

Media yangiliklarining turli qismlarini qanday sifatli tarjima qilish haqida. Ommaviy axborot vositalarini tarjima qilish ob'ektlari asosan barcha turdagi yangiliklardir. Yangilikning o‘ziga xos xususiyatlari: haqiqiyligi, dolzarbligi, aniqligi va ixchamligidir.Yangilikning maqsadi – yetkazilishi kerak bo‘lgan ma'lumot. Ommaviy axborot vositalari tarjimasi OAVning tezkorligi va aniqligini talab qiladi, va tarjimaga e’tibor beradi. San’atda harf va ekspress o‘rtasidagi muvozanatga erishish ayniqsa muhimdir. Ommaviy axborot vositalarini tarjima qilishning axborot uzatish funktsiyasini yaxshiroq amalga oshirish uchun yangiliklar lug‘ati va turli tarkibiy qismlarning

 DOI: 10.36078/1653410390

xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Ommaviy axborot vositalari tomonidan tarjima qilingan yangiliklar lug‘ati to‘rtta xususiyatga ega: o‘zlashma so‘zlar, o‘zgarishlar, kopma'nolilik va tasvir. O‘zlashma so‘zlar tarjimonlar tez-tez tushunilishi va tasvirlardan foydalanish oson va qulay bo‘lgan so‘zlarni o‘zlashishiga aytiladi, shuningdek, ma'noni ifodalashi uchun turli sohalarda keng tarqalgan so‘zlarni o‘zlashishini anglatadi; o‘zgarish media tarjimada yangi so‘zlarning tez-tez paydo bo‘lishini anglatadi, bu esa media tarjimasida doimo ijtimoiy va madaniy sohalarga e'tibor berishni talab qiladi.

Madaniy jihatlar, noaniqlik amalda noaniq kopma’nolik tildan foydalanishni anglatadi, shu bilan birga yangiliklarni yozishda aniq va ixcham bo‘lishi talab qilinadi; Vizuallik media tarjimonlaridan yangiliklarning o‘qilish qobiliyati va jonli ko‘rinishi uchun majoziy iboralardan foydalanishni talab qiladi. Yangiliklar, shu bilan birga o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun ekranda yorqin aks ettiriladi Yangilikning asosiy tuzilishi: sarlavha, yetakchi va yangiliklar mavzusi. Yangiliklarni tarjima qilishda axborotning har bir tarkibiy qismining xususiyatlariga e’tibor qaratishimiz, bir tildagi yangiliklarni boshqa tilga o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra tarjima qilishimiz kerak. Yangilik sarlavhalari o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishda muhim rol o‘ynaydi va odatda xabarning asosiy g‘oyasini ko‘rsatib, uni bir qarashda aniq qiladi. Yangilik sarlavhalarini tarjima qilishda, asosan, so‘zma-so‘z tarjima usuli qo‘llanadi, sarlavhalarning “qiziqarli nuqtalari”ni asl matnni tushunish asosida izlaydi, xitoy tilining afzalliklaridan foydalanadi, ham shaklga, ham ruhga e’tibor beradi, ifodalaydi. sarlavhalarning mohironaligini ko‘rsatib beradi.

Masalan: Prezidentlikka nomzod J.Bush liderlik qilyabdi, Kerry yo‘l beryabdi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri Bush g‘alaba qozonyabdi, Kerri yutqazyabdi deb tarjima qilinadi. Bunda nafaqat yangiliklar sarlavhalarining ixchamligi aks ettiriladi, balki Xitoyning qarama-qarshilik va qarama-qarshilik ritorikasi ham qo‘llaniladi. Yangilik lavhasi, asosan, yangi va muhim faktlar yoki munozaralarga asoslangan dalillardan iborat bo‘lib, boshlovchining yozuvi yangiliklar faktlarini aniq tasvirlab beradi va yangiliklar faktlarini ixcham asosda taqdim etadi. Yetakchi til ko‘plab yangiliklar elementlarini o‘z ichiga oladi. Yetakchi tilni tarjima qilish uchun avvalo ma'lumotni birlashtirish va tilga moslashish uchun mos keladigan xitoycha lug‘atni topish kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, media tarjimasining axborot funktsiyasini amalga oshirish uchun yangiliklar lug‘ati va yangiliklar xatiga e'tibor berish, yangiliklar lug‘ati va yangiliklar ma'lumotlarining har bir tarkibiy qismining xususiyatlariga e'tibor berish va turli qismlar uchun turli tarjima strategiyalarini qabul qilish kerak. Yangilik xabarlari so‘zlarning sayqallanishiga e'tibor beradi va yangiliklar ma'lumotlari ham o‘quvchilar e'tiborini jalb qilish va o‘z ta'sirini kengaytirish uchun turli uslublarni

 DOI: 10.36078/1653410390

qo‘llaydi. Shunday ekan, yangiliklar tarjimasida so‘zlarning stilistik ma’nosiga jiddiy e’tibor qaratishimiz, shu bilan birga madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni, ifodalash usullarini, fikrlash usullarini va o‘quvchilarning qabul qilish qobiliyatini hisobga olishimiz kerak, buning natijasida xabarlarning til uslubini shakllantirishimiz mumkin. Iloji boricha manba ma'lumotlarini olish va manba ma'lumotlarining ishonchliligini saqlash lozim. Asl matndagi ma'lumotlar tez va aniq uzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Chen Daoming.Tarjimada “qisman funksional ekvivalentlik” va “funktsional o‘xshashlik” [J].Chet tillar, 2006, (4): 63-68.
2. Vang Zuoliang.Tarjimasi: Fikrlash va test yozish [M]. Pekin: Chet tillarni o‘qitish va tadqiqot matbuoti. 1989 yil.
3. Yu Jiankun. Yangilik xabarlarining tarjima xususiyatlari haqida [J]. Shanxay fan va texnologiya tarjimasi,
4. 2001, (1): 25-27.
5. Liu Xongchao. Yangiliklarni qanday tarjima qilish kerak [M]. Xitoyning aloqa universiteti tomonidan nashr etilgan
6. Jamiyat. 2005, (1).
7. Chjan Jian.Gazeta va davriy nashrlardagi yangi so‘zlarning ingliz tiliga tarjimasi [M].Shanxay: Shanxay fan va texnologiya ta’limi matbuoti, 2001.
8. Khakimova, S. (2021). STANDARDS AND METHODS OF NEWS TRANSLATION OF THE CHINESE LANGUAGE. *Academic research in educational sciences*, *2*(6), 1044-1049.

ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ КОНСТАНТЫ КОНЦЕПТА «ГОСТЕПРИИМСТВО» В УЗБЕКСКОЙ И КИТАЙСКОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ

Сарвиноз ХОШИМОВА

Студент магистратуры 2-го курса 214-ой группы

кафедра «Теория и практика китайского языка»

Узбекский государственный университет мировых языков

Научный руководитель: учитель УзГУМЯ Рузумова Гулбахор Матякуббаевна

DOI: 10.36078/1653410390

Аннотация: Целью исследования являются лингвокультурологические особенности языкового концепта гостеприимства узбекского и китайского народов в картинах мира.

Ключевые слова: фразеологическая картина мира, национально-культурный компонент, фразеологизмы, пословицы, поговорки.

Значения, регулирующие отношения людей в повседневной жизни, реализуются не только в оценочных высказываниях, но и другими языковыми средствами, например, закрепляются в идиоматической паремиологической основе стиля, а также во вторичных номинативных знаках.

Эта статья в основном китайская и краткое введение в основные духовные особенности узбекского народа, современную и древнюю кухни, а также основные ценностные доминанты изучаемых языковых культур, описанные на основе фразеологизмов, пословиц и поговорок.

Китайцы отличаются от жителей Узбекистана своим мировоззрением, поведением, установками и желаниями. Большинство сходств и различий изучаемых понятий можно выявить при анализе сценария «банкет, трапеза».

Актуальность изучения фразеологического анализа и паремиологических единиц обусловлена в основном концептуализацией культурной сферы, которая связана не только с чисто научными, но и со всеми аспектами традиций приготовления и потребления продуктов питания и напитков. Кулинарно-гастрономическая речь в зависимости от узбекской и преимущественно китайской фразеологии этого направления представляет собой национальный анализ важнейших культурных доминант, закономерностей, сформировавшихся в коллективном сознании народа и представляющих каждый народ с философией, психологией, этикой, культурой и бытом.

Приветствуя гостей, говоря о кулинарии, мы обнаружили, что узбеки часто готовят из полуфабрикатов. Китайцы, особенно среднего и старшего поколения, предпочитают свежеприготовленную пищу или блюда в ресторанах. Однако в последние годы молодежь активно покупает и потребляет полуфабрикаты.

Для узбеков китайскую еду можно назвать экзотикой, потому что для узбеков более привычна и популярна узбекская еда, а для китайцев - китайская. А вот с экзотикой все наоборот. Экзотическая азиатская кухня для узбеков и европейская кухня для китайцев. В Китае европейская еда намного дороже китайской. «Китайская кухня» — это общий термин для множества блюд всех регионов и национальностей Китая.

 DOI: 10.36078/1653410390

Искусство кулинарии имеет очень давнюю историю, совершенную технологию, множество жанров и анализирует свой оригинальный стиль. В основном на протяжении нескольких тысячелетий доминировала китайская кухня, кроме того, она была известна во всем мире и оказала значительное влияние на анализ кулинарии особенно во всей Восточной Азии.

Позже, в связи с появлением и популярностью буддизма, буддийская растительная пища постепенно стала заменять пищу. Соответственно с этого времени начинается период вегетарианского питания, которое очень популярно и по сей день. Династии в основном анализируют суйскую и танскую китайскую кухню - обычно более развиты смешанные и диетические блюда.

Во время правления династии Сун произошел дополнительный резкий рост развития китайской кухни. В ресторанах столицы готовят сотни горячих и холодных блюд, супов и ассорти. Между тем, кроме того, «южная кухня» (хит. 南菜 Nan cai), «северная кухня» (хит. 北菜 Bei cai), «сычуаньская кухня» (хит. 川菜 chuan cai) и напрямую отличается вегетарианской кухней. Стали открываться школы для подготовки квалифицированных поваров.

Церемония гостеприимства является кульминацией любого приема гостей, а также одним из самых важных событий во всех культурах. «Еда» — это некий этнический символ, один из видов материализованного мировоззрения. Для гостей «угощение» представлено дополнительными способами в изучаемых языках как следующий шаг в развитии понятия «гостеприимство».

Вот несколько примеров явно разных художественных жанров. При анализе концептуализируется «лечение» в основных узбекских картинах мира. Узбекская культура характеризуется традиционной щедростью, богатыми дополнительными приемами и гостеприимством. Важно, чтобы гости не задавали прямых вопросов, пока они не поели. Это отражено в следующих основных фразеологизмах:

Меҳмонга *ош қўй, икки қўлини буш қўй.(Положи гостью плов, остав обе руки свободным);*

Ош - ***меҳмон*** *билан азиз. (Плов-дорог с гостем);*

Меҳмон *келса пастга туш палов бермоқ аҳдга туш. (Когда приходит дополнительно гость, спустись вниз, займись угощением гостя пловом).*

Фразеологизмы и пословицы узбекского языка в основном связаны с процессом чаепития. Для узбеков лингвокультурный чай – это символ приятного времяпрепровождения, отдыха и приема гостей.

Самый главный напиток в Китае – это, конечно же, чай. За долгую историю в стране сложилась дополнительная особая чайная культура. Сформировалась

DOI: 10.36078/1653410390

определенная традиция чаепития и чай стал неотъемлемой частью любого торжества.

Давайте посмотрим на некоторые пословицы о чайной церемонии в Китайской Народной Республике. Выращивание чая:

七掏金，八掏银，十月掏掏平平心 qī tāo jīn bā tāo yín shí yuè tāo tāo píng píng xīn (Чай, собранный в июле – золото, в августе –серебро, а в октябре – просто чай);

茶叶是时辰草，早采三天是宝，迟采三天是草 chá yè shì shí chen cǎo zǎo cǎi sān tiān shì bǎo chí cǎi sān tiān shì cǎo (Чайный лист как трава утренняя, если успел собрать в первые дополнительно три дня – сокровище, а потом чай становится просто травой) ;

茶树不怕肥，无肥可加泥，熟泥加生泥，胜似吃高丽；若要春茶好，茶 山开得早 chá shù bú pà féi wú féi kě jiā ní shú ní jiā shēng ní shèng sì chī gāo lí ruò yāo chūn chá hǎo chá shān kāi dé zǎo (Если хочешь получить хороший урожай весеннего чая – заранее займись выращиванием).

В Китае чай используют не только как дополнительный напиток, но и как лекарство. Это подтверждают многие пословицы и поговорки. Фразеологический фонд китайского языка также находит отражение в чайной церемонии, что подтверждает важную роль в жизни каждого китайца:

头茶香，二茶苦，三茶可口不可摘 tou cha xiang er cha kǔ san cha ke kǒu этот ke zhai (первая заварка дает прекрасный аромат, вторая заварка имеет соответствующий горьковатый вкус, третья заварка вкусная и неповторимая.).

清茶淡话 qīng chá dàn huà (Пить чай и вести непринужденную беседу)

После церемонии гости Если они не уходят, следуйте за гостями следует поставить. Прием гостей также является проявлением узбекского гостеприимства.

В Узбекистане во время церемонии прощания гостям раздавали хлеб и сладости. Это очень хорошая традиция, потому что, разошлись гости, они не держат зла на хозяев. Во время прощания гостя всегда здоровают и говорят «выздоравливай».

Вывод

В результате изучения специальной литературы стало ясно, что понятие «гостеприимство» в культуре узбекского и китайского языков имеет высокий уровень понимания, служит нравственным регулятором, является одним из важнейших национальные культурные ценности.

DOI: 10.36078/1653410390

Изучение специальной литературы по теории понятий позволило понять терминологическую сущность понятия, принципиальное единство области человеческого понимания, роль языкознания в изучении области понятий. Сравнительный анализ узбекского и китайского языков потребовал изучения национального ландшафта мира, языковой картины мира, важных терминов для создания стереотипов и менталитетов.

Поскольку язык, мышление и культура могут рассматриваться как единое целое, окружающий мир также проявляется в трех формах: в виде реального мира, культурного (понятийного) образа мира и языкового образа мира. Культурный ландшафт мира выражается устно, сохраняется и передается из поколения в поколение, поэтому он гораздо богаче, чем картина языка.

Языковая картина мира является широчайшим понятием, отражающим как простое, так и научное мировоззрение этноса, причем для простой картины характерен важный прагматизм. Культура формирует языковую картину мира.

Культурно-этническая составляющая, отражающая языковую картину мира как факт обыденного сознания, воспринимается в лексических единицах языка, но сам язык непосредственно этот мир не отражает. Оно лишь отражает то, как национальный лингвист описывает (понимает) этот мир. Культура узбекского и китайского языков имеет богатый фразеологический и паремиологический фонд языков, связанных с приемом гостей, среди которых есть и универсальность, и самобытность, а культура, отраженная в этом языке, универсальна и выделяет общечеловеческие черты. .

Концептуальный анализ в лингвистике может быть выполнен с использованием различных методов исследования. На основе работ ученых, ранее изучавших концепт «гостеприимство», мы представили перцептивную картину анализируемого концепта. Опираясь на постулаты когнитивной лингвистики, определившие структуру концепта, мы выделили важную для нас паремиологическую зону концептуальной структуры.

Использованная литература

1. Абдурахимов, М. Краткий узбекско-русский фразеологический словарь. – Т.: Ўқитувчи; 2003.

2. Ўзбекча-русча луғат / проф. Т.Н. Қори-Ниёзи ва проф. А.К. Боровковнинг умумий таҳрири остида. – Т; 2001.

3. O'ZBEK XALQ MAQOLLARI VA INGLIZ XALQ MAQOLLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI – тема научной статьи по языкознанию и

 DOI: 10.36078/1653410390

литературоведению читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка (cyberleninka.ru)
4. «Угощение» Жабаева 2004

СИНХРОН ТАРЖИМА ЎҚИТИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСПЕКТЛАРИ

Нодира ЮНУСОВА
ўқитувчи, PhD
ТДШУ

Аннотация. Синхрон таржиманинг умумий таржимашунослик тизимидаги ўрни ва хусусиятлари жуда кенг ва синхронист таржимада чуқурроқ билим ва кўникма талаб қилинади. Синхрон таржимада бир вақтнинг ўзида оғзаки таржима турларининг, хусусан кетма-кет таржимадан семантаграфик таржима ва турли хил шакл ва уссуллардан фойдаланади. Шунингдек, таржима бу маданиятларни боғловчи ўзига хос кўприкдир. .

Калит сўзлар: Синхрон таржима, стратегия, алоқанинг семантик-стилистик тузилиши, динамик, психолингвистик аспектлари, кутиш стратегияси

Abstract. The role and characteristics of simultaneous translation (ST) in the general system of translation are very wide, and deeper knowledge and skills are required from simultaneous translator. The translator uses simultaneous interpretation of different types of interpretation, in particular, semantic translation from serial translation and different forms and methods. Translation is also a unique bridge which connects these cultures.

Keywords: Simultaneous translation, strategy, semantic-stylistic structure of communication, dynamic, psycholinguistic aspects, waiting strategy

Синхрон таржима психологик жараёнида энг чуқур қисми бўлиб, таржиманинг психологик аниқлашда унинг моҳиятини тушуниш муҳим ҳисобланади. Бу эса таржима назарияси ва психолингвистика ўртасидаги боғлиқликни изоҳлайди.

Психолингвистика нутқини ҳосил қилиш ва идрок етиш жараёнларини тил тизимига орқали ўрганилади. Бу фан тилнинг инсон нутқий фаолиятининг динамик тизими сифатида талқин қилишга интилади . Психолингвистиканинг объекти нутқ фаолияти, таржима назариясининг объекти еса нутқ фаолиятининг махсус тури

DOI: 10.36078/1653410390

бўлганлиги учун бу фанларнинг вазифалари кўп жиҳатдан бир-биридан ажралиб турад[183]. Синхрон таржиманинг хусусиятлари психолингвистика маълумотларидан ва таржима матни идрок этишнинг ўзи бир вақтда жараёнларини таъминловчи механизмларни ўрганиш учун фойдаланилади.

Синхрон таржима таржиманинг энг қийин турларидан бири, бу нутқ фаолиятининг психолингвистик хусусиятлари, шу жумладан кирувчи сигнални идрок етиш хусусиятлари, лингвистик ахборотни қайта ишлашнинг турли босқичларида хотиранинг ишлаши, таржима тилида сўзлашувчининг яратиш хусусиятлари, шунингдек, қилинган таржима ечимини назорат қилиш хусусиятлари билан боғлиқ. Таржима одатда тарихий-маданий, адабиётшунослик, лисоний-услубий, рухшунослик йўналишларида тадкик этилади. Аммо бу йўналишларнинг барчаси ё бевосита, ё билвосита мазкур сохаларнинг бири —лисоний-услубий йўналишида ўз аксини топади, чунки таржима ҳамма вақт тил материаллари билан иш кўришни тақозо этадиган жараёндир. Бинобарин, таржима назариясида икки тил лингвистик-стилистик воситалари билан боғлик лисоний тадқиқ йўналиши алоҳида ўрин тутади.[184] Демак таржима амалиётини ҳатто адабиётшунослик йўналишида ҳам, аксарият ҳолларда тил ходисаларини таҳлил қилиш орқали амалга оширилади.

Таржима хусусида гап борар экан, бир тилдан иккинчи тилга алоҳида сўзларни, сўз бирикмаларини, бутун бир асарни таржима қилиш назарда тутилади. Таржима тенг маънолилик (муқобиллик) ни тақозо қилади, бошқача қилиб айтганда, амалга оширилган таржима аслиятга мазмун жиҳатдан мувофиқ бўлиши лозим.

Бу еса мазкур таржима туринининг бошқа хусусиятларини ва биринчи навбатда қатъий вақт чегарасини белгилайди: синхрон таржимонга фақат сўзловчи томонидан нутқ етказиш вақти берилади. Бу жараён таржимоннинг кетма-кет таржимаси учун бироз вақт берилади. . Шунинг учун, синхрон муваффақият учун асос таҳлил ва синтез (яъни, фикрлаш) орқали емас, балки шартли рефлекслар орқали таржима қилиш имконини беради. Таржимон сўзловчининг нутқи қандай бўлишидан қатъий назар, уни таржима қилиши керак.

Шунинг учун таржимон билан сўзловчининг ўртасида ўзаро бир-бирини тушуниш ётади. [185] Бундан ташқари, синхрон таржиманинг ўзига хос хусусияти

[183] Андреева, Н.В. Психолингвистические модели функционирования памяти при синхронном переводе // Вестник РГУ им. И. Канта, филологические науки. 2007.
[184] Вендина, Т.И. Введение в языкознание: Учеб. пособие. М.: Высш. шк., 2008. 391 с. 920 «Молодой учёный» . № 6 (110) Филология . Март, 2016 г.
[185] Гурин, И.В. Приёмы речевой компрессии при синхронном переводе с русского языка на английский [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://rudocs.exdat.com/docs/index-88396. html (дата обращения: 10.03.2016).

DOI: 10.36078/1653410390

сегментли характер деб аталади: синхрон таржимон матнни қабул қилиб сегментларда таржима қилади, кетма-кет таржимада эса таржимон аввал бутун матнни тинглайди.

Таржимон бир вақтнинг ўзида ҳам тинглаб ва гапириш шароитида доимий концентрацияни ва узлуксиз гапиришни талаб қилади. А. Ф. Ширяев синхрон таржиманинг психолингвистик моделини бўйича бир қанча таклифлар берган. Ҳар бирини уч тургa бўлиб чиқган: таржиманинг мақсад вазифаси ва ечимни қидириш, амалга ошириш босқичлари[186].

Мазкур таърифнинг таркибий қисмларини батафсилроқ кўриб чиқамиз. Таржимоннинг биринчи босқич вазифаси шароитидан келиб чиқиб йўналишни ўз ичига олади. Синхрон таржима, асосан мажлис, учрашув ҳамда анжуманларда фойдаланилиши билан кетма кет таржимага ўхшатишдек туюлади. Бироқ сўнги йилларда синхрон ва кетма кет таржимадан фойдаланишда ихтисослашув аломатлари тобора сезилмоқда. Масалан синхрон таржима асосан кўп тилли халқаро симпозиумлар, халқаро ташкилотлар иштирокчиларига нотиқ нутқини эшитиш жараёнида уни икки ва ундан ортиқ тилларга таржима қилиш лозим бўлган вазиятларда шу соҳа бўйича махсус тайёрланган синхрончи таржимонлар томонидан амалга оширилса, кетма кет таржима таржимон ва сўзловчи (нотиқ)нинг бевосита мулоқоти жараёнида икки томонлама учрашув ва конференцияларда, дипломатик учрашувларда кўпроқ амалга оширилияпти.

Бундан ташкари, синхрон таржима кетма-кет таржимадан қуйидаги жихатлари билан ҳам фарқ қилади:

1. Синхрон таржимада нотиқ нутқи нутқ тугаши, гап якунланиши кўтилмасдан таржима қилинади. Кетма-кет таржимада эса таржимон нотиқнинг хар бир жумласини таржима қилишга уринади. Бунда нотиқ таржима амалга оширилгунча нутқини тўхтатиб туради.

2. Синхрон таржимада таржимон ўзини коммуникация иштирокчиларидан ажратиб турувчи турли-туман техник аппаратуралардан фойдаланади[187].

У нотиқ нутқини махсус хонада қулоққа тақиладиган наушник орқали эшитиб, таржима қилади ва уни микрофон орқали шу тилни тушунадиган тингловчиларга етказади. Бу таржима махсус каналлар орқали фақат шу тилда эшитиб тушунадиган иштирокчи-тингловчиларнинг наушникларига етказилади. Фараз қилинг, конференция залида чет тилида, масалан, хитой тилида гапираётган нотиқнинг

[186] Швейцер, А.Д. Теория перевода. Статус, проблемы, аспекты. М.: Либроком, 2009. 216 с.

[187] Сдобников, В.В. Теория перевода (учебник для студентов лингвистических вузов и факультетов иностранных языков)/Петрова О.В. М.: АСТ: Восток — Запад, 2006. 448 с.

DOI: 10.36078/1653410390

маърузасини синхрончи ўзбек ёки рус тилини тушунадиган иштирокчилар учунгина ўзбек ёки рус тилига таржима қилиб ўзатади. Агар нотиқ ўзбек ёки рус тилида гапираётган бўлса, синхрончи уни хитой тилини тушунадиган иштирокчилар учун хитойчага таржима қилиб узатади. Агар конференция залида бир неча, масалан, инглиз, француз, немис хитой миллатига мансуб вакиллар иштирок этаётган бўлса, махсус аппаратуралар олдида ана шу тилларда синхрон таржима қиладиган учта синхрончи иш олиб бориши керак [188] . Бу холда турли тилларда сўзлашувчи иштирокчилар наушникларни ўзлари тушунадиган таржима тили каналларига улайди. Демак, синхрончидан эшитилган ахборотни шу ондаёк таржима тилига ўгириш, нотиқнинг нутқ тезлигига мослашишга улгуриш талаб қилинади.

Синхрон таржимага ўргатишнинг иккинчи мақсади таржимонни эшитиладиган нутқни шу ондаёк тушуниб таржима қилишнинг психолингвистик асосларига ўргатишдир.

Бу ўринда гап: — синхрон таржима жараёнида нотиқ нутқини тушунишга йўналтирилган махсус кўникма ва малакаларни шакллантириш;

— қисқа вақт ичида эшитилган нутқ асосида керакли сўз ва жумлаларни қидириб топиш кўникмаларини шакллантириш;

— нотиқ нутқини қабул қилиш жараёнининг ўзида унда бошқа тилда гапириш кўникма ва малакаларини шакллантириш;

— юқоридаги уч жараённи синхронлаштириш малакаларини шакллантириш;

— нотиқ нутқини трансформация қилиш малакаларини эгаллаш ҳақида кетаяпти [189] . Синхрон таржимадан кўзатиладиган учинчи мақсад бўлажак мутахассисларда ижтимоий-иктисодий фанлар, тили ўрганиладиган мамлакат маданияти буйича билимларни кенгайтириш ва мустахкамлашдир. Синхрон таржимадан кўзатиладиган хусусий мақсад синхрончининг лингвистик, психолингвистик, психологик билимларини амалда намоён қила олишини таъминлашдир.

Шунингдек, мақолада муҳокама қилинган психолингвистик жиҳатлар синхрон таржима тамойилларини очиб беради ва таржимондан юксак маънавий, маданий, аҳлоқий, ғоявий сифатларни эгаллашни ҳам талаб қилади.

---

[188] Кузнецова, И.Н., Метковская А.И. Механизм речевой компрессии в процессе синхронного перевода // Экология ЦЧО РФ. 2012. № 1 (28). с. 60–68.

[189] Кузнецова, И.Н., Метковская А.И. Механизм речевой компрессии в процессе синхронного перевода // Экология ЦЧО РФ. — 2012. — № 1 (28). — с. 60–68.

DOI: 10.36078/1653410390

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Андреева, Н.В. Психолингвистические модели функционирования памяти при синхронном переводе // Вестник РГУ им. И. Канта, филологические науки. 2007.
2. Вендина, Т.И. Введение в языкознание: Учеб. пособие. М.: Высш. шк., 2008. 391 с. 920 «Молодой учёный» . № 6 (110) Филология . Март, 2016 г.
3. Гурин, И.В. Приёмы речевой компрессии при синхронном переводе с русского языка на английский [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://rudocs.exdat.com/docs/index-88396. html (дата обращения: 10.03.2016).
4. Дударева, Н.А. О некоторых трудностях синхронного перевода // Вестник ИГЭУ. 2009. № 1. с. 68–71.
5. Кузнецова, И.Н., Метковская А.И. Механизм речевой компрессии в процессе синхронного перевода // Экология ЦЧО РФ. 2012. № 1 (28). с. 60–68.
6. Сдобников, В.В. Теория перевода (учебник для студентов лингвистических вузов и факультетов иностранных языков)/Петрова О.В. М.: АСТ: Восток — Запад, 2006. 448 с.
7. Чернов, Г.В. Основы синхронного перевода: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. М.: Высш. шк., 1987. 256 с.
8. Швейцер, А.Д. Теория перевода. Статус, проблемы, аспекты. М.: Либроком, 2009. 216 с.

XITOY TILINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY INTERFAOL USULLARINING AHAMIYATI

G‘iyosova Mohigul Baxodir qizi
O‘zDJTU Xitoy tili nazariyasi va
amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Hozirgi kunda xalqaro aloqalar tillarini o‘qitishning jahon amaliyotida xitoy tilini madaniyatlararo aloqa vositasi sifatida, xalqlarni, mamlakatlar, qit'alarni o‘zaro boyitish vositasi sifatida, milliy va umumbashariy madaniyat yutuqlari bilan tanishish usuli, o‘z mamlakatining fuqarolari va jahon hamjamiyati a’zolari tomonidan o‘zini anglash usuli sifatida bilish vazifalari qo‘yilmoqda.

 DOI: 10.36078/1653410390

Kalit so‘zlar: rolli o‘yinlar, zig-zag interfaol usuli, karusel o‘yini, interfaol metod, innovatsion texnologiya.

Abstract. Today, in the world practice of teaching the language of international relations, the Chinese language as a means of intercultural communication, as a means of mutual enrichment of peoples, countries, continents, a way to get acquainted with national and universal cultural achievements, the citizens of their country and the world community the tasks of cognition are set by zolas as a method of self-awareness.

Keywords: role-playing games, zig-zag interactive method, carousel game, interactive method, innovative technology.

Mazkur maqola doirasida biz talabalarga yo‘naltirilgan ta`lim texnologiyalarini ko‘rib chiqamiz. Ta‘lim berish bu – o‘ qituvchi va o‘ quvchi-talabalar ishtirokidagi jamoadir. O‘ qitish reja asosida o‘ qitish tizimi hamda mahorati, qolaversa o‘quvchi talabaning ma‘rifatining oshishi bilan belgilanadi. Shunday ekan, hozirgi kunda xitoy tili darslarida har bir ta‘lim beruvchi o‘ zining zamonaviy texnologik yondashuviga ega bo‘lishi kerak. Barchamizga ma`lumki, hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar asosida til o‘rganish eng qulay va zamonaviy uslub hisoblanadi. Yevropa va chet davlatlarda allaqachon innovatsion ta`limdan keng foydalanilgan holda dars o‘tiladi.

Bugungi kunda bizning mamlakatimiz oliy va o‘ rta maxsus ta‘lim muassasalarida ―Aqliy hujum, Rolli o‘ yinlar, BBB jadvali, Karusel o‘yini, Bahsmunozara, Zig-zag, Venna diagrammasi, Bumerang, Sinkveyn, Delfi shu kabi bir qator interfaol metodlardan keng foydalanilmoqda. Bundan ko‘ zlangan maqsad o‘quvchilarda har tomonlama ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallash, bilim, ko‘ nikma, malakalarini shakllantirish va shu asosda o‘quvchilarning ilmiy-dunyoviy qarashlarini rivojlantirish, ularning barkamol shaxs sifatida erkin fikr yurita olishligini, o‘ ziga bo‘ lgan ishonchni mustahkamlashdan iborat.[190]

Xitoy tilini o‘qitish jarayonida innovatsion yondashuvlar:

Xitoy tilini o‘qitish amaliyotida qo‘llaniladigan ba'zi texnologiyalarni ajratib ko‘rsatish muhim, deb hisoblayman, ular turli xil manbalarda turli mualliflar tomonidan aniqlangan:

I. 1) dizayn texnologiyalari; 2) axborot texnologiyalari; 3) til portfellari texnologiyasi; 4) modulli blok texnologiyalari.

[190] Ziyamuhamedov.J.T. Xitoy tili o‘qitish metodikasi. T.: TDSHI. 2010, B. 21.

 DOI: 10.36078/1653410390

II. 1) kommunikativ yo‘naltirilgan texnologiyalar; 2) o‘rnatilgan texnologiyalar; 3) dizayn texnologiyalari.

III. 1) talabalarga yo‘naltirilgan ta'lim texnologiyasi; 2) kommunikativ o‘zaro o‘rganish texnologiyasi; 3) kompyuter texnologiyalari; 4) multimedia texnologiyasi.

Interfaol usullar ichida o‘ ziga xos bir qancha ijobiy jihatlari bilan ajralib turadigan ― rolli o‘ yinlar interfaol usuli XX asrning 70-yillarida chet tillarini o‘ rgatishda qo‘llanila boshladi. Bu esa o‘ qitishda turli usullardan foydalanish o‘z samarasini bera boshladi ya‘ni ko‘z bilan ko‘rish, quloq bilan eshitish xotirani yanada mustahkamlab, o‘ quv jarayoniga nisbatan qiziqish va faollikni oshirdi. Rolli o‘yinlar - ishbilarmonlik yoki rolli(vaziyatli) o‘yinlar – muammoli vazifaning bir turidir. Faqat bu o‘ rinda, matnli material o‘rniga o‘ quvchilar tomonidan rollar o‘ ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi.

Rolli o‘yinlar metodi shundan iboratki, o‘quvchi, o‘zi uchun notanish bo‘ lgan, turli xil harakterli inson obraziga qalban kirishib ketadi. O‘zi uchun notanish bo‘ lgan, turli xil harakterdagi rollarni o‘ ynashlari asosida ularning dunyoqarashlari, fikr-mulohazalari, nimalar haqida o‘ ylaydilar, ularning nozik tabiati haqida o‘ quvchilar keng tushunchaga ega bo‘ ladilar. O‘yinda asosan o‘ quvchilarga tugallanmagan muammoli sahna ko‘ rinishi (vaziyat) rollari beriladi. O‘ quvchilar ushbu muammoli rollarni mustaqil ravishda oxiriga yetkazib, rol o‘ ynashlari shart. Innovatsion, interfaol metodga “Karusel” o‘yinini ham misol tariqasida keltirishimiz mumkin:

"Karusel" o‘yini. Ko‘plab innovatsion texnologiyalar singari, karusel ham qarzga olingan psixologik tayyorgarlik. Bolalar odatda bunday ishdan zavqlanishadi. Ikki uzuk hosil bo‘ladi: ichki va tashqi. Ichki halqa - tashqi aylanaga qaragan holda harakatsiz turgan talabalar, tashqi halqa - har 30 sekundda aylana bo‘ylab harakatlanadigan talabalar. Shunday qilib, ular bir necha daqiqada bir nechta mavzularni gapira olishadi va suhbatdoshni ularning to‘g‘riligiga ishontirishga harakat qilishadi. Axloqiy xarakterdagi dialoglar, tanishish mavzusi, millat, jamoat joyida suhbat va boshqalar mukammal tarzda ishlab chiqilgan. Bundan tashqari “Rolli o‘yin” texnologiyasi ham keng tarqalgan texnologiyalardan biridir. Mazkur o‘ yinlar interfaol usuli xitoy tili darslarida ikki tomonlama ham o‘qituvchi ham o‘ quvchiga teng foyda olib keladi. O‘qitish mazmuni yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi.

“Zig-zag” interfaol usuli bilan dars o‘ tish ham grammatikani mustahkamlash, ham mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvolidan ham

 DOI: 10.36078/1653410390

habardor bo‘ lish imkonini yaratadi, eng muhimi bilishdan tashqari o‘ quvchi talaba o‘ zi fikr yuritib, boshqalarga yetkazib berish qobiliyatini, so‘ z boyligini oshirib, nutqini ravon qilishga yordam beradi.[191]

Demak, interfaol usullardan foydalanib yangi bilimlarni berish, ko‘ nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda q o‘ llash mashg‘ ulotlarida hamda o‘ quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo‘ yicha mashg‘ ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo‘ lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to‘ g‘ ri tanlash nazarda tutiladi.

Nafaqat xitoy tilini balki, boshqa chet tillarini o‘rganishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning shaxsiy fazilatlarini ochish, saqlash va rivojlantirishga yordam beradi. o‘quvchilarga grammatik xodisalarni o‘rgatish jarayonida quyidagi informatsion texnologiyalardan foydalanishni lozim topdik: kompyuter texnologiyasi (internet tarmogi), interaktiv metodlar, ochiq munozara (disput), ekskursiya, auksion, matbuot konferensiyasi, konkurs, dumaloq stol, orzu-niyat, she’riyat turlari, chet til o‘rgatish proyekt metodi va boshqalar. Interaktiv metodlar qo‘llanganda, o‘quvchining o‘zi mustaqil holda erkin fikr yuritadi, o‘qituvchi bilan hamkor sifatida ishlaydi. Xitoy tili darslarida o‘quvchilarining grammatik ko‘nikmalarini takomillashtirishda internet texnologiyalari axborot olish va muloqot kilishning eng zamonaviy shakllaridan biridir.

Maxsus kuzatishlarim va o‘tkazilgan izlanmalarim asosida quyidagi xulosalarga keldim: o‘yin-topshiriqlardan foydalanish chet til o‘qitishning amaliy, tarbiyaviy, umumta’limiy va rivojlantiruvchi maqsadlarini amalga oshirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi; o‘quvchilarning xorijiy tilda fikr bayon etish(gapirish)ga nisbatan psixologik salbiy kechinmalarini bartaraf etishga imkon beradi, o‘quvchilarga mustaqil fikrlashni o‘rgatadi, nutq malakalarini egallashni o‘zlashtiradi, maqsadga erishish, g‘alaba qozonishga undaydi, tilni kommunikativ metodika asosida o‘rganishga imkon beradi, barcha o‘quvchilarni darsga jalb qilishga, qiziqishlarini yanada orttirishga, dars samaradorligini ko‘tarishga salmoqli hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ziyamuhamedov.J.T. Xitoy tili o‘qitish metodikasi.T.: TDSHI. 2010, 21-b.

[191] — 温晓虹。汉语作为第二语言的习得与教学。北京大学出版社，2012 年, 34 页。

 DOI: 10.36078/1653410390

2. Xakimova, S. H. E. (2021). 课堂游戏运用与技巧. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(Special Issue 1), 263-267.

3. Muradkasimova Sh.K. (2018). Assessment for, as, and of learning; integrating learning, teaching and assessment. Международный журнал гуманитарных и естественных наук, (8), 38-41

4. 温晓虹。汉语作为第二语言的习得与教学。北京大学出版社，

2012 年, 34 页。

5. Polatovna, B. N., & UGLI, D. I. I. (2021). ANALYSIS OF PHRASES AND IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, *1*(2), 89-93.

МАДАНИЯТЛАРАРО ТЎСИҚЛАР ВА УЛАРНИНГ ТУРЛАРИ

Шоҳистахон ШАМСИЕВА
Хитой филологияси кафедраси ўқитувчиси, PhD
Хитойшунослик факультети
Тошкент давлат шарқшунослик университети

Аннотация. Мазкур мақолада маданиятлараро мулоқотда вужудга келадиган тўсиқлар, уларнинг турлари, хусусан, лисоний тўсиқлар, новербал мулоқотдаги тўсиқлар, стереотип тўсиқлар, қадрият фарқларидаги тўсиқлар ва уларни юзага чиқарувчи омиллар тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: маданиятлараро тўсиқлар, коммуникатив тўсиқлар, мулоқот, лисоний салоҳият, вербал, новербал.

Маданиятлараро алоқалар ҳамкорларнинг дунёқараши, одоб-ахлоқ меъёрлари, қадриятлари ва ҳ.к.нинг мос келмаслиги каби кўплаб муаммоларни келтириб чиқаради.

Турли маданият вакиллари билан мулоқот жараёнида юзага чиқадиган ва ўзаро муносабатлар самарадорлигини пасайтирадиган қийинчиликлар ва мураккабликлар тўсиқлар, деб номланади. Маданиятлараро ўзаро муносабатлар

 DOI: 10.36078/1653410390

жараёнида юзага чиқадиган коммуникатив тўсиқларни анъанавий тарзда қуйидаги турларга ажратилади[192]:

Маданиятлараро мулоқотдаги лисоний тўсиқлар. Турли маданият вакиллари ижтимоий борлиқни тил конструкциялари, коммуникациянинг оғзаки ва ёзма шаклларида ўз аксини топган рамзий тизимлар воситасида қабул қилишнинг турфа моделларидан фойдаланадилар.

Маданиятлараро мулоқот муҳитида лисоний салоҳият ҳамкорлар орасида алоқа воситаси сифатида фойдаланиладиган тил қоидаларининг мавҳум тизими сифатида намоён бўлади. Лисоний салоҳият мулоқот жараёнидаги зарурий шартлардан бири ҳисобланишига қарамай, у ўзаро таъсир самарадорлиги учун етарли бўлмайди. Бинобарин, ҳамкорлар коммуникатив салоҳиятга эга бўлиши – аниқ ижтимоий вазиятларда қўлланиладиган қоидаларни билиши, шунингдек, когнитив салоҳиятга – мулоқот тилида сўз ясаш ва фикрларни жамлаш (нутқ ҳосил қилиш) малакасига ҳам эга бўлиши лозим. Турли маданият соҳиблари билан мулоқот чоғида кўпинча лисоний характердаги муаммолар биринчи планга чиқади.

Стефания исмли талаба Испанияда ўқиётган пайтда юз берган вазиятни тасвирлаб беради. У мезбон оиладаги опалари билан бирга ёпиқ ҳовузга боради. Аризонадан келган Стефания бундай совуқ сувда чўмилишга одатланмаган эди. Шунинг учун у қуёшда тобланиш учун ташқарига чиқади. Унинг “опалари” ундан нега улар билан чўмилмаганини сўрашади. Стефания шундай тушунтиради[193]: *Айни дамда мен улар билан бирга бўлишим керак, деб ўйладим… Мен уларга ҳолатимни қандай қилиб етарли даражада тушунтиришни билмас эдим… Ҳаракат қилдим, бироқ буни яхши натижа беришига ишонмадим… Шунинг учун кечирим сўраб қоя қолдим… Тўқнашувга умуман эътибор бермадим. Бу муаммони ҳал қила олардим, лекин ҳолатимни батафсил тушунтириш учун лисоний қобилиятимнинг етарли эмаслиги англаб етдим… Бу муаммо мен айтишни хоҳлаганларимни ифодалаб беролмаганим учун юзага келган эди.*

Кишилар тилни яхши билмаган ҳолатларда уларнинг тўқнашувлари бартараф этиши жуда қийин кечади. Бундай вазиятларда сукут ҳам яхши натижа бериши мумкин. Бинобарин, турли маданиятларда қабул қилинган сукутни ҳар хил талқин қилиш мумкин. Араблар “Тўхтовсиз гапириш – ўзини ёмон тутишдир”, деб

[192] Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. С. 12-14.

[193] Judith Martin, Thomas Nakayama. Intercultural communication in contexts. 5th ed. New York: McGraw-Hill, 2010. P. 429.

 DOI: 10.36078/1653410390

ҳисоблайдилар. Қадимги Хитойда “Билган – сукут сақлайди, билмаган – гапиради” мақоли минг йилардан бери яшаб келмоқда[194].

Маълумки, қадимги Хитой ва Кореяда нотиқлик анъаналарининг ривожланишига унчалик эътибор берилмаган. Конфуций таълимотини олган олим-амалдорлар, одатда, ўз фикрларини ёзма равишда ифодалашган. Ҳукмрон конфуций асилзодаларининг қиёфаси лоқайд, юзи тошдай, ҳеч қандай ифода касб этмаган. Мазкур анъаналар ҳозирги кунда ҳам ўз таъсирини йўқотмаган бўлиб, хитойликлар ва корейслар иложи борича кам гапиришга, ўз фикрларини очиқ ифодаламасликка ҳаракат қилишади.

Кўринадики, Шарқ маданиятида саволга жавоб бермаслик, сукут сақлаш мулоқотнинг узилиши бўлмай, аксинча, ижтимоий-маданий алоқанинг муҳим таркибий қисми ҳисобланади. Айни пайтда, АҚШда суҳбат жараёнидаги тўхтам салбий қабул қилинади ва у суҳбатдошнинг ғашини келтиришга сабаб бўлади.

Турли маданиятларда мазкур маданият вакилларининг коммуникатив фаолиятида қўлланиладиган белгиларга (бинобарин, вербал воситаларга ҳам) фарқли муносабат кўрсатилади. Жумладан, Ғарбда нотиқлик санъатининг қадимги анъаналари вербал хабарларнинг ниҳоятда муҳимлигини тақозо этади. Ушбу анъана ғарбликларнинг мантиқий, рационал ва аналитик тафаккурини тўлиқ акс эттиради. Ғарбий халқлар маданиятида нутқ суҳбат вазиятига боғлиқ бўлмаган ҳолда қабул қилинади. Шунинг учун нутққа ижтимоий-маданий вазиятдан ташқарида, алоҳида қараш мумкин. Бунда коммуникация жараёнида оғзаки ифодасидан муносабати маълум бўлган сўзловчи ва тингловчига икки мустақил субъект сифатида қаралади.

Аксинча, Шарқ маданияти учун ижтимоий-маданий вазият катта аҳамият касб этади. Сўз мулоқот иштирокчиларнинг шахсий хусусияти, характери ва уларнинг шахслараро муносабатини тўлалигича ўз ичига оладиган коммуникатив контекстнинг таркибий қисми саналади. Шу тариқа мазкур маданиятларда вербал ифодалар ахлоқ, психология, сиёсат ва ижтимоий муносабатлар билан чамбарчас боғланган коммуникатив жараённинг таркибий қисми ҳисобланади. Мазкур маданият вакиллари барча қайд этилган омиллар сўзловчининг фақат индивидуал ёки шахсий мақсадларининг ифодасигина бўлмай, балки улар ижтимоий мувофиқлашишга ва уйғунлашишга ёрдам беради, деб ҳисоблашади. Шарқ маданияти вакиллари қўлланилган сўзлар ва уларнинг аниқ маънолари мутлақо бошқа нарсаларни ифодалаши мумкинлигини жуда яхши билишади. Шунинг учун ҳам шарқий

[194] Фалькова Е.Г. Межкультурная коммуникация в основных понятиях и определениях. Методическое пособие. СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. С. 44-46.

DOI: 10.36078/1653410390

маданиятларда оғзаки ифодаларнинг тузиш техникасига эмас, балки суҳбат иштирокчиларининг жамиятдаги мавқеини белгилайдиган мавжуд ижтимоий муносабатларга мос бўлган талаффуз тарзига эътибор қаратилади. Шу боис Шарқ маданиятида сўзнинг кучига ҳар доим ишониб келган ғарбликлардан фарқли ўлароқ, сўзларга ишончсизлик анъанаси юзага келган[195].

Узоқ Шарқ маданиятида (хитой, корейс, япон маданиятида) “инкор” ёки “йўқ” тушунчаларини ифодалашга жуда эҳтиёткорлик билан ёндашилади. Узоқ Шарқ тилларида сўзлашувчилар соатлаб давом этган суҳбат чоғида ўз фикрларини аниқ ва лўнда ифода этмасликлари мумкин. Бинобарин, уларни ўзаро алоқадаги маълум сўз ва ифодаларнинг маъносидан кўра кўпроқ ҳиссий томони, назокат жиҳати қизиқтиради.

Турли маданиятларда суҳбатдошга қандай мурожаат қилган маъқул? Мурожаатда унинг исм-шарифи, унвони, даражаси ёки назокат воситаларидан фойдаланиш керакми? Саломлашиш, хайрлашиш, узр сўрашда қайси вербал қолипларни қўллаш мақсадга мувофиқ?

Мурожаат шакллари сўзловчининг тингловчига ўзаро муносабатини, ҳурматини ва унинг маданият даражасини ифодаловчи воситалардан бири ҳисобланади. Шарқ маданиятининг, айниқса, расмий мурожаат шаклларида ҳурмат белгиси кучли бўлиб, шахснинг мавқеи, мансаби, лавозими, вазифаси, касб-кори, унвони ва ёшига кўра даражаланиш кузатилади. Жумладан, корейс тилида энг олий даражадаги ҳурмат шакли сифатида “Зоти олийлари”, “Жаноби олийлари” маъносида *Kakha* сўзи ишлатилади: *Kakha Detóngryong* (Президент Жаноби олийлари)[196]. Ёки хитой тилида Si Ju Si (раис // Si) (Муҳтарам Раис Жаноблари) деб қўлланилади. Ўзбек тилида Президентга нисбатан Муҳтарам Президент (ёки Шавкат Миромонович), деб мурожаат қилинади. Баъзан ўзбек маданиятида ҳатто Президентнинг исмига “ака” сўзини қўшиб мурожаат қилиш ҳоллари ҳам кузатилади. Бундай ҳолат бошқа маданият вакиллари учун лингвистик шокни юзага чиқариши мумкин. Негаки, бошқа маданиятларнинг расмий мулоқотида “исм+ака” ёки “исм+опа” қолипидаги мурожаат шаклини ишлатиш мумкин эмас. “Исм+ака” ёки “исм+опа” қолипидан фақат қариндош-уруғ ёки ўта самимий муносабатлардагина фойдаланиш мумкин.

[195] Болдырев В.Е. Введение в теорию межкультурной коммуникации. Курс лекций. М.: Русский язык, 2009. С. 36-37.

[196] Усманова Ш., Каланова Д. Ўзбек ва корейс тилларида расмий мурожаат шакллари // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. III. Тошкент: 2012. Б. 162-163.

DOI: 10.36078/1653410390

Барча маданиятларда мулоқотга киришиш ёки суҳбатга тортадиган стандарт мавзулар мавжуд. Масалан, америкаликлар учрашганда кўпроқ об-ҳаво ва сиёсат ҳақида, японлар эса об-ҳаво ва тил ҳақида гаплашишади[197]. Ўзбеклар “бола-чақадан” гап очсалар, хитойликлар “Овқат едингизми?” (你吃饭了吗? – Ni chi le ma?), деб саломлашишади. Мазкур стандарт мавзуни корейс маданиятига ҳам кўчганини кузатиш мумкин. Корейс маданиятида саломдан кейин (식사하셨어요? – Shiksa hashyossoyo?), ёки “Овқат едингми?” (밥먹었어? – Bab mokosso?), деб сўраш анъанага айланган[198].

Саломлашишнинг мазкур тури хитойликларнинг миллий менталитетида қандай пайдо бўлгани кишини ўйлантириб қўяди. Одатда, хитойликларнинг овқатга бўлган бундай шинавандаликларини Хитойда узоқ йиллар давом этган очарчилик билан изоҳлаш мумкин. Дарҳақиқат, қурғоқчилик, сув тошқинлари, чигиртка балоси ва ҳ.к. офатлар Хитой аҳолисини мунтазам равишда қийнаб келган. Олимларнинг ҳисоблашларича, эрамиздан аввалги 108 йиллардан то 1911 йиллар оралиғида Хитойда 1828 та озиқ-овқат фожиаси кузатилган. Қаҳатчилик йилларида хитойликлар заҳарли чўчқа ёнғоғи (дуб дарахтининг меваси), тош увоқлари ва бошқа еб бўлмайдиган нарсаларни истеъмол қилишга мажбур бўлишган. Тиланчилар Хитойда “овқатга муҳтожлар”, деб номланган ва улар бирон егулик топиш умидида шаҳар кўчаларида идиш кўтариб тентираб юрганлар. Ғарблик миссионерларнинг қайд этишича, ҳатто хитой тили курслари “овқат” ва “озиқ-овқат” сўзлари билан бошланган. Кўп деҳқонлар ўз болаларини озиқ-овқат учун сотиб юборганлар. Бироқ хитойликларнинг овқатга бўлган алоҳида эътиборининг ягона сабаби фақат тарихдаги очарчилик ҳисобланмайди. Зеро, овқат хитойликлар учун ҳаётнинг ҳақиқий лаззати ҳам саналади[199]. Хитойлик донишмандлардан бири: “Агар биз бирон нарсага жиддий ёндашадиган бўлсак, у ҳолда динга ёки билимга эмас, балки овқатга шундай ёндашамиз”, деб ёзган эди[200]. Қадимги юнонликлар яшаш учун ейиш керак деб ҳисоблаган бўлсалар, хитойликлар ейиш учун яшашларини тан олишади.

---

[197] Сибата Такэси. “Нихонго-сайхаккэн”-сайсюниацу (Возобновление [передачи] “Новое открытие японского языка”) // Г. 1984, № 2. С. 2.

[198] Усманова Ш. Хитой лингвомаданиятида тановул қилиш таомилининг ўзига хос хусусиятлари // Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari: filologiya, falsafa, tarix, iqtisod va siyosat. XII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, TDSHI, 2015 yil 28 noyabr. B. 31-36.

